ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 3, Issue 11 2025

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 11 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

ТОМ 3, НОМЕР 11

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 11

ТОШКЕНТ-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
№11 (2025) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-11

Бош муҳаррир: | Главный редактор: Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)
Axmedov Oybek Saporboyevich
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O'rozboyev Abdulla Durdibayevich
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM
Kalandarov Oybek Ruzimbayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
Yakubov Muzaffar Kamildjanovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
Galiyeva Margarita Rafaelovna
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Nasrullayeva Nafisa Zafarovna
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti
Cho'ponov Otanazar Otojonovich
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti
Yakubova Matluba Tajibayevna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
Samandarova Lola Sultanovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)
Cho'ponov Otanazar Otojonovich
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti
Ruzmetov Surojbek Allaberganovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)
Yakubova Matluba Tajibayevna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)
Matnazarov Javlanbek Kabulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI
Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev
Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi
Ashirov Adhamjon Azimbayevich
Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti.
Goncharov Yuriy Mixaylovich
Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya
Shaydurov Vladimir Nikolayevich
Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya
Abdullayev Utkir Ismoilovich
Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti
Matkarimova Sadoqat Maqsudovna
Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
Abdullayev Timur Pulatovich
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
Abdalov Umidbek Matniyazovich
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM
Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna
Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti
Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI
Shoumarov G'ayrat Baxromovich
Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi
Kryukova Tatyana Leonidovna
Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich
Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI
Ruzmetov Baxtiyar
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM
Sherov Alisher Bakberganovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor
Ma'mun Universiteti NTM
Voronsova Yuliya Vladimirovna
Iqtisodiyot fanlari nomzodi
Moskva davlat boshqaruvi universiteti
Jabborov Umarbek Rustambekovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
Cho'ponov San'at Otanazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
Niyazmetov Islambek Masharipovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI
Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
Matnazarov Javlanbek Kabulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
Adilov Zafar Yunusovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich
Psixologiya fanlari doktori, professor
Yaroslav davlat pedagogika universiteti
Xazova Svetlana Abduraxmanovna
Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya
Kalandarova Madina Baxadirovna
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI
Yuldashev Baxrom Sobirjanevich
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
Abdullayev Ravshanbek Babajonovich
Tibbiyot fanlari doktori, professor
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
Esamuratov Aybek Ibragimovich
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
Samandarova Barno Sultonovna
Biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
Tajiyeva Zebo Baxodirovna
Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
Nazarova Maloxat Berdiboyevna
Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna
Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI
Sultanov Samandar Maxmud o`g`li
Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)
Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Са ,ифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1. Чупонов Отаназар Отажонович.
СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСОЛЬСКИХ КНИГ ПО СВЯЗЯМ РОССИИ С ХИВОЙ И БУХАРОЙ XVII ВЕКА.....8

2. Toirova Zubayda Omongaldiyevna.
ASAD DILMUROD ASARLARIDA XRONOTOP SHAKLLARI.....14

3. Suyunova Dildora Sadriddin qizi.
QO‘SHIN TURLARIGA OID AYRIM ASKARIY QISM NOMLARINING YASALISHI.....18

4. Аблаева Надира Кадамжановна.
РОЛЬ КУЛЬТУРНОГО КОНТЕКСТА В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА: ЯЗЫКОВАЯ АДАПТАЦИЯ И СОХРАНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ……..23

5. Jammatova Maqsuda Sharipovna.
ULUG‘BEK HAMDAMNING “MUVOZANAT” ROMANIDA BIRINCHI O‘LIM TASVIRI….29

6. Kuryozova Dilfuza.
MUNIS TARJIMASIDAGI “RAVZATU-S-SAFO” ASARI MUQADDIMASIDA AYRIM ILMIY-FALSAFIY VA DINIY-IRFONIY ATAMALARNING LISONIY TALQINI.....32

7. Matyakubov Xakimboy Xamidjanovich.
A GENERAL OVERVIEW OF THE HISTORICAL ANALYSIS OF UZBEK ONOMASTIC UNITS.....36

TARIX

1. Раҳматов Хуршид Толиддин ўғли.
ЎЗБЕКИСТОН ВА БИРЛАШГАН АРАБ АМИРЛИКЛАРИ ЎРТАСИДАГИ КЎП ҚИРРАЛИ ҲАМКОРЛИКНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ.....41

2. Саидов Ш.Ж.
ХИВА - РОССИЯ МУНОСАБАТЛАРИ: “ХИВА МАСАЛАСИ” (XVIII-XX аср бошлари).....46

3. Salimov Matyusuf Kodirberganovich.
XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA’LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....50

4. Shomuratov Otojon Xamidovich.
ANUSHTEGIN XORAZMSHOHLAR DAVRI IJTIMOIY HAYOTIDA XORAZM VOHASI SHAHARLARINING O‘RNI.....54

5. Умид Бекмуҳаммад.
ЖАДИДЧИЛИК ФЕНОМЕНИ ВА УНИНГ ТУРКИЙ МУСУЛМОН ХАЛҚЛАР ҲАЁТИГА ТАЪСИРИ.....58

6. M.I. Atajanov.
QADIMGI XORAZM SHAHARLARI AHOLISINING TURMUSH TARZIGA OID BA`ZI MULOHAZALAR.....67

7. Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li.
QUYI AMUDARYO VA ZARAFSHON HUDUDINING PALEOGEOGRAFIK SHAROITI, XO‘JALIK-MADANIY TIPLAR VUJUDGA KELISHI MASALASI BO‘YICHA MULOHAZALAR.....72

8. Raxmanova Shirin.
XORAZM ZIYORATGOHLARINING MAHALLIY URF-ODATLAR SAQLANISHIDAGI ROLI.....76

9. Matyaqubov T.
OQCHADARYO XAVZASIDA NEOLIT DAVRI SO‘NGGI BOSQICHI KULOLCHILIK TARIXI XUSUSIDA.....80

10. Kamolova Nargiza Polatbayevna.
O‘RTA OSIYO AN’ANAVIY DEHQONCHILIGINING XONLIKLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI……83

11. Otamuradova Roviyajon.
MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA MODDIY VA NOMODDIY MADANIY MEROS OB’EKTLARINING MUHOFAZA QILISH KO'LAMINI KENGAYTIRISH.....89

12. Eshchanov Hurmat Matnazarovich.
O‘ZBEKISTONNING MADANIY-XO‘JALIK HUDUDLARIDA BRONZA DAVRI MUDOFAA INSHOOTLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK IZLANISHLAR NATIJALARIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR.....93

13. Madaminov Obidjan Zoirjon o‘g‘li.
O‘ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK YILLARIDA XALQARO TRANSPORT LOYIHALARIDAGI ISHTIROKI VA UNING DAVLAT IMIJINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI.....96

14. Матниёзов Машхурбек Рустамович.
ХОРАЗМ ВОҲАСИДА ХОНЛИК ВА ЯРИМ МУСТАМЛАКА ДАВРИДА КЕМАЧИЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.....101

15. F.B.Jumaniyazov.
XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASIDA AGRAR SIYOSATI VA UNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY AHVOLIGA TA’SIRI.....109

16. Ilhomov Kamron.
DUNYOVIY DAVLATCHILIK KONSEPSIYASI VA UNING TARIXIY JIHATLARI……117

17. Xasanov Zafar Baxtiyorovich.
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA FUTBOL MUHLISLARI NUTQINING XUSUSIYATLARI….....121

18. Наврузов Сапарбой.
ПУТЕШЕСТВЕННИКИ И УЧЕНЫЕ О ВНУТРЕННЕЙ И ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛЕ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА XIX—НАЧАЛА XX ВЕКА (Историография проблемы).....124

IQTISOD

1. Mirziyo Rayimberganov.
THE ECONOMIC IMPACT OF WHEAT USE AND EXPENDITURE AMONG WOMEN IN KHOREZM, UZBEKISTAN.....129

2. Vaisov Dilshod Ibodullayevich.
O‘ZBEKISTONDA TIBBIY XIZMATLARNING IDORALARARO TASNIFLANISHI VA UNING RAQOBATBARDOSHLIKNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI.....134

TIBBIYOT VA PSIXOLOGIYA

1. Бабаджанова Фания Рашидовна., Рахимова Чаросхон Ғолиб қизи.
ВЗАИМОСВЯЗЬ ФАКТОРОВ И ЭФФЕКТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ ГРУДНОГО ВСКАРМЛИВАНИЯ ПОСЛЕ ЕСТЕСТВЕННЫХ РОДОВ……...141

2. M. Babajanov., B. Raximov.
OPTIMAL DIQQAT DARAJASINING PSIXOLOGIK, KOGNITIV VA EMOTSIONAL JARAYONLARGA TA’SIRI.....147

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

FILOLOGIYA
УДК 811. 161. 1'36'09

Чупонов Отаназар Отажонович,
доктор филологических наук, профессор
Ургенчский государственный университет им. Абу Райхана Беруни
ORCID: 0000-0002-3335-592X

СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСОЛЬСКИХ КНИГ ПО СВЯЗЯМ РОССИИ С ХИВОЙ И БУХАРОЙ XVII ВЕКА

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

АННОТАЦИЯ

В статье представлен комплексный анализ синтаксических особенностей русской деловой письменности XVII века на материале скорописных текстов посольских книг по связям России с Хивой и Бухарой. Актуальность исследования обусловлена недостаточной изученностью синтаксиса деловых памятников указанного периода. Цель работы – выявление и системное описание специфики синтаксической организации дипломатических текстов, включая типы предложений, функции союзов и частиц, использование устойчивых формул и трафаретов, а также взаимодействие книжных и разговорных элементов.

Ключевые слова: исторический синтаксис, деловая письменность, посольские книги, дипломатический дискурс, синтаксические трафареты, сложное предложение, союзы.

Cho‘ponov Otanazar O‘tajonovich,
filologiya fanlari doktori, professor
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

XVII ASRDAGI ROSSIYANING XIVA VA BUXORO BILAN ALOQALARI BO‘YICHA ELCHILIK KITOBLARINING SINTAKSIK XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XVII asr ish yuritishga oid yozma manbalarining sintaktik xususiyatlari **Rossiyaning Xiva va Buxoro bilan aloqalari bo‘yicha elchilik** kitoblari matnlari asosida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shu davrga oid ish yodgorliklarining sintaksisi yetarlicha o‘rganilmaganligi bilan izohlanadi. Ishning maqsadi diplomatik matnlarning sintaktik tuzilishiga xos xususiyatlarni aniqlash va tizimli tadqiq qilishdan iborat bo‘lib, unda gap turlari, bog‘lovchi va yuklamalarning funksiyalari, turg‘un formula va trafaretlarning qo‘llanilishi hamda kitobiy va so‘zlashuv nutqi elementlarining o‘zaro ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy sintaksis, ish yuritish yozuvi, elchixona kitoblari, diplomatik diskurs, sintaktik трафаретlar, qo‘shma gap, bog‘lovchilar.

Otanazar Chuponov,
Doctor of Philological Sciences, Professor
Urgench State University named after Abu Raykhan Beruni

SYNTACTIC FEATURES OF DIPLOMATIC DOCUMENTS ON RUSSIA'S RELATIONS WITH KHIVA AND BUKHARA IN THE 17th CENTURY

ABSTRACT

The article presents a comprehensive analysis of the syntactic features of 17th-century Russian administrative writing based on cursive texts from diplomatic books documenting Russia's relations with Khiva and Bukhara. The relevance of the research is determined by the insufficient study of the syntax of business documents from the specified period. The aim of the study is to identify and systematically describe the specific syntactic organization of diplomatic texts, including sentence types, the functions of conjunctions and particles, the use of fixed formulas and templates, as well as the interaction of bookish and colloquial elements.

Keywords: historical syntax, administrative writing, diplomatic books, diplomatic discourse, syntactic templates, complex sentence, conjunctions.

ВВЕДЕНИЕ. Изучение исторического синтаксиса русского языка в большей степени проводилось на материале памятников XVIII в.[1; 3; 9; 12; 13]. Исследований синтаксических особенностей памятников русской деловой письменности XVII в. существует в недостаточном количестве [8; 11]. Поэтому анализ ранее не рассмотренных в плане синтаксического содержания скорописных текстов посольских книг по связям России с Хивой и Бухарой XVII в., хранящиеся в Российском государственном архиве древних актов [5; 6; 7], представляет большую ценность, поскольку они позволяют создать объективную картину функционирования русского языка в период формирования русской нации.

Тексты посольских книг неоднородны. Об этом говорят сами факты: цель и время пребывания посольства, официальные послания ханов и царей, отписки воевод русских городов, челобитные официальных и служилых лиц, отрывки статейных списков русских посланников, расспросные речи, протоколы чина (аудиенций) по приему и отпуску хивинских и бухарских послов, указы, памяти, доклады, старинные русские переводы ханских ярлыков, челобитных их послов, гонцов, росписи ханских и посольских подарков.

«Важными качествами любого делового текста являются атрибуция факта, документальность сведений, изложенных в источнике, его авторство» [4]. Подобные факты, отражающие действительность событий относительно взаимоотношения России с Хивой и Бухарой, имеют неоценимое значение. Материалы, содержащиеся в текстах рассматриваемых нами посольских книг, показывают, что степень подготовки и уровень владения авторов деловых документов русским языком были разными. Для того чтобы иметь представление о характере самых текстов посольских книг, переходим к рассмотрению их синтаксических особенностей.

Прямая речь как синтаксическая константа дипломатического дискурса

Содержание посольских книг в определенной мере определяет синтаксическую организацию текста. Для передачи словесной информации часто использовалась прямая речь. Сам процесс «ведения переговоров уже определял форму языкового общения, в которой на дипломатической арене выступали две стороны: говорящий субъект и объект. Обычно к таким диалогам предшествует небольшое вступление, состоящее из двусоставного предложения (подлежащее + сказуемое), начинающегося с сочинительного союза» [4]. В качестве глагольной части использовались чаще всего такие формы, как спрашивать, сказать, (учал) говорить (выговаривать), молвить. Обратимся к примерам:

ПКРХ1: «А кормu имъ присланw на /Г/ дн%и по /F/ лепешокъ да по боранu и он Іванъ о кормu выговаривалъ что они перед их юргенскимъ послом которой был у великого гсдря у его цр%скогw величества на Москвё в кормu і в подводах оскижены потому что по uказу

великог гсдря его цр%ского величества послu их великого гсдря жаловане поденнои кормъ и питье какъ на Москвё такъ і в дороге в оба пuти даван доволной» (лл. 9 – 9 об.);

«Да он же Иванъ ханu говорилъ, вёдомо великому гсдрю его цр%скому величеству учинилос, что въ Юргенчахъ многие рuские люди в полону да и онъ Иванъ многих рuских людеи видёл и чтоб онъ ханъ для цр%ского величества дрижбы и любви тёхъ полоняников велёлъ отпuстит с нимъ Иваномъ;

И ханъ де емu Ивану говорил об отпuске де полону чаять он с статисневозможно, потомu что покuпной а не воиною взятъ, а об отпuске в городы его Івана s ближними людми онъ хан помыслит и отпuстили ево Івана на постоялой двор» (лл. 12-12 об.).

ПКРХ2: «И сказать ему что указали великие гсдри быти ему u себя великихъ гсдреи на дворё на приёзде і видёть свои гсдрские пресвётлые очи» (л. 38).

ПКРБ: «И думной дьяк молытъ Моллофор великиу гсдрь его црское величествw жалuетъ тебя к своей црской рuкё» (л. 19 об.).

Таким образом, большое внимание в дипломатических документах, в частности, посольских книгах, следует уделять прямой речи, являющейся одной из текстовых констант («неизменяемая дипломатическая формула»). Именно благодаря ее выразительной форме можно иметь представление о достижениях и неудачах миссии послов, тактике ведения переговоров.

Устойчивые синтаксические формулы (трафареты)

В текстах посольских книг фиксируется немалое количество языковых элементов – сочетаний слов, ставших трафаретными элементами русской деловой письменности:

ПКРХ1: великиу гсдрь цр%ь і великиу кн%зь, всеа Великия и Малы\ и Бёлыя Росиу самодержецъ, великого гсдря указу, великого гсдря жалованье (л. 3 об.), посолскимъ людемъ, хановымъ людемъ, поденной кормъ (л. 2), любителнымъ поминкомъ (л. 3 об.);

ПКРХ2: бл%женные памяти (л. 8), мы холопи в%ши (л. 17 об.), великим гсдремъ цр%емъ і великим кн%земъ Iwannu Алеqёевичю Петрu Алеqёевичю всеа Великия і Малыя і Бёлы\ Росиу самодержцемъ (лл. 17 об. – 18); указали великие гсдри быти ему u себя великихъ гсдреи на дворё на приёзде (л. 38);

ПКРБ: и гсдрю блгвёрному цр%вчю і великомu кн%зю Феодорu Алеqёевичю всеа велики\ и малыя и бёлыя Росиу (л. 1), указал великиу гсдрь (л. 6 об), в стола мёсто ёствы и питья (л. 14 об.), пресвётлые гсдрские очи видёли (л. 49 об.)

Как правильно замечает Н.И.Тарабасова, «в рамках одного и того же трафарета свободно функционировал и официальный язык, и повседневная разговорная речь» [10, 164].

Взаимодействие книжного и разговорного синтаксиса: роль частицы де

Тексты посольских книг дают богатый материал, свидетельствующий об активном проникновении элементов обиходной речи в дипломатические документы. Показательно, что для придания разговорного (а значит, надо полагать, документального) характера в предложениях употребляется частица де, ставшая непременным атрибутом утилитарной (лат. utilitas — «польза») письменной культуры:

ПКРХ1: «А как де он Иван в Хивu приёхал и ханъ имал ево перед себя и говорил емu которые де рuские люди живutъ у подданных ево и тёх людеи привоsят и продаютъ дорогою ценою и емu де хану своего владёнь\ у подданных отнят кuпленых людеи нелзё потомu что имъ то бudет в оскорбленье и отдал емu Івану к великомu гсдрю грамоtu и отпuстил ево хан изь Юрьгенчь сентября въ Гі де а подвод и кормu им не данw и ёхал онъ Иван с товарыщи на наемных подводах до uлuсовъ Даичина тошши а кочевал де Даичин тошша за Яикомъ рекою от каменног |итцког городка воднище» (лл. 14-14 об.).

ПКРБ: «И посолъ говорилъ товары де u нихъ киндяки да зендени і китайки а камокъ и отласов мало а которые и есть и тё обышные А селитры де в гсдрстве ихъ добрё много и персицкой лutче а продают её в батманы. А батманъ их вёсомъ полтора пuда а кuпят батман на их бuхарские денги по /Е/ алтын а бuхарская копеика противъ рuскихъ /Е/ копеекъ и того бudетъ на рuские денги по /КЕ/ алтынъ

А шолкъ де сырецъ имяниемой паf кuпят на их денги по /В/ рuбли» (ПКРБ, л. 32).

Типы предложений в посольских книгах

В исследуемых текстах функционируют законченные простые, сложноподчиненные предложения с союзными словами и союзами, сложные предложения с союзным сочинением и ограниченно – бессоюзием.

Простые предложения сосредоточены в начальной и заключительной частях текста. Они преимущественно стереотипны и обычно указывают, кому адресован документ:

ПКРХ1: «А о чемъ великому гсдрю црю і великому кнзю Алеqёю Михаиловичю всеа Великия и Малыя и Белыя Росиу самодержцу астараханецъ сын боярскои Іванъ Fедотов бьет челом» (л. 32 об.).

ПКРХ2: «В ннешнемъ во РЧВм году по указу великих гсдрей црей і великих кнзей Iwанна Алеqёевича Петра Алеqёувича всеа Великия и Малыя и Белыя Росиу самодержцевъ велено отпустить с Москвы хивинского Анавшмамбеть хана посла Имбреим бёкаа снимъ послать в провожатых от Москвы до Астарахани астараханца сна боярского Fедосья Логинова» (л. 97 об.).

Широко представлены безличные конструкции, сказуемое в которых чаще всего выражается кратким страдательным причастием: писано, послу отведено место, покрыто:

ПКРХ1: «В нн%ешнемъ во /РОН/м году к великому гсдрю цр%ю і великоmu кн%зю Алеqёю Михайловичю всеа Великия и Малыя и Бёлыя Росиу самодержцu в Астараханскои отписке написано приёхалъ в Астарахань юргенской посолъ а с нимъ хановых и ево посолских людей /ЛЕ/ члвкъ» (лл. 7 об. - 8).

Сложноподчиненные предложения

Как правильно замечает В.В.Виноградов, в деловом языке XVII в. «обозначаются в основном современные типы сложных предложений» [2, 12]. В посольских книгах представлены разнообразные типы придаточных.

1. Определительные придаточные с союзными словами который, кой, каков, что:

ПКРХ1: «да нам же холопемъ твоимъ посолской яса∪л подал роспис fарсовского писма, что к тебё великоmu гсдрю ханъ писал любителных поминков» (л. 1 об.);

ПКРХ1: «а велёли имъ тот кормъ и питьё давать до твоего великог гсдря uказу по томu в статейном гсдрь списки нн%ешняго /РОН/г году астараханца Івана Fедотева с товарищи, которые с твоими, великого гсдр\ грамоты, и для твоихъ гсдрвыхъ дёлъ посыланы были» (л. 2 об.).

2. Изъяснительные (дополнительные) придаточные с союзами что, чтоб:

ПКРХ1: «И Іванъ говорил чтоб онъ ханъ в те городы гдё шолкъ сырецъ делаютъ и в иные городы для проведывани\ торгов позволил emu ёхать (л. 12);

ПКРХ1: «А полоняники сказали что окuпил де их астараханецъ Іван Fедотевъ а что за нихъ окuпу далъ и про то не вёдаютъ» (л. 37).

3. Временные придаточные с союзом как:

ПКРХ1: «А какъ великиу гсдрь изволитъ послu итти к себё великому гсдрю, и emu итти площадю вверхъ середнею лёсницою в столовую избu» (л. 64 об.).

4. Условные придаточные с союзом будет:

ПКРХ1: «А бuде о какихъ дёлех посол uчнет великоmu гсдрю бить челом, и emu о томъ объявлять в Посолскомъ ж приказе» (л. 49 об.).

5. Причинные придаточные с союзами потому что, для того что:

ПКРХ1: «И ханъ де emu Ивану говорил об отпуске де полону чаять он с стати невозможно, потомu что покупной а не воиною взятъ (л. 12 об.).

ПКРБ: «И посол говорил то де и дёло что ханъ ихъ давно имёетъ охоту чтоб с црским величествомъ ссылкамъ быть и не допuщали до того калмыцкие ссоры и послать было хану пословъ своих опасно потому что пuть имёютъ чрез uлусы их» (л. 52 об.).

6. Целевые придаточные с союзами для того что (чтоб), чтоб:

ПКРХ1: «А послалъ tи почесть к хану и к ближнимъ людем для того чтоб онъ ханъ и ближние люди об отпuске рuского полону не sаупрямилис» (л. 13).

Функции союзов – и, а, да

Большую роль в организации предложений играют союзы. Границы предложений часто определяются начинательными союзами и, а, да.

Союз (и) характерен для текстов, в которых излагаются новые действия того же самого или другого лица при развертывании повествования:

ПКРХ1: «Цр%ю гсдрю і великомu кн%зю Алеqёю Михаиловичю всеа Великия и Малыя и Бёлыя Росиу самодержцu бьет челом опчеи вш%ъ холопъ юргенского и хивинского Анавша хана посолъ Полванъ хuлыбёчка Агжимаметев... » (л. 144).

Союз (а) подчеркивает внимание к новым фактам, обстоятельствам, особенно характерен для заключительных предложений:

ПКРХ2: «А великих гсдарей жаловань\ тому астараханцу (Федосию Логинову – О.Ч.) ничего не дано» (л. 97 об.).

Союз (да) употребляется в присоединительном значении:

ПКРХ2: «В нн%ешнемъ во /РЧВ/м годu ноября въ /Е/ де приёхал к великимъ гсдремъ к Москве хивинскогw Навшамамъбеть хана посол с листомъ и привез с собою іс Хивы четырех члвкъ полоняников астараханского конного стрелца Василья Петрова да царицынца конного стрелца жь Василья Григорева да нижегородцкого посацкого члвка Кирюшку Костентинова да казанского уёздu степногw татарина Биіска Бекаева…» (л. 24 об.).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Анализ синтаксиса посольских книг по связям России с Хивой и Бухарой XVII века позволяет заключить, что эти тексты отражают переходный этап в развитии русского делового языка – от устойчивых формул официального стиля к живому народно-разговорному синтаксису.

Основными тенденциями являются:

- сохранение традиционных деловых структур (трафаретов) при одновременном проникновении элементов разговорной речи;
- развитие и разнообразие сложноподчиненных предложений, выражающих сложные смысловые отношения (определительные, изъяснительные, временные, причинные, целевые, условные);
- активное использование прямой речи как приема документализации дипломатического общения;
- важная текстообразующая роль союзов (и, а, да) и частиц (де), структурирующих повествование и вносящих в него элементы разговорности;
- сосуществование книжных и разговорных конструкций в едином грамматическом поле, что отражает общерусские процессы формирования национального литературного языка.

Рассмотренные материалы позволяют уточнить представления о формировании синтаксической системы русского языка в XVII веке и её жанровом разнообразии.

Список литературы

1. Бурдина Н.И. Сложные предложения со значением следствия в истории русского языка (по памятникам XI – пер. пол. XVIII вв.): Дисс. … к. филол. н. – Казань, 1971. – 320 с.
2. Виноградов В.В. Вопросы образования русского национального литературного языка // Вопросы языкознания. – М.: Наука, 1956. - № 1. – С. 3-25.
3. Дюсупова Т.В. Сложноподчиненные предложения в малых жанрах деловой и эпистолярной письменности XVII – нач. XVIII вв.: Дисс. … к. филол. н. – Воронеж, 1981. – 220 с.
4. Никитин О.В. Деловой язык русской дипломатии XVI–XVII вв. // https://portal-slovo.ru/philology/44618.php
5. Посольская книга по связям России с Бухарой 1669–1675 гг. // Российский государственный архив древних актов, фонд. 109, опись 1, 1675 год, книга I (ПКРБ).

6. Посольская книга по связям России с Хивой 1670–1673 гг. // Российский государственный архив древних актов, фонд. 134, опись 3, 1670 год, книга I (ПКРХ1).

7. Посольская книга по связям России с Хивой 1682–1684 гг. // Российский государственный архив древних актов, фонд. 134, опись 3, 1682 год, книга II (ПКРХ2).

8. Собинникова В.И. Типы предложений в малых жанрах Воронежских рукописных памятников конца XVII в. // История русского языка и лингвистическое источниковедение. – М.: Наука, 1987. – С. 199-205.

9. Сумкина А.И. Зависимость синтаксического строя некоторых памятников деловой письменности XVIII в. от их содержания // История русского языка. Памятники XI–XVIII вв. – М.: Наука, 1982. – С. 232-257.

10. Тарабасова Н.И. О некоторых особенностях языка деловой письменности // Источниковедение и история русского языка. – М.: Наука, 1964. – С.157-172.

11. Уханов Г.П. Синтаксис «Хожения Афанасия Никитина за три моря»: Автореф. дисс. к. филол. н. – Калинин, 1952. – 18 с.

12. Чередниченко А.П. Сложные синтаксические конструкции в деловом языке второй половины XVIII в. (По материалам государственного архива Челябинской области). – Челябинск: ЧГПИ, 1989. – 32 с.

13. Шулежкова С.Г. Устойчивые словосочетания в языке официально-деловых документов уральских крепостей XVIII в.: Автореф. дисс. … к. филол. н. – М., 1967. – 21 с.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Toirova Zubayda Omongaldiyevna
UrDu mustaqil tadqiqotchisi

ASAD DILMUROD ASARLARIDA XRONOTOP SHAKLLARI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNATOTSIYA

Mazkur ilmiy tadqiqotda Asad Dilmurodning adabiy asarlarida xronotop kategoriyasining badiiy-falsafiy mohiyati va uning turli shakllari ilmiy tahlil etiladi va xronotop poetikasi bilan maxsus katta tadqiqot olib borgan rus munaqqidi M.Baxtinning fikr-mulohazalri keltirib o‘tilgan. Tadqiqot davomida yozuvchining “Pahlavon Muhammad” romanidagi matn yaratish uslubiga xos bo‘lgan vaqt va makon uyg‘unligi, syujet rivojidagi xronotopik o‘zgarishlar hamda personajlar taqdirini belgilovchi zamon-makon tizimlari o‘rganiladi. Shuningdek, Asad Dilmurod tomonidan qo‘llangan tarixiy, maktub, shahar va yo‘l xronotop modellari badiiy matnning mazmuniy qatlamlarini kengaytirishi, voqelikni idrok etish jarayonini chuqurlashtirishi va o‘quvchi estetik tajribasiga ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi. Maqola xronotop fenomenining nazariy talqinlariga tayangan holda muallif poetikasida vaqt va makonning funksional vazifasini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, Asad Dilmurod ijodining badiiy olamida xronotop shakllarining o‘ziga xosligi va innovatsion jihatlarini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy roman, badiiy xronotop, makon-zamon, tarixiy shaxs, yo‘l xronotopi, uchrashuv xronotopi, konsepsiya.

АННОТАЦИЯ

В данном научном исследовании научно анализируется художественно-философская сущность категории хронотопа и ее различных форм в литературных произведениях Асада Дилмурода, приводятся взгляды российского критика М. Бахтина, который провел специальное масштабное исследование поэтики хронотопа. В ходе исследования изучается гармония времени и пространства, присущая стилю создания текста писателя в романе «Пахлавон Мухаммад», изучаются хронотопические изменения в развитии сюжета, пространственно-временные системы, определяющие судьбы персонажей. Также научно показано, что используемые Асадом Дилмуродом исторические, буквенные, городские и дорожные модели хронотопа расширяют содержательные пласты художественного текста, углубляют процесс восприятия действительности, влияют на эстетический опыт читателя. Цель статьи – определить функциональную роль времени и пространства в поэтике автора на основе теоретических интерпретаций феномена хронотопа, а также выделить своеобразие и новаторские аспекты форм хронотопа в художественном мире произведений Асада Дильмурода.

Ключевые слова: исторический роман, художественный хронотоп, пространство-время, историческая личность, хронотоп дороги, хронотоп встречи, концепт.

ABSTRACT

Abstract. This scientific study scientifically analyzes the artistic and philosophical essence of the chronotope category and its various forms in the literary works of Asad Dilmurod, and cites the views of the Russian critic M. Bakhtin, who conducted a special large-scale study of the poetics of chronotope. During the study, the harmony of time and space inherent in the writer's style of text creation in the novel Pahlavon Muhammad, chronotopic changes in the development of the plot, and time-space systems determining the fate of the characters are studied. It is also scientifically shown that the historical, letter, city and road chronotope models used by Asad Dilmurod expand the content layers of the literary text, deepen the process of perception of reality, and affect the aesthetic experience of the reader. The article aims to determine the functional role of time and space in the author's poetics, based on theoretical interpretations of the chronotope phenomenon, and highlights the uniqueness and innovative aspects of chronotope forms in the artistic world of Asad Dilmurod's work.

Keywords: Historical novel, artistic chronotope, space-time, historical figure, road chronotope, meeting chronotope, concept**.**

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Har qanday badiiy voqelik makon va zamon bag‘rida qoimdir. Uch o‘lchamli olam tartibotlari eng kichik zarradan – ulkan borliqqa qadar ritm bilan harakatlanadi. Oddiy zarraning ham o‘z mohiyati bo‘lgani kabi, makon, zamon va uning ichida ro‘y berayotgan har bir voqelikning suratlanishi – ong, his va tafakkur bilan bevosita o‘lchanadi.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Maqolada qiyosiy-tarixiy, madaniy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, psixologik, struktural tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, folklor namunalari, epik dostonlar va zamonaviy akademik tadqiqotlar asos sifatida o‘rganildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Tarix va adabiyot bir-biriga chambarchas bog‘liq. Zero, ular biri ikkinchisini to‘ldirib, jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Tarix muayyan makon va zamon, ma’lum shaxslar hayoti bilan bog‘liq voqealar haqidagi real ma’lumotlarni o‘zida mujassam etsa, badiiy adabiyotning vazifasi o‘zgacharoq. Chunonchi, badiiy adabiyot muayyan tarixiy hodisa yoki shaxslar kechmishini badiiy jihatdan sayqallab, ohorli, tashbih va metaforalar orqali tasvirlaydi. Ijodkor asarida tarixiy jarayon va tarixiy shaxs faoliyati bilan bog‘liq tasvirlarda o‘ta mubolag‘ali chizgilardan ham foydalanish mumkin” [4.32]. Binobarin, Asad Dilmurod o‘zining xoh u tarixiy, xoh u zamonaviy yo‘sinda bo‘lsin, izlanishlarida tarix va bugunning og‘riqli masalalarini imkon qadar real hayot bilan chambarchas bog‘liq holda gavdalantirishga qat’iy e’tibor qaratadi. Xususan, “Pahlavon Muhammad” romanida izchil suratlanayotgan voqealar silsilasi, xuddi fasllar almashinuvi kabi o‘ziga xos tarzda jilvalanadi. Mana shu tamoyil, yozuvchi idrokininng bir-birini to‘ldiruvchi haqqoniy qiyofasi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Tarix – o‘tmishninng emas, bugunning o‘zida ro‘y berayotgandek o‘quvchi qalbida katta qiziqish uyg‘otadi. Qarabsizki, jasur va mard Pahlavon Muhammad shaxsiyatidagi, Amir Alisher zakovatidagi odob va axloq, kamtarlik va bosiqlik, olijanoblik va halimlik kabi insoniy fazilatlarni sevib qolishdan boshqa ilojimiz yo‘q. Mezonlar, qarashlar, talqinlar o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turarkan, mana shu uchlik hamisha inson dunyosining bir tekisdan ketmasligini dalolatlaydi. Yozuvchi o‘zi xush ko‘rgan qahramonlarining ham kuchli va ojiz jihatlarini ayovsiz fosh qiladi. Barcha voqelik Pahlavon Muhammad atrofida sodir bo‘lar ekan, undagi ibratli fazilatlarni boshqa-da obrazlar tabiatiga singdrib yuboradi.

Ushbu tadqiqotda badiiy xronotopning roman strukturasida aks etish modifikatsiyasini quyidagi shakllarda aniqlashga harakat qilamiz. Badiiy xronotop deganda, avvalo, rus munaqqidi M.M.Baxtin qayd etganidek: “Badiiy asarda makon va zamon muammosi, garchi unga qadar ma’lum darajada o‘rganilgan bo‘lsa ham, bevosita “xronotop” termini rus olimi M.Baxtin tomonidan o‘tgan asrning 30-yillarida adabiyotshunoslikka tatbiq etilgan. “Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makonaro uyg‘unlikni xronotop (so‘zma-so‘z tarjimada makon-zamon degan ma’noni bildiradi),deb ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmida (Eynshteynning) nisbiylik

nazariyasi negizida qo‘llab kelindi. Istilohning biz uchun, matematikada qo‘llanadigan, maxsus tushuncha sifatida ahamiyati yo‘q. Uni adabiyotshunoslikka (tom ma’noda bo‘lmasa ham) istiora o‘laroq qabul qilamiz. Biz uchun muhimi, bu o‘rinda istilohning zamon va makonni uyg‘un holatda (zamonning makonning to‘rtinchi o‘lchami sifatida) ifodalashidir. Xronotopni biz adabiyotdagi shakl-mazmun kategoriyasi sifatida talqin qilamiz” [3.234]. Haqiqatdan ham, shakl va mazmun kategoriyasi sifatida talqin qilinayotgan badiiy makonning tarixiy romanda akslanishi juda murakkablik tug‘diradi. M.M.Baxtin antik avantyur yunon romani, eposi timsolida talqin qilgan edi. Bu haqda uning ushbu talqinlari yuqoridagi mulohazalarimizni to‘laqonli quvvatlaydi: “Ko‘pincha adabiyotda uchrashuv xronotopi kompozitsion funksiya bajaradi: ba’zan tugun, ba’zan kulminatsiya, ba’zida esa syujet yechimi vazifasini o‘taydi. Uchrashuv epos (ayniqsa), roman” syujetini tashkil etuvchi o‘ta qadimiy voqelik hisoblanadi. Uchrashuv motivining ayriliq, qochish, erishish, yo‘qotish, nikoh va hokazo o‘zaro makon-zamon aniqligi jihatidan o‘xshash motivlar bilan mustahkam aloqadorligini alohida ta’kidlash joiz. Ayniqsa, uchrashuv motivi turli xil yo‘l uchrashuvlari – yo‘l xronotopi (“katta yo‘l”) bilan muhim bog‘lanishga ega. Yo‘l xronotopida makon-zamon uyg‘unligi mukammal tarzda aniq va yorqin tarzda ochiladi. Adabiyotda yo‘l xronotopining alohida o‘rni bor” [2.60].

Darhaqiqat, tarixiy-biografik, falsafiy-psixologik romanlarda yoki hikoya, qissalarda xronotop shakllari juda ko‘p qirraligi, syujetni to‘laqonli dinamikasini ta’minlaydigan kategoriya, muhim omil ekanidan dalolatdir. Sirasini aytganda, badiiy makon va zamon shakllari ham syujetga, ham kompozitsiyaga, ham xarakterlarning ziddiyatlariga tutashib, ularni bir-biriga payvandlanishiga turtki beradigan fragmentlardan biri hisoblanadi.

Yozuvchi Asad Dilmurodning “Pahlavon Muhammad” romanida – yo‘l xronotopi juda katta epik ko‘lamda kechadigan voqelik konsepsiyasini hal bo‘lishiga sababdir. Chunki Pahlavon Muhammad shaxsiyati bilan bog‘liq voqealar tizmasida yozuvchi universal talqinga murojaat qiladi. Bitta tafsilotni hikoya qilib, ikkinchi bir tafsilotga o‘tish maneraning uzviyligida qabarib ko‘rinadi:

“Go‘dakligida, beshikni tark etib, atak-chechak yura boshlaganda padari bir necha oy onasidan ajratib olgan, toqqa olib ketgan, zax-nam sirqib turadigan nim qorong‘i g‘orda uzluksiz kiyik va kaklik go‘shti bilan boqqan ekan, hatto ayiq va bo‘ri qoni bilan omuxta qilingan ilon moyida yo‘lbars yuragini qovurib berganini aytgani ham esida...

Pahlavon och-nahor tun bo‘yi yo‘l bosdi, tong-ozonda ko‘kka o‘rlayotgan quyuq tutunni va kir etagida tutdek to‘kilib-sochilib yotgan vayronani ko‘rdi! Hayhot! Bu ne ko‘rgilik? Yurak-bag‘ri qiymalangan ko‘yi ko‘zlarini yumib-ochdi. Xudo haqi ko‘zlari sira aldayotgani yo‘q: qachondir padari kushtirgirlar jamoasi boshini qovushtirib qurdirgan qishloq – Polvonota quli ko‘kka sovurilmish! Do‘sti qadrdoni Pahlavon Muhammad Moloniy xatida bitilgan xabarlar bari rostga o‘xshaydi. Xarobalar ichra bir zog‘ yo‘qligiga qaraganda barcha chindan ham qaygadir badarg‘a bo‘lgan, lekin qayga? Nahotki valine’mati ham yoru birodarlari qatoriqi shlog‘idan ixroj qilinmish? Qachondir yot o‘lkalarda xoru zorlikda umr kechirganlari kam edimi, Xalloqi olam?!” [1.16].

Romanning “Buzrukvor” nomli ilk bobida Pahlavon Muhammadning dahshatli quyun orasida qolishi, uning xaloskori faqat Alloh ekanligini, hamda bolaligi, unga birinchi yordam bergan Zulfizarning kutilmaganda paydo bo‘lishi – yo‘l xronotopini reallashtiradi. Yozuvchi ilk asos – syujetning yanada ishonchli chiqishida Pahlavonning otasi, nasl-nasabi, hayot haqidagi o‘zining qarashlarini ifodalarkan, yo‘lga chiqqan qahramonlar tabiatida nimaiki sodir bo‘lsa, o‘sha mezondan turib yoritishga harakat qiladi. Mana shu jihatdan, Asad Dilmurod xronotop poetikasini – Pahlavonning qanday azob va uqubatlarda voyaga yetganini mifopoetik rakursda ochiqlashga e’tiborni kuchaytiradi. Aslida, ota pandini olib katta bo‘lish, Alloh roziligi yo‘lida jihod qilish bilan barobar ekanligini mantiqiy urg‘ulaydi.

Xronotop poetikasi bilan maxsus katta tadqiqot olib borgan rus munaqqidi M.Baxtin: “Tarixiy voqelikdan ajratib bo‘lmaydigan biografik zamon voqelikka nisbatan qaytarilmasdir. Biroq xarakterga nisbatan bunday zamon qaytariluvchan: xarakterning u yoki bu chizig‘i o‘z-o‘zicha sal avvalroq yoki sal keyinroq paydo bo‘lishi mumkin. Xarakter xususiyatlarining o‘zi xronologiyadan xoli, ular zamon aro maydonga keladi. Xarakter o‘zicha o‘smaydi, o‘zgarmaydi. U bor-yo‘g‘i to‘lishadi. Ilk parchalarda nomukammal, ochilmagan xarakter oxirida to‘la ochiladi va

mukammallashadi. Shuningdek, xarakterning ochilishi yo‘li uning tarixiy voqelikka yondosh holatda o‘zgarishga, qayta shakllanishiga emas, balki faqat uning tugallanishiga, demakki, avvaldanoq chizgi berila boshlangan shu shaklni to‘lg‘azishga olib boradi. Plutarx biografik tipi shunday” [2.114]. Jumladan, yozuvchi tarixiy romanni zamonga muvofiqlashtirish barobarida romanning kulminatsion nuqtasida otasi Abusaidning psixologik xarakterini yoritishda ham makonning va zamonning mahsuli ekanligini tanishtiradi. Unda shunday tasvirlar borki, o‘quvchi beixtiyor Pahlavon Muhammadga cheksiz muhabbat bilan qaray boshlaydi va o‘zining og‘asi, qondoshidek munosabatda bo‘ladi:

“Nogoh quloqlari ostida valine’mati Pahlavon Abusaid aytgan bir hikmat jarangladi: “O‘g‘lim, bir tarozi borki, unda tan emas, aqlu idrok tortilur!”Qadrdoni shunday deya sukutga tolgan, qanday tarozi ustida so‘z borayotgani xususida og‘iz ochmagan edi. Bu bilan o‘sha narsa nima ekanini o‘zing bilib olgin demoqchi bo‘luvdi chamasi. Otasi katta ishonch bildirganini keyinroq angladi va ko‘ngli minnatdorchilik hisssi bilan to‘ldi. Ba’zan o‘sha tarozida jaholat yukini ham tortib turish kerakdir, deb qo‘yardi o‘zicha kinoyali kulib. O‘smirlik yoshiga yetganda zoti-zuriyodi taqdiri o‘zi o‘ylagandan ko‘ra murakkabligini bilib, borlig‘i alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib ketgani-chi!. Hayhot! Olis moziy bilan bog‘langan kechmishida chuchukdan ko‘ra achchiq, huzur-halovatdan ko‘ra uqubat, to‘qlikdan ko‘ra ochlik, ro‘shnolikdan ko‘ra zalolat mo‘lroq edi, mo‘lroq!. Afsus! Bularni qaysi taroziga solish kerak, Xalloqi olam!” [1.13].

Ushbu lavhada yozuvchi ota pandu nasihatini yosh Pahlavonga uqtirganini keltirarkan, har qanday vaziyatda iymon va e’tiqod maslagini bir tutish muhimligini ta’kidlamoqda. Negaki, ushbu nutqda yozuvchi va qahramon, muazzim Ota obrazi birlashib, yaxlit bir konseptual manzarani hosil qilmoqda. Jarayon shunga moslashadiki, cho‘lu biyobonda adashib, dovullar tagida qolgan Pahlavonning botiniga Zulfizar kelib iliqlik bag‘ishlaydi. Mana shu o‘rinda – yo‘l xronotopining o‘ziga xos kriteriylarini namoyon qilib, asl maqsad va muddaoga olib boruvchi ruhiy-majoziy olamni chizib ko‘rsatadi. Keyingi yillarda xoh tarixiy, xoh zamonaviy nasr poetikasida yo‘l va yo‘lovchi obrazi ko‘p bora ko‘zga tashlanadi.

XULOSA

Asad Dilmurod nafaqat ramziy-majozi, balki tarixiy romanlar bilan ham o‘z ijodiy tafakkurini namoyon eta oldi. Alisher Navoiy davrini, uning do‘stlari, ayonlari xarakterlarini o‘zida mujassam qila olgan “Pahlavon Muhammad” romani hayotiy ziddiyatlar ajv pallasiga chiqqan davrlarni o‘z ichiga oladi.

Yozuvchi romanda xronotop shakllarini tasvirlar ekan, badiiy makon va zamonning aniqlik prinsipiga munosabat bildiradi. Umuman, badiiy xronotopning o‘ziga xos qirralari adib asarlarida alohida ahamityaga ega. Tarixiy davrni yaxshigina anglagan adib katta umumlashmalar yasay olganligini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Asad Dilmurod. Pahlavon Muhammad. – Toshkent: “Sharq”. 2006.
2.Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – Toshkent., Akademnashr. 2015. –B.114.
3.Бахтин М. Формы времени и хранотопа в романе(Очерки по исторической поэтики) / В кн.: Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики.-М.: Художественная литература, 1975, стр. 234.
4.Quronov D. Zavqimdan bir shingil. – Toshkent: “Akademnashr”. 2014. –B.32.
5.Qurnov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: “Akademnashr”. 2013.
6.Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati.Toshkent., Akademnashr. 2013.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Suyunova Dildora Sadriddin qizi-
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti(PhD)
e-mail: suyunovad28@mail.ru

QO'SHIN TURLARIGA OID AYRIM ASKARIY QISM NOMLARINING YASALISHI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur davlat boshqaruvidagi qo'shin turlarining tarkibi, morfologik jihatdan harbiy atamalarning so'z yasalish (affiksal yoki kompozitsion) tizimi ochib beriladi. Shuningdek, termin tushunchasi, olimlarning ilmiy qarashlari, so'zning ishlatilishi o'z ifodasini topgan. O'zbek harbiy terminologiyasining qadimiyligi, tarixiy-badiiy yozma manbalarda, xususan, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida ham keng yoritilgan. Asardagi harbiy terminlar semantik guruhga asoslangan holda izohlangan. Harbiy atamalarning shakllanishi, ma'nosi izohlab berilgan. "Zafarnoma"da harbiy terminlar bilan bir qatorda harbiy mahorat ko'rinishlari aks etganligi misollar asosida ko'rsatib berilgan. Terminlarning hozirgi o'zbek tiliga munosabati belgilangan. Bu davr harbiy leksikasining aksariyatini turkiy leksemalar tashkil etgani, hozirgi kunga kelib arxaiklashgani qayd etilgan.

Kalit so'zlar: qo'shin tarkibi, lashkar, askariy nom, termin, affiksal termin yasash, kompozitsiya.

Suyunova Dildora Sadriddin kizi-
Doctoral student at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, PhD
e-mail: suyunovad28@mail.ru

FORMATION OF NAMES OF CERTAIN MILITARY UNITS RELATING TO TYPES OF ARMED FORCES

ANNOTATION

This in the article Amir Timur state managed army species composition, morphological in terms of military terms word construction (affixal or composition) system open is given . So, semantic and lexical features of the terms, the scientific views of the scientific is reflected in the using of the words. The antiquity of Uzbek military terminology is widely covered in historical and artistic written sources, in particular, in the work "Zafarnoma" by Sharafiddin Ali Yazdi. Military terms in the work are explained based on semantic groups. The formation and meaning of military terms are explained. It is shown on the basis of examples that in "Zafarnoma" along with military terms, military skills are reflected. The relationship of the terms to the modern Uzbek language is determined. It is noted that the majority of the military lexicon of this period was made up of Turkic lexemes, which have become archaic by now.

Key words : structure of army, army, military name, term, make of affixal term, composition.

Суюнова Дилдора Садриддин кызы -
Докторант(PhD) Ташкентского государственного университета
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
e-mail: suyunovad28@mail.ru

ФОРМИРОВАНИЕ НАЗВАНИЙ НЕКОТОРЫХ ВОИНСКИХ ЧАСТЕЙ, ОТНОСЯЩИХСЯ К РОДАМ ВОЙСК

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрывается состав родов войск при Амире Темуре, морфологическая система словообразования (аффиксальная или словосложение) военных терминов. Также отражены понятие термина, научные взгляды ученых и употребление слова. Древность узбекской военной терминологии широко освещена в исторических и художественных письменных источниках, в частности, в произведении Шарафиддина Али Яздия «Зафарнома». Военные термины в произведении объясняются на основе семантических групп. Объясняются образование и значение военных терминов. На основе примеров показано, что «Зафарнома» отражает военные навыки наряду с военными терминами. Определяется связь терминов с современным узбекским языком. Отмечается, что большую часть военной лексики этого периода составляли тюркские лексемы, которые к настоящему времени стали архаичными.

Ключевые слова: состав армии, армия, воинское наименование, термин, аффиксальное терминообразование, состав.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Harbiy terminologiya – alohida toifaga kiruvchi harbiy tashkilot va turli harbiy xizmatchilar tomonidan qo‘llaniladigan so‘z, atama va qisqartmalar. Harbiy ish va harbiy san’atga oid bo‘lgan, harbiy sohada ishlatilgan tushunchalarni ifodalovchi terminlar harbiy terminologiya asosini taashkil etadi. Terminologiya maxsus tilning maxsus leksik qatlamidir. Terminologiya yo‘nalishida harbiy sohaga oid terminlarning o‘rganilish darajasi anchayin rivojlanib bormoqda. Harbiy matnda keltirilgan leksemalarning ma’nosi, qo‘shin turlari tarkibiy qismlari nomlarining tadqiqi, eski o‘zbek tili davrida iste’molda bo‘lgan istilohlarning bugungi kundagi ahamiyati qay darajada ekanligi harbiy terminologiyaning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Harbiy terminlarning boshqa qardosh tillar bilan o‘zaro qiyosiy o‘rganilishi turkologiyada ham o‘z aksini topgan.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Harbiy leksika o‘zbek tili so‘z fondining ko‘hna qatlamlaridan biri sanalib, til tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Moziyda bitilgan va hozirga qadar ma’lum bo‘lgan manbalarning deyarli hammasida harbiy ish va harbiy san’atga doir istilohlar faol qo‘llanishda bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Bunday holatni nafaqat “Zafarnoma”, “Boburnoma”, “Shayboniynoma”, “Nusratnoma”, “Shajarai tarokima”, “Shajarai turk”, “Riyozud-davla” kabi tarixiy asarlar, balki “Qutadg‘u bilig”, “Qissasi Rabg‘uziy”, “O‘q va yoy manzarasi”, “Gul va Navro‘z”, “Saddi Iskandariy” singari didaktik–pandnoma, diniy, badiiy, obidalar matnida ham kuzatish mumkin.

Sharafiddin Ali Yazdiyning Amir Temur hukmronligi davriga oid “Zafarnoma” asari o‘rta asrlar tarixnavisligining ajoyib yodgorliklaridan biridir. Muarrix “Zafarnoma” asarini Shohruhning o‘g‘li Ibrohim Sulton tashabbusi bilan bitganligini aytadi. Sharafiddin Ali oldiga asarni jonli hamda tushunarli qilib yozish talabi qo‘yilgan. Muallifning niyatiga ko‘ra, asar “Muqaddima” qismi va uchta maqoladan iborat bo‘lishi kerak edi. Birinchi maqolani Temurga, ikkinchisini Shohruhga, uchinchisini Shohruhning o‘g‘li Ibrohim Sultonga mo‘ljallagan. Asar niyat qilingan birinchi maqolasidan iborat xolos. Boshqa ikki maqola yo‘q – u Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan yozilmagan yoki yozilgan bo‘lsa ham bizgacha yetib kelmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Asarda Sohibqiron davlatida qo‘shin tarkibi, askariy qism bo‘linmalarining qay tartibda ekanligi batafsil berilgan. Amir Temur qo‘shinlari asosan piyoda va otliq askarlardan tashkil topgan bo‘lsa-da, aksariyat hollarda piyodalar ham uzoq cho‘l safarlarida otlar bilan ta’minlanar, otliq askarlarning katta qismi piyoda tartibda jang qilishga ham o‘rgatilgan edi. Ular kamondan zarb bilan bexato otish lozim bo‘lgandagina otdan tushib, piyoda jangchilarga aylanardilar. Otliq askarlar oddiy va saralangan jangchilarga bo‘linib, yengil va og‘ir otliq qo‘shinni tashkil etgan. Bundan tashqari, Sohibqironning xos navkarlari ham bo‘lgan.

Har qanday tilning so‘z boyligi u tarixiy yoki zamonaviy tusda bo‘lmasin, insonlar tomonidan tuziladigan rang-barang lug‘atlarda ma’lum darajada aksini topadi. Lug‘at til so‘z boyligini o‘zida saqlovchi akkumulyator vazifasini bajaradi. Aynan mana shunday termin-lug‘atlardan harbiy terminlar keng o‘rin egallagan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, “Zafarnoma”dan o‘rin olgan leksik birliklar qatori, temuriylar saltanatining ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, harbiy, maishiy turmush tarzida mavjud tushunchalarni ifodalovchi istilohlar va leksik birliklar son jihatdan salmoqli hisoblanadi.

Sohibqiron Amir Temur davlat boshqaruvidagi askariy qism nomlarining “Zafarnoma”da keltirilganlarining morfologik tuzilishi haqida so‘z yuritar ekanmiz, bunda, asosan, so‘zlarning yasalishiga, o‘zlashgan yoki o‘zlashmaganligiga e’tibor qaratamiz.

Harbiy va umumiy adabiy lug‘atni shakllantirishning eng samarali usuli affiksal so‘z yasashdir. Leksik-grammatik so‘z yasash affikslarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Nominal o‘zaklardan ot atama hosil qiluvchi affikslar;
2. Fe’l o‘zaklardan ot atama hosil qiluvchi affikslar;
3. Otlardan atama-fe’l yasovchi affikslar;
4. Fe’l o‘zak va o‘zaklardan atama-fe’l hosil qiluvchi affikslar.

Quyida “Zafarnoma”da berilgan askariy qism nomlarining yasalish tizimini ko‘rib chiqamiz:

ZABONGIR – I. josus II. Dushman haqida ma’lumot yig‘ish uchun asir olib kelish. Bilamizki, zabon fors-tojik tilida “til” degan ma’noni anglatadi. Harbiy yurish paytida dushman tarafdagi vaziyatdan ogoh bo‘lish, ularning rejalarini bilish maqsadida zabongirlar ustalik bilan ushbu vazifani ado etganlar. Bu esa jang chog‘ida g‘alaba tomon yo‘l ochib ham bergan. Asli fors-tojikcha bo‘lmish –gir affiksi “giriftan-olmoq” ma’nosini bildiradi va hozirgi o‘zbek tilida “biror narsani oluvchi, qo‘lga kirituvchi, egallovchi, zabt etuvchi” ma’nolarini anglatuvchi tushunchalarni ifoda etuvchi mansabga aloqador shaxs nomini yasaydi.

Eski o‘zbek tilida -g‘ur/-gьır affiksli shaklni sifatdosh guruhiga shartli ravishda kiritish mumkin. Bu shaklda fe’llik belgilari kuchsizlanib, sifatga yaqinlashgan. Ma’no jihatdan hozirgi o‘zbek tilidagi sezgir, chopqir,keskir, o‘tkir kabi sifatlarga o‘xshaydi. Zabon ot asosga esa ushbu yasovchi qo‘shimcha qo‘shilib, otdan ot atama hosil qilgan: U: “Bir oy bo‘ldiki, bizning undan xabarimiz yo‘q; biz el ichidan chiqib, shu joyda turibmiz. Ammo bir necha kun bo‘ldiki, g‘oyatda mukammal qurollangan o‘n otliq kishi zabongirlik maqsadida kelib, shu yaqinda bir to‘qayzor bor, o‘sha yerda turibdilar”, - deb javob berishdi.

POS/POSBON – tungi soqchi. Biror kimsa yoki narsaning xavfsizligini ta’minlash uchun postda turgan qo‘riqchi, qorovul. Bu so‘zning asosi “pos” forscha so‘z bo‘lib “tunning bir qismi” degan ma’noni anglatadi. Hozirgi o‘zbek tilida –bon affiksi (fors-tojikcha) kam miqdorda leksemalarni hosil qiladi. Ushbu affiks “asosdan anglashilgan narsani saqlovchi, unga qarovchi shaxs” ma’nosini bildiruvchi harbiy mansab nomini yasaydi. –bon ham qo‘shimcha, ham saqlovchi, qo‘riqlovchi ma’nolarida kelib, yangi bir atama yasashga xizmat qilgan: Shahar devori bo‘ylab soqchilar va posbonlar uchun uylar belgilangan, uning to‘rt tomon burchagidan har birida bir burj – manora ko‘tarilgan.

DAH/DAHA – lashkar bo‘linmalaridan eng kichigi o‘n kishilik guruh. “Dah” fors-tojikcha so‘z bo‘lib, o‘n degan ma’noni bildiradi. Daha leksemasi o‘nlik so‘ziga teng, shuningdek, dahboshi (o‘nboshi) ma’nodosh sifatida qo‘llaniladi.

TAXSHANDOZ – kamondan o‘q yog‘diruvchi sipohiylar. –andoz affiksi fors-tojik tillariga oid bo‘lganligi uchun ham o‘zbek tilida maxsus so‘z yasovchi element sifatida qaralmaydi. Chunki

u hozirgi bosqichda o‘zbekcha (umumturkiy) asoslarga qo‘shilib leksemalar hosil qilmaydi. Shunday bo‘lishiga qaramay, o‘zbek tilida –andoz affiksi “biror harbiy quroldan o‘q yoxud snaryad otuvchi shaxs” ma’nosini anglatgan ayrim so‘zlar mavjud. –andoz yasovchili leksemalarning barchasi diaxron planda harbiy mansab nomlarini ifodalovchi leksema hisoblanadi. Mazkur qo‘shimcha vositasida taxshandoz leksemasi ham yasalgan bo‘lib, “taxshadan, ya’ni o‘q otuvchi quroldan o‘ziga xos snaryad otuvchi shaxslar boshlig‘i” ma’nosida qo‘llaniladi. Ra’dandoz, tirandoz, naftandoz leksemalari ham xuddi shunday yasama hisoblanadi: Jang salohlari bilan orosta fillar ustiga taxtlar o‘rnatilgan, fillar safi yonida ra’dandozlar va taxshandozlar hozir, har bir fil ustida esa bir necha o‘q otuvchi o‘ltirar edi.

Askariy qism nomlaridan yana quyidagilar ham asarda o‘z ifodasini topgan: ug‘ruq – (aynan “chodir”) lashkar ortidan zaxira, aslaha va boshqa anjomlarni olib yuruvchi qism (Hazrat Sohibqiron ug‘ruqni cherik bilan Shayx Ali Bahodurg‘a tobshurub, saodat bila otlanib, bahodur yigitlari bila ilg‘or solib, Tabrizg‘a mutavajjih bo‘ldi. Z.106.) , bo‘y qo‘shuni – lashkarning qalb qismidagi xos bo‘linma, nikovulon – dushmanni ta’qib etuvchi sipohiylar (Mang‘loy lashkari nikovul bo‘lib dushmanlar izidan chopqin yasadi va ularni bir –biridan ajratib, tarqatib yubordilar. Z. 286.), taloya – (razvedka) vaziyat haqida xabar keltirish uchun lashkardan oldinga yuboriladigan kichik harbiy bo‘linma (Ardasherni taloya sifatida lashkar ahvolini bilib turish uchun tayinladi. Z. 192.), qul/g‘ul – qo‘shinning markaziy qismi(Va Sohibqiron g‘ul cheriki bila balchiqdin chiqib, bir o‘tlog‘da tushti, va shahzodalar uchun kishi qaytardi. Z.163.).

XULOSA

Amir Temur davrida qudratli qo‘shinning yuzaga kelishi va harbiy mudofaa tizimining takomillashuvi harbiy atamalarda o‘z ifodasini topgan. Sohibqiron Temur davlat boshqaruvidagi qo‘shin tuzilmasi tarkibining leksik-morfologik jihatdan o‘rganilishi harbiy terminologiya sohasida samarali ishlarni olib borishda hamda askariy nomlarning etimologiyasida ham katta o‘rin tutadi. Harbiy sohaga oid istilohlar sifatida ishlatiluvchi leksemalar diaxron va sinxron aspektda olinganda bir-biridan farqlanuvchi leksemalar qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. Ta’kidlash joizki, Amir Temurning jahon harb ishi va harb san’atiga qo‘shgan ulkan xizmatlari beqiyosdir.

Iqtiboslar

1. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: 2008.
2. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – T.: 2019.
3. Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. – T.: Sahhof, 2021.
4. Mo‘minova O. O‘zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi. – T.: 2009.
5. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Камалак, 1994.
6. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997.
7. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики старо-узбекского языка. – Т.: Фан, 1990.
8. http://www.ziyonet.uz.

References

1. Abdurakhmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. Historical grammar of the Uzbek language. – T.: 2008.
2. Dadaboyev H. Uzbek terminology. – T.: 2019.
3. Dadaboyev H., Yodgorov H. Uzbek military terminology. – T.: Sahhof, 2021.
4. Muminova O. Lexical-semantic structure of job and title names in the Uzbek language. – T.: 2009.
5. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: Kamalak, 1994.
6. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: Sharq, 1997.
7. Dadabayev H., Nasyrov I., Khusanov N. Problems of the lexicon of the old Uzbek language. – T.: Fan, 1990.
8. http://www.ziyonet.uz.

Сноски

1. Абдурахмонов Г., Шукуров Ш., Махмудов К. Историческая грамматика узбекского языка. – Т.: 2008.
2. Дадабоев Х. Узбекская терминология. – Т.: 2019.
3. Дадабоев Х., Ёдгоров Х. Узбекская военная терминология. – Т.: Саххоф, 2021.
4. Муминова О. Лексико-семантическая структура названий должностей и должностей в узбекском языке. – Т.: 2009.
5. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Камалак, 1994.
6. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарк, 1997.
7. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Т.: Фань, 1990.
8. http://www.ziyonet.uz.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Аблаева Надира Кадамжановна
старший преподаватель кафедры
русского языка и литературы
Университет Маъмуна
nadiraablaeva@gmail.com

РОЛЬ КУЛЬТУРНОГО КОНТЕКСТА В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА: ЯЗЫКОВАЯ АДАПТАЦИЯ И СОХРАНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется взаимодействие языка и культуры в процессе художественного перевода. Цель работы — определить, как культурные и национальные особенности влияют на адекватность и выразительность перевода. Рассматриваются стратегии сохранения реалий и идиоматических выражений. На примерах показано, что перевод является не только языковым, но и культурным актом, требующим глубокого понимания контекста и авторского замысла для достижения эквивалентности и эмоциональной точности.

Ключевые слова: язык, культура, перевод, эквивалентность, реалии, контекст, национальная специфика, идиоматичность, интерпретация.

Ablaeva Nadira Qadamjanovna
Ma'mun universiteti til va adabiyot
kafedrasi katta o'qituvchisi
nadiraablaeva@gmail.com

TARJIMADA MADANIY KONTEKSTNING ROLI: TIL MOSLASHUVI VA MILLIY O'ZLIKNI SAQLASH

ANNOTATSIYA

Maqolada badiiy tarjima jarayonida til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir o'rganiladi. Asosiy maqsad — milliy va madaniy xususiyatlarning tarjima mazmuni va ta'sirchanligiga ta'sirini aniqlashdir. Tadqiqotda realiyalar, frazeologizmlar va kontekstual moslik misollar asosida tahlil qilinadi. Muallif tarjimoning madaniyatlar o'rtasidagi ko'prik sifatidagi rolini ta'kidlab, ekvivalentlik va ma'naviy yaqinlik masalalariga to'xtaladi.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, tarjima, ekvivalentlik, realiyalar, kontekst, milliy xususiyat, frazeologizm, interpretatsiya.

Ablaeva Nadira Kadamjanovna-
"University-Mamun"
senior lecturer of the department
language and literature
nadiraablaeva@gmail.com

THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION: LINGUISTIC ADAPTATION AND PRESERVATION OF NATIONAL IDENTITY

ABSTRACT

The article explores the dynamic relationship between language and culture in literary translation. The main aim is to determine how cultural and national factors influence meaning and stylistic accuracy. Examples illustrate the translator's role in conveying cultural realities and idioms. The study emphasizes that translation is not merely linguistic but also cultural mediation requiring deep contextual awareness and creative interpretation to preserve the author's intent.

Keywords: language, culture, translation, equivalence, cultural realities, context, idioms, national identity, interpretation.

Введение и актуальность.

Язык и культура находятся во взаимной детерминации: язык служит не только средством передачи информации, но и хранилищем культурных кодов, социальных практик и мировоззренческих установок народа. В условиях интенсификации межкультурных контактов и расширения областей межъязыковой коммуникации значение художественного перевода возрастает как с точки зрения передачи коммуникативного содержания, так и в аспекте сохранения и репрезентации культурной идентичности. Переводчик в этой парадигме выступает не столько «техническим исполнителем», сколько культурным медиатором, чья задача — обеспечить эквивалентный коммуникативный эффект у целевой аудитории при сохранении культурной специфики исходного текста [Комиссаров, 1990].

Теоретическая база проблемы опирается на представления о функциональной эквивалентности (Nida, 1964), на лингвокультурологические подходы, подчёркивающие роль реалий и культурно маркированной лексики в формировании смыслового поля текста, а также на современные интердисциплинарные исследования, рассматривающие перевод как акт интерпретации и культурной трансдукции [Nida, 1964; Латышев, 2000; Хожиева, 2017]. В рамках этих подходов ключевой вопрос формулируется следующим образом: как сохранить авторский замысел и культурный контекст оригинала при передаче текста на язык, у которого иной культурный фон и иной репертуар референтных единиц?

Проблематика художественного перевода особенно выражена в отношении культурно обусловленной лексики (реалий), фразеологизмов, идиом, этнокультурных ритуалов и социальных институтов. Такие единицы часто не имеют прямых эквивалентов в языке перевода: термин «махалла» в узбекском обозначает не только территориальную единицу, но и комплекс социальных связей, обычевую практику и систему взаимодействия, что делает простую лексическую транслитерацию или словарный эквивалент недостаточными для передачи полного смысла и прагматического эффекта [Хожиева, 2017]. Аналогично, в русском языке «дача», «самовар», «масленица» несут плотную культурно-историческую нагрузку, требующую от переводчика принятия решения: калькировать, пояснять, адаптировать или искать функциональные эквиваленты.

Теоретические модели эквивалентности предлагают разные ориентиры. Ю. Найда выдвигает идею функциональной эквивалентности, когда целью перевода является восстановление у читателя целевого языка того же эффекта, что и у читателя исходного текста [Nida, 1964]. Комиссаров и другие отечественные исследователи подчёркивают также важность сохранения стилистических и культурных маркёров, без чего потеря национального колорита приводит к искажению авторской интенции и культурного смысла [Комиссаров, 1990]. Современные лингвокультурологи добавляют к этому внимание к прагматике и интертекстуальности: перевод — это передача не только слов, но и соотнесённых культурных практик, ассоциаций и коннотативных оттенков [Латышев, 2000].

Практический анализ показывает, что переводческие стратегии варьируются от буквального переноса (заимствование, калька) до адаптации, компенсации и заметок переводчика. Заимствование сохраняет экзотику, но может затруднить понимание; адаптация делает текст

более понятным целевой аудитории, но снижает степень национальной аутентичности; компенсация позволяет восстановить потерянный эффект в другом месте текста; примечания и параллельные пояснения компенсируют культурный разрыв, но нарушают плавность чтения. Выбор стратегии определяется рядом факторов: типом текста (художественный, публицистический, научный), целью перевода (доступность, педантичность, академичность), ожиданиями целевой аудитории и позиционированием переводчика как культурного посредника [Латышев, 2000; Хожиева, 2017].

Особое внимание в современных исследованиях уделяется этическим и методологическим аспектам. Переводчик сталкивается с дилеммой: сохранить «чуждость» текста, показывая культурные особенности, или «натурализовать» его для лёгкого восприятия? Ответ на этот вопрос частично определяется нормативными установками издательства или инициатора проекта, частично — профессиональной позицией переводчика как защитника культурной аутентичности. Кроме того, глобализация и факторы межкультурного взаимодействия вносят новые требования: перевод должен способствовать диалогу культур, а не нивелировать различия, что требует от переводчика культурной компетенции, исторического знания и умения интерпретировать культурные сигналы [Комиссаров, 1990; Karimov, 2010].

Методологически исследование требует использования комплексных подходов: сочетания лингвистического анализа с культурологическим и прагматическим. Контекстуальный анализ позволяет выявить коммуникативную функцию культурно обусловленных элементов, семантический — их значение в системе текста, а сопоставительный — определить возможные приёмы передачи. Эмпирические примеры (параллельные тексты, варианты переводов одного и того же фрагмента, аналитические примечания) дают возможность оценить эффективность тех или иных стратегий и выявить оптимальные способы сохранения культурной информации при минимизации потерь перевода.

Таким образом, введение в тему демонстрирует, что художественный перевод — это многогранный процесс, включающий лингвистические, культурные и прагматические измерения. Исследование направлено на систематизацию переводческих приёмов при передаче культурных реалий между русским и узбекским языками, выявление критериев выбора стратегий и формулирование рекомендаций для практики переводческой деятельности.

2. Объект и методы исследования.

Объект исследования — процесс художественного перевода как феномен межкультурной коммуникации, включающий лингвистические, прагматические и культурологические компоненты. В рамках данного исследования особое внимание уделяется взаимодействию русской и узбекской языковых картин мира в процессе передачи культурно маркированных единиц и идиом.

Предмет исследования — стратегии и приёмы передачи культурных реалий, идиоматических конструкций и стилистических маркёров при переводе художественных текстов с русского на узбекский и обратно; критерии оценки адекватности и сохранения культурной идентичности в переводе.

Целями исследования являются: 1) систематизировать существующие переводческие стратегии, применимые к культурно обусловленной лексике; 2) разработать методические рекомендации для выбора оптимальной стратегии в зависимости от типа текста и целевой аудитории; 3) оценить эффективность выбранных приёмов на корпусе параллельных текстов. Задачи вытекают из целей: идентифицировать типы реалий, классифицировать переводческие решения, провести сравнительный анализ исходных и переводных текстов и выявить критерии потерь/компенсации культурного содержания [Комиссаров, 1990; Nida, 1964].

Обоснование и логика методологического выбора. Для изучения явления, сочетающего лингвистические и культурные аспекты, необходим комплексный

междисциплинарный подход. Теоретическая основа опирается на концепцию функциональной эквивалентности (Nida), лингвокультурологию (Латышев) и прикладные разработки по переводу реалий (Хожиева). Эти подходы позволяют сочетать семантический анализ с исследованием коммуникативного эффекта и прагматической функции элементов текста [Nida, 1964; Латышев, 2000; Хожиева, 2017].

3. Результаты исследования и их обсуждение.

Типы культурно маркированных единиц (реалий) в корпусе

В ходе анализа корпуса (30 художественных фрагментов: русские и узбекские произведения и их переводы) были выделены следующие типы культурно маркированных единиц:

1. **Социально-институциональные реалии** (например, махалла, дача, колхоз).
2. **Бытовые предметы и явления** (например, самовар, печь, палаов/палов).
3. **Праздники и ритуалы** (например, масленица, Навруз).
4. **Социальные роли и обращения** (например, баий, мулла, русские «бабушка», «дядя» в этнокультурном контексте).
5. **Фразеологизмы и идиомы**, несущие культурную привязку.
6. **Исторические реалии и географические реалии** (географические названия, топонимы, исторические институты).

Эта типология согласуется с предыдущими исследованиями лингвокультурологии, где реалии делятся по сфере референции и по степени «культурной нагруженности» (Латышев, 2000; Хожиева, 2017) [Латышев, 2000; Хожиева, 2017].

3.2. Переводческие стратегии: классификация и критический анализ

На материале корпуса были систематизированы следующие основные стратегии передачи реалий (описание и оценка эффективности каждой стратегии даны ниже):

1. **Заимствование (транслитерация)** — перенос слова без перевода: махалла → mahalla; самовар → samovar.

- Плюсы: сохраняет экзотику и аутентичность; минимальная интервенция в тексте.
- Минусы: без пояснения может быть непонятно целевому читателю; риск «интерпретационной пустоты».

Теоретическая основа: сохранение культурного маркера при сохранении «чуждости» текста [Комиссаров, 1990].

2. **Калькирование / калька (loan translation)** — буквальный перевод компонентов: чайный самовар → чайни самовар (или «чайник-устройство»).

- Плюсы: сохраняет семантическую структуру.
- Минусы: может создать неестественную конструкцию в языке цели.

3. **Адаптация (functional equivalent)** — замена реалии на элемент, более понятный целевой культуре: дача → загородный дом / бағча уйи (в узб.).

Плюсы: повышает понятность; поддерживает коммуникативный эффект.

Минусы: утрачивается часть культурного колорита; может снизить историко-культурную точность. Подход близок к функциональной эквивалентности Найды [Nida, 1964].

4. **Описание / разъяснение (explicitation, descriptive glossing)** — краткое объяснение в тексте или в сноске: махалла (местное сообщество — махалла).

Плюсы: баланс между сохранением термина и объяснением смысла.

Минусы: нарушает динамику чтения; требует редакторских решений.

5. **Компенсация** — передача утраченного эффекта в другом месте текста; используется при неизбежной потере коннотаций.

Плюсы: позволяет восстановить эмоциональный/стилистический эффект.

Минусы: требует творческого перераспределения информации, риск искажения последовательности.

6. **Омисссия (опускание)** — исключение реалии без замены; допустимо в узком ряде случаев, но снижает точность.

7. **Примечание переводчика / редактора** — вынесение пояснения в конец страницы или сборник примечаний.

Подходит для академических/литературных изданий; менее приемлемо в массовой художественной прозе.

Критический вывод: ни одна стратегия сама по себе не универсальна — оптимальное решение определяется жанром текста, целью издания, ожиданием целевой аудитории и редакционной политикой. Это подтверждает сочетание подходов Комиссарова и Найды: требуется баланс между эквивалентностью эффекта и сохранением культурного маркера [Комиссаров, 1990; Nida, 1964].

Выводы.

Взаимосвязь языка и культуры является фундаментальной основой любого акта перевода. Переводчик, как посредник между культурами, должен не только владеть языковыми средствами, но и глубоко понимать культурный контекст, в котором создан оригинальный текст. В процессе перевода он сталкивается с множеством вызовов, связанных с передачей национально-культурных реалий, идиом, фразеологизмов, а также эмоционально-экспрессивных оттенков речи. Как отмечает Нида, «перевод — это процесс поиска наиболее близкого естественного эквивалента оригинала, учитывающего как смысл, так и стиль» [Нида, 1964].

В ходе анализа установлено, что сохранение культурных кодов и смысловых нюансов возможно только при комплексном подходе, включающем не только лингвистические, но и когнитивные, социокультурные и прагматические аспекты перевода. Таким образом, перевод становится не просто переносом слов, а актом межкультурной коммуникации, в котором происходит взаимодействие смыслов и ценностей [Баснетт, 2002].

Особое значение имеет выбор стратегии перевода — дословный или адаптационный подход. Каждый из них имеет право на существование в зависимости от жанра текста, целей перевода и культурной дистанции между языками. Например, при передаче фольклорных или поэтических текстов необходима культурная адаптация, позволяющая сохранить художественную целостность произведения, тогда как при переводе официальных документов предпочтителен буквальный подход [Влахов, 1980].

Проведённый анализ подтверждает, что успешный перевод невозможен без учёта культурной специфики. Любое отклонение от культурных норм может привести к искажению смысла и утрате коммуникативной ценности текста. Поэтому переводчик должен выступать не только как филолог, но и как культурный аналитик, интерпретатор ментальных образов и ценностных ориентиров народа, говорящего на языке оригинала [Верещагин, 1990].

Современная теория перевода всё чаще рассматривает перевод как диалог культур, где смысл формируется не только в рамках текста, но и в сознании читателя. Это положение отражает современные тенденции гуманитарных наук, направленные на междисциплинарное изучение языка и культуры. Следовательно, перевод можно рассматривать как творческий процесс, соединяющий лингвистику, этнологию и психологию восприятия.

Итак, исследование показало, что язык и культура находятся в неразрывной связи, а процесс перевода выступает как важнейший инструмент их взаимопонимания. Только осознанное отношение к культурной составляющей текста позволяет достичь подлинной эквивалентности, сохранив при этом эстетическое и смысловое богатство оригинала.

Список использованной литературы:

1. Баснетт С. Теория перевода: культурная перспектива. — Москва: Прогресс, 2002.

2. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура: лингвострановедческие исследования. — Москва: Русский язык, 1990.

3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. — Москва: Международные отношения, 1980.
4. Нида Ю. Toward a Science of Translating. — Leiden: E. J. Brill, 1964.
5. Хайруллина Ф. Культурные аспекты перевода. — Казань: Изд-во КФУ, 2015.
6. Венути Л. Невидимость переводчика: история перевода. — Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2010.
7. Якобсон Р. О лингвистических аспектах перевода // Избранные работы по языкознанию. — Москва: Прогресс, 1985.
8. Гарбовский Н. К. Теория перевода. — Москва: Московский университет, 2004.
9. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. — Москва: ЭТС, 2002.
10. Лотман Ю. М. Семиосфера. — Санкт-Петербург: Искусство-СПб, 2000.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Jammatova Maqsuda Sharipovna
Urganch davlat pedagogika instituti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti v.b.
e-mail:jammatova2424@gmail.com

ULUG'BEK HAMDAMNING "MUVOZANAT" ROMANIDA BIRINCHI O'LIM TASVIRI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanidagi birinchi o'lim tasviri – Muhammadjon akaning vafoti va uning mazmun-mohiyati badiiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Asarda mazkur epizod bosh qahramon Yusufning ruhiy shakllanishi, tarixiy haqiqatni anglash jarayoni hamda jamiyatdagi ma'naviy inqirozning badiiy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Muallif ramziy ishoralar, dialog va monologlar, polifonik tasvirlar orqali ixtiyoriy o'limning ruhiy-motivatsion zamirini ochib beradi. Muhammadjon akaning vasiyati, uning haqiqat haqidagi qarashlari va Yusufga ko'rsatgan yo'li roman syujetida muvozanat izlash g'oyasining asosiy manbai sifatida yoritilgan. Shuningdek, o'zbek adabiyotidagi ixtiyoriy o'lim fenomeni, uning tarixi va ijtimoiy ildizlari haqida ilmiy mulohazalar beriladi.

KALIT SO'ZLAR: "Muvozanat" romani, birinchi o'lim tasviri, ixtiyoriy o'lim, ruhiy iztirob, Muhammadjon aka, Yusuf obrazi, ma'naviy muvozanat, dialog, polifoniya, badiiy tahlil.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается первый образ смерти в романе Улугбека Хамдама «Мувозанат» — уход из жизни Мухаммаджона ака и его философско-художественное значение. Указанный эпизод интерпретируется как важный этап духовного становления главного героя Юсуфа, осмысления исторической истины и отражения морального кризиса общества. Автор анализирует символические элементы, диалоги, монологи и полифоническое повествование, раскрывающие внутреннюю мотивацию и психологическую природу добровольной смерти. Завещание Мухаммаджона ака и его наставления становятся ключевым компонентом идеи поиска «мувozanat» (равновесия) в романе. В статье также освещаются истоки и социальная природа феномена добровольной смерти в узбекской литературе.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Роман «Мувозанат», образ смерти, добровольная смерть, духовные переживания, Мухаммаджон ака, образ Юсуфа, моральное равновесие, диалог, полифония, художественный анализ.

ABSTRACT

This article examines the first depiction of death in Ulug'bek Hamdam's novel Muvozanat—the passing of Muhammadjon aka—and analyzes its philosophical and artistic significance. This episode is interpreted as a crucial stage in the spiritual formation of the protagonist Yusuf, his pursuit of historical truth, and the representation of the moral crisis within

society. Through symbolic references, dialogues, monologues, and polyphonic narration, the author reveals the psychological foundations and motivational aspects of voluntary death. Muhammadjon aka's final advice and reflections on truth serve as the thematic core of the novel's overarching concept of "balance." The article also discusses the historical and social roots of voluntary death as a literary phenomenon in Uzbek literature.

KEYWORDS: "Muvozanat" novel, death depiction, voluntary death, spiritual anguish, Muhammadjon aka, Yusuf's character, moral balance, dialogue, polyphony, literary analysis.

Insoniyat bugun global urush ostonasida hayiqib turgan bir paytda, olam-u odamning muammolarini talqin qilishga yo‘naltirilgan sonsiz-sanoqsiz masalalar har bir yozuvchining hayotini parmalab tashlayotgani tayin. Azim Yevropa bo‘ylab ko‘chib yurgan "sayyor syujet" liniyalarida inson qismati azal-u abad bilan ziddiyatga kirishgan, uning dard-u tashvishlari bilan yaqindan tanishish ilinjida uzoq o‘yga cho‘mgan mo‘ysafid chol qiyofasini eslatadi. Ana shu tamoyil hozirgi adabiyotda – o‘lim mavzusining nechog‘li haqqoniy idrok etilganiga olib boruvchi yo‘llar kesishmasida turgan turli g‘oyaviy-ruhiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qilayotgani sir emas. Yangi davr romani, qissa-yu, hikoyalarida mavjudlik jumbog‘ining teran idroki sari talpingan bir beozor yozuvchilar taqdiri ham oson kechgan emas. Bu haqda juda katta monografik planda tadqiqotlar olib borish mumkin.

Taniqli yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning "Muvozanat" romanida uchta o‘lim tasviri mavjud. Bular bosh qahramon Yusufning tog‘asi Muhammadjon akaning bu dunyo bilan xayrlashishi hamda uning so‘nggi vasiyati ingliz adabiyotidagi E.Xemingueyning "Chol va dengiz" qissasidagi voqelikni yodimizga soladi. Bu o‘rinda ramzlar, metaforlar, maxsus kod va ishoralar hayot haqiqatini teran anglashga yo‘l ochadi.

"– Qaysi haqiqatni aytyapsiz, tog‘a, – Muhammadjon aka o‘lib qolsa, ko‘nglidagi gapni bilolmay bir umr armonda qolishini o‘ylab, yuragini vahm bosdi Yusufning, – qaysi haqiqatni tog‘a, axir siz menga juda ko‘p tarixni gapirib bergandingiz, u yerda ham yolg‘on va haqiqiy tarix, deb so‘zlardingiz. Hozir qaysi birini nazarda tutdingiz? – Yusuf tog‘asining ikkala yelkasini ushlab silkidi, – qaysi haqiqatni aytdingiz, tog‘a!!.. – Silkidi-yu dahshatdan qotib qoldi: tog‘aning ikkala qo‘li ikki yonga shalvirab tushdi, boyagina jips yumilgan ko‘zlari negadir ochilib, shiftga boqqancha qotib qolgandi. Yusuf shu choqqacha hech qachon o‘lgan odamni ko‘rgan emasdi, o‘lik va tirikning farqini bilmasdi, hech kim unga tushuntirmagandi ham. Lekin, aslida, bunga hojat yo‘q ekan. O‘lgan odam – o‘lik, jonsiz jasad shundoq ko‘rinishidanoq ma'lum bo‘larkan. Insonni jon deysizmi, ruhmi, tark etgandan so‘ng unga qaragan kishini seskantiradigan nimadir paydo bo‘larkan – Yusuf qo‘rqib ketdi. – Tog‘a-a-a!!!".. deya baqirdi-yu negadir o‘zi eshik tomonga chopdi..." [Ulug‘bek Hamdam. Muvozanat. –T: "Sharq". 2007. –B.25.]

Roman boshlamasida Yusuf tog‘asi Muhammadjon aka bilan juda ko‘p tarix va hayot haqida, siyosat hamda odamlarning xulq-atvori, umuman, bu dunyoning sir-u sinoati haqida tinimsiz suhbatlar quradilar. Bu suhbatlar zamirida har bir epizod – insonlarning yashashi, hayot kechirishi, mol-mulk va O‘zbekistonning totalitar tuzum iskanjasida mudom qaddi bukilib kelgani haqida bo‘ladi. Mana shu jihatdan "Muvozanat"dagi birinchi ixtiyoriy-biologik o‘lim rosmona qayd etiladi. Ayni paytda, Muhammadjon aka jiyani Yusufga qarata vasiyatnoma so‘zi: "– O‘zim bilan olib ketmay, deyapman, jiyan. Mening umrim yolg‘on bilan kechdi. Yolg‘onga bosh egib, yolg‘onni yozganlarning, shuni istagan kimsalarning xizmatini qilib kechdi. Seniki shunday o‘tmasin, deyapman. Hech bo‘lmasa, haqiqatni bilib yur sen. Chunki... chunki hademay hammasi o‘zgarib ketadi. Shunda asqotadi men aytgan gaplar..."(o‘sha asar) deya qilgan o‘gitlarida jamuljam edi. Chunki Muhammadjon aka vafot etganida Yusuf hali yosh, maktab o‘quvchisi, 90-yillar boshlariga to‘g‘ri kelardi. Yusuf o‘sha kundan boshlab, tog‘am kabi zo‘r tarixchi bo‘laman, O‘zbekiston tarixini o‘zim yozaman deb, kirishdi. Ayni paytda, Yusufning moddiy va ma'naviy muvozanati, ayni shu kechmish, suronli damlardan boshlandi, desak haq gapni aytgan bo‘lamiz.

Badiiy uslub haqida shuni qayd etish kerakki, ingliz yozuvchisi Somerset Moemning tasvir prinsipi o‘zbek yozuvchisi U.Hamdamning talqinlariga ta'sir qilganini his etamiz. Chunki har ikkala yozuvchida voqelikni dialog va monologlarda, polifonik nutqda ifodalash manerasi ustunligi

qabarib ko‘rinadi. Prof.D.To‘raev roman haqida shunday mulohazalarni ilgari suradi: “Yosh yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanidagi ba’zi obrazlar kasb-kori, zamonga moslasha olmaslik, to‘g‘rirog‘i, nopok yo‘llarga kirmay, halol yashash istagi, kurashchanlik xususiyatlari bilan Shukur Xolmirzayevning “Dinozavr” romanidagi ba’zi obrazlar o‘rtasida mushtarak tomonlar bordek tuyuladi. “Muvozanat” mavzu jihatidan ham Sh.Xolmirzayev, X.Do‘stmuhammad romanlariga yaqin. Biroq U.Hamdam romanida bugungi kun evrilishlari bosh qahramonninng falsafiy-ruhiy dunyosi orqali beriladi. Goh muallif tilidan, goh qahramon Yusuf nigohi bilan hikoya qilinuvchi bu tasvirda biz istiqlol yillarida kechayotgan voqealar, turli taqdir va turfa qiyofadagi odamlar bilan uchrashamiz. Ijtimoiy hayotdagi evrilishlar tufayli ba’zi odamlar o‘z ma’naviy-ruhiy muvozanatini yo‘qotib qo‘yishgan. Asar qahramoni Yusufbek dunyoqarashicha, hayotdagi barcha narsa izidan chiqqan: odamlar orasidagi oddiy kundalik munosabatlardan tortib, tabiatdagi barcha narsalar o‘z muvozanatini yo‘qotgan. U har bir so‘zda, har bir faoliyatda ana shu muvozanatni tiklash yo‘llarini qidiradi” [To‘raev D. Davr va ijod mas'uliyati. B.26-27.]

Xulosa shuki, “Ixtiyoriy o‘lim, aytilganidek, ruhiy iztiroblar orqali hayotda o‘z o‘rnini topa olmaganligi, o‘zi uchun eng ulug‘ hisoblangan maqsadlarga erisha bilmaganligi, hayotning ma’nosini yo‘qotib qo‘yganligi natijasida ro‘y beradi. Bunday holat goho ommaviy tus olishi ham mumkin, o‘tgan asrninng 80-yillarining ikkinchi yarmida sobiq totalitar rejim iskanjasida O‘zbekistonda ayollar orasida o‘zini yoqib yuborish holatlari ko‘plab yuz beragani buning isbotidir. Yuzlab ayollar (asosan kolxozchilar) og‘ir jismoniy mehnat, quvonchsiz shaxsiy, hayot. reaksion urf-odatlar, turmushdagi yetishmovchiliklar tufayli hayotdan ko‘z yumdilar. Ular ixtiyoriy o‘limni qabul qildilar. Bunday o‘lim yashashni istamaslik emas, balki aksincha, Shopengauer aytganidek, yashash istagi tufayli yuz beradi, o‘zini o‘ldirayotgan odam yashashni istaydi, faqat o‘zi yashayotgan hayotdagi shart-sharoitdan, jamiyat qoidalaridan norozi, hayotni emas, ana shu noinsoniy sharoitni tark etish maqsadida shunday qiladi, kimlargadir yoki jamiyatga achchiqma-achchiq hayotdan ko‘z yumadi”[Abdulla Sher. Abadiyat va umr. B.182-183.]

Haqiqatdan ham, bunday og‘riqli va juda tashvishli manzaralar yevropa xalqlari adabiyotidagi tasvir o‘ziga xosligidan kirib kelgan, goho ramziy, goho realistik prinsiplar modusini yodimizga soladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ulug‘bek Hamdam. Muvozanat. –T: “Sharq”. 2007.
2. To‘raev D. Davr va ijod mas'uliyati. –T.: “Yangi asr avlodi” 2004.
3. Abdulla Sher. Abadiyat va umr. –T: “Faylasuf”. 2017.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Kuryozova Dilfuza
Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti
e-mail: dilfuzaquryazova1@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-5713-2985

MUNIS TARJIMASIDAGI "RAVZATU-S-SAFO" ASARI MUQADDIMASIDA AYRIM ILMIY-FALSAFIY VA DINIY-IRFONIY ATAMALARNING LISONIY TALQINI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Munis Xorazmiy tomonidan tarjima qilingan "Ravzatu-s-safo" asarining til uslubi hamda mazkur asarda uchraydigan ilmiy-falsafiy, diniy atamalar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida matndagi diniy-falsafiy, irfoniy va ilmiy leksika qatlamlari aniqlanib, ularning ma'no qirralari ochib berildi. Ko'plab izohtalab so'zlar matndagi ma'nosi va til tizimidagi o'rni izohlandi. Maqola Munis asarining diniy-falsafiy tafakkurning badiiy talqini ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: "Ravzatu-s-safo", Munis Xorazmiy, Ibn Sino, lisoniy xususiyatlar, ilmiy-falsafiy qarashlar, leksik-semantik tahlil, irfon.

ABSTRACT

This article analyzes the linguistic style of the work "Ravzatu-s-safo" translated by Munis Khorezmi, as well as the scientific-philosophical and religious terms found in this work. During the research, the layers of religious-philosophical, mystical and scientific lexical elements in the text were identified and their semantic aspects were revealed. The meaning of many explanatory words in the text and their place in the language system were explained. The article shows that Munis's work is an artistic interpretation of religious-philosophical thought.

Keywords: "Ravzatu-s-safo", Munis Khorezmii, Ibn Sina, linguistic features, scientific and philosophical views, lexical and semantic analysis, lore.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется языковой стиль произведения «Равзату-с-сафо» в переводе Муниса Хорезми, а также научно-философская и религиозная терминология, встречающаяся в этом произведении. В ходе исследования были выявлены пласты религиозно-философских, мистических и научных лексических элементов в тексте и раскрыты их семантические аспекты. Объяснено значение многих пояснительных слов в тексте и их место в языковой системе. В статье показано, что произведение Муниса представляет собой художественную интерпретацию религиозно-философской мысли.

Ключевые слова: «Равзату-с-сафо», Мунис Хорезми, Ибн Сина, языковые особенности, научно-философские взгляды, лексико-семантический анализ, фольклор.

Kirish

Munis Xorazmiy ijodi o‘zbek adabiyoti va tarjimashunosligi tarixida alohida mavqega ega. Uning “Ravzatu-s-safo” asari uchun yozgan muqaddimasi nafaqat tarixiy asarga kirish bo‘lib xizmat qiladi, balki o‘zida murakkab ilmiy-falsafiy va diniy-irfoniy qarashlarni mujassam etgan badiiy-falsafiy matndir. Mazkur muqaddimadagi ko‘plab istilohlar hozirgi lingvistika uchun ham muhim, chunki ular sharqona falsafiy an’analar, tasavvufiy tafakkur, hikmat va kalom ilmlarining til orqali ifodasini o‘zida jamlaydi.

Irfon nuqtayi nazaridan, butun mavjudotning asl haqiqati ularning Vujudi Mutlaq bilan ittihod اتحاد – birlashuvidadir. Ittihod – bu “yagona, mutlaq Vujudni mushohada qilishdir, zero barcha ashyolar Haqning yagona Vujudi bilan mavjuddirlar”. Ya’ni mavjudotning ko‘pligi zohiriydir, botinan esa ularning barchasi yagona Haq vujudining turli jilolaridir.

Mufradot va murakkabot istilohlari: “...xomayi qudratidin mufradot-u murakkabot... g‘ayb fazosidin shahodat arsasig‘a kelturdi”. Mazkur istilohlar islom mumtoz ilm-fanining ikkita asosiy manbasi – ratsional falsafa (hikmat) va irfoniy tafakkur (tasavvuf) qarashlarini o‘zida birlashtirgan atamalardir. Ularning to‘liq ma’nosini anglash uchun Dehxudo lug‘ati taklif qilgan falsafiy-tabiiy talqinni Sajjodiy lug‘atidagi irfoniy qarashlar bilan sintez qilish maqsadga muvofiqdir.

Metodologiya

Tadqiqot davomida quyidagi metodlarga tayanildi:

1. Leksik-semantik tahlil

Atamalarning ichki semantik tuzilishi, ko‘p qatlamli ma’no tizimi, lug‘atlardagi ta’riflari va matndagi funksional yuklamasi aniqlanadi.

2. Komparativ (qiyosiy) tahlil

Dehxudo lug‘ati va Sajjodiy lug‘atlaridagi talqinlar o‘zaro qiyoslandi, ular asosida ilmiy va irfoniy ma’no qatlamlari farqlab berildi.

3. Kontekstual tahlil

Atamalarning “Ravzatu-s-safo” muqaddimasida qanday kontekstual ahamiyat kasb etishi aniqlanadi.

4. Irfoniy-falsafiy talqin

Tasavvufiy manbalar asosida atamalarning botiniy, irfoniy ma’nolari yoritiladi.

5. Lisoniy-poetik tahlil

Natijalar

1. “Ittihod” istilohi: irfoniy birlashuv konsepti

Munis matnida ittihod اصطلاحi mavjudotning asl mohiyatini yoritishda qo‘llanilgan. Irfon ta’limotiga ko‘ra:

Ittihod — Vujudi Mutlaq bilan birlashuv, yagona Haqni mushohada qilish.

Mavjudotning ko‘pligi zohiriy bo‘lib, botinan barchasi Haqning jilolari hisoblanadi.

Bu istiloh Munis tomonidan borliqning metafizik mohiyatini ochishda asosiy konseptual nuqta sifatida qo‘llangan.

2. “Mufradot va murakkabot” istilohlarining ikki qatlamli talqini

2.1. Ilmiy-falsafiy qatlam (Dehxudo talqini)

Dehxudo lug‘atiga ko‘ra:

Mufradot — to‘rt unsur (tuproq, suv, havo, olov) kabi “basoit”, ya’ni eng sodda modda asoslari.

Murakkabot — mazkur unsurlarning turli nisbatlarda qo‘shilishidan hosil bo‘lgan “mavolidi salosa”:

ma’danot

nabotot

hayvonot

Bu — klassik sharq tabiatshunoslik tizimiga mos tushadi.

2.2. Irfoniy qatlam (Sajjodiy talqini)

Sajjodiy lug‘atida esa mufradot va murakkabot:

olami Mulk, ya’ni moddiy olamning o‘zi sifatida talqin qilinadi;

Mulk — Malakut va Jabarutning in'ikosi;
har bir jism Allohning ismlari tajallisi sifatida yuzaga keladi.
Demak, modda faqat fizik birlik emas, balki ilohiy ismlarning mazharidir.
Munis aynan shu ikkita qatlamni badiiy-uslubiy uyg'unlikda qo'llaydi.
3. "Xomayi qudrat" obrazining lisoniy-badiiy funksiyasi
Munis "xomayi qudrat" birikmasi orqali:
ilohiy yaratuvchilikni,
qudratning "yozuvchi qalam" sifatida tasvirini,
mavjudotning ilohiy taqdir asosida yuzaga kelishini
irfoniy-uslubda ifodalaydi. Bunda tasavvufiy badiiy obrazlar tizimi yaqqol seziladi.
4. Teologik (kalomiy) istilohlar: "Vojibu-l-vujud", "Soni'"
Matnda uchraydigan teonimlar islom ilohiyotidagi asosiy kategoriya hisoblanadi.
Vojibu-l-vujud — mavjud bo'lishi zarur bo'lgan Zot (Alloh).
Soni' — yaratuvchi, tartib beruvchi.

Munis bu atamalarni asarning butun g'oyaviy asosini belgilovchi falsafiy tayanchlar sifatida qo'llaydi.

Munisning badiiy uslubida atamalarning qanday obraz va poetik vazifa bajarayotgani ochib ko'rsatiladi. Dehxudo lug'atida keltirilgan, asosan, Ibn Sino kabi faylasuflarning tabiiy fanlarga oid qarashlariga tayanuvchi talqinga ko'ra, bu istilohlar moddiy olamning iyerarxik tuzilishini ifodalaydi:

Mufradot مفردات "basoit" (oddiy jismlar) deb ham ataluvchi, borliqning eng sodda, bo'linmas asoslari, ya'ni to'rt unsur (anosiri arbaa): tuproq, suv, havo va olovdir. Bular moddiy koinotning "qurilish materiallari" hisoblanadi .

Murakkabot مركبات o'sha sodda unsurlarning turli nisbatlardagi birikuvidan hosil bo'lgan murakkab jismlar, ya'ni "mavolidi salosa" (uch avlod): ma'danlar, o'simliklar va hayvonot olamidir. Demak, ushbu falsafiy nuqtayi nazardan, Munis mufradot va murakkabot deya butun moddiy olamni – uning eng kichik va sodda zarrasidan tortib, eng murakkab tirik mavjudotigacha – ilmiy tartib bilan tasvirlamoqda.

Doktor Sajjodiyning "Irfoniy istilohlar lug'ati" bizga ushbu atamalarning yanada chuqurroq, botiniy ma'nolarini ochishga yordam beradi. Irfoniy tafakkurda moddiy olam borliqning yagona yoki oliy darajasi emas, balki ilohiy tajalliyotning bir pog'onasi, xolos.

1. Borliq olamlari: Irfon ta'limotiga ko'ra, borliq uch olamdan iborat: Mulk (moddiy olam), Malakut (farishtalar va ruhlar olami) va Jabarut (ilohiy sifatlar olami). "Mufradot va murakkabot" butunligicha olami Mulk, ya'ni moddiy olamni tashkil etadi. Bu olam o'zidan yuqoridagi Malakut va Jabarut olamlarining eng quyi darajadagi in'ikosidir.

Munisning "xomayi qudrat" (qudrat qalami) orqali yaratilish haqidagi fikri irfoniy tushunchalar bilan hamohangdir. Irfonga ko'ra, butun "mufradot va murakkabot" olami Allohning ismlari va sifatlarining tajallisi (jilolanishi)dir. Ya'ni, har bir sodda unsur va har bir murakkab jism Allohning bir yoki bir necha ismini (masalan, al-Xoliq, al-Musavvir, ar-Razzoq) o'zida aks ettiradi. Shunday qilib, "mufradot va murakkabot" ilohiy ismlarning moddiy olamdagi ko'zgusiga aylanadi .

Munis Xorazmiy "mufradot va murakkabot" istilohlarini qo'llaganda, o'z davrining intellektual muhitiga xos ravishda, ham falsafiy-ilmiy, ham irfoniy-tasavvufiy ma'nolarni nazarda tutgan.

Birinchi qatlam (zohiriy, ilmiy): U butun moddiy olamni (elementlar va ulardan tarkib topgan mavjudotlarni) tartibli, iyerarxik tizim sifatida tasvirlamoqda.

Ikkinchi qatlam (botiniy, irfoniy) moddiy olam shunchaki jismlar yig'indisi emas, balki borliqning eng quyi pog'onasi ekanini va u ilohiy ismlar va sifatlarning tajalligohi, ya'ni Allohning qudratini namoyon etuvchi belgilar majmuasi ekanini ta'kidlamoqda.

Demak, Dehxudo lug'ati bizga bu atamalarning "nima" ekanini (moddiy olam tarkibini) tushuntirsa, Sajjodiy lug'ati ularning "mohiyati" nima ekanini (ilohiy tajalliyot ekanini) anglatadi. Munis Xorazmiy esa bu ikki qarashni o'zining yuksak badiiy uslubida mohirona birlashtirib, Allohning yaratishdagi qudratini ham ilmiy, ham irfoniy jihatdan madh etmoqda.

Muhokama

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Munis Xorazmiyning atama tanlovi shunchaki bezak emas, balki uning ichki ma’naviy-falsafiy olamini ifodalovchi, asarning kontseptual asosini belgilovchi, badiiy matnning semantik strukturasini uyushtiruvchi asosiy vositadir.

Mufradot va murakkabotning ikki qirrali talqini (ilmiy + irfoniy) Munisning intelektual darajasini va Sharq ilmiy fikrining mushtarak tabiatini yaqqol namoyon qiladi. Munis Xorazmiy tomonidan tarjima qilingan “Ravzatu-s-safo” asari muqaddimasining lisoniy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu matn shunchaki tarixiy voqealar bayoniga kirish qismi bo‘lmay, balki muallifning murakkab ilmiy-falsafiy va diniy-irfoniy dunyoqarashini aks ettiruvchi, yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan mustaqil adabiy-falsafiy asardir.

Xulosa

Tadqiqot davomida aniqlandiki, muqaddima leksikasi o‘zida uchta asosiy qatlam – ilohiyot (kalom), ratsional falsafa (hikmat) va tasavvuf (irfon)ga oid istilohlarni uyg‘unlashtirgan. “Vojibu-l-vujud”, “Soni’” kabi teonimlar islom kalom ilmining asosiy tushunchalarini ifodalasa, “mufradot va murakkabot” istilohi bir paytning o‘zida ikki xil ma’no qatlamini namoyon etadi:

1. Zohiriy (ilmiy-falsafiy) qatlam: Ibn Sino kabi faylasuflarning tabiiy ilmlariga asoslanib, butun moddiy olamning iyerarxik tuzilishini (to‘rt unsur va ulardan tashkil topgan uch avlod – ma’dan, nabotot, hayvonot) tasvirlaydi.

2. Botiniy (irfoniy) qatlam: Moddiy olamni borliqning oliy olamlari (Malakut, Jabarut) in’ikosi va Allohning ism va sifatlari jilolanadigan makon (tajalligoh) sifatida talqin qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Munis Xorazmiy. Ravzatu-s-safo tarjimasi. – Xiva: Xorazm qo‘lyozmalar fondi, XIX asr. – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. № 5123.

2.Деххуда, Али Акбар. Лугатнома. – Теҳрон: Донишгоҳи Теҳрон нашриёти, 1955–1978. – 15 т.

3. Саджодий, Жавад. Лугати истилоҳоти ирфон. – Теҳрон: Интишороти Таҳурӣ, 2002. – 412 б.

4. Ибн Сино. Китоб аш-шифо. – Қоҳира: Ал-Мактаба ал-Азҳарийя ли-т-турос, 1952. – 652 б.

5. Навоий, Алишер. Насоим ул-мухаббат. – Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 1983. – 240 б.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Matyakubov Xakimboy Xamidjanovich
Xorazm Ma'mun akademiyasi doktaranti
(Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori)

A GENERAL OVERVIEW OF THE HISTORICAL ANALYSIS OF UZBEK ONOMASTIC UNITS

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNATATSIYA

Ushbu maqolada onamastik birliklar tarixiga umumiy nazar solindi. Shu bilan birga, shu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan o'zbek tilshunoslari ishlari tahlilga tortilib, mos xulosa qilindi.

Kalit so'zlar: dokumentonim, demononim, faleronim, xrononim, xrematonim

---

Матякубов Хакимбай Хамиджанович
(Доктор философии по наукам филологии)

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен общий обзор истории ономастических единиц. Также проанализированы исследования узбекских лингвистов, занимавшихся данной областью, и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: документоним, демонним, фалероним, хрононим, хрематоним.

Matyakubov Khakimboy Khamidjanovich
(Doctor of philosophy in philological science) PhD

ANNOTATION

This article provides a general overview of the history of onomastic units. It also analyzes the works of Uzbek linguists who have conducted research in this field and presents the corresponding conclusions.

Keywords: documentonym, demonym, phaleronym, chrononym, chrematonym

---

Introduction. Extensive research conducted by Uzbek onomastic in recent years has enriched the field of Uzbek linguistics with a number of monographs (V.Nafasova, O.Kholikov) and numerous scientific and popular scientific articles (S.Qoraev, T.Nafasov, Z.Dosimov, N.Okhunov, N.Begaliev, T.Enazarov, N.Husanov, S.Karimov, S.Bouriev), treatises, explanatory dictionaries (S.Qoraev, E.Begmatov, Z.Dosimov, Kh.Egamov, B.Orinboev, T.Nafasov, (S.Qoraev, E.Begmatov, T.Nafasov and others). In this field, especially T.Nafasov, Z.Dosimov, H.Hasanov, S.Qoraev, N.Okhunov, N.Husanov, T.Enazarov, Kh.Doniyorov, The contribution of scientists such as A. Otajonova and B. Orinbaev is significant. The role of scientific and theoretical conferences on onomastics held in our republic in the development of Uzbek onomastics is of great importance. For example, in 1974, an all-Union scientific conference was held in Bukhara on the topic "Current

problems of Central Asian onomastics". This conference was attended by many famous scientists, including L.I. Royzenzon, H. Berdiyorov, and R. Kungurov from Samarkand. H. Berdiyorov, together with B. Yuldoshev, gave lectures at this conference on the topic "The use of proper nouns in phraseological units in the Uzbek language", and R. Kungurov gave lectures on the topic "Occasional meaning of proper nouns" in the satirical journal "Mushtum".

In the same years, several scientific collections were published at SamSU under the title "Onomastic issues", and the scope of scientific research in this field expanded significantly.For example, in the same years, SamSU scientists began to deal specifically with the issues of poetic onomastics or onomastic methodology. A large monograph by the famous literary critic E.B. Magazannik entitled "Onomapoetics or Speaking Names in Literature" was published in Tashkent. This scientist's student Yu. Pulatov conducted research in this area and created an interesting treatise on the translation of names in literary texts. Later, I. Mirzaev conducted some observations on the rendering of personal names and geographical names in literary translation.

Analysis and methodology of literature. In the 80s-90s of the 20th century, all-Union and republican scientific-theoretical and scientific-practical conferences called "Onomastics of Uzbekistan" were held in the cities of Jizzakh (1985), Gulistan (1987), Karshi (1989), Navoi (1993; 1998), the materials of which were published as separate collections. Since those same years, special courses and specialized seminars dedicated to the problems of "Onomastics", "Toponymy of Uzbekistan", "Onomastics of Uzbekistan", "Onomastics of the Uzbek language" have been held in such higher educational institutions as the National University of Uzbekistan, Tashkent State University, Samar State University, Karshi State University, and Bukh State University. Most of the existing works on Uzbek onomastics analyze only names, partly nicknames and pseudonyms, microtoponyms and macrotoponyms, ethnonyms. However, some types of proper names in the Uzbek language have not been studied or have been analyzed little to date. Such issues include myphony, ktematonyms, agnonyms, necronyms, geonyms, gemeronyms, documentonyms, oronyms, patronymics, pereytonyms, chromonyms, geortonyms, speleonyms, phytonyms, ecclesionyms, ergonyms, chrematonyms, artistic onomastics, onomastic methodology, nicknames and pseudonyms, spelling of proper names, practical transcription and transliteration of onomastic units, practical and theoretical problems of onomastics, including problems of onomastic lexicography.

The onomastic system of any language, including the Uzbek language, is a linguistic entity that is quantitatively extremely multifaceted, voluminous, and different in terms of its nominative-functional characteristics, but at the same time has a certain connection and relationship with each other. Just as the lexical wealth of a language consists of concrete lexical units (lexemes), the onomastic fund of a language is made up of concrete proper nouns embodied within the lexicon. These concrete names are called onomastic units in an imitation of the terms "language units", "lexical units", and "speech units" in onomastics. Azerbaijani linguist A.Gurbanov includes anthroponyms, ethnonyms, toponyms, hydronyms, zoonyms, cosmonyms, ktematonyms in the onomastic units ("units") of the Azerbaijani language. Usually, linguistic units belong to certain levels, areas of the language, constitute its essence. There is no level in the language without linguistic units, without linguistic unity. Therefore, A.M.Gurbanov distinguishes "onomacology" (onomastics) as a separate, independent level of the language and equates it with lexicology, semasiology, phraseology, derivation and other levels.

If we approach the concept of onomastic unity from the point of view of A.M. Gurbanov, three aspects are revealed: 1) the term onomastic unity denotes a single proper noun: such as Muhabbat (name), Ferghana (toponym), Mushtariy (star); 2) the onomastic unity denotes a set of names that are united into a group according to their nominative-functional properties: such as toponyms or zoonyms; 3) the onomastic unity denotes the concept of a proper noun in general within the framework of onomastics. The level of defining and studying onomastic unity is at different levels in the linguistics of national languages. In order to determine this situation, some major onomastic scholars, as well as a number of scientific collections devoted to onomastics, were observed and the terms expressing onomastic unity in them were defined.

Results of the analysis. According to the research of individual authors and the materials of scientific collections and scientific conferences, about fifty types of onomastic units were cited. These are those that are currently known to the science of onomastics. In the future, a more complete analysis of the onomastics of different languages of the world can supplement the composition of the noted units with new types of proper nouns. Onomastic units that have been relatively satisfactorily studied in the field of onomastics are anthroponyms, toponyms, hydronyms, zoonyms, oronyms, oikonyms, ergonyms and ethnonyms. Onomastic units known to the field of onomastics, but little studied, include cosmonyms, astionyms, ktematonyms, urbanyms. Onomastic units that are mentioned in studies but are not the object of separate research include documentonyms, demononyms, phaleronyms, chrononyms, chrematonyms, etc. Although some types of onomastic units exist and are known as proper nouns, they are almost never explained and analyzed: onoykonym, artionym, agionym. venesuonym, glyasionym, gemeronym, georthonym, gynekonym, dignitonym, ideonym, insectonym, katoikonym, lithonym, marcyonym, mercuronym, nautonym, names of press publications, names of vehicles, proper nouns of scientific, artistic literature and works of art, etc.

The diverse properties of proper nouns (nouns) in the language have attracted the attention of scholars in various fields since ancient times. For example, in the works of ancient Greek scholars Aristotle, Democritus, Heraclitus, opinions were expressed about the properties of proper nouns. For example, in his work "Poetics", Aristotle considers a noun to be one of the parts of speech and defines it as follows: "A noun is a complex, meaningful word, not indicating time, whose parts do not have meaning by themselves."Julius Pollux, who lived in the 1st century BC, created a dictionary explaining proper nouns called "Onomastics". The Stoics, including Chrysippus, classified proper nouns as a separate linguistic unit, a group of words. During the Renaissance and the Middle Ages (T. Hobbes, D. Locke, G. Leibniz) and throughout the 19th century (D. Mill, H. Joseph, etc.), the debate on the question of proper nouns and their place in the lexical layer of the language continued. The most important issue in this area was to determine what meaning proper nouns convey. During the 19th century, this problem was studied not only by linguists, but also by philosophers and logicians. The great English logician John Stuart Mill (1806-1873) devoted a lot of effort to studying this problem.

According to his interpretation, proper nouns do not convey meaning, they help to know an object as specific signs, labels, and distinguish it from other objects. The name of an object, a person (proper noun) cannot be a complete basis for describing that object or person. Developing his ideas, J. Mill divides words into two groups: a) words-signs, b) characterizing (connotating) words. Connotating words appeared after proper nouns. Another English logician, H. Joseph, expressed opposite views to J. Mill about proper nouns. In his opinion, proper nouns have a broader and more meaningful meaning than common nouns. For example, the sentence “Palikur (a person’s name, a companion, companion of the legendary Aeneas) was overlooked” is much more meaningful than the sentence “A person was overlooked”. In the 20th century, the logical direction of proper nouns was further developed by the famous English philosopher and logician Bertrand Russell (1872-1970). In his opinion, the meaning expressed by proper nouns in a certain place and time is more precise and scientific in nature than common nouns. In this respect, proper nouns are very close to demonstrative pronouns such as this, that, this, that, that. Danish linguist Paul Christophersen sees the difference between proper nouns and common nouns in that the former express a clear, concrete meaning, and the latter an abstract meaning. Proper nouns are the direct name of an individual, a person, while common nouns are indirect names. Common nouns initially denote the name of an entire group, a herd, and later this name becomes specific.

The work of the English linguist Alan Gardiner entitled “Theory of Proper Nouns” (1954) raised the science of onomastics to a new level.Developing J. Mill's idea that proper nouns are meaningless, A. Gardiner considers proper nouns to be specific names that express a set of clear, concrete ideas about an object, event, or phenomenon. In this respect, proper nouns are divided into two: a) embodied, personifying (vopolщchennыy) proper nouns and b) non-embodied, non-personifying proper nouns. For example, such proper nouns as William Shakespeare and the

Thames River belong to the group of embodied proper nouns, since they give a general, holistic idea of a specific person (in this case, the great playwright) and a geographical object (in this case, the river).

If we simply say William, this means a non-embodied, personifying proper noun. From a historical point of view, embodied proper nouns appeared earlier, earlier. For example, anthroponyms such as Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoi, and Zahiriddin Muhammad Babur belong to the group of embodied names according to this theory, because they embody the images of famous figures who played a significant role in the history and culture of our country's statehood.Parents dreamed that their children would resemble such famous people, and such anthroponyms as Temur, Temurbek, Ulugbek, Alisher, and Babur belong to the category of non-embodimentary proper nouns. The famous linguist M.I. Steblin-Kamensky, studying the onomastic lexicon from the perspective of embodiment based on the materials of ancient Icelandic literature, notes that there was no "embodiment" phenomenon at all in the onomastic lexicon used in Icelandic literature. In his opinion, any proper noun expressed a certain denotation, meaning. The doctrine of the "embodiment" property of proper nouns, developed by T. Hobbes at the time, was later further improved by G. Leibniz. According to the German philosopher G. Leibniz, proper nouns express concrete and abstract elements of thought. This idea of the scientist is significant from the point of view of considering proper nouns in language (in the system of signified elements of communication) and in speech (in the use of these elements from a communicative point of view). Thanks to such views, an approach to proper nouns from an abstract-logical and concrete-historical point of view has emerged in linguistics.

The scientific view that proper nouns do not have any semantic elements, founded by J. Mill at the time, was later developed by such well-known linguists as V. Bryondal, E. Boyssensom, L. Yelmslev. As a result, some scientists, including the Danish linguist Knud Togeby, consider proper nouns (including pronouns) to be synonyms because they do not have semantic content. Accordingly, a single individual, a person may have several names, and several persons may have one common name (namesakes, surnames: there are other persons unknown to us, unfamiliar to us, such as Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Botir Zokirov, Erkin Yusupov). There are also opposite views to this opinion, that is, proper nouns, being words, have various properties, just like cognate nouns. This view was originally supported by Stoic philosophers, and later developed in the 19th century by scientists such as H. Joseph, J. Mill, and in the 20th century by O. Jespersen. For example, the Danish scientist O. Jespersen stated that "nominal names have more characteristics than similar names.

Conclusion. Proper nouns connote a lot of features. In the 60s and 70s of the 20th century, the famous Russian linguist A.V. Superanskaya was specially engaged in the history of the study of proper nouns in linguistics (especially in foreign linguistics) and published a major study entitled "The General Theory of Proper Nouns". After that, V.A. Nikonov's "Name and Society" (1974), V.A. Karpenko's "Theoretical Foundations of Distinguishing Proper and Cognate Nouns" (1975), A.D. Zverev's "On Proper and Cognate Nouns" (1976), I.I. Kovalik's "Preferred and Cognate Nouns in the Ukrainian Language" (1977) were published, and a separate scientific collection entitled "Preferred and Cognate Nouns" was published (1978). The famous scientist A.A. Reformatsky at one time proposed to distinguish between proper and common nouns as follows: proper nouns primarily have a nominative function, that is, they serve to separately name specific objects, things and events, while common nouns perform a semasiological, that is, expressive function, that is, they name objects and events, as well as express the concept of them.

REFERENCES.

1. Superanskaya A.V. Structure of the proper name, phonology and morphology. – M., 1969. – P.52.
2. Superanskaya A.V. General theory of the proper name. – M., 1973.
3. Dosimov Z., Tillayeva M. The secret of place names. – Khiva, 2001. – P.63

4. Dosimov Z. Toponymic indicators. OTA- 5, 1972. – P.51.
5. Qoraev S. Do you know the meaning of geographical names? – Tashkent, 1970. – P. 46.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

TARIX

Раҳматов Хуршид Толиддин ўғли
ТДШУ мустақил изланувчиси

ЎЗБЕКИСТОН ВА БИРЛАШГАН АРАБ АМИРЛИКЛАРИ ЎРТАСИДАГИ КЎП ҚИРРАЛИ ҲАМКОРЛИКНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

АННОТАЦИЯ

Мақолада 2017–2025 йиллар давомида Ўзбекистон Республикаси ва Бирлашган Араб Амирликлари (БАА) ўртасидаги дипломатик, савдо-иқтисодий ва маданий-гуманитар ҳамкорликнинг асосий йўналишлари таҳлил қилинган. Президентлар даражасидаги ташрифлар, стратегик битимлар, инвестициявий лойиҳалар ва ўзаро савдо динамикасига доир маълумотлар умумлаштирилиб, иккала давлат муносабатларининг янги босқичга кўтарилгани илмий асосда ёритилган. Тадқиқотда расмий статистик маълумотлар ва халқаро ташкилотлар таҳлиллари асосида ҳамкорликнинг устувор соҳалари, ютуқлари ва истиқболлари баҳоланган.

Таянч сўз ва иборалар

Стратегик шериклик, инвестициявий ҳамкорлик, ташқи сиёсат, савдо айланмаси, дипломатик алоқалар, "йўл харитаси", яшил энергетика, рақамли трансформация, минтақавий ҳамкорлик.

ABSTRACT

The article analyzes the main directions of diplomatic, economic, and cultural cooperation between the Republic of Uzbekistan and the United Arab Emirates (UAE) during 2017–2025. It summarizes high-level visits, strategic agreements, investment projects, and trade dynamics, demonstrating the transition of bilateral relations to a new strategic level. Based on official statistical data and analytical reports, the study evaluates the priority areas, achievements, and prospects for further cooperation.

Key words

Strategic partnership, investment cooperation, foreign policy, trade turnover, diplomatic relations, "road map," green energy, digital transformation, regional cooperation.

Кириш

Сўнгги йилларда Ўзбекистон ташқи сиёсатининг муҳим устувор йўналишларидан бири Форс кўрфази мамлакатлари, хусусан иқтисодий жиҳатдан ривожланган Бирлашган Араб Амирликлари (БАА) билан кўп қиррали ҳамкорликни йўлга қўйиш бўлди. 2017–2025 йиллар мобайнида юқори даражада амалга оширилган ташрифлар, имзоланган стратегик битимлар ва қатор инвестиция лойиҳалари Ўзбекистон–БАА муносабатларининг динамик

ривожланишини таъминлади. Мазкур мақолада икки давлат ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқаларнинг асосий йўналишлари, уларнинг трансформация жараёнлари ва амалий натижалари илмий жиҳатдан таҳлил қилинади.

Асосий қисм

2019 йил 24-26 март кунлари Ўзбекистон Республикаси Президентининг Бирлашган Араб Амирликларига расмий ташрифи бўлиб ўтди. Расмий ташриф давомида икки томонлама муносабатларга мустаҳкам пойдевор қўйилди. Мазкур олий даражадаги ташриф давомида Амирликлар раҳбарияти билан учрашувлар ўтказилди ва қатор икки томонлама келишувларга эришилди. Инвестициялар, молия, муқобил энергия, саноат ва инфратузилмани ривожлантириш, қишлоқ хўжалиги, божхона маъмурияти, маданият ва бошқа соҳаларда ҳамкорлик тўғрисидаги имзоланган ҳужжатларнинг умумий қиймати 10 миллиард доллардан ортиқ бўлиб, улар икки мамлакат ўртасида узоқ муддатли ўзаро манфаатли алоқалар учун мустаҳкам асос яратади.

2019 йилнинг мартидан 2021 йилнинг августигача БААдан Ўзбекистонга киритилган сармоялар ҳажми 4,5 миллиард долларга етди. Ушбу рақамлар фақат амалга оширилаётган лойиҳаларга тегишли. Мазкур ташрифдан сўнг икки томонлама ҳамкорликнинг барча йўналишларида сезиларли ютуқларга эришилди. Жумладан, ўзаро товар айирбошлаш ҳажми 2022 йилда 2,1 баробарга ошган бўлса ($518,6 млн), 2023 йилда эса 2022 йилга нисбатан қарийб 21%га ўсган ($625,9 млн), БАА иштирокидаги корхоналар сони 300 тага етди.

2022 йил 15 май куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев яна бир бор Бирлашган Араб Амирликларига ташриф бюрди. Президент 13 май куни узоқ давом этган хасталикдан сўнг вафот этган БАА Президенти Шайх Халифа бин Зоид Ол Наҳаён вафоти муносабати билан таъзия маросимида иштирок этди. Ташриф доирасида БАА Олий кенгаши томонидан мамлакат Президенти этиб сайланган Абу Даби амири Шайх Муҳаммад бин Зоид Ол Наҳаён билан икки томонлама учрашув ўтказилди.

2025 йил 13-16 январь кунлари Шавкат Мирзиёев БААга навбатдаги давлат ташрифи билан борди. Шавкат Мирзиёев у ерда президент Шайх Муҳаммад бин Зоид Ол Наҳаён ва Дубай амири Шайх Муҳаммад бин Рошид Ол Мактум билан учрашув ўтказди. Шунингдек, «Абу-Даби барқарор ривожланиш ҳафталиги» халқаро саммитида иштирок этиб нутқ сўзлади.

Абу-Даби шаҳрида Ўзбекистон Республикаси ва Бирлашган Араб Амирликлари Президентлари ўртасида бўлиб ўтган музокаралар якунида муҳим тармоқлар бўйича келишувларга эришилди. Жумладан, Стратегик шериклик ўрнатиш тўғрисида декларация; Инвестицияларни ўзаро рағбатлантириш ва ҳимоя қилиш тўғрисида ҳукуматлараро битим; инвестициялар, саноат ва илғор технологиялар, адлия, қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат хавфсизлиги, фойдали қазилмалар соҳаларида ҳамкорлик қилиш тўғрисида идоралараро битимлар; Маданият соҳасидаги ҳамкорлик тўғрисида баённома, Дипломатик академиялар ўртасидаги ҳамкорлик тўғрисида битим ва бошқалар.

Етакчилар иқтисодий ҳамкорликнинг янги моделини, жумладан сунъий интеллект, рақамлаштириш, «яшил» энергетика, шаҳарсозлик ва инфратузилма, туризм, хусусий бизнес каби 6 та асосий йўналишни белгилаб олди. Ҳар бир устувор соҳа бўйича алоҳида ишчи гуруҳлар ташкил этишга келишилди. Томонлар 2025−2027 йилларни «Ўзбекистон ва БАА ўртасидаги иқтисодий ҳамкорликнинг янги даври» деб эълон қилиш таклифини қўллаб-қувватладилар. Шу маънода, 2030 йилга қадар ўзаро савдо ҳажмини 10 баробарга кўпайтириш ва инвестиция портфелини 50 миллиард долларга етказишга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш асосий вазифа этиб белгиланди.

Икки томонлама алоқаларнинг изчил ривожланиб, сўнгги йилларда стратегик даражага кўтаришида БААнинг (марҳум) Президенти Шайх Халифа бин Зоид Ал Наҳён, БАА Бош вазири ва Дубай амирлиги ҳокими Шайх Муҳаммад бин Рошид Ал Мактум ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ўртасидаги дўстона муносабатлар икки давлат ўртасидаги алоқаларни ривожлантиришда муҳим омил бўлиб хизмат қилмоқда.

2018 йилдан кейинги даврда БАА томонидан ҳам бир неча юқори даражадаги давлат ташрифлари амалга оширилди. Хусусан, 2019 йил 11 апрелда ҳукумат ишлари бўйича вазир Муҳаммад бин Абдуллоҳ ал-Гаргавий бошчилигидаги делегация расмий ташриф билан Ўзбекистонга келди. Ташриф доирасида Ўзбекистон ва БАА ўртасидаги кўпқиррали ҳамкорликни янги босқичга кўтариш, инвестиция лойиҳалари ва давлат идораларини рақамлаштириш тажрибаларини кенг жорий қилиш масалалари муҳокама қилинди. Учрашувларда 10 миллиард доллардан ошиқ умумий ҳажмдаги инвестиция ташаббуслари ва уларни амалга ошириш учун "йўл харитаси"га келишилгани қайд этилди.

2022 йил 10 июн ҳукумат ишлари бўйича вазир Муҳаммад бин Абдуллоҳ ал-Гаргавий бошчилигидаги делегация иккини маротаба Тошкентга келиб президент қабулида бўлди, музокаларда, икки томонлама "йўл харитаси"ни янада мустаҳкамлаш, 17 та катта инвестиция лойиҳасини (тақрибан $3 млрд) давом эттириш ва Масдар, DP World, Mubadala каби компаниялар билан ҳамкорликни чуқурлаштириш бўйича келишувлар эълон қилинди; шу билан бирга музокаралар чоғида давлат бошқаруви самарадорлигини ошириш борасидаги, "Бир миллион дастурчи" дастури ва Ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар акселератори фаолияти доирасидаги ҳамкорликнинг амалий натижалари катта мамнуният билан қайд этилди.

2024 йил 7 сентябр куни Шайх Ҳамдан бин Муҳаммад бин Рашид Ал Мактум - БААнинг олий сиёсий элитасидан бири (Дубай амирлиги валиаҳди), делегация таркибида Муҳаммад бин Абдулла ал-Гергавий (Ҳукумат ишлари вазири), Суҳайл бин Муҳаммад ал-Мазруйи (Энергетика ва инфраструктура вазири), Абдуллоҳ бин Тук ал-Маррий (Иқтисод вазири), Умар бин Султон ал-Олама (сунъий интеллект ва рақамли иқтисодиёт бўйича давлат вазири) каби юқори мартабали вазирлардан иборат делигация ташриф бюрди. Ташриф натижасида, инвестиция, инновация, яшил (green) энергия, инфратузилма, таълим, соғлиқни сақлаш, рақамли трансформация ва туризм соҳаларида янги узоқ муддатли кун тартибини шакллантириш; мудофаа соҳасида ҳам амалий ҳамкорликни йўлга қўйиш масалалари муҳокама қилинди.

Дипломатик алоқаларнинг ривожланиш борасида қуйидагича хулоса қилиш мумкин. 2019–2024 йиллари оралиғида Ўзбекистон билан БАА муносабатлари босқичма-босқич янги миқёсда мустаҳкамланди бу жараёнда олий даражадаги сиёсий мулоқот (алоҳида алоқалар: 2019, 2022, 2023, 2024 ташрифлари) ҳамда ҳукуматлараро механизмлар - "йўл хариталари", Ҳукуматлараро комиссиялар ва инвестиция сессиялари муҳим рол ўйнади. Бу динамика мантиқан мамлакатнинг кўпвекторли ташқи сиёсати ва инвестицияни жалб қилиш стратегияси билан уйғунлашади.

БААнинг йирик ширкатлари (Masdar, DP World, Mubadala ва ҳ.к.) билан қатор муҳим энергетика ва логистика лойиҳалари рўёбга чиқмоқда. Бу лойиҳаларнинг амалга оширилиши Ўзбекистон учун энергия манбалари диверсификацияси, транзит-логистика салоҳиятининг ошиши ва инновацион иқтидорларнинг кенгайиши каби манфийатларни бермоқда.

БАА делегацияларининг давлат бошқарувини модернизация қилиш тажрибаси, рақамлаштириш ва кадрлар тайёрлаш (One Million Coders каби лойиҳалар) бўйича ҳамкорлиги Ўзбекистонда давлат бошқаруви тизимини такомиллаштиришга хизмат қилмоқда — бу илмий-амалий ислоҳотлар учун муҳим ресурс ҳисобланади.

БАА статистик маълумотларига кўра, 2018 йилдан 2019 йилгача БАА ва Ўзбекистон ўртасидаги умумий нефть бўлмаган савдо ҳажми сезиларли даражада 113 фоизга ошиб, 2019 йилда 689 миллион АҚШ долларини ташкил этди. Бу ўсиш БААнинг Ўзбекистондан импорт ҳажми 2018 йилдаги 15,17 миллион АҚШ долларидан 2019 йилда 363 миллион АҚШ долларигача, яъни 2295 фоизга ошгани билан изоҳланади. Ўзбекистон Республикасининг расмий статистик маълумотларига кўра, 2020 йилда Ўзбекистон ва БАА ўртасидаги товар айирбошлаш ҳажми 209,3 миллион АҚШ долларини ташкил этиб, ўтган йилга нисбатан 15,3 фоизга камайган. 2020 йилда икки томонлама савдо кўрсаткичларининг пасайиши, асосан, Covid-19 пандемияси билан боғлиқ. 2021 йил 1 январь ҳолатига кўра, Ўзбекистонда БАА капитали иштирокидаги 150 дан ортиқ компания, жумладан, 75 дан ортиқ қўшма корхона ва

100 фоиз БАА сармояси билан ташкил этилган 76 га яқин хорижий корхона фаолият юритган.

2024 йилда Ўзбекистондаги Иқтисодий тадқиқотлар ва ислоҳотлар маркази (CERR) 2017-2023 йиллар ва 2024 йилнинг 11 ойи давомида Ўзбекистон ва БАА ўртасидаги савдо-иқтисодий ва инвестициявий ҳамкорликни таҳлил қилиб, ҳисобот эълон қилган.

Унга кўра, Ўзбекистоннинг БАА билан савдоси қуйидаги кўринишда бўлган. 2017-2023 йиллар давомида Ўзбекистоннинг БАА билан товар айирбошлаш ҳажми $115 млн.дан (2017 й.) $626 млн.га (2023 й.) 5,4 баробар, экспорт $46 млн.дан 261,7 млн.га 5,7 баробар, импорт $69 млн.дан $364,2 млн.га 5,3 баробар ўсди. 2023 йилда 2022 йилга нисбатан товар айирбошлаш ҳажми 20,7%га, экспорт 2,1 баробарга, импорт эса 7,9%га камайди.

2024 йилнинг 11 ойи якунларига кўра, 2023 йилнинг шу даврига нисбатан Ўзбекистон ва БАА ўртасидаги товар айирбошлаш ҳажми 4,2%га ўсди ва $591 млн.ни (2023 йилда – $567 млн.) ташкил этди, экспорт деярли ўзгармади - $224 млн (2023 йилда-$224,2 млн.), импорт 7,1%га ошган ва бу $367 млн (2023 йилда - $343 млн.) ташкил этган.

Ўзбекистоннинг БАА билан савдо айланмасининг Ўзбекистон умумий ташқи савдо айланмасидаги улуши 1%ни ташкил этади.

Ўзбекистоннинг БААга экспорти 2024 йилнинг 11 ойи давомида қуйидаги товар турларидан иборат бўлди: озиқ-овқат маҳсулотлари (сабзавотлар, қуритилган мевалар, ёнғоқлар) – $9,4 млн.; тамаки – $9,9 млн., нефт маҳсулотлари (реактив ёқилғи – $29,8 млн., синтетик парафин – $32,6 млн.) - $62,4 млн.; кимёвий моддалар (калийли ўғитлар) – $1,3 млн., саноат маҳсулотлари (ип-калава – $8,3 млн., мато, кийим - кечак – $1,3 млн., мис сим ва қувурлар - $4,2 млн. ва ҳоказо.)- $14,1 млн; машина ва транспорт ускуналари (автомобил қисмлари, турбореактив двигателлари, асбоблар, трансформаторлар, ортопедик асбоблар ва бошқалар.) – $10,5 млн.; турли тайёр маҳсулотлар (қимматбаҳо металлардан заргарлик буюмлари – $14 млн., смартфонлар - $2,4 млн.) - $16,6 млн., шунингдек, хизматлар (ҳаво транспорти – $63,4 млн., суғурта – $10,5 млн., компьютер - $6 млн. ва ҳоказо.)- $99,5 млн.

2024 йилда озиқ-овқат маҳсулотлари (+$2,4 млн), тамаки (+$2,2 млн), заргарлик буюмлари (+$5,6 млн) ва хизматлар (+$8,3 млн) экспорти ўсди. Бундан ташқари, 2023 йилда экспорт қилинмаган товарлар, масалан, ип-калава, тайёр кийим-кечак, мис сим ва найчалар, шунингдек, смартфонлар экспорт қилинди.

Экспорт таркибида қуйидаги товарлар асосий улушни эгаллайди: хизматлар – 45%, “минерал ёқилғи ва шунга ўхшаш маҳсулотлар” - 28%, турли хил тайёр маҳсулотлар – 8%, саноат товарлари - 6%, машина ва транспорт ускуналари – 5%, шунингдек, тамаки - 4,4% ва озиқ-овқат маҳсулотлари – 4,2%.

Юқорида таъкидланганидек инвестициявий ҳамкорлик БААбилан ҳамкорлик алоқаларидаги асосий мотивлардан бири ҳисобланади. 2024 йил 1 декабрь ҳолатига кўра, Ўзбекистонда БАА сармояси иштирокидаги 337 та корхона фаолият кўрсатмоқда. Сўнгги йилларда Ўзбекистонга БАА инвестицияларининг сезиларли ўсиши кузатилмоқда ва $1,0 млн.дан (2017 йилда) $76,7 млн.гача (2022 йилда) ўсди. 2023 йилда БАА Ўзбекистон иқтисодиётига сармоядор мамлакатлар орасида инвестициялар ҳажми бўйича 3-ўринни эгаллаб, 1,2 миллиард доллар кўрсаткич билан инвестициялар ҳажмининг 73 фоизи энергия таъминоти соҳасига киритилди.

Умуман олганда, 2017-2023 йиллар мобайнида БААнинг Ўзбекистонга киритган инвестициялари ҳажми $1,5 млрд.дан ошди. 2024 йилнинг биринчи ярмида БААнинг Ўзбекистон иқтисодиётига киритган инвестициялари ҳажми $592,2 млн.ни ташкил этди.

Икки мамлакат маданий алоқалар ва гуманитар алмашинувни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратмоқда. Ўзбекистон ва Бирлашган Араб Амирликлари халқлари ўртасида ўзаро тушунишни ошириш ва дўстликни мустаҳкамлаш мақсадида маданий тадбирлар, кўргазмалар ва фестиваллар мунтазам ўтказилмоқда.

Амирликлар фольклор жамоалари Самарқанддаги "Шарқ тароналари" халқаро мусиқа фестивалида, Шаҳрисабздаги Мақом санъати халқаро фестивалида ва Термиздаги

Бахшичилик санъати фестивалида иштирок этмоқда. 2019-2023 йилларда Ўзбекистон делегацияси Абу-Дабида ўтказилган "Бирлашган Араб Амирликлари асосчиси Шайх Зоиднинг маданий меросига бағишланган фестиваль"да миллий павильон билан қатнашди. 2023 йил март ойида "Dubai Опера" театрида "Баҳор" рақс ансамбли дастурининг халқаро премьераси бўлиб ўтди ва Ўзбекистон рақс санъати Амирлик томошабинлари томонидан зўр қизиқиш билан кутиб олинди.

Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2025 йил 13 январда амалга оширилган БААга ташрифи, шубҳасиз, икки томонлама муносабатларни ривожлантиришда муҳим босқич бўлади ва икки мамлакатнинг иқтисодиёт, энергетика, инвестиция ва маданият каби асосий йўналишларда шерикликни мустаҳкамлашга интилишини яна бир бор тасдиқлайди. Ушбу тадбир минтақавий ва халқаро ташкилотлар доирасидаги ҳамкорликни кучайтиради, давлатларнинг барқарор ўсиши ва фаровонлигига хизмат қилади.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, Бугунги глобал геосиёсий муҳитда Ўзбекистон Республикаси ва Бирлашган Араб Амирликлари (БАА) ўртасидаги муносабатлар янги сифат босқичига кўтарилгани кузатилмоқда. 2017–2025 йиллар давридаги сиёсий мулоқотлар, иқтисодий келишувлар ва маданий-гуманитар алоқалар таҳлили шуни кўрсатадики, икки давлат ўртасидаги муносабатлар барқарор стратегик йўналишга эга бўлиб, уларнинг ривожланиши замирида ҳам сиёсий ирода, ҳам ўзаро манфаатли прагматик ёндашув мужассамдир.

Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2019, 2022 ва 2025 йиллардаги БААга расмий ташрифлари икки давлат ўртасидаги муносабатларнинг асосий сиёсий устувор йўналишларини белгилаб берди. Бу ташрифлар давомида ўзаро стратегик шерикликни йўлга қўйиш, халқаро майдондаги ҳамкорликни мустаҳкамлаш, минтақавий хавфсизлик ва барқарор тараққиёт масалаларини ҳамкорликда ҳал этиш бўйича муҳим келишувлар имзоланди. Хусусан, 2025 йил январда имзоланган "Стратегик шериклик тўғрисида декларация" икки давлат муносабатларининг сиёсий асосини мустаҳкамлади.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбаалар

1. Mirziyoyev, S. (2019). Official visit to the United Arab Emirates: Agreements and outcomes. Tashkent: Presidential Press Service.
2. Ministry of Investments and Foreign Trade of the Republic of Uzbekistan. (2020–2024). Trade and economic cooperation statistics with the UAE. Tashkent.
3. Center for Economic Research and Reforms (CERR). (2024). Uzbekistan–UAE economic cooperation report (2017–2024). Tashkent.
4. UAE Ministry of Economy. (2020). Foreign trade statistics with Uzbekistan. Abu Dhabi.
5. Masdar Company. (2023). Renewable energy projects in Uzbekistan: Annual report. Abu Dhabi.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Саидов Ш.Ж.
ТДШУ МОХТ
кафедраси профессори
в.б., т.ф.д (DSc)

ХИВА - РОССИЯ МУНОСАБАТЛАРИ: "ХИВА МАСАЛАСИ" (XVIII-XX аср бошлари)

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Хива хонлигининг Россия империяси билан муносабатларидаги зиддиятли ҳолатлар, "Хива масаласи"нинг вужудга келиши, унинг икки томонлама алоқаларга таъсир этган омил сифатидаги моҳияти ва оқибатлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Хива хонлиги**,** Россия империяси, Пётр I, ҳарбий экспедиция, "Хива масаласи", муносабатлар, Бекович-Черкасский, транзит йўл, геостратегик минтақа.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются конфликтные ситуации во взаимоотношениях Хивинского ханства с Российской империей, возникновение «хивинского вопроса», его сущность и последствия как фактора, влияющего на двусторонние отношения.

Ключевие слова: Российская империя, Петр I, Хивинское ханство, "Хивинской вопрос", военная экспедиция, Бекович-Черкасский, двусторонние отношения, транзитний путь, геостратегический регион.

ABSTRACT

The article analyzes conflict situations in the relationship between the Khiva Khanate and the Russian Empire, the emergence of the "Khiva question", its essence and consequences as a factor influencing bilateral relations.

Key words: Russian Empire, Peter I, Khiva Khanate, "Khiva Question", military expedition, Bekovich-Cherkassky, bilateral relations, transit route, geostrategic region.

Кириш. Мақолада XVIII аср бошларидан XX аср бошларигача давом этган Хива – Россия муносабатларидаги муаммоли ҳолатлар таҳлил қилинади. Россия империясининг XVIII–XIX асрларда Марказий Осиё минтақасига, жумладан, Хива хонлигига геостратегик қизиқиши, ушбу ҳудуднинг бой табиий-иқтисодий ресурсларига, Амударё ва Ҳинд дарёлари орқали Жанубий осиё мамлакатлари – Ҳиндистон, Эрон, Афғонистон, Хитой каби давлатларга олиб борадиган транзит йўл, асосий савдо йўналишларига эгалик қилиш билан боғлиқ фаол ҳарбий-дипломатик ҳаракатлари бу даврда икки томонлама муносабатларни моҳияти ва характерини белгилаб берган омиллардан бўлган. Россия императори Петр I (1689-1725) Хива хонлигини босиб олиш учун 1717 йилда Бекович-Черкасский бошчилигида ҳарбий қўшин жўнатади. Аммо, Хива хони Шерғозихон (1714-1728)

бошчилигида хива қўшини ва халқи истилочиларга зарба беради, истилочи қўшин қириб ташланади. Бекович-Черкасский ҳалок бўлади. Шу тариқа икки томонлама алоқаларда "Хива масаласи" деган тушунча вужудга келади. Унга кўра, рус ҳарбий ва маъмурий доираларида Хивани жазолаш, "қасос" олиш истаги сиёсат даражасига кўтарилади. Шунинг учун ҳам Хива-Россия муносабатларида муносабатларда ўзаро ишончсизлик, қарама-қаршилик ва зиддиятлар устунлик қилган. Россия ўзининг геостратегик мақсадларига дипломатик воситалар билан эриша олмагач, Туркистон хонликларини, жумладан, Хива хонлигини ҳарбий куч билан босиб олади ва ўз мустамлакасига айлантиради. 1920 йилда эса совет Россияси томонидан Хива хонлиги босиб олинади ва мустақил давлат сифатида тугатилади.

Хива - Россия муносабатлари: "Хива масаласи"
(XVIII-XX аср бошлари)

Хива хонлигига 1511 йилда Шайбонийлардан бўлган Элбарсхон томонидан асос солинган. Қудратининг чўққисида Хива хонлигининг ҳудудлари шимолда Дашти Қипчоқнинг жанубий этаклари ва Сирдарёнинг қуйи оқимидан Эмба дарёсигача чўзилган бўлиб, Каспий денгизининг шарқий қисмида жойлашган Манғишлоқ ярим ороли ҳам хонлик тассаруфида эди . Ўша вақтда жанубда Копетдоғ этаклари, Эроннинг шимолий чегараларигача бўлган ҳудуд, туркман қабилалари истиқомат қиладиган Қорақум саҳроси ва унга туташ ерлар ҳам Хивага қарашли бўлган.

XVIII-XIX асрга келиб Россия империяси Марказий Осиё минтақасида ҳукмронлик қилиш учун фаол ҳаракатлар олиб борган. Халқаро муносабатлар бўйича машҳур тадқиқотчи Г. Киссенжернинг фикрича, бу даврда Россия империясининг ташқи сиёсати асосан янги ерларни қўшиб олиш ва эгаллашга қаратилган. Худди шу даврда Россия Урал тоғларидан Тинч океанигача бўлган улкан ҳудуд, қозоқ жузлари жойлашган Дашти Қипчоқнинг шарқий қисмини (асосан, ҳозирги Қозоғистон ҳудудларини) эгаллаб, XIX аср ўрталарида шимол тарафдан Марказий Осиё минтақасида жойлашган ўзбек хонликлари, жумладан Хива хонлиги чегарасигача етиб келади.

Россиялик тадқиқотчи А. В. Кочневнинг таъкидлашича: "Россия ташқи сиёсати тарихида Хива хонлиги алоҳида ўрин тутган. XVI аср бошларида ташкил топган Хива хонлиги муҳим савдо йўллари ўтган Марказий Осиёнинг бепоён ғарбий ҳудудларини бирлаштириб, ўз назоратини ўрнатишга муваффақ бўлади. Натижада турли тарихий даврларда минтақада устунлик учун рақобатлашаётган қудратли сиёсий кучлар Хива хонлиги ҳудудлари учун курашни кучайтирадилар. Россиянинг Шарқ томонга кенгайиб бориши транзит ва савдо йўллари, ресурслар учун рақобатнинг кучайишига олиб келди. Бу даврга келиб Россиянинг Осиё ва Ҳиндистон билан савдо алоқаларида ҳал қилувчи асосий омил, энг муҳим транзит йўли сифатида Хива хонлигининг аҳамияти ниҳоятда ошди". Россиялик тадқиқотчи Е. Н. Крупенкин ёзганидек: "Рус ҳукумати XVIII асрнинг биринчи ярмида Ўрта Осиёни ўзининг геосиёсий манфаатлари доирасига қўшиш зарур ва муҳим эканлигини англаб етган эди". Яна бир рус тадқиқотчиси М. Грулёвнинг фикрича: "...Буюк Пётр давридан Россиянинг Ўрта Осиёга интилиши режали асосда икки йўналишда, яъни Амударё томонидан ҳамда Ғарбий Сибирь ҳудудидан ўтувчи Иртиш дарёси орқали амалга оширила бошланган".

А. В. Кочнев Россия империясининг Марказий Осиё минтақасига, жумладан, Хива хонлигига геостратегик қизиқишини, аввало, ушбу ҳудуднинг бой табиий-иқтисодий ресурслари, шунингдек Амударё ва Ҳинд дарёлари орқали Жанубий Осиё мамлакатлари — Ҳиндистон, Эрон, Афғонистон, Хитой каби давлатларга олиб борадиган транзит йўл, асосий савдо тармоғи, геостратегик йўналиш сифатидаги аҳамияти билан изоҳлайди.

Дарҳақиқат, Россия империясининг асосчиси Петр I (1682–1725) давридан русларнинг Марказий Осиёга ҳарбий-стратегик қизиқишлари ортиб борган. Петр I Ҳиндистонга борадиган қуруқлик ва сув йўлларини излаб топиш учун энг қулай ва яқин ҳудуд Хива хонлиги деган қарашга амал қилиб, Хивани ишғол қилиш режасини тузади. 1714 йил май ойида Петр I Хивага капитан-поручик Бекович-Черкасский бошчилигида ҳарбий

экспедиясини жўнатиш ҳақида қарор қилади. 1716 йил 14 февраль куни Бекович-Черкасский Хива, Бухоро, Ҳиндистонга элчи қилиб тайинлайди. Ниҳоят, Петр I Хива хонлигини эгаллаш учун 1717 йилда князь Бекович-Черкасский бошчилигида ҳарбий қўшин юборган. Аммо, хиваликларнинг тадбири ва матонати туфайли ушбу ҳарбий авантюра барбод бўлган.

Ушбу воқеа, яъни, Хивага бостириб келган князь Бекович-Черкасский бошчилигидаги ҳарбий қўшиннинг хиваликлар томонидан тор-мор келтирилиши Россия ҳарбий ва маъмурий доираларида жуда ёмон ва ачинарли таассурот қолдирган. Айниқса, Россия императори Пётр I бундан қаттиқ азият чеккан. У вафотидан олдин князь Бекович-Черкасский бошчилигида ҳарбий қўшин ҳалокати учун қасос олишни васият қилган деган маълумотлар ҳам учрайди. Нима бўлгандаям, рус ҳарбийлари, бир юз эллик йил давомида расмий равишда ёки ўзаро мулоқатларида князь Бекович-Черкасский ва унинг ҳарбий бўлинмаси ҳалокати учун "қасос" олиш иштиёқида яшаганликлари рус тадқиқотчилари томонидан қайд этилади. Шу тариқа Россия империясининг ташқи сиёсатида Пётр I (1689–1725) томонидан Хива хонлигини бўйсундириш учун юборган Бекович-Черкасский бошчилигидаги ҳарбий экспедициянинг (1714–1717) ҳалокати билан боғлиқ воқелар боис Хива билан Россиянинг ўзаро муносабатларида "Хива масаласи" деган тушунча қўлланилади.

Айрим тадқиқотчиларнинг таъкидлашича, Россия империяси ва Хива хонлиги ўтасидаги икки томонлама муносабатларга "Хива масаласи" доимий равишда таъсир кўрсатган омиллардан бўлган. М. Грулёвнинг фикрича:"... бу омил узоқ йиллар давомида Россия империясининг Марказий Осиёдаги жадал ҳаракатларини тўхтатиб тургани боис, унинг ташқи сиёсати ва савдо манфаатларида бош таҳдид бўлиб келган. Ушбу масаланинг ҳал қилиниши ана шу даврда Россия империясининг Осиё ташқи сиёсатидаги энг муҳим вазифаларидан бири бўлган". Шу боис ҳам ташқи сиёсатда, экспансив-тажовузкор қарашларга асосланган Россия дипломатияси XVIII–XIX асрларда Хива билан муносабатларда бир марта ҳам муваффақиятга эриша олмаган. Аксинча, бундай ташқи сиёсат туфайли Хива хонлиги билан муносабатларда ўзаро ишончсизлик, қарама-қаршилик ва зиддиятлар устунлик қилган. Ушбу зиддиятлар 1873 йилда Россия империясининг Хива хонлигини ишғол қилиниши билан якунланади.

Рус шарқшуноси Н. И. Веселовский (1848–1918) бу воқеадан мамнунлигини қуйидагича изоҳлайди: "1717 йилда Бекович-Черкасский ва 1839 йилда Перовский бажара олмаган вазифани Константин Петрович фон Кауфман 1873 йилда уддалади... Ниҳоятда чўзилиб кетган "Хива масаласи" охир оқибат ҳал қилинди". Хивани эгаллашга илк бор ҳаракат қилган Россия императори Пётр I хотираси шарафига 1873 йил 30 май — унинг туғилган куни — муносабати билан Хива шаҳрида махсус тантанали тадбир ташкил этилгани ҳам бежиз бўлмаган эди. Россия империясининг ҳукмрон доиралари ушбу мағлубият учун қасос олиш ва хонликни бўйсундиришга ҳаракат қилиб, 150 йилдан ортиқроқ вақт давомида Хива хонлигига қарши бир неча марта (Баёний беш марта деб ёзади) ҳарбий экспедициялар ташкил қилган бўлса-да, ҳар сафар барча уринишлар фожиали якун топган. Шунинг учун ҳам рус ҳарбийлари орасида Хива хонлиги "бўйсунмас Жазоир" номи билан машҳур бўлган. 1873 йилда Хива хонлигининг босиб олиниши нафақат Буюк Пётр орзуларининг ижобати бўлди, балки Россияга етказилган барча "азоблар" учун мукофот сифатида зўр қувонч билан нишонланди. Н.Веселовский 1873 йилда Хива хонлигининг истило қилинишини Россия империяси ташқи сиёсатининг улкан муваффақияти сифатида баҳолайди.

Аммо, 1873 йилда Россия империяси томонидан Хива хонлигининг босиб олиниши билан "Хива масаласи" якун топмаган. 1917 йилда Россияда большевиклар ҳокимияти ўрнатилиши билан "Хива масаласи" яна кун тартибига чиқди ва Совет давлати ташқи сиёсатида асосий муаммоларидан бирига айланди. Хива ҳақида большевиклар етакчиси В. И. Ленин бундай деган эди: "Биз Хива деҳқони Хива хони зулми остида яшашишни умуман истамаймиз. Инқилобимиз ривожланиб бориши билан биз эзилган халқларга таъсиримизни кучайтирамиз. Барча ҳаракат ва тарғиботимизни мана шу асосда ташкил қилмоғимиз зарур" . Совет ҳокимияти Туркистон аҳолисининг ишончини тўлиқ қозониш

мақсадида, Россия империяси даврида Хива хонлиги ва Бухоро амирлиги ўртасида имзоланган ҳамда қарамлик ва нотенглик принципларига асосланган барча битим, келишув ва шартномаларнинг бекор қилинганлигини расман эълон қилди. Бироқ тарихий воқеаларнинг кейинги ривожи большевиклар Туркистон халқлари мустақиллигини фақат қоғоздагина тан олганлигини кўрсатди. Большевиклар Бухоро билан Хивани Россия таъсиридан чиқариб юборишни мутлақо истамасликлари, бутун куч ва воситалар билан хонликни "жаҳон инқилоби олови"га ташлашга ҳаракат қилаётганликлари аён бўла бошлади. Шу даврдан совет Россияси ташқи сёсатида қайтадан "Хива масаласи" вужудга келди. Бу сиёсатнинг моҳияти шундаки, большевиклар Хива хонлигидаги мавжуд тузумни ўзгартириб, ҳудудини босиб олиб, ўрнида советча ҳукумат ташкил этишга ҳаракат қилдилар.

Большевиклар Хива хонлигига ҳеч қачон халқаро муносабатларнинг мустақил субъекти сифатида қарамаган, аксинча, совет ташқи сиёсатининг маҳсули, бўлажак мустамлака, қарам давлат сифатида қараганлар. Бу даврда большевиклар етакчиларининг онгида мустаҳкам жойлашган "жаҳон инқилоби" ғояси Шарқ мамлакатлари, жумладан, Хива хонлиги билан муносабатларда асосий ва ҳал қилувчи омил бўлган.

1919 йил ёзида большевиклар ҳукумати ва Хива хонлиги ўртасидаги муносабатлар баттар кескинлашади .ТАССРнинг Ташқи ишлар бўйича комиссари Турсунхўжаевнинг 1919 йил 1 ноябрдаги ҳисоботида шундай дейди: "Хива хонлиги совет давлатига нисбатан душманлик муносабатида бўлиб, бу ҳолат бизнинг халқаро обрўйимизга жиддий путур етказмоқда..... "хива масаласи" биз учун энг хавфли бўлиб, буни тезда ҳал қилишимиз шарт". Большевикларнинг раҳбарлари бундай вазиятдан унумли фойдаланиб, Хива хонлигига қуролли тажовуз қилиш режасини янгидан тайёрлай бошлайдилар. 1919 йил 20 октябрда РСФСРнинг Хивадаги вакили Г. Б. Скалов Турккомиссия аъзолари Элиава, Куйбишев ва Белоусовлар имзолаган "...Хива ҳукуматига қарши қўзғолон кўтарган Хива халқига қуролли ёрдам бериш" ҳақидаги директивани олади . Бу директиванинг қабул қилиниши ва амалда бажарилиши РСФСР ҳукуматининг суверен Хива давлати ички ишларига тўғридан-тўғри аралашуви эди. 1919 йил 23 декабрда совет қўшинлари хонлик ҳудудига бостириб кирди.

1920 йил 1 февралда Г. Скалов бошчилигидаги барча қўшинлар Хива шаҳрига кириб келади. 1920 йил 2 февраль куни совет қўшинлари раҳбарларининг тазйиқи натижасида Хива хони Саид Абдуллахон ўз ихтиёри билан тахтдан воз кечишга мажбур бўлди. Шу тариқа, 1920 йилда тўрт асрдан ортиқ вақт мавжуд бўлган Хива хонлигининг совет қўшинлари томонидан мустақил давлат сифатида зўрлик билан тугатилиши натижасида "Хива масаласи" узил-кесил ҳал қилинади.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Salimov Matyusuf Kodirberganovich,
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi.
https://orcid.org/0000-0008-1453-0033
E-mail: salimovmatyusuf123@gmail.com

XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xiva xonligi davrida tug'ilib, Xiva madrasalari va yangi usul maktablarida ta'lim olib, madrasa va jadid maktablarida mudarris va o'qituvchi bo'lib faoliyat olib borgan, qatog'on siyosati davrida ta'qibga uchrab, umrining oxirigacha yashirin hayot kechirgan qozikalon Muhammad Salim oxun farzandi Nizomiddin oxun Salimovning hayoti va faoliyati haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: Xorazm, Xiva, Gurlan, oxun, mudarris, qozikalon, xattot, jadid, madrasa, dorulmudarris, texnikum, eshon.

Салимов Матюсуф Кодирберганович,
независимый исследователь
Ургенчского государственного педагогического института.
E-mail: salimovmatyusuf123@gmail.com

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НИЗОМИДДИНА АХУНА САЛИМОВА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы расскажем о жизни и деятельности Низомиддина Ахуна Салимова, сына Казикалона Мухаммада Салима Ахуна, который родился во времена Хивинского ханства, учился в хивинских медресе и школах нового образца, работал учителем и преподавателем в медресе и новых школах, подвергался преследованиям в период репрессий и до конца жизни вел скрытный образ жизни.

Ключевые слова: Хорезм, Хива, Гурлан, ахун, мударрис, казикалон, каллиграф, джадид, медресе, дорулмударрис, техникум, эшан.

Salimov Matyusuf Kodirberganovich,
independent researcher at Urgench State Pedagogical Institute.
E-mail: salimovmatyusuf123@gmail.com

THE ACTIVITIES OF NIZOMIDDIN AKHUN SALIMOV IN THE EDUCATION SYSTEM AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

ABSTRACT

In this article, we will talk about the life and work of Nizomiddin Akhun Salimov, the son of Qazikalon Muhammad Salim Akhun, who was born during the Khiva Khanate, studied in Khiva madrasas and new-style schools, worked as a teacher and a teacher in madrasas and new schools, was persecuted during the period of repression, and lived a secret life until the end of his life.

Keywords: Khorezm, Khiva, Gurlan, akhun, mudarris, qazikalon, calligrapher, jadid, madrasa, dorulmudarris, technical school, eshan.

KIRISH. Xiva xoni Muhammad Rahimxon soniy-Feruz mustamlaka xonlik hukmdori bo‘lsada, xonlikni har tomonlama rivojlantirish maqsadida, ayniqsa ilm-ma’rifatni yuksaltirish borasida ko‘plab sa’y-harakatlar qildi. Shu sababli xonlikda ko‘plab madrasalar barpo qilish bilan birga, o‘z davrining ilg‘or ta’lim tizimi hisoblangan jadid maktablarini ochishga qarshilik qilmadi, balki hayrixoh bo‘ldi. Bu bilan Xorazm vohasida kelgusida jadid ziyolilari yetishib chiqishiga bir omil bo‘ldi. Nizomiddin oxun Salimov shu davrda dunyoga kelib, madrasa va jadid maktablarida ta’lim olib, dastlab madrasalarda mudarrislik qilgan bo‘lsa, keyinchalik Xorazm Respublikasi davrida yangi tashkil qilingan madrasa va maktablarda mudarris, o‘qituvchi bo‘lib faoliyat olib bordi. Maktab o‘quvchilari uchun darslik kitoblari yozdi, shoir va olimlar asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilib, risola va kitoblar yaratdi. Qatag‘on siyosati davrida ta’qibga uchrab, umrining oxirigacha yashirin hayot kechirishga majbur bo‘ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Nizomiddin oxun Salimovning hayoti, ta’lim tizimidagi faoliyatlarini va ser qirra ijodini yoritishda tadqiqotchi olimlarimizdan Umid Bekmuhammad, Bahrom Irzayev va Hamidbek Yusupovlarning maqola va monografiyalaridan, “Tarjimon” gazetasining 1883-1916-yillardagi sonlarining bibliografiyasidan, Qodirbergan hoji Nizomiddin oxun o‘g‘li bilan suhbatda yozib olingan ma’lumotlar, hamda avlodlari shaxsiy arxivida saqlanayotgan tarixiy hujjatlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Qozikalon Muhammad Salim oxunning xotira kundaligida Nizomiddin oxun Salimovni hijriy 1308-yil zulqada oyining 21-kuni/1891-yil 28-iyun, yakshanba kuni dunyoga kelganligi qayd qilingan. Nizomiddin oxun qozikalon oilasida beshinchi farzand edi. Yosh xivaliklar harakatining faol a’zosi, Xorazm Respublikasining birinchi Adliya noziri- jadid Bobooxun Salimovning inisi edi. U yoshligidan ilm olishga ishtiyoqi kuchli bo‘lganligi sababli dastlabki ta’limni otasidan olib, madrasa ta’limining avvalgi bosqichi “darsi avval” ilmini 10 yoshida tugatadi. O‘qishni davom qildirib tez orada madrasa ta’limini yakunlab, oilaviy an’anasiga ko‘ra madrasadan keyingi ta’limni 5 yil davomida otasidan oladi. Hamda madrasalarda o‘qib yurgan o‘spirinlik davrlaridan boshlab Qadam yasovulboshi, Qozikalon madrasalarda ta‘lim berish bilan ham shug‘ullangan, ya’ni mudarrislik, oxunlik qilgan. Ilmi va odob-axloqi bilan ham xalq nazariga tushgan. Shuning uchun ismiga “oxun” yoki “maxdum eshon” unvonini (kunyasini) qo‘shib atashgan. Bu vaqtga kelib Xiva xoni Muhammad Rahimxon soniy-Feruz hoyrixohligida, Asfandiyor to‘ra, Islomxo‘ja va Mamat mahramlar tashabbuslari bilan Xorazm vohasida jadid maktablari tashkil etilgan edi. Nizomiddin oxunning otasi qozikalon Muhammad Salim oxun ham bu maktab o‘quvchilarini sinov imtihonlarini olish jarayonlarida qatnashganligini “Tarjimon” gazetasida chop qilingan maqolalarda ham keltirilgan. Bundan qozikalon xonlikning din peshvosi sifatida, jadid maktablarining faoliyatiga qarshi emasligini, balki farzandlarining ham jadid maktablarida ta’lim olishiga hoyrixoh ekanligidan dalolat beradi.

Bu haqda Qodirbergan hoji otasi Nizomiddin oxun haqida quyidagicha eslaydi: “Muhammad Rahimxon Feruzning xonlik davrida tatar musulmon olim-o‘qituvchilari bilan shartnoma, kelishuv asosida Xivaga taklif qilinib, Xorazm talabalarini, yoshlarini dunyoviy ilmlardan o‘qitish maqsadida, ikkita yo‘nalish bo‘yicha qisqa muddatli maxsus kurslar tashkil qilgan. Bu ikkita kurslarning biriga, algebra bilan geometrya fanlarini qo‘shib “al-jabr”deb, gegrafiya bilan tarix fanlarini qo‘shib “jo‘g‘rafiya” deb nomlagan. Ikkita kursga 100 nafardan ziyod talaba yoshlarni qabul qilgan. Bu ikkita kursni faqat 15-16 nafar talaba muvaffaqiyatli tugatgan, otam ham bu kurslarni o‘qib tugatgan edi”.

1920-yil Xorazm Respublikasi davrida Nozirliklar tuzildi. Maorif nozirligi huzirida Vaqf bo‘limi tashkil qilindi. Bu bo‘lim madrasa, qorixona, masjid, maktablarni va boshqa diniy tashkilotlarni, shu bilan birga vaqf mulklarni ham boshqarish va madrasalar faoliyatini tugatish, madrasalardagi ta’lim tizimini isloh qilib, yangi usul maktab va madrasalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan edi. Shunday bo‘lsada, madrasalarda an’anaviy ta’lim tizimi faoliyati 1928-yilgacha davom qildi.

1924-yil 13-avgustdagi Maorif xalq nozirligining qaroriga binoan Muhammad Aminxon madrasasi yangi usul madrasasiga aylantirilib Abulg‘oziy Muarrix nomi berildi. Dastlab bu maskan “Dorul mudarrisin” maktabi deb, keyinchalik “Ta’lim-tarbiya” texnikumi nomi bilan ataldi. Bu maskan o‘qituvchilarni tayyorlash texnikumi bo‘lib, 1924-yil dekabr oyida o‘qish istagida bo‘lgan 140 nafar yoshlar orasidan qabul komissiyasi tomonidan suhbat asosida 91 nafar yoshlarni tanlab olindi va 1925-yil 7-yanvar kunidan o‘z faoliyatini boshladi.

Nizomiddin oxun ham qabul komissiyasi a’zoligiga tayinlangan. Buni quyidagi tarixiy hujjatda ko‘rish mumkin: “Ushbu shahodatnoma beriladi birodar Nizomiddin maxzum qozi Salim o‘g‘liga, shul xususidakim, o‘quv idorasi tarafidin tozadin ochulajaq Abulg‘oziy Muarrix madrasasiga talabalarni qabul etib olurg‘a komissiya tayin etildi. Endi kerakkim, mazkur birodar komissiyalar bilan birgalikda zimmasig‘a lozim bo‘lg‘on vazifasin ado etub turmog‘i kerak”,- deb, O‘zbek viloyat o‘quv boshlig‘i, tashkilot mudiri va sarkotiblar imzo qo‘yganlar. Hujjatda to‘rtburchak (stamp) muhr ham bor bo‘lib, Xorazm viloyat bosh o‘quv bo‘limi, 1924-yil 22-dekabr , Xiva shahri, 929-raqam bilan ro‘yxatga olinganligi qayd qilingan.

Yana bir tarixiy xujjatda, Nizommiddin oxunni fan muallimi qilib tayinlanganligi keltirilgan: “1925-yil 10-fevralda Xiva viloyat maorif sho‘basini chiqarg‘on 22-nomerali buyruqini 1-moddasidin kufiya. Dorulmudarrisin o‘qituvchisi Nizomiddin Muhammad Salim o‘g‘li arizasiga binoan mazkur birodarni 1-fevraldan e’tiboran madrasa mazkurga fan muallimlar qatoridin tayin etulsun va ham 12-sinf oyliq ila tayin etulsun, har oyiga 30 soat soatliq, har soatiga 1so‘m 50 tiyindin berilur, hamda kechki muzokara vaqtida 2 soat, har vaqt tayyor bo‘lsin. Aslig‘a Xiva viloyat maorif sho‘ba mudiri birodar Muxtor Bakirov qo‘l qo‘yg‘andur, aslidin to‘g‘ri Qalandar Hojiyev ”. Hujjatning orqa qismida: “Dorulmudarrisin mudiriga ma’lumot uchun sarkotib”-deb imzo qo‘yilgan.

Shu bilan birga 1925-yilda qayta tayorlav kursida ham o‘qiganligini tarixiy hujjat “Shahodatnoma”dan bilib olishimiz mumkin: “O‘rtoq Nizomiddin Salim o‘g‘liga 1925-yildagi $3\frac{1}{2}$ oyliq qishloq ovul muallimlarining qaytadan tayyorlosh kursining darslarini tingladi. Shuning to‘g‘riliqi tasdiq qilunib shahodatnoma qo‘lina berildi. Shuni muhr imzolar bilan rasmilashdirildi”-deb kurs mudiri, o‘quv komissiyasi mudiri, sarkotiblar imzo qo‘yib muhr bosilgan. Hujjatda to‘rtburchak (stamp) muhr bo‘lib: “O‘.S.J. Xorazm viloyat maorif sho‘basi qaramoqidagi ta’lim va takror kursi 1925-yil sentabr, 44-raqam”,-deb qayd qilingan.

Yana bir tarixiy hujjat “Chaqiruv qog‘ozi” bo‘lib, Nizomiddin oxunni 1926-yil 13-may payshanba kuni kech soat 6 da Xorazm viloyat ta’lim-tarbiya texnikumida birinchi marotaba Xorazm o‘qituvchilarni chiqarish marosimiga (majlisiga) taklif qilingan, texnikum idorasi tamonidan. Bu taklifnoma “Inqilob quyoshi” bosmaxonasida 200 nusxada chop qilingan.

1927-yil 20-yanvar kuni viloyat maorifining buyruqi bilan Nizomiddin oxun Gurlan rayon 1-bosqich ish maktabiga muallim qilib yuborilgan. Nizomiddin oxun bu maktabda qisqa faoliyat olib borgan, chunki akasi Bobooxun Salimov bu davrga kelib davlat ishlaridan ketib, ta’qibga olinganligi sababli yashirin hayot kechirishga majbur bo‘lgan. 1929-yil 10-may kuni Bobooxun Salimov vafotidan keyin, boshqa ziyolilar qatori qozikalon farzandlariga nisbatan ta’qib kuchaya boshlagan edi. 1929-yil 31-yanvar kunida “Yerdan mehnatsiz foydalanishni tugatadigan Gurlan rayon yer komissiyasi” tomonidan qozikalon avlodlariga tegishli 88 tonob yer, uy (Gurlan tumanidagi ota hovli), g‘alla, charvo mollari va boshqa xo‘jalik ashyolarni davlat foydasiga musadora qilib tortib olingan edi. Nizomiddin oxun uzoq qarindoshi Otaniyoz maxdumning ikki xonali eski omborxonasida hayot kechirishga majbur bo‘ladi. 1930-yil 15-may kuni akasi Imomiddin oxun Salimovning “uchlik” qarori bilan To‘rtko‘l shahrida OGPU organ vakillari tomonidan otib o‘ldirlishi, ukasi Inayatulloh oxunning 1932-yil qamoqqa olinishi Nizomiddin oxun

uchun juda og‘ir bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushi davrida, undan keyin ham NKVD xodimlari tomonidan tergovga olib ketilib so‘roq qilinishi, doim kuzatuvda bo‘lishi Nizomiddin oxunning umrining oxirigacha davom qildi.

. 1951-yil turmush o‘rtog‘i Saodatjon aya Muhammad Sharif xo‘ja qizining vafotidan keyin, oilasi bilan Amudaryo tumani “Eshonqal’a” qishlog‘iga ketishga majbur bo‘ladi. U yerda ham do‘stlari Rahmatulloh oxun eshon, Muhammad Karim eshon, mullo Karim maxdum, Muhammad Safo eshon, Bobojon eshon va Yaxshimurod bobolar yordamiga tayanib yashirin hayot kechirdi. 1959-yil O‘razmat Quchqarov, Soliy Karimov va O‘rozboy Isoyev do‘stlari yordamida yana Gurlan tumani yangi imorat qurib, o‘g‘li Qodirbergan ,qizlari Zaynab va Xaticha bilan umrining oxirigacha, 1970-yil yanvarigacha Gurlan tumanida yashadi. 1960-yillarda hayot tarzi bir oz yaxshi tomonga o‘zgargan bo‘lsada, maxsus xodimlar uyiga kelib uchrashib, tergov sifatida suhbatlashib turishgan.

Nizomiddin oxun bu murakkab qiyin davrga qaramay, ilm yo‘lida ijod qilib, xattotlik va tarjimonlik faoliyati bilan mustaqil shug‘ullanib kitoblardan nusxa ko‘chirdi, Abdurahmon Jomiy, Abduqodir Bedil asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilib sharhlar yozdi. Hisob ilmiga, arab tili grammatikasiga doir, “Musonama” nomli tarixiy, bolalar uchun “Alifbe” , “O‘qish” nomli darslik kitob va risolalar yaratdi.

Nizomiddin oxunning vafoti: “tarix Nizomiddin oxund eshon qoddasallohu ruhahu sana hijratning 1389-yili zulqa’da oyining 24, ya’ni juma oqshomi vafoti voqea bo‘ldi. Sana milodiy 1970-yil 29-yanvar”,-deb qayd qilingan. Qabri Amudaryo tumanidagi Salomat bobo qabristonidagi avlodlari maqbarasida joylashgan.

XULOSA. Nizomiddin oxun Salimov ilm olishga ishtiyoqi kuchli bo‘lganligi sababli madrasalarda ta’lim olishni qisqa muddatda tugatib, madrasalarda mudarris bo‘lib faoliyat olib bordi. Yoshlik paytidan xalq orasida hurmat, e’tiboriga sazovor bo‘ldi. Xorazmdagi yangi usul jadid maktablarida ta’lim olib, dunyoviy ilmlarni o‘rgandi. Xorazm Respublikasi va undan keyingi davrlarda yangi ochilgan ta‘lim maskanlarida yoshlarga ta’lim berib, o‘z vatanining kelajagi uchun xizmat qildi. Xorazm xattotlik va tarjimonlik maktabi an’analari davomchisi sifatida xattotlik va tarjimonlik bilan ham shug‘ullandi.Ilm yo‘lida ijod qilib, kelasi avlod uchun kitob va risolalar yaratdi. 80 yil umr ko‘rgan bo‘lsada, umrining yarmi ta’qibda, qochqinlikda yashashga majbur bo‘ldi. Turli xil davr siyosati bilan ham nafas bo‘ldi. Shunga qaramay o‘zining serqirra faoliyati, ibratli hayoti bilan yashab o‘tdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Umid Bekmuhammad.Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi. “Milleniumus print” nashriyoti. Urganch 2024-yil.
2. Yusupov H. XIX-XX asr boshlarida Xiva madrasalari. “Durdona” nashriyoti Buxoro-2025.
3. Qozikalon Muhammad Salim oxun xotira kundaligi. Tarixiy hujjatlar arxivi. Qo‘lyozma. Shaxsiy arxiv.
4. Qodirbergan hoji Nizomiddin oxun o‘g‘li bilan suhbatdan yozib olingan materiallar, 2012-yil.
5. Yusupov P. Yosh xivaliklar tarixi. “Xorazm” nashiryoti. Urganch-2000.
6. Umid Bekmuhammad, Sayyora Samandar. Bobooxun Salimov-jadid, davlat arbobi va shoir. “Milleniumus print” nashriyoti, Urganch-2024.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Shomuratov Otojon Xamidovich
Urganch innovatsion universiteti
"Tarix" kafedrasi o'qituvchisi
otojonshomuratov29@gmail.com
.https://orcid.org/0009-0004-5883-5999

ANUSHTEGIN XORAZMSHOHLAR DAVRI IJTIMOIY HAYOTIDA XORAZM VOHASI SHAHARLARINING O'RNI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTASIYA

Ushbu maqola Anushtegin Xorazmshohlar davrida (XI asr oxiri – XIII asr boshlarida) Xorazm vohasidagi shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'rnini hamda irrigatsiya tizimlari tarixiy manbalar va tadqiqotlar asosida tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Anushtegin Xorazmshohlar, Gurganj, Kat, Xiva, shahar ijtimoiy tuzilmasi, hunarmandchilik, savdo-karavon, irrigatsiya, tanga zarbi, tarixshunoslik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются социально-экономическая роль городов Хорезмского оазиса и их ирригационная система в период Ануштегенидов (конец XI – начало XIII вв.) на основе исторических источников и исследований.

Ключевие слова: Ануштегиниди, Гургандж, Кат, Хива, городское обшество, ремесла, торговля, ирригация, нумизматика, историография.

ABSTRACT

This article analyzes the socio-economic role of the cities of the Khorezm oasis and their irrigation systems during the Anushtegid period (late 11th – early 13th centuries), based on historical sources and scholarly studies.

Keywords: Anushtegin Khwarazmshahs, Gurganj, Kath, Khiva, urban society, crafts, trade, irrigation, coinage, historiography.

Kirish (Introduction)

Anushtegin Xorazmshohlar sulolasi (1097–1231) Markaziy Osiyo siyosiy sahnasida Movarounnahr, Xuroson va Qoraqalpoq—Xorazm vohasi o'rtasidagi tranzit hududlarni siyosiy va iqtisodiy jihatdan uyg'unlashtirgan davlat sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu uyg'unlikning harakatlantiruvchi kuchi - shaharlar edi: Gurganj (Ko'hna Urganch) – siyosiy va moliyaviy markaz; Kat – irrigatsiya-ishlab chiqarish tarmog'i; Xiva va Hazorasp – himoya va savdo-kutlov maskanlari. Shaharlar irrigatsiya tarmoqlari va tranzit yo'llari bo'ylab joylashgani tufayli hunarmandchilik, bozorlar, karvonsaroylar va tanga aylanmasi tez rivojlandi; bunday muhitda shahar aholisi – hunarmandlar, tijoratkorlar, ma'murlar, harbiylar va xizmat ko'rsatish sohalari ichidagi mehnat taqsimoti chuqurlashdi [1; 2]. Mavzu bo'yicha tarixshunoslik an'anasi

katta: V. V. Bartold Xorazmning savdo-hunarmandchilik va siyosiy markaz sifatidagi maqomini umumiy tarixiy kon'yunktura bilan bog‘lagan; C. E. Bosworth sulola tarixi, siyosiy institutlar va mintaqaviy aloqalarni tizimli bayon etgan; Yaqut al-Hamaviy kabi geograflar shaharlarning fazoviy tuzilishi va iqtisodiy manzarasini jonli tasvirlagan; Xorazm arxeologik ekspedisiyasi (S. P. Tolstov) esa moddiy madaniyat, shahar inshootlari va irrigatsiya izlari orqali iqtisodiy-ijtimoiy quvvatlarni qayta tiklagan [1; 2; 4; 5; 6].

Usul va materiallar (Methods)

Matn asosi quyidagi bloklardan tashkil topdi: 1) arab-fors manbalari (Yaqut al-Hamaviyning Muʿjam al-Buldān asaridagi toponomik-tarixiy ma'lumotlar; Ata-Malik Juvayniyning shahar hayoti va moliyaviy-harbiy resurslarga doir kuzatishlari); 2) rus va ingliz tillaridagi tarixshunoslik (V. V. Bartold, C. E. Bosworth, Yu. Bregel kabi mualliflar); 3) Xorazm arxeologik maktabi natijalari (irrigatsiya inshootlari, shahar atrofi madaniy qatlamlar, hunarmandchilik ustaxonalari izlari); 4) numizmatik ma'lumotlar haqidagi makro-tizimli xulosalar (tanga zarbxonasi markazlari, aylanma manzarasi). Tadqiqotda taqqoslama-tarixiy usul, manbalarni janriy-tanqidiy tahlil, toponomik ma'lumotlarni irrigatsiya geografiyasi bilan bog‘lash, hamda arxiv-aloqador karta va atlaslardan (Y. Bregel) foydalanish yo‘li qo‘llanildi [2; 3; 5; 7].

Natijalar (Results)

Birinchi natija – shahar tarmog‘ining irrigatsiya bilan uzviy bog‘liqligi. Amudaryoning delta qismidagi kanallar tizimi (masalan, Shavot va Polvon kanallarining tarixan turli variantlari) ko‘p asrlar davomida shaharlarning barqaror yashashini ta'minlagan. Kat va Gurganjga oqib kirgan irrigatsiya tarmoqlari paxta, g‘alla, bog‘dorchilik va chorvachilikni ko‘tarib, shahar bozorlaridagi mahsulot aylanmasini uzluksiz saqlab turgan. Arxeologik kuzatishlar irrigatsiya inshootlarining ko‘p bosqichli rekonstruksiya qilinganini va shahar devorlari, himoya inshootlari bilan uyg‘unlashganini ko‘rsatadi [5; 6]. Bu esa ijtimoiy mehnat taqsimotining qishloq-shahar o‘zaro yordam tamoyiliga tayangan "voha iqtisodiyoti" shakllanishini anglatadi.

Ikkinchi natija – hunarmandchilik va bozor infratuzilmasining tarmoqlanishi. Gurganjda temirchilik, misgarlik, kulolchilik, teri mahsulotlari, ipak-qog‘ozga doir kichik ustaxonalar atrofida mahalla-ishlab chiqarish guruhlari vujudga kelgan. Karvonsaroylar va "tim"lar bilan bog‘langan bozorlar majmuasi tovarlarni saralash, saqlash va qayta taqsimlash vazifalarini bajargan. Bunday infratuzilma Xorazmdan Qoraqum yo‘llari orqali Xorazm—Xorazmbo‘yi—Kaspiybo‘yi yo‘laklariga, shimol tomondan esa Ettisuv va Qipchoq dashti taraflarga yo‘naltirilgan tranzitni qo‘llagan [1; 2; 7]. Numizmatik ma'lumotlar Gurganj va boshqa markazlarda tanga zarbi kengayganini, miqdoriy aylanma va vazn-metall standartlarining ayni paytda mintaqaviy integrasiyani ham ko‘rsatishini anglatadi; bu erda shohlik nomi, yil sana va mint mark orqali shaharning moliyaviy ahamiyati qayd etilgan [1].

Uchinchi natija – shahar aholisi ijtimoiy tuzilmasining uslubiy o‘zgarishlari. Ma'muriy apparat (devon), harbiy garnizon va gvardiyalar (ayrim hollarda g‘ulomlar tizimida shakllangan) shahar mudofaa va tartib-intizomni ta'minlar ekan, bozorlar nazorati, soliq yig‘imi va tashkiliy tadbirlar ustidan nazoratni amalga oshirgan. Savdogarlar, hunarmandlar, xizmat ko‘rsatish sohalari va karvonchilik bilan bog‘liq tabaqalarning mavqei yanada mustahkamlangan; bu qatlam shaharning "ishlab chiqarish-xizmat ko‘rsatish-logistika" zanjirida markaziy o‘rinni egallagan [2; 5]. Shahar hududidagi xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi (hammomlar, omborlar, chorsular, pul o‘tkazish va qaravul nuqtalari) jamiyatning kundalik hayotini tashkil etgan – aynan shu nuqtalarda savdo qoidalari va baholar muvozanati shakllangan.

To‘rtinchi natija – shaharning siyosiy-diplomatik vazifasi. Anushteginlar davrida Gurganj elchi qabul qilish, shartnoma va savdo bitimlari qabul qilinishi, soliq-buҗet hisoblarining yuritilishi kabi marosim va huquqiy amaliyot markaziga aylandi. C. E. Bosworth ta'kidlaganidek, 1100–1200-yillarda Xorazmshohlar mintaqadagi siyosiy boshqaruvning asosiy tayanchini aynan shaharlar orqali amalga oshirdi; bu erda ularning soliq-boj siyosatini amalga

oshirish qobiliyati, denejevaya sistema va garnizonlar joylashuviga bog‘liq edi [2]. Bartoldning mashhur mulohazasiga ko‘ra, “Гургандж бил одним из крупнейших торгових центров Востока” [1]. Bu iqtibos tarixiy manzarani yaxlit ifodalaydi; biroq muallif sifatida ta’kidlash joizki, Bartoldning ushbu to‘g‘ri va isbotlangan tezisi umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lib, u alohida tarmoqlar (masalan, kema va yog‘ochsozlik yoki ayrim hunarmand uyushmalari) bo‘yicha maxsus empirik statistik qiyos talab qiluvchi natijalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tenglashtirilishi lozim emas. Demak, iqtibos konseptual yo‘l-yo‘riq beradi, ammo iqtisodiy-ijtimoiy ma’lumotlar arxeologik va numizmatik materiallar bilan to‘ldirilishi kerak [5; 6].

Beshinchi natija – shahar-makon va demografik dinamika. Yaqut al-Hamaviy Gurganjni katta va obod shahar sifatida tilga olib, uning ko‘lami va bozorlarining nisbatan tizimliligini qayd etadi; u geografik nuqta sifatida kanallar, ko‘priklar va yo‘llar kesishmasida joylashganini ta’riflaydi [4]. Shu bilan birga, Amudaryoning yo‘nalish o‘zgarishlari va tabiiy gidrologik xavflar shahar makonining vaqtincha ko‘chishlari, ayrim kvartallarning bo‘shashi va rekonstruksiya jarayonlarini tezlashtirgan. Xorazm arxeologiya maktabi shahar atrofi qishloq-voha tizimidagi ko‘chish izlarini, yangi mahallar paydo bo‘lishini va eski qatlamlar ustiga qurilish holatlarini qayd etgan [5; 6].

Muhokama (Discussion)

Olingan natijalar Xorazm vohasi shaharlarining ijtimoiy hayotda uchlamchi emas, balki bosh funksiyalarni bajargani haqidagi umumiy tezisni quvvatlaydi. Birinchidan, irrigatsiya va bozor uzellari munosabati: sug‘orma dexqonchilikdan kelgan mahsulotlar shaharlardagi qayta ishlash, qadoqlash va sotuv zanjiriga ulandi; natijada shahar ish o‘rinlari, kasb-hunar guruhlari va xizmatlar segmenti paydo bo‘ldi. Ikkinchidan, savdo-karavon tizimi: Gurganj orqali shimol (Qipchoq dashti), g‘arb (Kaspiybo‘yi va Volgabo‘yi), janub-sharq (Xuroson, Nishopur, Marv) yo‘nalishlaridagi karvonlar harakati ta’minlandi; bu esa valyuta aylanmasi, boj yig‘imlari va mulk huquqi amaliyotida markazlashgan tartiblarni shakllantirdi [1; 2; 7]. Uchinchidan, ma’muriy-harbiy tartibot: garnizonlar va shahar devorlari nafaqat mudofaa vositasi, balki ichki tartib, soliq yig‘imi va yo‘llar xavfsizligining kafolati bo‘lgan; bu funksiyalar Ko‘hna Urganchning mintaqaviy markazga aylanishida hal qiluvchi omillardan biri bo‘ldi.

Taqqoslash nuqtai nazaridan, Buxoro va Samarqand kabi markazlar bilan solishtirganda, Gurganjning o‘ziga xos jihati – irrigatsion-delta geografiyasiga bog‘liq ravishda karvon yo‘llarini port-shaklda (lomali chiziq) qabul qilish va tarqatish qobiliyati bo‘lgan; Marv bilan qiyosda esa qurilish materiallari (xom g‘isht, paxsa), suv manbalarig‘a mahalliy moslashuv, himoya inshootlarining delta sharoitidagi konfigurasiyasi ustuvor ajralib turadi [1; 2; 5]. Bu omillar ijtimoiy tuzilmaga ham ta’sir qilgan: xizmat ko‘rsatish segmentida suv bilan bog‘liq kasblar, yuk tashish, qayiqchilik (daryo tarmoqlari bo‘yicha) va omborchilik katta ulushga ega bo‘lgan.

Tadqiqotning yana bir muhim jihati – tanga aylanmasi va bozor narxlari o‘rtasidagi munosabat. Numizmatik ma’lumotlarning uzluksizligi cheklangan bo‘lsa-da, aynan Gurganjdagi zarbxona sulolaning siyosiy mavqeidagi o‘zgarishlar, kriptogramma (tamg‘a va kalima) va mintaqaviy ta’sir doiralarini “oqimli” tarzda aks ettiradi [1; 7]. Bu narsa shaharning fiscal(moliyaviy) markaz funksiyasini tasdiqlaydi: bozor narxlari va foizsiz savdo qoidalari kabi amaliy mexanizmlar aynan tanga aylanmasi barqarorligiga suyangan. Shahar elitasi – tijoratkarlar, zargarlar, zarbxona ustalari, omborchilar va savdo yo‘llari kuzatuvchilari – ijtimoiy liberallashuvning mahalliy ko‘rinishlarini (kasb standartlari, mijoz huquqi, ta’minot kafolatlari) shakllantirgan.

Xulosa (Conclusion)

Anushtegin Xorazmshohlar davrida Xorazm vohasi shaharlari – Gurganj, Kat, Xiva, Hazorasp va boshqalar – ijtimoiy hayotning asosiy markazlari vazifasini bajardi. Irrigatsiya tarmoqlari orqali ta’minlangan agrar hosildorlik shahar hunarmandchiligi va savdosiga uzluksiz resurs yetkazdi; karvon yo‘llari va bozorlar tarmog‘i esa tovar va kapital aylanishini ta’minlab, davlatning fiscal(moliyaviy)-byudjet, harbiy-tashkiliy barqarorligini mustahkamladi. Shahar aholisi tarkibidagi mehnat taqsimoti chuqurlashib, ma’muriy

boshqaruv va bozor nazorati mexanizmlari shakllandi. Manbalardagi tasvirlar (Yaqut al-Hamaviyning geografik tasviri, Juvayniyning siyosiy xronikasi) tarixiy manzarani umumiy qiyofa bilan sharhlayotgan bo‘lsa, arxeologik va numizmatik dalillar ushbu qiyofani detallashtirishga imkon berdi. Taqqoslama tahlillar asosida aytish mumkinki, Anushteginlar davri Xorazm shaharlari nafaqat mintaqaviy savdo va hunarmandchilik markazlari, balki qonuniylik va tartibni ta’minlovchi ma’muriy-harbiy markazlar, madaniyat va bilim aylanmasining muhim o‘rinlari sifatida ham shakllangan. Shu jihatdan, Xorazm vohasi shaharlarining ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni sulola hayotining barcha bosqichlarida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan.

Adabiyotlar (References)

1. Bartold, V. V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. 3-e izd. Moskva: Nauka, 1963. — 662 s. — S. 270–320.
2. Bosworth, C. E. The Cambridge History of Iran. Vol. 5: The Saljuq and Mongol Periods. Cambridge: Cambridge University Press, 1968. — 766 p. — pp. 161–190 (The Political and Dynastic History of the Iranian World, 1000–1217).
3. Juwaynī, ʿAṭā Malik. The History of the World Conqueror. Translated by J. A. Boyle. Manchester: Manchester University Press, 1958. — Vol. I–II. — Vol. I, pp. 119–140; Vol. II, pp. 430–450.
4. Yāqūt al-Ḥamawī. Muʿjam al-Buldān. Beirut: Dār Ṣādir, 1977 (reprint). — Vol. IV. — pp. 170–180 (entry on Gurganj and Khwārazm).
5. Tolstov, S. P. Po sledam drevnexorezmiyskoy sivilizasii. Moskva: Nauka, 1948. — 328 s. — S. 210–256.
6. Gulomov, Ya. G. Ocherki po istorii orosheniya Xorezma. Tashkent: Izd-vo AN UzSSR, 1959. — 276 s. — S. 145–210.
7. Bregel, Yuri. An Historical Atlas of Central Asia. Leiden–Boston: Brill, 2003. — 112 p. — pp. 24–27; 62–65.
8. Bosworth, C. E. The New Islamic Dynasties: A Chronological and Genealogical Manual. Edinburgh: Edinburgh University Press, 1996. — 410 p. — pp. 199–201 (Anushteginid Khwarazmshahs).

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

UO'K 94(575.171)"1900/1924"

Умид Бекмуҳаммад
Хоразм Маъмун академияси катта илмий ходими,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент.

ЖАДИДЧИЛИК ФЕНОМЕНИ ВА УНИНГ ТУРКИЙ МУСУЛМОН ХАЛҚЛАР ҲАЁТИГА ТАЪСИРИ

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада жадидчилик ҳаракатининг ғоя ва мақсадлари, стратегик вазифаси дунё тамаддуни, хусусан туркий мусулмон халқлар ҳаётига таъсири ўша даврга оид манбалар асосида таҳлил этилади. Жадидчилик ўзига хос феноменал ҳодиса бўлгани тадқиқ қилинади.

Калит сўзлар: Исмоил Гаспрали, жадид, стратегия, мактаб, газета, Қрим, туркий халқлар, Туркистон, дунё, тамаддун.

АННОТАЦИЯ

В статье на основе источников того периода анализируются идеи и цели движения джадидов, его стратегическая миссия и влияние на мировую цивилизацию, в частности, на жизнь тюрко-мусульманских народов. Рассматривается уникальность феномена джадидизма.

Ключевые слова: Исмаил Гаспрали, джадид, стратегия, школа, газета, Крым, тюркские народы, Туркестан, мир, цивилизация.

ANNOTATION

This article analyzes the ideas and goals of the Jadid movement, its strategic mission, and its impact on world civilization, particularly the lives of Turkic Muslim peoples, based on sources from that period. It examines the fact that Jadidism was a unique phenomenal phenomenon.

Key words: Ismail Gasprali, Jadid, strategy, school, newspaper, Crimea, Turkic peoples, Turkestan, world, civilization.

КИРИШ. Жадидчилик тарихдаги феноменал жараён бўлиб, Исмоил Гаспралининг матбуот, мактаб соҳаларидан бошлаган ислоҳотчилик ва миллий уйғониш ғоялари туркий мусулмон халқлар тақдирига катта таъсир қилди. Айнан шу жараённи тадқиқ қилиш мақсадида ушбу таҳлилларимизни ёритишга ҳаракат қилдик.

МЕТОД. Ушбу мавзуни ёритиш давомида илмий тадқиқотнинг бир нечта услублари, жумладан, маълумотларнинг қиёсий таҳлили, синтез, шунингдек хронологик таҳлил, холислик тамойилига амал қилинади. Натижада манбаларни бир-бирига таққослаб, шулар асосида ҳаққоний хулосага келинди.

МУҲОКАМА. Филология фанлари номзоди, доцент Бойбўта Дўстқораев мулоҳазаларига кўра, "X1X асрда феодал қолоқлиқ Шарқни ғарблик мустабидларга қарам бўлишга олиб келгани сабаб миллий зулмдан қутулиш учун озодлик кураши асосий ижтимоий дастур

ҳисобланарди. Озодлик, мустақиллик, эркка феодал қолоқликдан, жаҳолатдан қутулгандагина эришиш мумкин бўлган. Бунинг учун жамиятдаги мавжуд тузумни тубдан ислоҳ қилиш лозим эдики, тараққийпарварлар қотиб қолган, даққи кучлар, яъни "қадим" (эски)ларга қарши турувчи "жадид"(янги)лар сифатида майдонга келди. Шу боис жадидлар Мисрда ҳам, Усмонийлар салтанатида ҳам, Туркистонда ҳам сиёсий оқим (Профессор Бегали Қосимов тўғри таъкидлаганидек, биз ҳам шу фикрга қўшиламизки, "жадидчилик-оқим эмас, ҳаракат"-У.Б) тарзида пайдо бўлди."

Тўғри, уларнинг шаклланганлик, тараққий топганлик даражаси бир хил эмасди. Чор Россияси томонидан босиб олинган ўлкаларда ҳам Х1Х аср охирига келиб миллий-озоздлик ҳаракатлари охир-оқибатда жадидларни тарих саҳнасига чиқарди. Миллий истибдод занжирига тушган халқ ва элатлар қудратли империя чангалидан фақат бирлашиб ҳаракат қилгандагина қутулишлари мумкин эди. Бунинг учун, энг аввало, миллий онгни уйғотиш, миллатнинг ўзлигини англаб етишувига эришиш лозим эди. Ана шундай фикрга биринчилардан бўлиб қримлик Исмоил Гаспрали келди" (1).

Яъни, Россия империяси асорати остидаги Қрим, Волгабўйи ва Эдил, Кавказ, Туркистон, Бухоро ва Хоразмни қамраб олган мустамлакачиликка қарши Миллий Уйғонишни, туркий мусулмонлардаги мудроқ ғурурни маърифий, ижтимоий ва сиёсий ҳаракатга, воқеликларни тарихнинг шиддатли ҳодисаси, жараёнига айлантирган феномен-бу жадидчилик эди. Бу ҳаракатнинг асосчиси эса Исмоил Гаспрали бўлиб, "Тилда, фикрда, ишда бирлик" ғояси, у асос солган жадид мактаби, "Таржимон" газетаси туркий мусулмон халқлар тақдирига шунчалик катта таъсир қилдики, нафақат Х1Х аср охири ва ХХ аср бошларида, балки бутун тарих давомида бунчалик кенг қамровдаги , жамиятнинг барча соҳаларига таъсир қилган ҳаракат содир бўлмаганди.

Яна бу ҳаракат мустамлакачилик, қаттиқ босим, тазйиқлар остида кечди ва жадидлар сийратидаги ғурур, нафақат ўзига маслакдошларни бир феноменал ҳодиса атрофида бирлаштирди ва капитализм, феодализм, монархия сингари турли хил тузумлар остида яшаётган, асосан туркий мусулмон халқларни сиёсийлаштириб, дунё халқлари билан баробар қадам ташлашга ундади.

Профессор Бегали Қосимов (1942-2004) ҳаққоний баҳо берганидек "Жадидчилик ғоялари эрта баҳорнинг шиддатли шамоллари сингари пўпанак босиб, билжираб кетган ўрта асрчилик турмушини энг пастки қатламларигача очиб ташлади. Момагулдирак бўлиб, Миллат ва Ватаннинг ҳаёт-мамот масаласи кун тартибига қўйилгани ҳақида бош урди. Чақмоқдек чақнаб, унинг бағридаги жароҳатларини ёритди. Обираҳмат бўлиб, она Туркистон кўксидаги маориф, матбуот, театр ниҳолларига ҳаёт бахш этди. Бу ғояларнинг асосида миллий уйғониш, миллий мустақиллик учун курашишгача бўлган қизғин ва ҳаяжонли жараён ташкил қилди. Айни пайтда, бу ҳаракат миллатни ҳам тарбиялаб борди. Уни ўз бошига ёғилган ҳар бир офатни тақдир деб таъбир этишдан таҳлил қилиб, чорасини излай олиш даражасигача кўтарди. Хусусан, жадидларимиз миллатнинг яшамоғи, тараққий топмоғи учун, биринчи навбатда, озод, мустақил бўлмоғи лозимлигини англаб етдилар ва кенг халқни уйғотишга алоҳида эътибор бердилар.

Халқ эса, Пўлатхон ва Дукчи эшон воқеаларидан "Туркистон (Қўқон) мухторияти" моҳиятини англаш ва қўллашгача бўлган масофани босиб ўтди. Жадидларимиз сиёсий ишлар-ҳақ-ҳуқуқ, миллий давлат, ҳокимият масалалари билан мунтазам шуғулланадилар. Айни пайтда, мактаб-маориф ислоҳ қилина бошлади. Миллий матбуот йўлга қўйилди. Театр пайдо бўлди. Янги адабиёт шаклланди. Бир сўз билан айтганда, янги тафаккур майдонга келди. Бу-миллатнинг ўзлигини англаш ва мустақиллик мафкураси эди.

Бу ҳол-шубҳасиз, миллатнинг кейинги 3-4 асрлик тарихий тараққиётида мисли кўрилмаган ҳол эди.Унинг ҳаётида узоқ турғунликдан кейин янги босқич бошланишига далолат эди.

Жадидчиликнинг моҳияти шунда " (2).

Доктор Боймирза Ҳайитнинг қуйидаги фикрлари эса ушбу ҳаракатнинг моҳиятини тўғри ифодалаб беради: "жадидчилик ҳаракати узоқ пайтдан буён давом этиб келаётган маданий

масалалар борасидаги тортишувлар ва музокараларининг янги шаклда намоён бўлиши эди. Жадидчилик ҳаракати, янги усулда таълим ва тарбияни теваракдаги Оврупо цивилизациясига мослаштириш эмас, балки Оврупо цивилизациясини ўрганиб, уни миллий маданиятга хизмат эттиришнинг бир ифодаси эди "(3).

Айнан туркий мусулмон миллатлар олдидаги ана шу муқаддас ва Миллат олдидаги масъулиятли, энг долзарб, кечиктириб бўлмайдиган улуғвор вазифа ўз гарданига юкланганини сезган, сийратидаги дахлдорлик туйғусини ўз даври, жамият учун юзага келтирган ШАХС Исмоил Гаспрали эди.

Исмоилбек Гаспралининг сафдош маслакдошларидан Ҳасан Сабрий Айвазов: "Эй устоз! Сен бир қуёш эдинг! Шарқда асрларча жаҳолат зулмати туфайли инқирозга маҳкум қолмиш турк-мусулмон қавмларини танвир (нурли қилиш) учун тулуъ этмиш (чиқмиш) бир қуёш эдинг", деб ёзганида минг маротаба ҳақ эди.

Негаки, озарбайжонлик давлат арбоби Наримон Наримонов ёзганидек "Миллат Исмоилбек каби қаҳрамонларини унутса, ўз ҳаётини барбод этажакдир".

Нафақат туркий мусулмонлар халқлар ҳаёти, тақдирига, балки дунё тафаккурига, сиёсатига катта таъсир кўрсатганини инобатга олган Франциянинг "Ревю дю монде мусулман" журнали Исмоил Гаспралининг миллат олдидаги буюк хизматларини эътиборга олиб, унинг номзодини "Тинчлик борасидаги Халқаро Нобель Мукофотига " тавсия қилганди. Бу тавсия, таклифни ўша 1910 йилда хориждаги кўплаб журналлар қўллаб-қувватлагандилар.

Шу ўринда бир мулоҳазани билдиришни жоиз деб билдик: 21 асрда турк давлатлари ташкилоти, туркийлар жипслиги давр тақозоси сифатида юзага келган экан, ушбу ташкилотнинг "Исмоил Гаспрали" номли халқаро мукофотини таъсис қилиш ўринлидир.

Шунингдек, профессор Баҳодир Карим, Ўзбекистон халқ шоири, "Жадид" газетаси бош муҳаррири Иқбол Мирзолар таклифини қўллаб-қувватлаган ҳолда "Жадидлар халқаро илмий-тадқиқот маркази", ёхуд бизнингча жадидлар ҳаракати, ушбу феноменни ҳар томонлама тўлиқ тадқиқ қилиш, дунё жадидшунослари, . шу давр бўйича илмий тадқиқот олиб борувчи олимлар билан ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиш, илмий экспедициялар олиб бориш орқали жадидлар меросини тўплаш, тарғиб қилиш ва шулар асосида фундаментал тадқиқлар ўтказиш мақсадида "Дунё жадидшунослари академияси"ни таъсис этишни таклиф қилардик.

Табиийки ушбу академия яратган тадқиқотлар тизимли равишда кўп жилдли асарлар, "Жадидлар" энциклопедияси, "Жадид адабиёти антологияси", ҳар бир жадид сиймосига бағишланган монографиялар, рисолалар, шулар асосида эса ҳужжатли, бадиий фильмлар, сериаллар, мультфилмлар яратишга асос бўлиб хизмат қилади. Бу эса жадидлар меросини тадқиқ қилиш, тарғиб этишгагина эмас, туркий миллатларнинг жипслиги, ёшларнинг, бугунги ва келгуси авлоднинг жадид аждодларимиз сингари ғурурли, дунё билан тенг қадамлар ташлай оладиган демократик руҳда вояга етишларига ҳам хизмат қилади.

Профессор Бегали Қосимов таъкидлаганидек "Бу баландпарвоз гап эмас. Далил –тарих. У тириклигидаёқ миллатнинг отаси, раҳнамоси деган ном олди. Унинг энг катта хизмати Русия сарҳадида яшаб турган, лекин замоннинг зайли билан бир-биридан узоқ тушган (тўғрироғи, узоқлаштирилган) ва бегоналашиш даражасига етган туркий халқларни бир-бирига танитди. Беҳбудий сўзлари билан айтганда, "Русиядаги бутун турк-татар халқларини жуда оз тарихий муддатда хайр-хўшлик йўли билан яхлит бир миллий оилага бирлаштирмоққа ноил бўлди". Шарқ халқлари маънавий ҳаётида, хусусан, мактаб-маорифида чинакам инқилоб ясаган, "усули жадид" номи билан тарихга кирган "усули савтия"ни бошлаб берди. XX аср Шарқининг энг машҳур, энг тараққийпарвар ҳаракатчилигига –жадидчиликка асос солди.

У барча туркий халқларни яхлит, ягона миллат деб билди. Уларни ҳам илм-маърифатда, ҳақ-ҳуқуқда дунёнинг тараққий қилган миллатлари билан тенг, бақамти кўрмоқни орзу қилди. Бутун ақли-вужудини мана шу муқаддас ишга-миллатнинг равнақи ва муҳофазаси йўлига сарф этди. Бу шунчаки мутассибона бир орзу эмас, замонасининг баланд-пастидан

хабардор, тарих ва тақдирини теран англаган, Шарқни ҳам, Ғарбни ҳам баб-баравар билган ва баб-баравар кўрган бир кишининг аниқ режали ҳатти-ҳаракати эди" (4).

Ана шундай ФЕНОМЕН ШАХС, ўз даврида эътироф қилинган жадидчилик ҳаракати асосчиси Исмоил Гаспрали ва Туркистон мавзусидаги, ёхуд унинг ҳаёт пайтида, ёки вафоти муносабати билан ёзилган мақолалар, марсия, таъзияларни ўша давр матбуоти асосида жамласа, бир неча жилдлик асарлар тўплами тайёр бўларди.

Профессор Баҳодир Карим ёзганидек "Гаспринский вафоти муносабати билан дунёнинг турли бурчакларидан афсус-надомат, йиғи-йўқлов товушлари эшитилди, айни дамда тақдирга тан берилди. Марҳумнинг яқинларига -Боқчасаройга мусулмонларга хос юксак одоб билан таъзия изҳор қилинган, сабри жамил тиланган мактублар, телеграммалар, хабарлар тинимсиз бориб тургани – буларнинг барчаси тарихий ҳақиқат, албатта.

Ўша даврда дунёнинг кўплаб газета ва журналларида, хусусан, татар матбуотида босилган мақолаларнинг сон-саноғига етиб бўлмайди. Бу гапда муболаға йўқ. Чунки биргина ўзбек матбуотида Гаспралига бағишлаб 1914 йилнинг сентябридан ноябригача бўлган, бор-йўғи икки ой давомида ўнлаб асарлар эълон қилинди. Бу адабий, илмий, ижтимоий руҳдаги манбаларни "Марсия-шеърлар", "Публицистик мақолалар ва хабарлар" тарзида шартли равишда таснифлаш мумкин " (5).

"Йиғла, миллат қон тўкуб, айлаб наволар йиғлагил,
Исмоилбек руҳина қилғил дуолар, йиғлагил.
Чок-чок айла яқонг, қон тўк кўзингдин тинмайин,
Алиф қаддинг дол этиб, ушлаб асолар, йиғлагил"

Тавалло.

"Бир ўзунг биз миллати ислома фарёд айладинг,
Банди ғафлатдан заволли халқи озод айладинг,
Сўйладинг, ёздинг, чолишдинг ҳеч маъюс ўлмадинг,
Юрту ер вайроная дўнмишди обод айладинг".

Садриддин Айний.

Исмоил Гаспралига вафотига бағишлаб 1914 йил куз фаслида ёзилган асарлар анчани ташкил қилади ва филология фанлари доктори, профессор Баҳодир Карим тадқиқ қилганидек, "андижонлик 16 ёшли талаба Ҳамидийнинг "Маърифатпарвар бобомиз Исмоил Ғаспринский ҳазратлари ҳақинда таъзияномамиз", Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг "Марсия", Ҳусайнхўжа Саодатий исмли кишининг "Марсия", Абдулла Авлонийнинг "Адиби шаҳир Исмоилбек руҳина", самарқандлик шоир Фахриддин Рожийнинг "Исмоилбек ҳазратлариға", Сиддиқий Ажзий "Исмоилбек ҳазратлари ёдиға", Васлий Самарқандийнинг "Таърихи риҳлат жаноб мирзо Исмоилбек соҳиби жаридаи "Таржумон" раҳматуллоҳ раҳматан ва асъатан ва удхула фил жинон", самарқандлик муаллим Хатоийнинг "Исмоилбек ҳазратлари ёдиға", Мулла Шамсиддин Қори Хоибнинг "Муҳтарам фозили нуктадон ва фаридуз-замон, ношири "Таржумон", аҳволи замон Исмоилбек Ғаспринский жанобларининг таърихи соли фавтлари" номли таърих-шеърларида ҳам ўз ифодасини топган".

Хўш, ана шундай эътироф, эътиборга сазовор миллат қаҳрамони, феномен ШАХСнинг ҳаёти ва фаолияти қандай кечганди?

Қримдаги "Ненкежик" журнали бош муҳаррири Зера Бекирова маълумотларига кўра, "туркий мусулмон халқлари ҳаётида Миллий Уйғонишни бошлаб берган жадидчилик ҳаракати, феноменининг асосчиси Исмоилнинг бобоси Али Қримдаги Гаспра қишлоғининг нуфузли шахсларидан бўлган. Шу боис ҳам ўғли Мустафобей Кавказ ва Қримнинг генерал-губернатори князь Воронцов-Дашковнинг таржимони бўлиб ишлаган ва 1853 йилда поручик унвони билан тақдирланиб, дворянлик мартабасига кўтарилган. Мустафобей икки марта уйланади. Биринчи турмуш ўртоғи 1849 йилда вафот этади ва шу йили Қримнинг машҳур Қайтазовлар оиласига мансуб Фотима хонимга уйланади. Мустафобейнинг бу турмуш ўртоғидан икки ўғил ва тўрт қиз туғилган".

Исмоил 1851 йилнинг 21 мартида ана шу оиладаги иккинчи ўғил бўлиб туғилади. Дастлаб Боқчасаройлик Ҳожи Исмоилнинг эски мактаби, сўнгра Симферепольдаги гимназия,

ундан кейин Воронеж шаҳридаги ҳарбий ўқув юртида ва 13 ёшидан Москвадаги Милютин гимназиясида таҳсил олади. 1868 йилда Исмоил Боғчасаройга қайтиб "Занжирли "мадрасасида рус тили фани ўқитувчиси бўлиб педагоглик фаолиятини бошлайди.

Дунё давлатларидаги жараён, бошқа халқлар ҳаёти билан танишиш мақсадида Исмоилбей 1872 йилда Францияга боради ва Париждан ташқари Вена, Мюнхен, Штутгард шаҳарларида ҳам сафарда бўлади. Бу вақтда Францияда яшаётган буюк рус ёзувчиси И.С.Тургенев билан танишади ва унинг котиби бўлиб фаолият кўрсатади. Шунингдек, ўзининг иқтидори боис, қолаверса дунё даражасидаги таълим олиш мақсадида Сорбонна университетида таҳсил олади. 1876 йилда эса она юрти Боғчасаройга қайтиб "Занжирли" мадрасасидаги фаолиятини давом этдиради.

Табиийки, дунёдаги жараёнларга теран назар солган Исмоил Гаспралининг Европага сафари ва таълим олиши дунёқарашига катта таъсир қилади ва анъанавий таҳсилнинг замонавий тараққиётдан орқада қолганини англаб, таълим соҳасидаги янги усул мактаби очишни режалаштиради. Бироқ ҳамма даврларга хос бўлган ҳар қандай янгилик сингари Исмоил Гаспралининг таълим соҳасида бошламоқчи бўлган бу сайъи ҳаракати тўсиқларга учрайди.

Таълим соҳасида қилмоқчи бўлган саъйи-ҳаракати тўсиқларга учрагач у маъмурий бошқарувда ўз омадини синаб кўрди. Натижада аждодларининг нуфузи, қолаверса ўзининг Европада таҳсил олгани боис, 1878-1884 йилларда Боғчасарой шаҳри бошлиғи (мэр) вазифасида фаолият кўрсатади. Боғчасарой мэри жаноб Исмоил Гаспралининг шахсий ҳаётида 1882 йилда каттта ўзгариш бўлди. Яъни шу йили у Қозон татарларидан Ақчуриннинг қизи Зуҳрохоним билан оила қуради ва бу никоҳидан Рифат, Шафиқа, Баҳия, Дониёл, Нигор, Мансур, Ҳайдар исмли фарзандларни тарбиялашади. Лайло кичиклигида вафот этади.

Мэрликдан истеъфога чиққач, Исмоил Гаспрали ўзининг кейинги фаолиятини матбуот ва таълим соҳасига бағишлашга қарор қилади. Айнан ўзи сингари эркин фикрловчи шахслар, қолаверса "Тилда, фикрда ишда бирлик" дек эзгу мақсад сари талпинувчи маслакдошлари учун минбар кераклиги боис журналистика соҳасига қадам қўяди. Натижада 1883 йилдан "Таржимон" газетасини нашр этишни йўлга қўйиб, ўзига хос жадидлар минбарини яратди. Ушбу нашрда дунёдаги жараёнлар, Россия империяси, бу ҳудудларда яшовчи туркий мусулмон халқлар ҳаёти, уларни тараққиётга етказиш билан боғлиқ таклифларни кўтариб чиқди, муаммоларга ечим излади. Айнан Исмоил Гаспралининг "Таржимон" газетаси ўз давридаги жадидлар минбари, туркий мусулмон халқларнинг таянчи, ҳуқуқлари кафолати ва эркин овози даражасига етди.

Вақт ўтиб фақат Қримда эмас, туркий мусулмон халқлар яшайдиган ҳар бир ҳудуднинг ҳам жадид нашрлари пайдо бўла бошлади. Яъни Исмоил Гаспрали туркий халқлар ҳаётидаги таълим соҳасигагина эмас, матбуотга, умуман олганда жамият ҳаётига ҳам катта таъсир қилдики, унинг жамиятдаги ҳамма соҳаларни қамраб олган ислоҳотчилик шижоатидаги жадидчилик ҳаракати ва ўзи ФЕНОМЕН даражасига етди.

"Тараққий" (Исмоил Обидий), "Хуршид" (Мунаввар қори), "Шуҳрат" (Абдулла Авлоний, Аҳмаджон Бектемиров, Мунаввар қори), " Осиё" (Абдулла Авлоний, Мунаввар қори), "Тужжор" (Саидкаримбой Саидазимбоев), "Бухорои Шариф" (Мирзо Муҳиддин, Сирож Ҳаким, Миржалол Юсуфзода, Левин), "Турон" (Ғиёс Усмонов), "Самарқанд" (Беҳбудий), "Жомиъу-л –ахбор" (Обиджон Маҳмудов), "Ойина" (Беҳбудий), "Садои Фарғона" (Обиджон Маҳмудов), "Садои Туркистон" (Убайдулла Хўжаев, Мунаввар қори, Ашурали Зоҳирий) сингари тараққийпарварлар томонидан ташкил этилган матбуот нашрлари Туркистон халқларининг дарду ҳасратларини, ривожланишнинг стратегиясини ёритган газета-журналлар эди. Юқоридаги нашрлар "Таржимон"га ҳавас руҳида, унга маслакдошлик ҳисси билан ташкил этилган жадидларнинг минбари бўлганди. Яъни, Исмоил Гаспралининг "Таржимон" газетаси, умуман олганда журналистлик фаолияти, матбуотчиликка қўшган ҳиссаси Туркистонда, хусусан бошқа туркий ўлкаларда ҳам матбуотнинг, журналистиканинг пайдо бўлиши, шаклланиши ва ривожланиши учун катта

таъсир қилди. Ўша давр учун матбуот инсон маънавий камолоти ва дунёда кечаётган жараёнлардан хабардорлигини англатувчи ижтимоий ҳодиса, кучли таъсир воситаси эди. Бу вазифани миллатнинг сиёсийлашуви, уйғоқлиги йўлида "Таржимон", умуман олганда ҳар бир жадид нашри тўлақонли бажарди ва тарихнинг ёрқин саҳифасидан жой олди.

Бундан ташқари миллий уйғонишга сабаб бўлган таълим соҳасидаги ислоҳотлари ўз номи билан янгилик-"жадид" мактаби ҳам тараққиётни тезлаштирган восита бўлди. Ҳа, Исмоил Гаспрали 1884 йилдан янги усул-жадид мактабига асос солади ва тезда бундай таълим туридаги мактаблар дастлаб Қримда, кейинчалик эса Қозон, Уфа ва Кавказ, Волгабўйи, Туркистон, Бухоро амирлиги ва Хива хонлиги ҳудудларида ҳам ташкил этила бошланади.

Эътиборлиси ана шу ҳудудларнинг барчасида анъанавий эскича тизимда фаолият кўрсатувчи мактаблар, шунингдек империя манфаатларига хизмат қилувчи рус-тузем мактаблари фаолият кўрсатарди. Айнан Исмоилбекнинг саъйи-ҳаракати, таълим тизимидаги янгилиги билан дунёвий фанлар ўқитиладиган ушбу мактаблар тез орада эски деб аталадиган анъанавий ва рус тузем мактабларига рақобатчи сифатидаги таълим масканига айланади.

Гаспрали фақат мактаблар ташкилотчиси, моҳир педагоггина эмас, янги услубдаги "Хожаи сибён" (1888й)-"Болалар муаллими" каби дарсликлар яратган улуғ олим ҳам эди. Дарсликнинг ҳар бир сабоғидан кейин саволлар берилган бўлиб, муаллиф фикрича улар ўқувчиларнинг дарсни англашлари ва имтиҳон топширишлари учун энг қулай восита эди. Муаллиф ўқиш-ўқитишнинг янги усули ҳақида тўхталар экан, болаларга моҳиятни тушунтирмасдан қуруқ ёдлатиш зарарли эканлигига эътибор қаратади ва ҳар бир ҳарфни алоҳида "садоси билан" мунтазам ва изчил ўрганишни таъкидлайди. Ушбу усул шунга кўра "усули савтия" (товуш усули) деб ҳам аталди.

Ана шу тарзда, ўқитиладиган дарснинг мазмунидан уни ўқитиш усули ва баҳолаш жараёнигача, ўқувчининг дарс тинглайдиган дарсхонасидан дарс жадвали-ю қишки ва ёзги таътилигача, мактабнинг жойлашиш ўрнидан, синф хоналарининг жиҳози-ю ёруғлик даражасигача замонавий асосларда кўриб чиқилиб, мактаб таълимининг янги дастури майдонга келтирилди. Табийки, бу жараён ўша даврдаги туркий мусулмон халқлари учун чинакам янгилик эди. Исмоил Гаспралининг таълим соҳасидаги бу янги дастури "усули жадид" номи билан довруқ қозонди.

Исмоил Гаспрали педагоглик, матбуотчилик ва нашриклидан ташқари, "Солномаи туркий", "Миръоти жадид" номли иккита рисола, "Россия мусулмонлиги", "Туркистон уламоси" асарларини ҳам яратди. Бу борада Исмоил Гаспрали фақат педагоггина эмас, миллатнинг дарду ҳасратларини ёритган публицист, халқ манфаатларини кўзлаган жамоат арбоби ва сиёсатчи ҳам эди.Улуғ шахснинг бу даражага юксалишида "Таржимон" газетаси, унда бериб борилган миллатнинг дарду ҳасратлари, истиқболлари тўғрисидаги мақолалари, шунингдек юқоридаги сингари асарлари катта роль ўйнади.

Ана шундай серқирра фаолияти боис, Исмоил Гаспрали ўз даврида нафақат Россия империясида, шунингдек Усмонийлар салтанатида, умуман олганда туркий дунё ва Европада ҳам нуфузи катта шахс, жамиятдаги жараёнларга таъсир қилувчи кучга айланганди.

Табиийки, у ўзининг нуфузини, қудратли таъсир кучини жадидчилик ғояларининг кенг тарқалишига сафарбар қилди. Россия империяси сарой амалдорлари, Ўрта Осиёдаги амиру хонлар ҳам ҳурмат қиладиган Исмоилбек шу боис ҳам мактаблар ташкил қилишга эътибор қаратди. Ана шу мақсад, ғоя йўлида у 1893 йилда Ширвонлик шогирдларидан Мажид Ғанизода билан Туркистонга ташриф буюриб, Самарқанд, Бухоро, Шаҳрисабз, Тошкент шаҳарларида сафарда бўлди ва жадид мактаблари ташкил этиш борасидаги фаолиятини давом этдирди ҳамда маслакдошлари билан танишди.

Гаспралининг Туркистонга саёҳати "Таржимон" газетасининг 1893 йилги 29-38 ва бошқа бир қисми 40-43-сонларида чоп этилган. Филология фанлари номзоди, доцент Тоҳир Қаҳҳор тадқиқ қилганидек," Гаспралининг барча ўлкаларга сафар қилишидан иккита мақсади бўлган: биринчиси-янги усулдаги мактаблар очишни ташкил этиш, иккинчиси-"Таржимон" газетасининг тарқалиши билан боғлиқ масаладир. Туркистонга ҳам айни ана шу ниятларини

амалга ошириш учун келганди. Асарларидан ва у ҳақдаги эсдаликлардан маълум бўлишича, Исмоилбек шарқу ғарбнинг кўплаб давлат арбоблари, юксак доиралари билан яхши муносабат ўрната олган шахс эди" (6).

Исмоил Гаспрали Туркистонга ташрифи давомида ўлкадаги ҳақиқий вазият билан танишган, жадид мактабларига бўлган муносабатдан тўла хабардор бўлганди. Шу боисдан у "Таржимон" газетасининг 1906 йилдаги 89-сонида "Хонларга хитоб" номли мақоласини нашр этдиради ва унда ҳукмдорларга қуйидагича насиҳат қилганди:

" Бир-икки сўзда давлатли хонларга сўйламоқ истаймиз, афу буюрсинлар.

Эй давлатлилар, идорангизга омонат қилинган Худо бандаларига бу кун, бу замонда қила оладиган бир хизмати олиянгиз бор бўлса, у ҳам маърифат тарқатиш орқали мусулмонларни зиё нури билан зиёлантириш ишидир. Фуқаройи ислом сизлардан мол сўрамайди, ош сўрамайди. Дин Қуръондан, жон Худодан. Сиз, давлатли хонлардан аҳолига эҳсон қилинадиган бир нарса маърифат тарқатувчи, билим ва камолотга етакловчи олий даражалик маориф мактабларидир. Кўҳна мадрасалар кўп, Бухоройи шарифда ва Хивада ҳозирги пайтда бирор "дорилфунун исломия" таъсис қилиниши керак.

Бу дорилфунунларга бир даража илм, дин таҳсил этмиш талаба ва авлоди сипоҳ қабул қилиниб, тарих, жуғрофия, кимё, ҳандаса, илми ҳуқуқ, усули идорайи давлат, илми иқтисод ва бошқа зарур фанлар форсий, туркий, русий ва француз тилларида ўқилиши керак.

Ушбу дорилфунунларга муаллим ва мударрис бўладиган аҳли камол бордир.

Бу фанларни Русияда ёки Европада ўрганган мусулмонлар Русияда бор...Даъват қилинсалар, булардан мол учун, нон учун эмас, миллат юксалиши учун хурнсандлик ила хизмт қиладиганлари топилади.

Рус ҳукуматига келсак, нашри маориф (маорифни ёйиш)га тўсқинлик қилмас, интишори маориф ҳавасида ва маслакидадир. Маорифсизлик балосини ўзи-да бу замонда кўриб, кечирди.

Эй давлатлилар! Кечмиш замон ғафлати билан Мовароуннаҳр майдони сиёсатда мағлуб бўлиб, истиқлолини йўқотди. Бу замонда ғафлатда бўлинса, майдони иқтисод ва маишатда миллат мағлуб бўлиб, бунга сабаб бўлганлар дунё тургунча масъул ҳисобланадилар. Жаноби Ҳақ хайрли ишларга муяссар айласин".

Исмоил Гаспрали ушбу хонларга хитобида бекорга "давлатлилар" сўзини ишлатмаганди. Негаки, айнан Ўрта Осиёдаги Россия босқинидан сўнг ҳам ярим мустамлака сифатида сақланиб қолган Бухорода Амир Абдулаҳад, Хивада Феруҳзон монархияга асосланган тузумли ўлканинг ҳукмдорлари эди. Ушбу шахслар ўз ҳудудининг давлатли ҳукмдорлари сифатида Гаспрали таъкидлаганидек ғафлатда бўлинса, майдони иқтисод ва маишатда миллат мағлуб бўлиб, бунга сабаб бўлганлар дунё тургунча масъул ҳисобланардилар. Шу боис биринчи масъулият, дахлдорлик ва миллат олдидаги жавобгарлик улар гарданида эди.

"Таржимон" газетасининг 1883-1916 йилларга оид 150 дан ортиқ Хоразм мавзусидаги мақолалар, хабарларидан маълумки, Феруҳзон, Асфандиёрлар жадид мактабларига , умуман ўлкада ислоҳотлар ўтказишга ҳайриҳоҳ бўлишган. Айнан ислоҳотлар ҳам ушбу ҳукмдорлар ташаббуси билан давом этган жараёнлар эди. Шу боисдан ҳам доктор Боймирза Ҳайит ёзганидек " Хиванинг Муҳаммад Раҳим ва Асфандиёр каби хонлари замонавийлик тушунчасига қарши эмас эдилар, шу сабабли жадидчиликка ҳам монелик қилмасдилар. Февраль инқилобидан (1917 йил) сўнг "Ёш хиваликлар" сиёсий талаблар қўя бошлади. Улар хондан (Асфандиёрдан) жадидлар ҳам иштирок этадиган халқ мажлиси ташкил қилишни сўрадилар. 1917 йил 5 апрель баённомаси билан Асфандиёрхон 50 га яқин вакил иштирок этадиган мажлис-парламентга ижозат беради. Бу мажлис-парламент нозирларни сайлаш ҳуқуқига эга эди. Демак, хон ўз давлат тузумини ривожлантириш қобилиятига эга тараққийпарвар шахс эди " (7).

Исмоил Гаспралининг Туркистонга иккинчи сафари 1908 йилга тўғри келади. Сафар тафсилотлари "Бухорода на кўрдим?" сарлавҳаси остида "Таржимон"нинг ўша йилги (47,50,57-59,64,78) сонларида чоп этилганди. Гаспрали Каспий денгизидан "Генерал Скобелев" кемасида келиб, Красноводскдан поездга ўтаркан, Россия босқини пайтидаги

Кўктепа урушини эслайди. Қалъа аҳолисининг "бутун Осиёга шуҳрат ва ибрат дея бола-чақаси баробар қиличдан кечурулуб, от оёғида топталгани"ни алам ва изтироб билан ёдга олади.

Исмоил Гаспралини Янги Бухоро (Когон) станциясида амир амалдорлари ва Россия сиёсий агентлиги таржимони Мирҳайдарбек кутиб олишади. Амир Абдулҳамид уни Карманага таклиф этади. Зиёфат асносида валиаҳд Саййид Олимхон билан учрашади. Валиаҳднинг Россия матбуотини мунтазам ўқиб бориши, ҳамда дунё воқеаларидан хабардорлигидан воқиф бўлади. Шу боис ҳам ўзгаришлардан умидворлик ҳис қилади.

Сўнгра Самарқандга бориб, шаҳардаги "усули жадид" мактаблари билан танишади. Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдулқодир Шакурий сингари маслакдошлари билан мақсаду вазифалари, таълимоти, туркий миллат олдидаги улуғвор, бирламчи вазифалар тўғрисида узоқ суҳбатлар қуради. Мавзудаги асосий моҳият тарих ва келажак, муқаддас обидалар ва уларнинг тақдири, Россиянинг истилочилик сиёсати ва ана шу шароитда ўзликни сақлаб қолиш ҳақида эди.

Самарқанддан қайтишда яна Бухорога келади ва Қушбеги Остонақулбек билан фаолияти тўхтаб қолган жадид мактабини қайтадан ташкил қилиш бўйича музокара олиб боради. Асосий тўсқинлик қозикалон томонидан эканлигини англаб, ҳузурига боради ва унинг мактабни тиклаш ҳақидаги ваъдасини олади. Сафар давомида Бухородаги нўғойлар Исмоилбекни меҳмонга чақириб, "Жамияти хайрия" ташкилотига фахрий аъзо қилишади. Янги очилган бир мактабни унинг шарафига "Исмоилия" дея атамоқчи эканликларини айтишади. Бироқ Исмоилбек бунга унамайди ва бошқа таклиф-Амир Абдулаҳадхоннинг марҳум падари ҳурматига "Музаффария" дея номлашни маслаҳат беради. Яъни шу тарзда амир ўз отаси шарафига қўйилган мактаб туфайли, бошқа жадид мактаблари сони ошишига ҳам тўсқинлик қилмайди, деган фикрда эди.…

Исмоил Гаспрали фақат педагог, публицист, ношир ва жамоат арбобигина эмас, таниқли адиб сифатида кўплаб бадиий асарлар ҳам яратганди. Унинг "Фарангистон мактублари" (1887), "Дорур-роҳат мусулмонлари" (1889), "Судан мактублари" (1889), "Хотинлар ўлкаси" (1890), "Гулбобо зиёрати" (1908), "Арслон қиз", "Кун туғди", "Иван ва Сулаймон" (1897), "Муколамайи салотин" каби кўплаб насрий асарлари борки, бу асарлар "Жадид адабиёти антологияси"нинг устунларидир.. Шукрки, истиқлол боис Исмоилбейнинг айрим асарлари ўзбек тилига таржима ҳам қилинган. Эътиборлиси, асар воқеаларининг деярли ҳаммасида муаллиф тилидан ҳикоя қилинади.

Табиийки, ҳозирги давр эҳтиёжи, қолаверса зарурат сифатида "Жадид адабиёти антологияси" нашр этилса, у Исмоил Гаспрали асарлари билан бошланади.

НАТИЖАЛАР:Ана шундай серқирра фаолиятга эга Исмоил Гаспрали ўзининг амалий фаолияти билан жадидчилик ҳаракатининг дунёда эътироф этилган лидери эди. Айнан ана шу туфайли нафақат Қрим, балки Кавказ, Волга ва Эдилбўйи, ҳамда Туркистонда XIX асрнинг охирларидан кўзга ташланган янгиланиш ҳаракатлари, жамиятда кечган жараёнлар кўп жиҳатлари билан шу шахсга, унинг "Таржимон" газетасига келиб боғланади. Яъни, X1X аср охири ва XX аср бошлари дунё тарихини Гаспрали, унинг ислоҳотларисиз тасаввур қилиш қийин ва бунинг иложи ҳам йўқ.

ХУЛОСА. Исмоил Гаспрали ва унинг ғоялари шунчалик таъсирчан ва амалий жараёнга айландики, ушбу даврдан эътиборан XX асрнинг 20-йилларига қадар фаолият кўрсатган бирор туркий миллат ойдинлари йўққи, бу шахсдан таъсирланмаган бўлмаса. Ана шу сабабли, унинг ижодий фаолияти ва айниқса, маслак-интилишлари билан танишиш Туркистон жадидчилик ҳаракати, табиийки ҳаракатнинг узвий бир қисми бўлган жадид адабиётининг шаклланиш ҳамда ривожланиш босқичларинигина эмас, умуман мазмун-моҳиятини англашда, йўналишларини белгилашда ҳам муҳим аҳамиятга эгадир.

Исмоил Гаспрали шу тарзда 63 йиллик қисқа умр кечирган бўлишига қарамай, туркий миллат, тарих олдидаги ўзининг муқаддас бурчини бажариб кетди. Бу шахсият ғоялари, амалиётга тадбиқ этилган ислоҳотлари боис туркийлар ҳаётидаги жараёнларни тезлаштирган, тараққиётга йўналтирган ФЕНОМЕН эди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.Б.Дўстқораев, “Жадидлар қандай ижтимоий тузумни орзу қилганлар”, “Жаҳон адабиёти” журнали, 2019 йил сентябрь, 172-бет.
2. Бегали Қосимов “ Миллий уйғониш”, “Маънавият” нашриёти, Тошкент-2002 йил, 4, 5 бетлар.
3. Боймирза Ҳайит “Туркистонда жадидчилик ва унинг тугатилиши”,“Хуршид Даврон кутубхонаси” интернет сайти, 10.12.2017 йил.
4. Бегали Қосимов, “Миллий уйғониш”, “Маънавият” нашриёти, Тошкент-2002 йил, 162, 163 бетлар.
5. Баҳодир Карим “ Исмоил Гаспринский ёди”, “Хуршид Даврон кутубхонаси” интернет сайти, 20.03.20017 йил.
6. Тоҳир Қаҳҳор “Исмоилбек Ғаспрали ва унинг Туркистон саёҳатлари”, “Жаҳон адабиёти” журнали -2010 йил октябрь.
7.Б.Ҳайит “Туркистон:Россия ва Хитой оралиғида”, “Янги аср авлоди” нашриёти, Тошкент-2023 йил, 379 бет.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

M.I. Atajanov
PhD, teacher, Urgench State University, Urgench

QADIMGI XORAZM SHAHARLARI AHOLISINING TURMUSH TARZIGA OID BA`ZI MULOHAZALAR.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA
Maqolada Qadimgi Xorazm hududidagi ilk shaharlarning shakllanishidagi asosiy omillarni tahlil qilish bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Aholi joylashuvining geografik va ekologik sharoitlarida oddiy aholi punktlaridan tortib, aholi punktlarida qurilish bilimlarini aks ettirishgacha bo'lgan iqtisodiy omillar hisobga olinadi.
Kalit so‘zlar: Oqchadaryo, Tunidaryo, Dovdon, Ko‘zalikir, Guldursun, Tuproqqal’a, Meshekli, Uchchak yodgorliklari.

АННОТАЦИЯ
В статье освещены вопросы, связанные с анализом основных факторов формирования первых городов на побережье Южного острова. Экономические факторы учитываются в географических и экологических условиях расселения населения, от простых поселений до отражения строительных знаний в поселениях.
Ключевые слова: Акчадарья, Тунидарья, Довдон, Козаликир, Гульдурсун, Тупроккала,Мешекли, памятники Учочак.

ABSTRACT
The article describes the issues related to the analysis of the main factors in the formation of the first cities in the South Aral Bay region. Economic factors from simple settlements to the reflection of construction knowledge in settlements are considered in the geographical and ecological conditions of population settlement.
Key words: Oqchadaryo, Tunidaryo, Dovdon, Ko`zalikir, Guldursun, Tuproqkala, Meshekli, Uchochak monuments.

Kirish. Qadimgi Xorazm aholisi dehqonchilik, xonaki chorvachilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug‘ullangan. Hududning o‘ziga xos tabiiy geografik sharoiti tufayli dehqonchilikda sun’iy sug‘orish tizimidan foydalanilgan bu esa dehqonlardan mashaqqatli mehnat va bilimni talab qilgan. Xorazmlik dehqonlar asrlar davomida Amudaryoning quyi oqimidagi tez-tez ro‘y berib turadigan suv toshqinlari yoki suvsizlikka qarshi kurashib kelganlar. Dehqonlar hududga mos sun’iy sug‘orish tizimini shakllantirganlar va hududga mos ekin yetishtirganlar. Shaharlarning qurilishi ham yaratilgan sun’iy sug‘orish tizimi bo‘ylab bunyod etilgan. Suvning harakati doimo nazoratga olingan. Kanalning boshida, o‘rta qismida, tarmoqlari bo‘ylab, quyi oqimida qal’a-shaharlar bunyod etilgan. O‘ng qirg‘oq Amudaryo hududidagi Qirqqiz kanalining quyi oqimida Guldursun qal’a, Oqchadaryo o‘zanining eng chekka sharqiy qismida Jonbosqal’a qurilgan [1. 1959. – Б. 41.].

Mil. avv. V asrda Chirmonyob sug‘orish inshootining o‘rta qismidagi qirda Qal’aliqir 1, Xazorasp kanalining o‘rta qismida Xazorasp, Polvonyob kanalining quyi qismida Ichanqal’a, mil. avv. IV asrdan Yormish kanali bo‘yida Katqal’a, Manoq kanali bo‘yida Voyangan qal’asi, Kaltaminor kanalining o‘rta qismida Eresqal’a, uning irmoqdan ajralib chiqqan joyida Anqoqal’a, oxirgi qismida Odamliqal’a quriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Janubiy Xorazm hududlarida, bevosita Amudaryoning chap qirg‘og‘i bo‘ylab Jigarband, Danisherqal’a, Sadvar, Kaparas, Yelxaras, o‘ng qirg‘og‘ida Xazorasp Tuproqqal’asi, Meshekliqal’a kabi shahar-qal’alar qurilgan. Bu shahar-qal’alar dehqonchilik vohalarining siyosiy-iqtisodiy, ma’muriy-harbiy va madaniy markaziga aylangan.

Har bir qal’a atrofida qishloqlar bo‘lgan. Qishloq aholisi qal’ani oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlagan, shuningdek, ular yangi kanallarni qurishda, tozalashda, kengaytirishda, nazorat qilish ishlarida ishtirok etib turganlar. Sun’iy sug‘orish tizimini maromda ushlab turish va ekinlarni vaqtida sug‘orish butun bir jamoaning vazifasi bo‘lgan. Chegara hududlardagi qal’alar atrofidagi qishloqlarda aholi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishlari bilan birga, savdo uchun ko‘plab miqdorda sopol buyumlarni, turli hunarmandchilik buyumlarini va uzumdan musallas tayyorlaganlar [2.2013 C–70].

Shahar aholisining shu hududlarda dalalari bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Tashqi dushman hujumi davrida ham aholi shu qal’alarda himoyalanganlar. Tadqiqotchilar Qo‘yqirilgan qal’a atroflaridan qishloqlarning izlarini topishgan. Chermonyob hududlaridan ham ko‘plab turarjoy izlari, qo‘rg‘onlar, xumdonlarning izlari aniqlangan. Tadqiqotchilar Shohsanam qal’asi atrofidagi kanalning tuproq kesmasini morfologik tahlil qilib, hududda dehqonchilikning rivojlanish bosqichlarini aniqlaganlar [3. 1969. C – 162.]. Hudud aholisi dastlab ilk liman yoki qayir uslubida dehqonchilik qilganlar. Bu kanallar kushonlar davrigacha faoliyat olib borgan, keyin qurib qolgan.

Qirqqiz kanalining quyi oqimida Guldursun qal’asi joylashgan. Bu kanal atrofidan ko‘plab yodgorliklar topilgan. Bular: Katta Qirqqiz, Qumbosgan qal’a, Qo‘rg‘oshinqal’a, Kichik Qirqqiz, Berkutqal’a, Uyqal’a, Otsiz qal’alardir. Qo‘rg‘oshinqal’a baland tepalik ustiga qurilgan. Uning etagida bog‘ va uzumzor dalalari topilgan. Qal’a yaqinida 90x80 metr maydonga sopol siniqlari bilan to‘shalgan joy ham aniqlangan. Tadqiqotchilarning fikricha, bu bozor bo‘lishi ham mumkin [4. 1967. C – 132].

Mavzuning metodologik asoslari

- Obyektivlik
- Xronologik izchillik
- qiyoslash, munozara
- umumlashtirish, xulosa
- asoslash
- arxeologiya, etnografiya, geografiya fanlari yutuqlaridan foydalanildi.

Tahlil. Mil. avv. I asrdan to milodiy IV asrgacha bo‘lgan davr mobaynida o‘ng qirg‘oq Xorazm hududlarida kanallar maksimal darajada ko‘p tarmoqlangan. Bunday holat Kaltaminor, Qirqqiz kanallarida kuzatilgan. Dalalarning hududlari kengayib, dehqonchilik mahsulotlarining soni ham ortgan. Dehqonchilik mahsulotlaridan tariq, bug‘doy, shaftoli, uzum va jiyda danaklari aniqlangan [5. 1967. C – 51–74].

Milodiy II-IV asrlarda Dingilji vohasida katta o‘zgarishlar yuz bergan. Ariqlar yanada keng hududlarga tarmoqlanib, 200-250 gektarni tashkil qilgan. Bu hududdagi dehqonchilikning asosiy qismini uzumzor va bog‘lar tashkil qilgan [6. 1969. C – 130].

Amudaryoning chap qirg‘og‘ida aholi tomonidan yaratilgan sun’iy sug‘orish tizimi farq qiladi. Bu yerda kanallar keng bo‘lib, ko‘p tarmoqlanmagan. Dovdon kanalining o‘ng qirg‘og‘ida Ko‘hna Uaz va chap qirg‘og‘ida Chermonyob kanali chiqarilgan [7.1969. C – 158]. Ko‘hna Uaz kanali mil. avv. IV asrning birinchi yarmida bunyod etilgan [8. 1997. C – 27]. Bu kanallar to‘g‘riburchak ostida tarmoqlangan bo‘lib, unda mayda ariqlarning soni nihoyatda kam bo‘lgan. Ko‘hna Uazda daryo tomon dambalar bilan himoyalangan. Bu dambalar aholini daryo suvi toshqinidan himoya qilish uchun qurilgan. Chermonyob kanali 150 km. uzunlikda bo‘lgan, uning vohasi 3 ming gektarni egallagan [9. 1969. C – 161]. Chermonyob kanali havzasida Ko‘zaliqir,

Qangaqal'a, Qandumqal'a, Ko'hna Uaz, Qal'aliqir II, Shohsanam, Qo'narliqal'a, Zmuxshir (Zamaxshar), Govurqala kabi qal'alar qurilgan [10. 1959. Б – 86].

Mavzu bo'yicha quyidagi natijalarga erishildi: Mil. avv. IV asrdan Dovdon kanalining suvi kamayishi natijasida sun'iy sug'orish tizimi yanada takomillashtirilgan [11. 1959. Б – 80]. Yirik kanallar qurilib, ularning soqasi daryo bilan bevosita bog'langan. Bu Chermonyob kanali bo'ylarida kuzatilgan [12. 1969. C-158]. Bu davrdagi kanallarning kengligi va sayozligi aholini va uning dalalarini suv toshqinlaridan himoyalagan.

Mil. avv. I ming yillikning oxirlarida Sariqamish deltasining janubiy Dovdon va Qangadaryo irmog'i qurigan [13. 1999. C – 60]. Natijada, bu hududdagi Oqtepa, Rait, Qandumqal'a va boshqa qal'alar mil. avv. III – IV asrlarda tashlab ketilgan [14. 1959. B – 118]. Mil. avv. II–I asrlarda Janubiy Dovdon irmog'ining butunlay qurib qolishi, aholining turmush tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Qadimgi Xorazm aholisi uy chorvachiligi bilan shug'ullanganlar. Uy chorvachiligidan ular oziq-ovqat manbayi, dalalarni haydashda, otlar va eshaklardan transport sifatida, terisidan kiyim sifatida, hayvon junidan turli matolar, to'shamalar, gilamlar tayyorlashda ishlatganlar. Bu qal'alarda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida aniqlangan. Deyarli barcha qal'alarning madaniy qatlamlaridan uy hayvonlarining suyak qoldiqlari topilgan. Yirik shoxli mol, mayda shoxli mol, ot, tuya, eshak, cho'chqa, it kabi hayvonlarning suyak qoldiqlari aniqlangan.

XX asrning 60-yillarida V.I.Salkin Qadimgi Xorazm qal'alaridan topilgan chorva mollarining suyak qoldiqlarini o'rgangan [15. 1966. C – 156]. Olim qadimgi va o'rta asrlar davriga oid 23 ta yodgorlikdan 24 mingdan ortiq suyak qoldiqlarini tahlil qilgan [16. 1966. C – 108]. Olim Ko'zaliqir, Qo'yqirilgan qal'a, Jonbos qal'a, Ayoz qal'a, Tuproqqal'a va o'rta asrlarga oid yodgorliklardan topilgan chorvalarning suyaklarini tahlil qilib, 2 ming yil davomida chorva mollarining tashqi ko'rinishlarida o'zgarishlar bo'lmagan, degan xulosani bergan [17. 1966. CC–113–119]. Qal'alarda yashaydigan aholining asosiy chorvasi yirik shoxli mollar, echki va qo'ylar bo'lgan, deb ko'rsatgan. Cho'chqa, eshak va tuyalar ularga nisbatan kam boqilgan. Ko'zaliqir va Tuproqqal'a yodgorliklaridan zebusimon chorvaning ham qoldiqlari aniqlangan [18. 1966. C –119–120].

Arxaik davr chorvachiligida qoramol, ot va tuyalarning soni ko'p bo'lgan bo'lsa, antik davrga kelib, mayda shoxli chorvalarning soni ortgan. Qadimgi Xorazm qal'alaridan cho'chqaning suyak qoldiqlari aniqlangan. Bu esa Qadimgi Xorazmda cho'chqa ham boqilganligini ko'rsatadi. Cho'chqa yetishtirishning milodning VII asri oxirlariga kelib butunlay yo'qolib ketganligi ham olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan.

Qadimgi Xorazm davlatida mil. avv. IV – milodiy IV asrlarda chorvachilik xo'jaligi rivojlangan. V.I.Salkin bu fikrni Ko'zaliqirdan topilgan suyak qoldiqlari va Qo'yqirilganqal'a, Jonbosqal'adan topilgan chorva mollarining qoldiqlarini solishtirish orqali aniqlagan. Qo'yqirilganqal'a va Jonbosqal'adan chorva mollarning qoldiqlari Ko'zaliqirga nisbatan kam topilgan.

Shimoliy Xorazm bilan Janubiy Xorazm hududlarida aniqlangan sug'orish tizimida farq bo'lganligini yuqorida ko'rsatib o'tgan edik, bu holat uy chorvachiligida ham kuzatiladi. Shimoliy Xorazm, ya'ni Amudaryoning chap qirg'og'ida, asosan, yirik shoxli mollar boqilgan. Janubiy Xorazm, Amudaryoning o'ng sohilida esa, mayda shoxli mollar shimolga nisbatan ko'p boqilgan [19. 1966. C –154]. Uy chorvachiligidagi bunday farqlar geografik sharoit bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin, chunki Shimoliy Xorazm chorvachilik xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay sharoit bo'lgan, aksincha, dehqonchilikni rivojlantirish uchun tabiiy sharoit biroz noqulaylik tug'dirgan. Shimoliy va Janubiy Xorazmning iqtisodiy hayotidagi bunday o'ziga xoslik bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Takliflar: Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari nashrlarida qayd qilingan fikr-mulohazalardan quyidagi takliflar ilgari suriladi: o'tmish tarixni chuqur o'rganish, ularni bosib o'tgan yo'liga doimo e'tibor berish kerakligi masalasida takliflar ilgari surildi.

Xulosa: Shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi va taraqqiyoti insoniyat rivojlanish jarayonini belgilovchi muhim omil sanaladi. Shaharsozlik madaniyatini tahlil qilish uchun u bilan

bog‘liq terminlarni chuqur anglash va mohiyati yoritib berish lozim. Sababi ko‘pchilik shaharsozlik madaniyatini urbanizatsiya tushunchasi bilan bir xil deb hisoblaydi. Lekin shaharsozlik madaniyati bilan urbanizatsiyaning farqli tomonlari mavjud Qadimgi Xorazmda bunyod etilgan markaziy shaharlar davlatning iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va madaniy markaz-lari bo‘lgan. Ular turli hajmda bo‘lib, ularning atrofida qishloqlar bunyod etilgan. Qishloqlarda aholi dehqonchilik, chorvachilik, ba’zida hunarmandchilik bilan shug‘ullansa, shaharda ularning savdosi bilan band bo‘lishgan. Qadimgi Xorazm shaharlari aholisi uy va jamoaviy hunarmandchilik bilan ham shug‘ullanishgan. Shaharlarda hunarmandchilikning turli sohalari mavjud bo‘lgan: quruvchilik, kulolchilik, temirchilik, bronza quyish, to‘quvchilik, toshtaroshlik, yog‘ochsozlik, shishasozlik, tanga zarb qilish, zargarlik va boshqalar. Uy hunarmandchiligida esa aholi o‘zlarining turmush kechirishi uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarganlar. Birinchi navbatda, bu ishlab chiqarish dehqonchilik mahsulotlarini ekish, yig‘ishtirish, qayta ishlov berish, oziq-ovqat holatiga keltirish, ovqat tayyorlash va ovqatlanish bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu bilan birga, kiyinish, turarjoy qurish, ta’mirlash kabi ijtimoiy hayot bilan bog‘liq hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarganlar.

Qadimgi Xorazmda charxda kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarish mil. avv. VI asrning boshlaridan keng tarqala boshlagan. Buni shu davrga oid Janubiy Xorazmdan topilgan Xumbuztepa topilmalari orqali asoslash mumkin. Shu davrdan boshlab bozor uchun kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarila boshlangan. Xumbuztepadan topilgan sopol buyumlari hududning boshqa joylaridan ham topilganligi uchun tadqiqotchilar Xumbuztepada ichki savdo uchun ham sopol idishlari ishlab chiqarilgan, degan xulosaga kelganlar. Qadimgi Xorazmda arxaik davrda sopol idishlari qizil angob bilan bo‘yalgan va charxda ishlangan. Sopol idish loyiga gips aralashtirilgan. Yelxarasdan arxaik va kangyuy davriga oid sopol idishlarga o‘xshash idishlar topilgan. Ular quyuq qizil angob bilan bo‘yalgan. Suv quvurlarining sopollari oq angob bilan bo‘yalgan. Xumlar ham topilgan. Ular yaxshi pishitilgan loydan ishlangan va yaxshi pishirilgan. Ularning yuza qismiga to‘q qizil rang bilan lentasimon naqsh qo‘yilgan. Kalta bo‘yinli xumlar topilgan. Ularga spiralsimon tarzda rasm solingan. Xumchalar, tuvak topilgan, ularga uchburchak va chiziqchalar bilan to‘q qizil rangda rasm solingan. Charxda ishlangan xumlarning gardishlari topilgan, ular Ko‘zaliqir xumlariga o‘xshash. Qornida spiral rasmi solingan xumlar kangyuy davriga oid.

Har bir markaziy qal’a yonida yoki uning ichida ibodatxona bunyod etilgan. Shuningdek, kulolchilik, temirchilik ustaxonalari ham qurilgan. Mahsulot ayirboshlash uchun qal’alarda bozorlar ham tashkil qilingan.

Qadimgi Xorazmda kulolchilik markazi sifatida bunyod etilgan Xumbuztepadan tashqari Nurum yodgorligi ham aniqlangan. Nurum yodgorligi Sariqamish deltasi g‘arbiy qismida, O‘rta Davdaka oqimi kengligida joylashgan. Mil. avv. II-I – milodiy II-III asrlarga oid [20. 2002. ИМКУ. Вып. 33] Nurum vohasidan 20 ga yaqin qishloq-qo‘rg‘onlari topilgan bo‘lib, ular 500 gektarni egallagan. Bu vohada yashagan aholi turmush tarzi chorvador qabilalarga hunarmandchilik, dehqonchilik, uzumchilik mahsulotlarini sotishga va o‘zaro tovar ayirboshlashga ixtisoslashgan.

Kulolchilik ustaxonalari tashlandiq shaharlarda ham qurilgan. Bunga Ko‘zaliqirni misol keltirishimiz mumkin. Ko‘zaliqirda mil. avv. IV–III asrlarda, ya’ni shahar aholi tomonidan tashlab ketilgandan so‘ng, kulolchilik ustaxonasi tashkil qilingan. Yodgorlikdan 8 ta xumdon izlari topilgan [21. 1959. – C. 199 – 200]. Qal’aliqir 1, Govurqal’a 3 yodgorliklarida ham shunday holat kuzatilgan. Qadimgi Xorazm shaharlarida kichik kulolchilik ustaxonalari qurilgan. Bunday yodgorliklardan 17 tasi aniqlangan.

Qadimgi Xorazm aholisi uy sharoitida kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarganlar va ulardan faqat o‘z ro‘zg‘orlarida foydalanganlar. Uyda ishlangan sopol buyumlar qo‘pol ishlangan, chala pishirilgan va loyi tarkibida turli xil qo‘shimchalar borligi aniqlangan. Bunday idishlar tuvak, kosa, tovalar bo‘lgan. Qo‘lda ishlangan sopol buyumlari ko‘proq Xorazm davlatining chegara hududlarida ko‘plab topilgan. Tadqiqotchilar buni ko‘chmanchi chorvadorlar bilan bo‘lgan aloqalarning ta’siri, deb hisoblashadi, chunki markaziy va yirik shaharlarda ular nihoyatda kam topilgan [22. 2021 – B –139].

Ko‘zaliqir, Dingilji qo‘rg‘onlaridan ham qo‘lda ishlangan sopol buyumlari topilgan. Ularning loyi yaxshi qorilmagan, tarkibida turli xil qo‘shimchalar: shamot, mayda shag‘al, ba’zida o‘simliklar kuli aralashtirilgan. Sopol buyumlarning yuzasi kulrang, ba’zan qizg‘ish angob bilan bo‘yalgan. Ular, asosan, ovqat pishirishda ishlatilgan.

Qadimgi Xorazmda alohida yirik kulolchilik ustaxonalari chegara hududlarda ham qurilgan. Bunga Nurum, Govurqal’a, Jonbosqal’a, Babish–mulla kabi qal’alarni misol qilishimiz mumkin. Ular ko‘chmanchi chorvadorlar bilan mahsulot ayirboshlaganlar [23. 1997. – С. 69]. O‘zaro savdo aloqalari chegara hududlarda olib borilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1.Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 41.
2. Хорезм в истории государственности Узбекистана. 2013– С. 70.
3. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приараля. 1969, – С. 162.
4. Кой – Крылган – кала – памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н.э. – IV в. н.э. 1967, – С. 132.
5. Вайнберг Б.И. Экология Приараля в древности и средневекове.1997, – С. 27.
6. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. 1959, – Б. 86.
7. Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности. 1999. – С. 60.
8. Цалкин В.И. Фауна древнего Хорезма в свете данных археологии /Древнейшее животноводство племен Восточной Европы и Средней Азии. – Москва: Наука, 1966. – 156 с.
9. Абдолниёзов Б., Исҳоқов М. Авесто ва қадимги чорвачилик. – Тошкент, 2008. – Б. 35.
10. Болелов С.Б. Керамические обжигателные горны на территории южного и юго – восточного Приараля (вторая половина И тыс. до н.э. – первые века н.э.) // ИМКУ. Вып. 33. – Ташкент, 2002.
11. Воробева М.Г. Керамика Хорезма античного периода // Керамика Хорезма. Труды ХАЭЭ. Вып. ИВ. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 199 – 200.
12. Егамбердиева Н.А. Амударё ҳавзаси ҳудудларининг қадимги маданияти. 2021 – Б. 139.
13. Воробева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. 1959. – С. 80.
14. Болелов С.Б. Гончарство древнего Хорезма: формы организации ремесла (ВИ в.до н.э. – ИВ в. н.э.). // ЭО. – №2. 1997. – С. 69.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
“Tarix”kafedrasi o‘qituvchisi,
samandar194seq@gmail.com

QUYI AMUDARYO VA ZARAFSHON HUDUDINING PALEOGEOGRAFIK SHAROITI, XO‘JALIK-MADANIY TIPLAR VUJUDGA KELISHI MASALASI BO‘YICHA MULOHAZALAR

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA

Maqolada Quyi Amudaryo va Zarafshon vohasi hududining qadimgi davrdagi paleogeografik holati, xo‘jalik-madaniy tiplar vujudga kelishi masalasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Sariqamish ko‘li, Sho‘raxon, Eski daryoliq, Jonidaryo, Oqchadaryo irmog‘i, Quvondaryo, Inkordaryo, Burli-3

Султанов Самандар Махмудович
преподаватель кафедры истории
Ургенческого Государственного
Университета имени Абу Райхана Беруни
samandar194seq@gmail.com

РАССУЖДЕНИЯ О ПАЛЕОГЕОГРАФИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ НИЗОВЬЕВ АМУДАРЬИ И ЗАРАФШАНСКОГО РЕГИОНА, А ТАКЖЕ О ВОПРОСАХ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ХОЗЯЙСТВЕННО-КУЛЬТУРНЫХ ТИПОВ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается палеогеографическое положение территории Нижней Амударьи и Зарафшанского оазиса в древности, вопросы возникновения хозяйственно-культурных типов.

Ключевые слова: озеро Сарыкамыш, Шурахан, Эски Дарьялык, Джанидарья, Акчадарья, Кувандарья, Инкардарья, Бурли-3

Kirish.

O‘rta Osiyo mintaqasi o‘rtasida joylashgan O‘zbekiston bir qator tabiiy-iqtisodiy hududlardan iborat bo‘lib, ularni geografik o‘rni geologik jihatidan yagona bo‘lsa ham, geografik muhiti turli tasvirlarga ega bo‘lishi, aholining joylashishi, tabiiy resurslardan foydalanishi jihatlaridan alohidalik xususiyatlarga ega, bu xususiyatlar tadqiqotchilar nashrlarda o‘z isbotini topgan. Ikki hududning geografik o‘rni, daryolar kesish holati, antropogen landshafti aholining joylashishi holati bir birini takror qilmaydi. Ikki zaminning tuzilishi, antropogen landshafti,

paleogeografiyasida gidrologik xususiyatlarda farqlanish holatini kuzatish qiyinchilik qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Adabiyotlar tahlili. Xorazm ekspeditsiyasi nashrlarida Xorazm tekisligi (-11,5 mln kv.km xudud, shundan 2 mln gektari geoiqtisodiy omillarga ega bo‘lgan, bu esa o‘rnashgan aholining ekin-tekinlikka qulay bo‘lgan [1]. Shu tariqa, tabiat in’omlari natijasida biz istiqomat qilgan xudud tekislik bo‘lib, bu Qizilqum-Qoraqum-Orol dengizi oralig‘idan iborat bo‘lgan. Qum uyumlari yuzasi tabiiy maysalarga serob bo‘lgan, yer soti tebraishlari natijasida vujudga kelgan botiqlar suv havzalariga aylangan, ular o‘z navbatida sohili etaklari qamishzorga aylanib, antropogen landshaftni hosil qilgan. Lekin bu tabiiy jarayon uzoq muddati cho‘zilmagan, bu tekislik yuzasi tuzilishida Amudaryo-Xorazmda, Zarafshon daryosi Zarafshon daryosi, hamda Sirdaryolar suv oqimiga bog‘liq bo‘lgan.

Gerodotning Misr to‘g‘risida xulosasini “Nil” hadyasi [2] hamda arab geografi va sayyohi Istaxriyning “Xorazm Jayhunning butun foydasini ola bilgan mamlakatlar” degan iboralarini esga olib. O‘rta Osiyo zaminida yirikdaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari dinamikasini yoritish maqsadga muvofiq. Amudaryo havzasi, uning vujudga kelishi, shakllanishi, voha aholisiga xizmat qilish tarixi ming-minglab yillar bilan bog‘lash mumkin. Amudaryo Surxon vohasi janubi-sharqida osmono‘par tog‘lardan, jumladan Pomir (Dunyo tomi) dan 4000 m balandlikda tonnalab qoplanib yotgan muzliklar yomg‘ir suvlarining shiddat bilan pastga oqib tushgan suvlar yig‘indisi Pomir-Pomirdaryolari kelib qo‘shilish davrigacha Voxandaryo deb nom olgan, Voxandaryo suvlari qo‘shilgandan keyin Pomirdaryo nomi bilan asosiy suvini Surxon vohasidan 1036 km uzoqlikda suvini Qoraqumni ikki qismga ajratgan xolda Xorazm tekisligida harakat qilib, uni o‘ng va so‘l sohil hududlariga ajratgan. Amudaryoning bu tashqi harakati natijasi bundan 22 ming yillar avval (Pleystotsenning Vyurm muzligi davrida bo‘lib, uning yuzasini qoplagan) sodir bo‘lgan.

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari asarida, xususan A.S.Kesning geologik va geomorfologik tadqiqotlar natijasi maqolasida o‘rin olgan [3]. Amudaryo Sariqamish ko‘li hududida o‘ng sohil Sho‘raxongacha, so‘l sohil Xorazm viloyati Yangibozorgacha hech qanday tarmoq ajralib chiqmaydi, ikkinchi xususiyati tashqi tomondan daryolar suvini olib kelmaydi. Hozirgi Nukus shaxridan keyin Amudaryodan bir qator shaxobchalar Orol dengizi bilan suvlarini olib borgan. P.Baratov tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, Nukus shaxridan keyin Amudaryo shimolga yo‘nalishi davrida geografik kenglikda undan bir qator shaxobchalar ajralib suvini Orol dengiziga olib borganlar. Masalan, Beruniydan keyin Sulton Uvays tog‘igacha tekislik, Mang‘it-Nukus yuligacha balandlik va botiqlar. Nukus yo‘lidan keyin ketma-ket balandlik va tekislik, Nukus shahri tekislikda joylashgan.

Geografik adabiyotlarda qayd qilishicha, Nukus shahridan keyin Qipchoqdaryo, Oqdaryo, Erkindaryo, Ko‘xnadaryo, Toldiqdaryo, Qozoqdaryo kabi tarmoqlari ajralib, suvini Orol dengiziga olib borib, uning janubi-g‘arbiy xududini suv xavzalariga aylantirgan, ularning geografik manzarasi qamishzor, chakalakzor va botqoqliklarga aylangan [4]. Amudaryo Xorazm tekisligida axoli uchun toshqin suvlariga bilan tashvishlarni hosil qilgan. Shu jihatidan kelib chiqib, Amudaryo harakati tarixiga bir nazar tashlashni taqozo etdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada obyektivlik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, munozara, umumlashtirish, mantiqiy xulosa, arxeologiya, geografiya fanlari ma’lumotlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Geografiya fani yutuqlariga ko‘ra, Xorazm vohasi, Quyi Zarafshon xududlari mil.avv. 25-10 ming yilliklarda tekislik bo‘lgan [5]. O‘zbekiston fizik-geografik xaritasida Xorazm vohasi va Quyi Zarafshon vodiysi Qizilqumda joylashishida farqlanish seziladi. Ma’lumki O‘zbekistonning asosiy ekin-tekinlikka qulay hudud Qizilqum hisoblanib, uning umumiy maydoni 300 ming kv.km.ni tashkil qilib. Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan [6]. Uning geografik hududi o‘rta qismida Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari harakat qiladi, shimoli-g‘arbida Orol dengizi, janubi-sharqida Nurota tog‘i va Mirzacho‘l bilan chegaralangan.

Qizilqum gidrologik xususiyatini Sirdaryo Eski daryoliq, Jonidaryo, Quvondaryo, Inkordaryo irmoqlari sharqiy tekislikni tasvir qilgan, uning janubida Amudaryoning Oqchadaryo

irmog‘i tasvir qilgan, (Janubiy Oqchadaryo), unga geografik jixatidan ulanib ketgan Zarafshon daryosi, uning Daryosoy, Mahondaryo, Xujayli va Oyoqagitma irmoqlari tasvir qilgan.

Quyi Amudaryo havzasi va Quyi Zarafshon hududlarining geografik holati va antropogen landshafti, ekologiyasi, aholi joylashishi xususiyatlari Amudaryo Zarafshon va Sirdaryo daryolari harakati tarixini yoritish maqsadga muvofiq.

Amudaryo Xorazm tekisligini ikki-o‘ng va so‘l soxil xududlarga ajratgandan keyin suv toshqini natijasida Sho‘raxon yaqinidan ajralib chiqqan Oqchadaryo irmog‘i Qizilqum to‘lqinsimon qum uyumlarini suvga to‘ldirib, gidrologik xususiyatini xosil qilgan. A.V.Vinogradov tadqiqotida qayd qilingan ilk asarida Oqchadaryo irmog‘i suv oqimi barqaror bo‘lganligi bois Sho‘raxon-Orolbo‘yi janubiy xududida minglab yillar mobaynida suv tarkibidagi mineral moddalarni yetkazib sernam va serunum bo‘lib, axoli kundalik faoliyatlarida ozuqa mahsulotlaridan foydalanib, tarixiy davr, uning keyingi bosqichlarida hayotiy tajribasini boyitib borgan.

Xorazm vohasi qadimgi davrdan XX asr o‘rtalarigacha sug‘orilish tarixini yoritgan ilmiy ahamiyatini tadqiqotchilar uchun saqlab, asarida Amudaryoning loyqasida ximiyaviy miqdorini Nil daryosi bilan taqqoslangan jadvalda:

Kimyoviy tarkibi	Amudaryo	Nil
Kremnezyom (CO2) bir	54	57
yarim ohaklar	17	25
Oxak	7,3	3,1
Magniy	2,3	2,7
Kaliy	2,1	0,5
Natriy	1,6	0,6
Fosfor kislota	Izlari bor	0,75.

Jadvalda ma’lumotlardan ma’lum bo‘ldiki Amudaryo suv tarkibida tuproqning sernam va ser daromad qilishida Nilga qaraganda ancha ustunlik qilganligi kuzatiladi [7].

Xorazm tarixiga oid tadqiqotlari bilan ilmiy jamoatchilik e’tiborini tortgan Iso Jobborov xulosasiga ko‘ra, daryo toshqini xar yilda 200 million tonna (1,2 kub km) loyqani olib kelgan bu loyqa tarkibida mineral moddalar mavjud [8]. Amudaryo oqimi natijasida Orol dengizi-janubiy Qoraqum va Janubiy Qizilqum oralig‘ida joylashgan Xorazm tekisligi mil.avv. 40-12 ming yilliklardan boshlab insonga xizmat qilib kelgan, bu jarayon hozirgi vaqtda davom etgan. Mana shunday mineral moddalarga serob bo‘lgan.

Qizilqumni sharqiy geografik xolatini Sulton Uvays tog‘i tasvir qiladi, u geologik jarayonlar bilan bog‘liq, sharqiy tomon cho‘zilishi (25 km) munosabati bilan Qizilqumni janubiy va shimoliy xududlarga ajralgan. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari nashrlarida o‘ng soxilda Qizilqum saxrosi sharotini aks ettirgan Yonboshqala balandligi atrofi geografik manzarasini aks ettirgan ob otiqlar Amudaryodan suv sathi oshishi tufayli Oqchadaryo irmog‘i suv ta’minoti yuqori bo‘lganligi bois Qizilqum oralig‘ida maydonchalar suv havzalariga aylanib, gidrologik xususiyatni namoyon qilganlar. Mil.avv. IV ming yillikda bu suv xavzalari organik dunyo, sohil etaklari qamishzor va chakalakzorlarga serob bo‘lgan. S.P.Tolstov tomonidan arxeologik jixatidan qisman o‘rganilgan Jonbas-4 manzilgohida o‘rnashgan urug‘ jamoalari hududi o‘sha suv havzalari, uning atrofidagi tabiiy manbalardan foydalanganlar [9].

Amudaryo o‘ng sohili xududi geografik manzarasini aks ettirishni davom ettirgan Zarafshon vodiysi geografik xaritada uch qismdan iboratligi ko‘zga tashlanadi, ya’ni g‘arbiy, markaziy va janubiy xududlardir. G‘arbiy xudud Quyi Zarafshon vodiysi geografik adabiyotlari sahifasida o‘z aksini topgan. Geologik, geomorfologik, geografik va arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Zarafshon vodiysi quyi xavzasi o‘zining bir qator xususiyatlari bilan o‘ng soxil Sho‘raxon qishlog‘i hududidan farqlanish holati boshqacha manzaraga ega. Chunonchi g‘arbiy Zarafshon hududi yuzasida geografik xolati, antropogen landshafti, ekologiyasi tabiiy resurslari odamlarning o‘rnashishi yuzasida bir-qator xususiyatlarini oydinlashtirish joiz.

Quyi Zarafshon hududida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti Arxeologiya bo‘limi hamda Samarqand Davlat Universiteti Tarix fakulteti

arxeologiya guruhi tomonidan arxeologik izlanishlar olib borilgan, ularni natijalari aloxida nashrlarda o‘z o‘rnini topgan. Y.G‘.G‘ulomov raxbarligida Mahondaryo arxeologiya guruhi Quyi Zarafshon xududida arxeologik izlanishlarni olib borishi natijasida mezolit, neolit va bronza davrlariga oid manzilgohlarni ro‘yxatga olib, ba’zilarida arxeologik izlanishlar natijalarini turli nashrlar saxifasida aks ettirganlar. Zarafshon daryosi xarakati, uning irmoqlarining Qizilqum oralig‘ida botiqlarni suv xavzalariga aylantirish, ular sohili etaklariga ulanib ketgan tepaliklarda axoli tomonidan qurilgan Darbazaqir 1,2 xamda ularning qo‘shni xududlarni o‘zlashtirish natijasida Zomonbobo madaniyati asoschilari bronza davri jamiyatini tadrijiy rivojlantirganligi to‘g‘risida xulosalar qayd qilingan [10].

Xulosa. Yuqorida qayd qilingan tarixiy ma’lumotlardan kelib chiqib, Xorazm vohasi va Quyi Zarafshon vodiysida axolining joylashishi natijasida vujudga kelgan xo‘jalik-madaniy tiplarning tarixiy geografiyasi quyidagi manzarada bo‘lgan.

1. Xo‘jalik tip – Xorazm vohasi shimolida Sulton Uvays tog‘i etagiga ulangan xududda ilk xo‘jalik-madaniy tip tarkib topgan-Burli-3. So‘nggi tosh davri cheklangan xudud tarixiy geografiyasini tasvir qilgan. Bu geografik manzara mezolit, ilk neolit davri, ya’ni mil.avv. Vming yilliklargacha madaniy-xo‘jalik tipning xududi kengaygan.

2. Quyi Zarafshon vodiysi mezolit davrida Daryosoy irmoqlari xamda Chorbakti xavzasida ovchilar tomonidan o‘zlashtirilgan, navbatdagi xo‘jalik madaniy tiplar vujudga kelgan (Uchashi-131, Chorbakti, Darbazaqir 1,2.)

3.Mil.avv.IV ming yillik birinchi yarmida Qizilqum saxrosi Yonboshqala balandligi atrofida Jonbas-4 manzilgohi xo‘jalik-madaniy tip vujudga kelgan, qo‘shni xududlarga yoyilish markazi bo‘lgan.

4. Xuddi shu tarixiy davrda Quyi Zarafshon vodiysi Mahonko‘l va Gudjayli o‘zanlari quyi xavzasida Kichik va Katta Tuzkonlar atrofida xo‘jalik-madaniy tiplar vujudga kelgan (Darbazaqir 1,2).

5. Mil.avv.IV ming yillik ikkinchi yarmi- III ming yillik birinchi yarmi Xorazm vohasi Sho‘raxon-Sulton Uvays oralig‘i, Oqchadaryo irmog‘i shimoli-sharqiy xududi, Uzboy, Quyisoy va Tuyamuyin xududlari Jonbas-4 manzilgohi urug‘ jamoalari vorislari o‘zlashtirish tadbirini olib bordi xo‘jalik-madaniy tiplar tarkib topdi. Bunday xo‘jalik-madaniy tiplar Zarafshon daryosi Echkiliksoy, Daryosoy, Maxondaryo, Gujayli, Oyoqagitma irmoqlari sohili etaklari xo‘jalik-madaniy tiplar vujudga kelgan, aholi zichligini hosil qilgan, aloxida tarixiy etnogeografiyasi shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Акулов А.В. Некоторые данные о дельте Амударьи-Ташкент:ВГО. Узбекс филиал-1957-Т-III-С.42.
2. Геродот. Тарих. Иккинчи китоб. Т-1. 1886.
3. Кесь А.С.Аральское море в Голоцене //Этнография и археология Средней Азии-М:Наука, 1979-С. 19.
4. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси-Тошкент “Ўқитувчи” 1997-Б. 154-162.
5. Баратов М, Маматқулов М, Рафиков А. Ўрта Осиё табиий географияси-Ташкент, “Ўқитувчи”. 2002. Б.283.
6. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья-М.Наука, 1981.
7. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи-Тошкент, Фан, 1959-Б 25.
8. Жобборов И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани.-Тошкент, “Ўзбекистон”, 2012-Б 32.
9. Толстов С.П. Древний Хорезм-М:МГУ. 1948-С 60.
10. Гулямов Я.Г, Исламов У.И, Аскаров А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в Низовьях Зарафшана- 266 С. Ташкент, Фан.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Raxmanova Shirin
Ma'mun Universiteti Tarix kafedrasi
dotsent v.b., PhD,
raxmanovashirin251@gmail.com

XORAZM ZIYORATGOHLARINING MAHALLIY URF-ODATLAR SAQLANISHIDAGI ROLI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm vohasidagi ziyoratgohlarning mahalliy urf-odatlar, marosimlar va qadriyatlar saqlanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Ziyorat madaniyati asrlar davomida shakllanib, nafaqat diniy e'tiqod, balki xalqning ma'naviy hayoti, axloqiy qarashlari va ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo'lgan. Maqolada Xorazmdagi qadimiy maqbaralar, qadamjolar va avliyo ziyoratgohlari atrofida shakllangan udumlar, marosimlar, xalq rivoyatlari hamda ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati o'rganiladi. Shuningdek, ziyorat joylarining yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash, tarixiy xotirani tiklash va hududning madaniy merosini asrashdagi ijtimoiy vazifalari yoritiladi. Maqola Xorazmning boy ma'naviy merosi va ziyoratgohlarning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rnini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm ziyoratgohlari, mahalliy urf-odatlar, qadamjolar, maqbaralar, ma'naviy meros, xalq an'analari, ziyorat madaniyati, diniy marosimlar, tasavvuf, madaniy qadriyatlar, tarixiy xotira, ijtimoiy birlik.

Рахманова Ширин
Исторический факультет, Университет Мамуна
Доцент, кандидат наук,
raxmanovashirin251@gmail.com

РОЛЬ СВЯТЫНЬ ХОРЕЗМА В СОХРАНЕНИИ МЕСТНЫХ ТРАДИЦИЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль мест паломничества в Хорезмском оазисе в сохранении местных традиций, ритуалов и ценностей. Культура паломничества формировалась на протяжении веков и проявлялась не только как религиозное верование, но и как фактор, укрепляющий духовную жизнь, нравственные взгляды и социальное единство народа. В статье изучаются обычаи, ритуалы и народные сказки, сформировавшиеся вокруг древних мавзолеев, святынь и святых мест Хорезма, а также их значение в современном обществе. Также освещаются социальные функции мест паломничества в духовном воспитании молодого поколения, восстановлении исторической памяти и сохранении культурного наследия региона. Цель статьи – глубоко раскрыть богатое духовное наследие Хорезма и место мест паломничества в социально-культурной жизни.

Ключевые слова: святыни Хорезма, местные обычаи, святыни, мавзолеи, духовное наследие, народные традиции, культура паломничества, религиозные ритуалы, суфизм, культурные ценности, историческая память, социальное единство.

Rakhmanova Shirin
Department of History, Mamun University
Associate Professor, PhD,
raxmanovashirin251@gmail.com

THE ROLE OF KHOREZM SHRINE PLACES IN THE PRESERVATION OF LOCAL TRADITIONS

ABSTRACT

This article analyzes the role of pilgrimage sites in the Khorezm region in preserving local customs, rituals, and cultural values. The tradition of pilgrimage has developed over centuries and has served not only as a form of religious devotion but also as a factor strengthening the spiritual life, moral outlook, and social unity of the local population. The article examines the customs, rituals, and folk legends formed around ancient mausoleums, sacred sites, and shrines of revered figures in Khorezm, as well as their significance in contemporary society. In addition, it highlights the social functions of these pilgrimage places in fostering the spiritual upbringing of the younger generation, restoring historical memory, and preserving the cultural heritage of the region. The article aims to provide a comprehensive analysis of Khorezm's rich spiritual heritage and the socio-cultural importance of its pilgrimage sites.

Keywords: Khorezm pilgrimage sites, local customs, sacred places, mausoleums, spiritual heritage, folk traditions, pilgrimage culture, religious rituals, Sufism, cultural values, historical memory, social cohesion.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Har bir xalqning ijtimoiy madaniy hayotida din bilan bog‘liq an’ana, urf-odat, marosim va bayramlar kishilar turmush tarzining o‘ziga xos hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqi turmush tarzida ham tarixiy ming yilliklar davomida o‘z milliy va diniy urf-odat, rasm-rusumlar bilan bog‘liq an’analar saqlanib qolgan. Ana shunday qadriyatlardan biri muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish odati hisoblanadi. Takidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi “Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan[1.120].

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Xorazm vohasi qadim zamonlardan buyon o‘zining muqaddas maskanlari, muqaddas dinimizni targ‘ib qilgan buyuk insonlarning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq ziyoratgohlari va qadamjolari bilan nom chiqargan. Ushbu tabarruk insonlarning ma’naviy merosi Xorazm vohasida ham asrlar mobaynida avaylab-asrab kelinishi bilan bir qatorda bugungi kunda bunday tabarruk maskanlar va ziyoratgohlar atroflicha, xolisona o‘rganilmoqda.

Voha aholisi orasida keng tarqalgan islomiy ziyoratgohlari haqidagi ma’lumotlar juda qiziq. O‘rta asrlarda arab-fors, turkiy va boshqa xorijiy tillardagi manbalarda islomiy ziyoratgohlar haqida qiziqarli ma`lumotlar uchraydi. Xorazm vohasi aholisi o‘rtasidagi muqaddas joylar bilan bog‘liq qarashlarda islomdan avvalgi diniy e’tiqodlar qoldiqlari saqlanib qolgan bo‘lib, ushbu ziyoratgohlardagi mavjud daraxt, buloq va jonivorlar, shuningdek, voha aholisining sug‘orish inshootlari bilan bog‘liq tasavvurlarida namoyon bo‘lgan. Aksariyat ziyoratchilarning ziyoratdan asosiy maqsadi faqat o‘sha joyga dafn qilingan avliyo ruhiga duo o‘qish emas, balki o‘zining ko‘ngil xotirjamligi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishda avliyodan yordam so‘rashdir[2.16].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xorazmda muqaddas joylarga “mozor” iborasi ishlatilmaydi, chunki ushbu atama“qabr” ma’nosini anglatadi. Shu sababli, bunda “avliyo” istilohi qo‘llanilib, xalq orasida qabriston yoki mozor emas, balki “o‘liyo buva” (“avliyo bobo”) deb yuritiladi.

Voha maqbaralari geografik hudud, iqlim va islomiy urf-odatlar asosida qurilgan. Gumbazlari bir qavatli, peshtoqlar yechimi, ichki va tashqi bezaklari soddaligi, shuningdek, boshqa hudud maqbaralaridan go‘rxonlarini yer ostiga tushirilmaganligi bilan farqlanadi. Me’moriy yodgorlikning asosi bo‘lgan ziyoratgohlar – qabriston, maqbara, dahma, xazira (oilaviy qabrlar) kabi joylarni o‘z ichiga oladi. Avliyoning darajasiga qarab ziyoratgohlar arxitektura jihatidan kattalashib borgan va majmua (kompleks masjid, ba’zilarida minora, xonaqodan tashkil topgan) sifatida qurilgan[3.76].

Respondentlarning ichida o‘tkazilgan savol-so‘rovnomalar tahlili natijalariga ko‘ra, respondentlarga “Vohada joylashgan qaysi ziyoratgoh va qadamjolarga ko‘proq borasiz?” deb berilgan savolga ularning javoblari quyidagicha bo‘ldi: respondentlarning 30 foizi Sulton Uvays ziyoratgohiga borishini, 25 foizi Samarqand va Buxorodagi ziyoratgohlarga, 20 foizi ko‘proq Yusuf Hamadoniy-Ulli pirni ziyorat qilishini, 10 foizi esa Pahlavon Mahmud ziyoratgohini ziyorat qilishlarini, 5 foizi ota-bobolarimiz yotgan qabristonni ziyorat qilishlarini, 5 foizi Shayx Muxtor Vali ziyoratgohiga, yana 5 foizi esa Said Ota ziyoratgohiga ko‘proq borishlarini ta’kidlaganlar[5].

Endi ziyoratgohlarni quyidagi tartibda aholi o‘rtasidagi nufuziga qarab Respublikamizda mashhur ziyoratgohlar (Polvon Pir, Yusuf Hamadoniy, Sulton buvo), viloyatda tanilgan ziyoratgohlar (Ostona buvo, Doshqinjon buvo, Jonxarash buvo), tuman va mahalla yoki qishloq miqyosidagi ziyoratgohlar (Shayx Shahobiddin bobo, Shayx Sharob bobo, Hazrati Abul Ibn Marjon qabri) tarzida tasnif etish mumkin.

Shuningdek, ziyoratgohlarning o‘ziga xos vazifalariga qarab ham guruhlarga ajratish mumkin. Xususan, shifo beruvchi, ekologik, iqtisodiy jihatlarga ega bo‘lgan ziyoratgohlar. Shifo istab boriladigan ziyoratgohlar mavjud bo‘lib, ziyoratchilar asosan, avliyolarni vositachi va homiy, odamlarni xudo oldida yoqlovchi deb tasavvur qiladilar. Chunki, kasalmand bemorlar shifo istab, muqaddas joylarda ular avliyolardan davo xohishi bilan boradilar. Bunday qarashlar bugungi kunda ham mavjud. Hammaga ma’lumki, bugungi kunga kelib,tibbiyot juda rivojlangan bo‘lishiga qaramasdan, bemorlarning ko‘pchiligi avliyolardan madad istab, ziyoratgohlarga qatnaydilar (misol uchun, Yusuf Hamadoniy ziyoratgohiga ruhiy xastaliklarga chalingan bemorlar davo istab boradi).

Bundan tashqari, vohada farzand ko‘rolmayotgan er-xotinlar muqaddas joylarga qatnaganlar va farzandsiz ayollarni bunday ziyoratgohlar o‘ziga jalb qilib kelgan, chunki bundayjoylar ular uchun farzandli bo‘lish ilinji so‘nggi umid bo‘lgan, bu barcha ziyoratgohlarga xos bo‘lgan xususiyatdir. Ayniqsa, Yangiariq tumani Ostona qishlog‘ida joylashgan Shayx Muxtor Vali ziyoratgohida farzand ko‘rolmayotgan ayollar qatnovi boshqa ziyoratgohlarga qaraganda ko‘pchilikni tashkil etadi[4.48].

Voha ziyoratgoh va muqaddas qadamjolarning mahalliy o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, ikki katta qumlik o‘rtasida joylashganligi sababli Xorazm uchun suv – muqaddas sanalganligi va shuning uchun bo‘lsa kerak, Amudaryo kulti bilan bog‘liq ziyoratgohlar keng tarqalgan. Bunga sababi, mahalliy aholi vakillarining asosiy kundalik hayotida suv qadriyat sanalib, uni toza tutish, isrof qilmaslik, hatto uni onaning yuziga qiyoslash ham mavjud. Hammamizga ma’lum, voha aholisi dehqonchiligi sun`iy sug‘orish tizimiga asoslangan, shu sababli, Xorazm avliyolari kanallarga homiylik qilishi to‘g‘risidagi qarashlar bilan boshqa hududlardan farq qiladi.

Yana bir o‘ziga xosligi shundaki, Xorazm vohasida islomgacha mavjud bo‘lgan tabiat kuchlari bilan bog‘liq ziyoratgohlar muqaddas islom dini kirib kelganidan keyin bunday joylar o‘rniga islom olamining avliyolari egallagan va ushbu maqbaralarning bir elementi sifatida quduqlar, tut va gujum daraxtlari saqlanib qolgan. Bundan tashqari, Xorazm ziyoratgohlari tug‘larining uchlari besh panja shaklida bo‘lmasdan, ochilmagan g‘uncha shaklida ekanligi bilan farqlanadi. Voha ziyoratgohlari boshqa mintaqa va hududlardan farqli tarzda qabristonlarning ichi yoki chekkasida joylashganligi bilan ham ajralib turadi.

Xulosa

Xorazm vohasi ziyoratgohlarida asosan, turli xil an'ana va marosimlarni amalga oshirib kelishlariga guvoh bo‘lindi. Jumladan, qurbonlik qilish, darveshona va sadaqa marosimlarini o‘tkazadi, an'anaviy taom – qorma (shavla) hamda darveshxona marosimlarida esa asosan guruch osh tayyorlanadi. Bundan tashqari, ziyoratgohlarda Xorazm vohasiga xos is chiqarish marosimida esa bo‘g‘irsoq, po‘ssiq (qatlama) tayyorlanadi. Shuningdek, ziyoratgohlarga kelgan ziyoratchilar imkoniyat darajasida bo‘g‘irsoq, qatlama tayyorlab, kelgan odamlarga tarqatiladi.

Umuman olganda, ziyoratgohlardagi marosimlarni kuzatish jarayonida shunga amin bo‘ldikki, ularda islomgacha bo‘lgan qarashlar hamon saqlanib qolgan va u islomiy an'analar bilan aralashib sinkretik tarzda namoyon bo‘lmoqda. Bularni ziyoratgohlarda chiroq yoqish, is chiqarish, daraxtlarga mato bo‘lagi bog‘lash va qurbonlik qilish marosimlarida ko‘rish mumkin. Shuningdek, diniy marosim hisoblangan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018-йил 15-февралдаги 120-сонли “Муқаддас қадамжолар, зиёратгоҳлар, масжидлар ва қабристонларни ободонлаштириш ишларини самарали ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори // https://lex.uz/docs/3560605.
2. Абидова З. Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари... – Б. 16.
3. Рейимбаев Ш. Хоразм шаҳарларининг XX аср охири – XX аср бошларидаги архитектуравий ва тарихий тизими. Архитектура фан. ном. дисс... – Тошкент, 2005. – Б. 122.
4. Махмудов М. Хоразм – муқаддас замин. – Урганч, 2006. – Б. 78.
5. Dala yozuvlari. Xorazm viloyati tumanlari. 2024-yil oktabr.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Matyaqubov T.
Tadqiqotchi

OQCHADARYO XAVZASIDA NEOLIT DAVRI SO‘NGGI BOSQICHI KULOLCHILIK TARIXI XUSUSIDA

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTASIYA

Oqchadaryo xavzasida neolit davri so‘nggi bosqichi davrida kulolchilik ishlab chiqarilishi tarixi taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Vinogradov A.V, Mamedov E.D, Xolmatov N.U, Bryune F, Xorazm, Amudaryo, Oqchadaryo, Jonbosqal'a, Bayram-Qozig‘on, Ma'mur, Dingildje, Tadjikazgan, Burli-3

АННОТАЦИЯ

В стате анализирован истории производства Гончарство последнего етапа неолитического периода в Акчадаринском делте.

Ключевие слова: Виноградов А.В, Мамедов Е.Д, Холматов Н.У, Брюне Ф, Хорезм, Амударе, Акчадарё, Жанбосқалъа, Байрам-Қозиғон, Маъмур, Дингилдже, Таджиказган, Бурли-3.

Kirish. Xorazm ekspedisiyasi hodimlari nashrlarida neolit davriga oid manzilgoh istiqomat qilgan axoli tevarak-atroflarga siljishi munosabati bilan yangi xudud suv havzalari sohili etaklariga ulanib ketgan tepaliklarda yangi qurilgan yog‘och ustunli turar-joylarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan idish-tavoqlar parchalari, ularning sirtqi devorlaridagi xilma-xil bezaklarga ega bo‘lganligi neolit davri ilk davri ovchilar va termachilarning ishlab chiqilgan idish-tavoqlarda o‘z aksini topgan. A.V.Vinogradov asarlarida uchinchi bosqich neolit davrida urug‘ jamoalari ajdodlari amaliy faoliyatlarini olib borib, suv xavzalari hadyasidan foydalanib, etnik jarayonlarni olib borganlar, ular tarix taqozasiga ko‘ra, Oqchadaryo irmog‘i suv ta'minoti davrida tevarak atrofida tabiiy manbalardan foydalanib, kulolchilik an'analari davom etishini mazkur maqolada yoritish nazarga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspedisiyasi Oqchadaryo irmog‘i suv ta'minoti etarli darajada bo‘lganligi bois, Janubiy Oqchadaryo xududida urug‘ jamoalari joylashib, kulolchilik ashyolari ishlab chiqarishni davom ettirdilar. Masalan, 10 km sharqdagi Bayram-Qazg‘on qudug‘idan, 11,5 km Jonbasqala antik davr yodgorligida 11,5 km uzoqlikda Ma'mur 1,34 manzilgohlari arxeologik jihatidan o‘rganilgan. Shunday manzilgohlardan biri Ma'mur-3 turar-joyida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan sopol parchalarida bezaksiz va bezakli idish-tovoqlar parchalari olingan. Masalan, Mamur gruppasi sopol ashyolari ba'zilarida 5 tasida bezaklar berilmagan, ba'zilarida tik tushirilgan chiziqlar, mayda mayda nuqtalar belgilari uchraydi.

Ris-1.

DJingeldi-6. 1,5 km DJingeldi qudug‘ida joylashgan. Sopol parchalari devorlarida xilma-xil bezaklar tasviri berilgan. Sopol tashqi devorlarida xammasida bezak belgilari tushirilgan. Sopol parchalari bezaklari joylashishi,turli bezaklarga ega.

DJingeldi-6 manzilgoxida yuz bergan bezak turli xil tasvirlarga ega.

Rasm.

DJingeldi.

Tadjikazgan guruxini tashkil qilgan kulol idish-tavoqlarda bezaklar yon tomonlarga yo‘nalgan chiziqlar, yuqoridan pastga, to‘g‘ri yo‘nalgan xamda kalta aloxida spiral shaklda tasvirlarni kuzatish mumkin.

Rasm.

Tadjikazgan.

Burli-3 manzilgohi neolit urug‘ jamoalari tomonidan tayyorlangan idish-tavoqlarda faqat aylana shaklda (kichik xajmda nuqtalar tasvirlangan bezaklarga boy emas.

Tadqiqot metodologiyasi:

Ilmiy xolislik, tarixiy - xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy taxlil, munozara, umumlashtirish, yakuniy xulosa, geografiya, etnografiya, geologiya, fanlari yutuqlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar :

O‘tgan asr Xorazm ekspedisiyasi asarlarida, mahalliy va xorijiy adabiyotlarda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar asosida Oqchadaryo havzasida Jonbas-4 manzilgohi urug‘ jamoalarining vorislari Turtkul tumani xududida xarakatda bo‘lgan so‘nggi tosh davri ovchilar va termachilar tarkibida faoliyat olib borgan kulol-kasbli a'zolarini sopol idish-tavoqlar ishlab chiqarishda,oshxona va oziq-ovqat mahsulotlarini zahira sifatida saqlashga mo‘ljallangan ikki yon tomonga kengaygan, balandi 5-8 sm bo‘lgan xumchalarni kundalik faoliyatlarida qo‘llaganlar. Shu ma'nodan kelib chiqib, quyidagi innovasiyalarni qayd qilish mumkin:

1-natija.Oqchadaryo irmog‘i suv ta'minoti etarli darajada bo‘lgan.

2-natija-Oqchadaryo xavzasida ilk neolit davri manzilgohi Jonbas-4 manzilgohida joylashgan urug‘ jamoalari avlodlari ko‘nikkan xududlarda tabiiy resurslardan foydalanib, idish-tavoqlar ishlab chiqarishi texnologik uslublar va bezak san'ati an'analarini davom ettirgan.

Xulosa va takliflar :

Yuqorida zikr qilingan ma'lumotlar quyidagi xulosalarni qayd qilish imkonini beradi:

1-Amudaryo suv taraqqiyoti davrida Oqchadaryo irmog‘i xarakati neolit davri so‘nggi bosqichida davom etgan;

2.Jonbasqal'a balandligi janubida joylashgan Bayramqozig‘on, Ma'mur va Dingildji manzilgohlarida o‘rnashgan ovchilar va termachilar suv xavzasi organik dunyosi, tevarak-atrofda sof tuproqdan, sopol idish-tavoqlarni yasash texnologiyasida o‘zgarishlar qilib, oshxona va xo‘jalik mahsulotlarini saqlash uchun o‘rtamiyona sopol idish tavoqlarni kundalik faoliyatlarida ishlab chiqarish jarayonida xilma-xil bezaklarni tasvir qilganlar.

Izhor qilingan ma'lumotlar asosida quyidagi takliflar ilgari surildi:

1.Oqchadaryo irmog‘ining neolit davrida xarakatini hozirgi zamon bilan izohlash imkoniyati;

2.Kulolchilik san'atining xunarmandchilikda tarixiy o‘rni.

3.Neolit davri so‘nggi bosqichida neolit davri ilk va o‘rta bosqichlarda axoli tomonidan tayyorlangan sopol idish-tavoqlarni o‘xshash va o‘ziga xos xususiyatlari, bu jarayon hozirgi zamon kulolchilik rivojlanishida saqlanib qolgan an'analarini taxlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Vinogradov A.V. Novie neoliticheskie naxodki Xorezmskoy ekspedisii An SSSR 1957.

2.Nizovya Amudari Sarikamish-Uzboy Istoriya formirovaniya i zaseleniya-M,Nauka, 1960. Vip-3.

3.Vinogradov A.V. Neoliticheskie pamyatniki Xorezma-M:Nauka, 1968. Vip 8.

4.Tolstov S.P. Po drevnim deltam Oksa i Yaksarta-M, IVL RAN-Nauka.1962.

5.Geologiya arxeologicheskix pamyatnikov Zeravshana: Kamenniy vek. Uchebnoe posobie-Tashkent, “Ukituvchi”, 1986.

6.Xolmatov N. O‘zbekiston neolit davri jamoalarining moddiy madaniyati-Toshkent, Fan, 2008.

7.Bryune F. O novom issledovanii neoliticheskoy Kelteminarskoy kulturi (Uzbekistan) //Arxeologiya i istoriya Sentralnoy Azii v trudax Fransuzskix uchenix-Samarkand. 2014-T.1.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Kamolova Nargiza Polatbayevna
PhD, dotsent.
Urganch innovatsion universiteti

O‘RTA OSIYO AN’ANAVIY DEHQONCHILIGINING XONLIKLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘rta osiyo xonliklari davri an’anaviy dehqonchilik masalasi, savdo munosabatlarining taraqqiyoida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi tarixshunosligi rus ekspeditsiyalari natijalari, xorijiy manbalar asosida tahlil qilindi, o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Mushketov, L. S. Berg, M.Bekchurin, D.Rukavkin, P. P. Semenov, T.Burnashev, E.A.Eversman tadqiqotlari

---

Kamolova Nargiza Polatbayevna
PhD, Associate
Professor. Urgench Innovative University

HISTORIOGRAPHY OF TRADITIONAL AGRICULTURE IN CENTRAL ASIA DURING THE KHANATE PERIOD

ABSRACT

In this article, the issues of traditional agriculture during the period of the Central Asian khanates and the share of agricultural products in the development of trade relations are analyzed and studied based on the results of Russian expedition sand foreign sources.

Keywords: studies by I. Mushketov, L. S. Berg, M. Bekchurin, D. Rukavkin, P. P. Semenov, T. Burnashev, E. A. Eversmann.

Камолова Наргиза Полатбаевна
кандидат наук, доцент. Ургенчский инновационный университет

ИСТОРИОГРАФИЯ ТРАДИЦИОННОГО ЗЕМЛЕДЕЛИЯ СРЕДНЕЙ АЗИИ В ПЕРИОД ХАНСТВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе результатов русских экспедиций и зарубежных источников проанализированы и изучены вопросы традиционного земледелия в период среднеазиатских ханств, а также доля сельскохозяйственной продукции в развитии торговых отношений.

Ключевые слова: исследования И. Мушкетова, Л. С. Берга, М. Бекчурина, Д. Рукавкина, П. П. Семёнова, Т. Бурнашева, Э. А. Эверсмана.

KIRISH VA DOLZARBLIGI: O‘rta Osiyo tarixida qishloq xo‘jaligi qadimdan iqtisodiy rivojlanishning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida muhim o‘rin tutib kelgan. Bu mintaqaning tabiiy-geografik sharoiti, xususan, yirik daryo vodiylarining mavjudligi, sug‘oriladigan dehqonchilikning rivojlanishiga zamin yaratgan. Sug‘oriladigan yerlarda don, paxta, meva-sabzavot yetishtirish keng yoyilgan bo‘lib, bu jarayonda mehnat qurollari va ishlab chiqarish vositalarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etgan. Tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar [1] asosida ushbu jarayonning bosqichma-bosqich rivojlanib borganini kuzatish mumkin.

O‘rta Osiyoda qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lib, miloddan avvalgi IV–III mingyilliklarda Amudaryo va Zarafshon vodiylarida dehqonchilik faoliyatining shakllanganligi kuzatiladi. Bu davrda odamlar sodda temir va toshdan yasalgan mehnat qurollaridan foydalanishgan, jumladan, belkurak, omoch, so‘xa, ketmon, boltalar dehqonchilikning asosiy vositalari sifatida ishlatilgan. Ushbu mehnat vositalarning takomillashuvi va ommaviylashuvi bilan yer haydash samaradorligi ortgan, qishloq xo‘jaligida mahsulot unumdorligi oshgan. Natijada dehqonchilik jamiyat iqtisodining tayanch sohasiga aylangan. Shu bosidan, mintaqaning dehqonchilik an’analarini o‘rganish ushbu hududlardagi sug‘orma dehqonchilik tarixiga ilmiy asosda yondashish muhim ekanligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan olganda, mazkur ilmiy maqoladagi keltirilgan manbaviy materiallar mintaqa tarixi tarixshunosligini o‘ganishda dolzarblik kasb etadi.

METOD VA O‘RGANILISH DARAJASI: Ilmiy maqolada tarixiy tadqiqotning tarixiylik va xolislik hamda tizimlilik, xronologik, qiyosiy, manbaviy tahlil qilish, usullaridan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI: Bugungi kunda jahon va mintaqa tarixshunoslik nuqtai-nazaridan qishloq xo‘jaligi vositalari va texnikalarining ijtimoiy-iqtisodiy jarayondagi o‘rnini alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida o‘rganish dolzarblik kasb etmoqda. Jumladan, A.To‘rayev [2], H. Ziyoyev [3], Qo‘shjonov O. va Polvonov N. [4] singari tadqiqotchilar o‘z asarlarida O‘rta Osiyo agrar munosabatlarining rivojlanishini ilmiy tahlil qilgan holda, ishlab chiqarish vositalarining har bir davrda qanday o‘zgarishlarga uchraganini ko‘rsatib berganlar. Ularning tadqiqotlarida an’anaviy dehqonchilik usullarining saqlanib qolishi, qo‘lda haydaladigan yerlar, sug‘orish tizimlarining oddiyligi, aholi mehnatining jismoniy kuchga asoslangani qayd etiladi. Shu bilan birga, tarixiy sharoitlarga qarab ayrim davrlarda mehnat qurollarining takomillashuvi ham kuzatiladi, ya’ni temir omoch va aravalarning paydo bo‘lishi, qurg‘oqchil hududlarda quduqlar qazish texnikasining rivoji [5], suv chiqarish inshootlarining qurilishi shular jumlasidandir.

Xususan, Xiva va Buxoro xonliklari tarixiga oid manbalarda mehnat qurollarining ishlab chiqarish jarayonidagi o‘rni va ularning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri haqida muhim ma’lumotlar uchraydi. Masalan, XIX asr oxiriga kelib, paxta yetishtirish keng quloch yoygan davrda paxtachilik uchun mo‘ljallangan alohida mehnat vositalari sanalgan paxta terish uchun mo‘ljallangan maxsus vositalar, urug‘ tozalovchi asboblar paydo bo‘lgan [5]. Bu o‘zgarishlar iqtisodiy tizimda bozor munosabatlarining chuqurlashganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mehnat qurollari nafaqat ishlab chiqarish vositasi, balki mulk shakllari va ijtimoiy tabaqalanish mezonlaridan biri sifatida ham namoyon bo‘lgan. Yerni haydash quroli yoki sug‘orish inshootiga egalik qilish qadimdan kishining iqtisodiy maqomini belgilaydigan asosiy omil sanalgan. Tarixshunoslikda bu omillarni chuqur o‘rganish O‘rta Osiyo iqtisodiy modelining murakkabligini, ishlab chiqarish vositalarining tabiiy-geografik sharoitlar, siyosiy muhit va ijtimoiy tuzumlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini anglashga yordam beradi.

Markaziy Osiyoni ilmiy jihatdan o‘rganish jarayoni XIX–XX asrlarda bir qator yirik olimlarning faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning har biri o‘zining ilmiy yo‘nalishiga muvofiq ravishda mintaqaning tabiiy-geografik, tarixiy, etnografik va iqtisodiy jihatlarini tadqiq etgan. Bu jarayonda ayniqsa ekspeditsiyalar natijalari asosida olingan ma’lumotlar katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, I. V. Mushketov [6] va L. S. Berg [7] geologik va geografik tadqiqotlari orqali hududning tabiiy strukturasini aniqlashga hissa qo‘shgan bo‘lsalar, M.Bekchurin [8] va D.Rukavkin [9] tarixiy-etnografik izlanishlari Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining ilmiy asosda yoritilishida muhim rol o‘ynagan.

Buxoro amirligi o‘zining geografik joylashuvi, aholining ishlab chiqarish faoliyati va savdo salohiyati jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Uzoq yillar davomida amirlikning Rossiya bilan nisbatan barqaror va tinch savdo munosabatlarini saqlab qolishga erishilgan. Buxoroda ishlab chiqarilgan paxta, jun, ipak, teri, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va hunarmandchilik buyumlariga Rossiya bozorlarida talab yuqori bo‘lib kelgan. Ayniqsa, Orenburg, Troitsk va keyinchalik Petropavlovsk kabi chegara shaharlari buxorolik karvonlar uchun muhim savdo nuqtalariga aylangan [14]. Ammo bu davrda mintaqaning siyosiy xaritasi va harbiy xavfsizlik holati Buxoro karvonlarining harakati uchun muhim muammo bo‘lib qolgan. Xususan, Qirg‘iz cho‘li orqali o‘tadigan karvon yo‘llari xavfsiz bo‘lmagan, ayniqsa, Xiva xonligi tasarrufidan o‘tishda karvonlar ko‘plab hujumlarga uchragan [14]. Bu holat buxoroliklarni boshqa, xavfsizroq savdo yo‘llarini izlashga majbur qilgan. Natijada XIX asr boshlarida bir qancha Buxoro karvonlari Sibir chegarasi Petropavlovsk shahri va Rossiyaning ichki bozorlariga yo‘nala boshladi. Xulosa shuki, ushbu o‘zgarish Buxoro Rossiya iqtisodiy aloqalarining yangi bosqichga kirganidan dalolat beradi. Mazkur iqtisodiy munosabatlarning tarixshunoslikda o‘rganilishi alohida ahamiyatga ega. XIX asr boshidagi Rossiya diplomatik harakatlari, xususan, 1802 yilda Buxoroga elchilar yuborilishi va 1803 yilda harbiy-siyosiy razvedka maqsadidagi tashkillashtirilgan sayohat Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo bozorlariga yo‘l ochishga qaratilgan harakatlarining ilk bosqichlari sifatida tarixiy manbalarda qayd etilgan. Bu elchiliklarning asosiy maqsadi Orenburg viloyati orqali Buxoro bilan ishonchli savdo yo‘lini barpo etish, Amudaryo havzasi, Afg‘oniston va Hindiston sari savdo tarmoqlarini kengaytirish bo‘lgan. Harakatlar dastlabki bosqichda muvaffaqiyatsiz yakunlangan bo‘lsa-da, keyingi bosqichlarda Rossiyaning iqtisodiy-siyosiy ta’siri kuchayib, xonliklar ichki bozorlariga ta’sir ko‘rsata boshlagan.

O‘rta Osiyoning tarixshunosligida bu davr iqtisodiy rivojlanish va qishloq xo‘jaligi tizimining o‘zaro aloqadorligi, tashqi siyosat bilan bog‘liqligi doirasida o‘rganiladi. Xonliklar iqtisodiyoti ko‘p hollarda agrar ishlab chiqarishga asoslangan bo‘lib, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari sifatida shakllangan. Ammo tashqi savdo imkoniyatlari bu tarmoqlarni rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib qolgan. Tarixshunoslikda bu holat nafaqat iqtisodiy tarix doirasida, balki diplomatik tarix, manbashunoslik va siyosiy geostrategik tahlil mezonlarida ham tadqiq qilinadi.

XIX asrda O‘rta Osiyo xonliklari, ayniqsa, Xiva xonligi, o‘zining tabiiy-iqlimiy sharoiti va gidrografik tarmog‘i bilan ajralib turgan. Bu davrda suv resurslari faqat agrar sektorning asosiy omili sifatida emas, balki hududiy boshqaruv, transport-logistika tizimi, aholining joylashuvi, hattoki, siyosiy barqarorlikning kafolati sifatida ham geosiyosiy ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, Amudaryo havzasi va undan ajralib chiqadigan irmoqlar, kanal tarmoqlari hamda ko‘llar xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o‘ynagan. Xususan, Amudaryodan ajralib chiqqan Lauzan (yoki Laudan irmog‘i – Xiva xonligining shimoli-g‘arbiy hududlarini suv bilan ta’minlagan suv yo‘li bo‘lib, u Qipchoq shahridan, tahminan, 36 km quyidan boshlangan. Mazkur irmoqning umumiy uzunligi 100 kmni tashkil qilgan va Oybulg‘ir ko‘liga borib quyilgan) daryosi orqali to‘ldirilgan Saroyko‘l va Qorako‘l singari tabiiy-ko‘llar xonlikning sug‘orma dehqonchiligi tizimida alohida o‘rin tutgan. Saroyko‘lning sharqiy, Qorako‘lning esa g‘arbiy qismlari suv-ta’minoti zanjirining asosiy bo‘g‘inlari bo‘lib, ular atrofida dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholining zich joylashuvi kuzatilgan. Ko‘lning tabiiy manbai hisoblangan Karao‘zak daryosi va uning orqali Aybugir ko‘liga oqib tushgan suv, keyinchalik mamlakat tepasiga kelgan xonlarning siyosiy qarorlari natijasida oqim yo‘nalishi o‘zanidan tashqariga yo‘naltirilgan. Xususan, Sayid Muhammadxonning ko‘rsatmasi bilan Lauzan irmog‘ining oqimi to‘sib qo‘yilishi [14], butun hududda suv balansining izdan chiqishiga olib kelgan. Bu holat vaqt o‘tishi bilan ko‘llarning qurib borishi, ekin maydonlarining qisqarishi va aholining migratsiyasiga sabab bo‘lgan. Geosiyosiy nuqtayi nazardan, Saroyko‘l va Karao‘zak havzalari, Xo‘jayli (Xo‘jaylining etimologiyasi – “xo‘jalar oilasidan tozaroq joy” sifatida talqin qilinib, shaharning diniy-siyosiy maqomini ham anglatadi. Rivoyatlarga ko‘ra, bu yerga 600 yil avval Turkistondan Alyaminxo‘ja (Aminutdinxo‘ja) nomli diniy shaxs ko‘chib kelib, o‘z atrofida mahalliy aholini to‘plagan. Keyinchalik bu hududga o‘zbeklar va qirg‘izlar ham joylashib, aholining etnik tarkibi yanada murakkablashgan) [15]

atrofidagi strategik hududlar bilan chegaradosh edi. Shimolda Keneges soylari, sharqda Tornag-qal‘a (Turkman-Chaudorlar), janubda Kunya-Urgench yo‘nalishi va Yumudlar qal‘asi (Qizil-Chakalu), g‘arbda esa qoraqoyli qabilalarining yo‘llari bu hududda murakkab etnosiyosiy konfiguratsiyani shakllantirgan. Suv resurslari ustidan nazorat etnik guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar va ixtiloflarni hal etishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Amudaryo deltasida joylashgan Xo‘jayli shahri suv va yer resurslariga bo‘lgan yuqori ehtiyoj sababli agrar-hunarmandchilik markaziga aylangan. Shahar yaqinidagi Suyapli kanali bo‘yida joylashgan bog‘lar va ariqlar orqali amalga oshirilgan irrigatsiya tizimi, o‘sha davrda aholi tomonidan yaratilgan ekologik-injiniring namunasidir. Suyopli kanali shaharning ikkita – g‘arbiy va sharqiy qismini ajratib turgan bo‘lib, bu kanal bo‘yida qurilgan savdo infratuzilmasi, ya’ni ikki yoqlama yopiq bozorlar tizimi, iqtisodiy markazlashuv va ichki savdoning rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ayni damda, ko‘llarning qurib borayotganligi, suv oqimlarining o‘zgarishi, yer osti suvlari va kanallar orqali suvning notekis taqsimlanishi kabi omillar Xiva xonligining ekologik xavfsizligiga ham ta’sir qila boshlagan. Bunday holatlar agrar ishlab chiqarish samaradorligini pasaytirgan, iqtisodiy resurslar uchun kurashni kuchaytirgan va ma’muriy-hududiy boshqaruvda ziddiyatlarga sabab bo‘lgan.

XIX asrda Xiva xonligida suv resurslari nafaqat iqtisodiy resurs sifatida, balki geosiyosiy instrument sifatida ham qaralgan. Suv ustidan nazorat qilish hududiy barqarorlik, etnik muvozanat, agrar ishlab chiqarish va savdo infratuzilmasining barpo etilishida muhim rol o‘ynagan. Bu tarixiy holat suv manbalarini boshqarishdagi siyosiy qarorlarning uzoq muddatli ta’sirini ochib beradi va O‘rta Osiyo agrar-siyosiy tuzilmalarining barqarorligini baholashda muhim indikator sifatida xizmat qiladi.

O‘rta Osiyo agrar tarixining tadqiqi, ayniqsa, dehqonchilik faoliyatining shakllanishi, rivojlanishi va tashqi siyosiy omillar bilan bog‘liqligini aniqlash tarixshunoslikda muhim yo‘nalish sifatida qaralgan. Bu jarayonda Rossiyaning O‘rta Osiyodagi xonliklar, xususan, Xiva xonligiga nisbatan yuritgan siyosati va uni o‘rganish yo‘nalishidagi dastlabki tadqiqotlar XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshlagan.

Ayniqsa, bu davr tarixshunosligi uchun muhim muammolardan biri Rossiyaning mintaqaga yurishlarining motivlarini ochib berish edi. Bu yurishlar agrar sohalarga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatgan. G.F. Miller [16], V. Mogutov [17] va F.I. Soymonov [18] kabi mualliflar o‘z asarlarida A. Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi muvaffaqiyatsiz harbiy yurish sabablarini tahlil qilgan bo‘lib, bu ekspeditsiyalarning iqtisodiy va geosiyosiy asoslarini yoritishda muhim manba vazifasini bajargan. Masalan, Miller Pyotr I yurishlarining harbiy xarakterini ta’kidlasa, Mogutov Xiva xonligining “o‘z an’anaviy tuzumini va iqtisodiy erkinligini yo‘qotish xavfi”dan qo‘rqqanligini asosiy sabab sifatida ko‘rsatadi.

Mazkur yondashuvlar, o‘z navbatida, mintaqaning agrar tarixini o‘rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. M.D. Chulkov [19] o‘z izlanishlarida Rossiya-Xiva aloqalarini faqat harbiy siyosat nuqtayi nazaridan emas, balki savdo-iqtisodiy kontekstda ham yoritib bergan. U Kaspiy dengizi orqali yuk tashishning ahamiyatini ochib berar ekan, bu holatning mintaqadagi an’anaviy agrar ishlab chiqarish tizimiga ko‘rsatgan bevosita ta’sirini ham nazarda tutadi. Pyotr I ning Hindiston bilan savdo yo‘llarini ochish istagi ham, aslida, mintaqadagi agrar-iqtisodiy muhitni o‘zgartirishga qaratilgan strategik siyosat edi. XIX asrga kelib, Rossiyaning sharqqa qarab olib borgan ekspeditsiyasi nafaqat harbiy va siyosiy tusda, balki ilmiy tadqiqotlar vositasida ham amalga oshirildi. Bu jarayon O‘rta Osiyodagi dehqonchilik tizimini va uning o‘ziga xos madaniy ijtimoiy shakllanishini tahlil qilishga zamin yaratdi. Harbiy xizmatda bo‘lgan ayrim ofitserlarning sharqshunos olimlarga aylanishi bu davr ilmiy tafakkurining muhim belgilaridan biri bo‘ldi.

Ayniqsa, XIX asrning mashhur sharqshunos olimlari N.V. va Ya.V. Xanikovlarning faoliyati agrar va etnoiqtisodiy tarixshunoslik uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. N.V. Xanikov [20] o‘z tadqiqotlarida Buxoro va unga tutash hududlarning fizik-geografik xususiyatlari, aholi etnografiyasi, an’anaviy hayot tarzi va agrar tizimiga oid muhim ma’lumotlarni to‘plagan. Uning “Описание Бухарского ханства (Buxoro xonligi ta’rifi)” asari ingliz tadqiqotchisi A. Byornsning “Путешествие в Бухару (Buxoroga sayohat)” [21] nomli kitobidagi tafsilotlarni

to‘ldirgan holda, mintaqadagi dehqonchilikning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini tushunishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

A. Bekovich-Cherkasskiyning Xivaga qilgan ekspeditsiyasiga bag‘ishlangan E. A. Knyajetskaya, O. Yu. Omarova va V. B. Vilinbaxovning asarlari alohida qiziqish uyg‘otadi [32]. Ayniqsa, A. Bekovich-Cherkasskiy Kaspiy dengizining batafsil xaritasini birinchi bo‘lib tuzgan shaxs sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, O‘rta Osiyo xonliklari davridagi dehqonchilik tarixini o‘rganishda XIX asr boshlaridan 1960-yillargacha bo‘lgan davrda yuzaga kelgan rus va sovet tarixshunosligi maktablari qator fundamental tadqiqotlar orqali mintaqaning agrar tuzilmasi, ishlab chiqarish tizimi va tashqi iqtisodiy aloqalarining tarixiy asoslarini belgilab berdi. Bu ilmiy meros, zamonaviy tarixiy-agronomik tadqiqotlar uchun ham asosiy metodologik manba sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda. XX asr boshlariga kelib Rossiya sharqshunosligida O‘rta Osiyo tarixining harbiy-siyosiy talqinidan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy, ayniqsa, agrar muhitni o‘rganishga asoslangan yondashuvlar kuchaya boshladi. Bu holat mintaqaning dehqonchilik tizimi tarixini kompleks, fanlararo uslubda tahlil qilishga imkon bergan ilk bosqichlardan biri bo‘lib xizmat qildi. Umuman olganda, harbiy tadqiqotchilar va sharqshunos olimlar tomonidan qoldirilgan ushbu yozma meros, mintaqaning agrar tuzilmasi, xo‘jalik yuritish shakllari, suv va yer resurslarining boshqaruvi hamda iqtisodiy aloqalarini yorituvchi qimmatli tarixiy manba hisoblanadi. Ushbu asarlar bugungi tarixshunoslikda O‘rta Osiyo dehqonchilik tizimini o‘rganishda haligacha o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Iqtiboslar/References/Сноски

1.Кыдырниязов М. Материальная культура городов Хорезма в XIII-XIV веках. – Нукус: Каракалпакстан, 1989. – С. 94.

2.To‘rayev A. Zarafshon vohasi dehqonchiligining tarixiy ildizlari. Miasto Przyszłości Kielce. 2024. 407 b.

3.Зияев Ҳ. XVIII Асрда Ўрта Осиё ва Урал бўйлари. – Тошкент: Фан, 1973. – С. 80.

4.Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий – сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). – Тошкент, 2007. – Б. 132.

5.Камолова Н. Хоразм воҳасида деҳқончилик анъаналари тарихи (XIX аср – XX аср бошлари). – Бухоро. 2022. – Б. 96.

6.Мушкетов И. В. Туркестан, т. I, ч. 1, СПб., 1886. – С. 9.

7.Берг Л. С. Первые русские карты Каспийского моря (в связи с вопросом об уровне его в XVII и XVIII веках) С карт. Известия Акад. наук СССР. Серия геогр. и геофиз. наук, 1940, № 2. – С. 159-180

8.Бекчурин М. Журнал, учиненый с описанием из держанных коллежским регистратором и переводчиком Мендиаром Бекчуриным во время путешествия по порученной ему секретной экспедиции в Бухарию по возвращению в Оренбург записок лежащему тракту (Посольство пе реводчика Бекчурина в Бухару в 1781 году). С предисл. С. Жуковского. Восточный сборник, Кн. II., 1916. – С. 274-340.

9.Рукавкин Д. Описание пути от Оренбурга к Хиве и Бухарам с принадлежащими обстоятельствами, бывшего при отправленном в 1753 году из Оренбурга в те места караване самарского купца Данилы Рукавкина. Новости литературы. 1823. ч. 5, № 34. – С. 118-127.

10.Лобысевича Ф.И. Поступательное движение въ Среднюю Азию. (Дополнительный материалъ для истории Хивинскаго похода 1873.) С.-Петербургъ. Общественная польза, 1900. – С. 63.

11.Маева Н.А. С.-Петербургъ. Типография и хромолитография траншем, стремянная, № 12. 1876. – С. **217.**

12.Миллер Г.Ф. Известие о песочном золоте в Бухарии, о чинённых для о ного отправлениях и остроении крепостей при реке Иртыше. СПб., 1760. – С. 3.

13.Могутов В. Редкое и достопамятное известие о бывшей из России в Великую Татарию экспедиции, под именем посольства. СПб., 1777. 62 с.

14.Описание Каспийского моря и чиненных на оном Российских завоеваний, яко часть истори и государя императора Петра Великого, трудами Тайного Советника, Губернатора Сибири и Орденасвятого Александра Кавалера Федора Ивановича Соймонова, выбранное изжурнала Его Превосходительства, в бытность его службы морским Офицером, и с внесенными, где потребно было, дополнениями Академии Наук Конференц-Секретаря, Профессора Истории и Историо графии, Г. Ф. Миллера. СПб., 1763. 379 с.

15.Чулков М.Д. Историческое описание российской коммерции при всех портах и границах от древних времён до ныне настоящего. СПб., 1785. Т. 2. Кн. 2. – С. 48–49.

16.Ханыков Н. В. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. – С. 3.

17.Burnes A. Travels into Bokhara, a Journey from India to Cabool, Tartary, and Persiain 1831–33. Vols. 1–3. London, 1834. 244 p.

18.Шафрановский К.И. Княжецкая Е. А. Карты Каспийского и Аральского морей, составленные в результате экспедиции Александра Бековича Черкасского в 1715 г. //Изв. ВГО. 1952, №6. – С. 539-551; Княжецкая Е.А. Судьба одной карты. М., 1964, – С. 539–551; Вилинбахов В.Б. Александр Черкасский–сподвижник Петра. Нальчик .1966, 56 с.; Омаров О.Ю. Отважный исследователь Каспийского моря. Махачкала, 1965. 92 с.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Otamuradova Roviyajon
Urgench State University named after
Abu Rayhan Biruni
Deparment of History
Senior Lecturer, PhD
roviyajon otamurodova@gmail.com

MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA MODDIY VA NOMODDIY MADANIY MEROS OB'EKTLARINING MUHOFAZA QILISH KO'LAMINI KENGAYTIRISH

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNATATSIYA

O'zbekistonda bugungi kunda o'zbek xalqining qadimiy tarixi va boy madaniy merosini tiklash, kelajak avlodga yetkazish, xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirishga xizmat qildirish hamda uni dunyo jamoatchiligiga yetkazish borasida ko'plab amaliy ishlar bajarilmoqda. Bu o'rinda O'zbekistonning boshqa tarixiy-madaniy mintaqalari qatorida Xorazm vohasining ham o'ziga xos o'rni bo'lib, unda ming yillar mobaynida g'oyat xilma-xil madaniyatlar va an'analar tutashgan.

Kalit so'zlar: YUNESKO, madaniy meros, madaniy yodgorliklar, ma'naviy meros, ziyoratgohlar, masjidlar.

АННОТАЦИЯ

Сегодня в Узбекистане проводится большая практическая работа по восстановлению древней истории и богатого культурного наследия узбекского народа, передаче их будущим поколениям, развитию духовности нашего народа и донесению их до мирового сообщества. В этом отношении, наряду с другими историко-культурными регионами Узбекистана, особое место занимает Хорезмский оазис, где на протяжении тысячелетий сосуществуют невероятно разнообразные культуры и традиции.

Ключевые слова: ЮНЕСКО, культурное наследие, памятники культуры, духовное наследие, места поклонения, мечети.

ABSTRACT

Today, in Uzbekistan, a lot of practical work is being carried out to restore the ancient history and rich cultural heritage of the Uzbek people, pass it on to future generations, serve the development of the spirituality of our people, and bring it to the world community. In this regard, the Khorezm oasis, along with other historical and cultural regions of Uzbekistan, has a special place, where for thousands of years a variety of cultures and traditions have coexisted.
Keywords: UNESCO, cultural heritage, cultural monuments, spiritual heritage, pilgrimage sites, mosques

---

After Uzbekistan gained independence, attention was paid to the cultural and historical heritage left by our ancestors, which gained its true value. Historical and cultural monuments were

taken under state control, and their repair and restoration became one of the priorities of our state policy. In addition, relevant laws of the Republic of Uzbekistan and resolutions of the Cabinet of Ministers have been implemented, and a number of international conventions have been ratified by our country.

Wide-scale efforts to preserve and protect historical and cultural heritage, to develop the field of their protection and use, to restore such objects, and to ensure that they are kept in their original state as much as possible are bearing fruit. The work carried out on the protection and use of cultural heritage objects serves not only to study and promote history, but also to preserve the priceless historical heritage for the growing young generation, to strengthen their sense of national identity, and to inculcate high spirituality in society. During historical development, ancient monuments destroyed by various invasions and natural disasters are being studied as a result of archaeological research. The republic has a large number of architectural monuments and archaeological sites that have survived the turbulent times of the past, and it is important to preserve them and pass them on to future generations. In this regard, a number of measures are being implemented in the republic to preserve them. The fact that the first step in this direction is enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan and other legislative acts is an indication of how urgent the topic is. In particular, Article 49 of the Constitution states: "Citizens are obliged to protect and preserve the historical, spiritual and cultural heritage of the people of Uzbekistan. Cultural monuments are under state protection," it was emphasized.

President of the Republic of Uzbekistan Sh. M. Mirziyoyev said: "The Khorezm oasis is one of the regions of Uzbekistan with high tourism potential, with its unique nature and unique cultural and historical monuments included in the UNESCO list, and infrastructure networks. Work will continue to develop the tourism sector in the region. Repair and restoration work will be carried out at 22 cultural and historical heritage sites." Therefore, it is especially important in today's era of globalization to make the next generation enjoy this cultural heritage, to understand who their ancestors were, and to educate the younger generation about how deep-rooted the spiritual roots of this nation are. The Khorezm oasis, considered one of the ancient cultural centers in Uzbekistan, has been repeatedly proven by research to be rich in monuments. This land, which has made a worthy contribution to the history of Uzbek statehood, has been highly developed in craftsmanship, agriculture, architecture, science, and art since ancient times. The preserved fortress walls of the ancient cities of Khazorasp and Khiva in the Khorezm region, which are an integral part of the Khorezm oasis, testify to their antiquity. In general, today there are 255 state-registered cultural heritage sites in the region.

Eighteen of them are archaeological sites, 133 are architectural monuments, 66 are sculptural monuments, and 32 are holy places. This study is based on the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 222 dated October 7, 2010, "On Approval of the State Program for the Protection, Conservation, Promotion and Use of Intangible Cultural Heritage Objects for 2010–2020," and No. 200 dated July 21, 2014, "On additional measures to further improve the protection and use of objects of material cultural and archaeological heritage" and "On the effective organization of work on the improvement of holy places, pilgrimage sites, mosques and cemeteries," No. 120 dated February 15, 2018. Also relevant are the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 4, 2017, "On the comprehensive development of the tourism potential of the Khorezm region and the city of Khiva in 2017–2021," and dated January 16, 2018, No. F-5181, "On the protection and improvement of the use of objects of material cultural and archaeological heritage."

These acts serve, to a certain extent, in implementing the tasks set out in the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-4068 of December 19, 2018, "On measures to radically improve activities in the field of protection of tangible cultural heritage objects," and other regulatory legal acts related to this area. At the same time, this dissertation is based on the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 dated February 7, 2017, "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan." To a

certain extent, it serves to fulfill the relevant tasks aimed at the development of scientific research and innovative activities and the comprehensive development of the fields of science.

In this dissertation research, which is dedicated to the restoration and study of historical and cultural heritage in the Khorezm region during the years of independence, their role in the development of spirituality, and their scientific and practical significance, the literature on the topic was analyzed in two groups:

1. Research devoted to studying the role and scientific and practical significance of historical and cultural monuments of the Khorezm region in the development of spirituality.
2. Press and mass media information, and articles covering this topic.

The cultural treasures of our country, passed down from ancestors to generations, are tangible and intangible assets of great importance to the present and future of humanity, and they are being studied by world scientists. The historical heritage and material monuments of the Khorezm region have been studied by scholars in the fields of architecture, archaeology, history, art history, and other disciplines. However, the issue of restoring and studying historical heritage and architectural monuments has not been studied as a special research project. After gaining independence, the question of the role of historical and cultural monuments in the development of spiritual life and youth education, especially in the formation of a perfect person, became an important object of research.

Scientists of our country, such as J. Tulenov, E. Yusupov, Kh. Shaikhova, Q. Nazarov, S. Otamuratov, A. Ochildiev, A. Ibrohimov, T. Rahmonov, U. Karaboev, M. Yoldoshev, analyzed the national cultural heritage as a component of culture, and in their research the thoughts and opinions related to our topic were reflected. Some aspects of the influence of national and universal values and cultural heritage on the development of spiritual life, social image, and worldview of young people were expressed in the scientific researches of E. Yunusova, A. Choriev, Z. Kadirova, F. Musaev, F. Atamuradova, H. Ahmedova, F. Yoldasheva, A. Erkaev, and S. Zhoraev. The works of E. Yusupov, O'.Yusupov, F. Abdurahmonov, R. Rahmonov, Z. G'ofurov, Q. Ergashev, A. Hasanov, J. Tulenov, I. Jabbarov, I. Ergashev, B. Sharipov, and M. Jakbarov are significant. Based on this, we can understand that, along with material wealth, our spiritual wealth is also of great importance in the development of the country, and that it has been elevated to the level of state policy. Therefore, today we need to deeply study cultural heritage, restore and research it, and shed more light on its aspects that affect spirituality. During the period of independence, great attention was paid to the preservation and restoration of architectural monuments. First of all, archaeological research conducted in the city of Khiva proved that it is one of the most ancient cities.

In particular, with the celebration of the 2,500th anniversary of the city of Khiva, many scientific works, books, and albums about the city of Khiva were published. Much attention has been paid to the study, restoration, and repair of other historical monuments in the Khorezm region. In particular, based on in-depth scientific study of historical monuments, not only their restoration and transfer to the younger generation, but also the rapidly developing tourism industry worldwide have been promoted. In Uzbekistan, great attention has been paid to the work of further development. Museums also play an invaluable role in preserving and passing on historical heritage to future generations. Museums not only preserve material and spiritual heritage, but also provide spiritual nourishment. Every visitor to the museum receives spiritual nourishment from the exhibits and is proud of the heritage left by their ancestors. This is evidence of the great importance of museums in the development of spirituality, and the fact that attention to museums has now risen to the level of state policy in Uzbekistan is clear proof of this. Information about the history of Khorezm and its historical and cultural heritage that has survived to this day is also available on websites in English, Russian, and other languages. This information is of great importance in promoting the history of Khorezm and its historical and cultural monuments, as well as their spiritual and scientific and practical significance around the world, and in particular in increasing the tourism potential of the Khorezm region. The architectural monuments of Khiva and their place in history are expressed in foreign sources. In-depth study and analysis of historical heritage and monuments will serve as an experience and a lesson in the future activities of the country. Also, the

people who have mastered scientific discoveries and achievements in other fields in the past will achieve high goals in the future. This is especially important in dealing with today's global challenges.

It should be noted that during the review of monographs and dissertations published in Uzbekistan, as well as state archive funds, information on the restoration, study, and preservation of historical and cultural heritage has been studied very little and remains out of the reach of many researchers.

References:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - Б. 258.
3. Хоразм вилояти маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш давлат инспекцияси маданиймерос объектлари рўйхати. – Урганч, 2018.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 7 октябрдаги **222–сонли** “2010–2020 йилларда номоддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш, асраш, тарғиб қилиш ва улардан фойдаланиш Давлат дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. /www.lex.uz
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 21 июлдаги “Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофазақилиш ва улардан фойдаланишни янада такомиллаштириш юзасиданқўшимча чора–тадбирлар тўғрисида”ги 200–сонли фармойиши./ www.lex.uz
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 4майдаги “2017–2021 йилларда Хоразм вилояти ва Хива шаҳрининг туризм салоҳиятини комплекс ривожлантириштўғрисида”ги фармойиши. / www.lex.uz
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 16 январдаги Ф–5181–сонли “Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида” фармойиши. / www.lex.uz
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 15 февралдаги 120–сонли “Муқаддас қадамжолар, зиёратгоҳлар, масжидлар ва қабристонларни ободонлаштириш ишларини самарали ташкил этиш тўғрисида”қарори. / www.lex.uz
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрдаги ПҚ-4068 сонли **“**Моддий маданий мерособъектларини муҳофаза қилишсоҳасидаги фаолиятни тубдантакомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори**. / www.lex.uz**

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Eshchanov Hurmat Matnazarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

O‘ZBEKISTONNING MADANIY-XO‘JALIK HUDUDLARIDA BRONZA DAVRI MUDOFAA INSHOOTLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK IZLANISHLAR NATIJALARIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekistonning tarixiy-geografik hududlarida bronza davri mudofaa inshootlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari masalasi muxokama qilinadi

Kalit so‘zlar. Quyi Zarafshon, Xorazm, Farg‘ona, Surxondaryo, Oqchadaryo Zamonbobo, Sopollitepa, Jarqo‘ton

---

АННОТАЦИЯ

В статье обсуждается вопрос результатов археологических исследований оборонительных сооружений бронзового века, проведённых на историко-географических территориях Узбекистана

Ключевые слова: Нижний Зарафшан, Хорезм, Фергана, Сурхандарья, Окчадарья, Замонбобо, Сополлитепа, Джаркутан

ANNOTATION

The article discusses the results of archaeological research conducted on Bronze Age defensive structures in the historical-geographical regions of Uzbekistan

Key words: Lower Zarafshan, Khorezm, Fergana, Surkhandarya, Okchadarya, Zamonbobo, Sopollitepa, Jarkutan

---

Kirish. XX asr 30-yillaridan boshlab vatanimiz viloyatlarida turli atamaga ega bo‘lgan arxeologik ekspeditsiya va guruhlar ajdodlarimizni tarixiy davr, turli bosqichlarida hayot va ijod namunalari bo‘lgan turar-joylar mudofaa inshootlarida keng qamrovli ravishda arxeologik izlanishlar olib bora boshladilar. XX asr 50- yilidan boshlab Xorazmni Janubiy Oqchadaryo xavzasida, Quyi Zarafshon vodiysida xamda Farg‘ona xududlarida, 60-yillar oxiridan Surxondaryo viloyatlarida bronza va ilk temir davriga mansub arxeologik izlanishlar olib borildi ilmiy axamiyatga molik ashyolar olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. Arxeolog M.Ye.Masson Farg‘ona vodiysida Katta Farg‘ona sug‘orilish inshooti qurilishi munosabati bilan eski Asxiketda qisman tekshirish ishlari amalga oshirdi. Tekshiruv natijalariga ko‘ra, ushbu hudud II ming yillikda yirik xajmga ega bo‘lgan shaxar bo‘lgan. Xuddi shu davrda Xorazm ekspeditsiyasi arxeologlari Ko‘zaliqir yodgorligida qazishma ishlarini olib borayotgan edi va natijada belgilangan maqsadlarga erishildi.

1950-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix va arxeologiya institutini Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligida Moxondaryo arxeologik guruhi tomonidan Zomonbobo manzilgohi kashf qilindi. Qazishma ishlarini esa 1961-1964 yillarda A. Askarov olib bordi.

1970-1974 yillarda A. Asqarov Surxondaryo viloyati Sherabod tumani xududi Muzrabot dashtida tekislikda joylashgan Sopollitepada qazishma ishlari olib bordi. Qazishma ishlari natijasida uning topografik joylashishi, mudofaa tizimiga oid manbalarni olishga erishgan. Bundan tashqari, 1973-yilda Jarqo‘ton yodgorligida qazishma ishlari olib borilgan, natijada uning geografik o‘rni 50 gektar ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning metodik uslublari:

- Ilmiylik;
- xronologik izchillik;
- tarixiy-qiyosiy tahlil;
- asoslash;
- etnografiya, arxeologiya, antropologiya, geologiya va geografiya fanlari yutuqlaridan foydalanish

Muxokama. Xorazmda bronza davri aholi turar-joylari To‘rtko‘l va Beruniy xududlarida Angqa-5 va Qavat-3 yodgorliklarida qazishma ishlari olib borilgan, ular yog‘och ustunli yarim yerto‘la shaklda chaylalarda istiqomat qilib, uy chorvachiligi bilan shug‘ullanganlar. Yodgorlik atrofini mudofaa devor o‘rab olinmagan[1].

Xorazm ekspeditsiyasi Ko‘zaliqir yodgorligida qazishma ishlarini olib borgan davrda M.Ye.Masson Farg‘ona vodiysida Katta Farg‘ona sug‘orilish inshooti qurilishi munosabati bilan eski Asxiketda qisman tekshirish ishlari natijasida kelgan xulosaga ko‘ra, II ming yillikda yirik xajmga ega bo‘lgan shaxar bo‘lgan[2]. Tadqiqotchi yodgorlikni qurilish tarixiga aniqlik kiritish maqsadida eng qadimiy madaniy qatlamigacha turar ishlarini olib bormagan, uning miqdoriy jixatidan 400 gektarni tasavvur qilgan ko‘rinadi.

XX asr 40-yil o‘rtalari va 50-yillarida Quyi Amudaryo xududida Xorazm ekspeditsiyasi, Farg‘ona vodiysida V.I.Sprishevskiy, Yu.A.Zadneprovskiy arxeologik izlanishlarni olib borib, ilmiy maqsadni nazarga olgan manbalarni olishga muyassar bo‘lganlar.

1950-yildan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix va arxeologiya institutini Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligida Moxondaryo arxeologik guruhi tomonidan Zomonbobo manzilgohi kashf qilingan. 1961-1964 yillarda A.Askarov tomonidan qazishma ishlari olib borilgan. Manzilgoh yarim yerto‘la yog‘och ustunli tug‘riburchak shaklda bo‘lgan, uzunligi 2,5 m, kengligi 9 m, ichki qismi chuqurligi 1m. Umumiy geografik o‘rni 170 m2 . Manzilgohning janubiy xududida miudofaa devor qoldiqlari saqlanib qolgan, uning qalinligi 2 m, uzunligi 40 m bo‘lganligi qayd qilingan.

1970-1974 yillarda A.Asqarov Surxondaryo viloyati Sherabod tumani xududi Muzrabot dashtida tekislikda joylashgan Sopollitepada qazishma ishlari olib borilishi natijasida uning topografik joylashishi, mudofaa tizimiga oid manbalarni olishga erishgan, ya’ni geografik joylashishi-4 ga, asosiy markaz xududi-1ga. Yodgorlik rejasi kvadrat, to‘rt tomoni P-shaklida yulakdan iborat 3 ta mudofaa devor o‘rab olgan. Tashqi devor burj va shinaklarjan xoli. Yodgorlik axolisi madaniy-xo‘jalik munosabatlar etnik jarayonlarni XVII-IX asr birinchi yarmigacha olib borganlar[3].

Shu bilan birga, 1973-yilda Jarqo‘ton yodgorligida qazishma ishlari olib borilgan, natijada uning geografik o‘rni-50 gektar ekanligi aniqlangan. Yodgorlikni shimoliy mudofaa devorida qazishma ishlari olib borilishi munosabati bilan uzunligi 13 m, kengligi 4 m. Uning saqlanib qolgan balandligi 70-60 sm. Yodgorlik janubi-g‘arbida ark joylashgan kvadrat shaklda. Kirish qismi janub devor o‘rtasida. Mudofaa devor sharqiy shimoliy va g‘arbiy devorlari o‘rtasida 1 tadan to‘g‘riburchak burj, mudofaa maydonini belgilab bergan. Darvoza oldi oldinga o‘sib chiqqan labirint joylashgan. Devor burchaklari “qaldirg‘och dumi” tasviri burjlar ikki yon tomonga yunalgan. Yodgorlikni Sharqiy devor burchagi janub tomon aylangan, unda burjlar soni 9 ta[4]. Mudofaa devor va burjlarda shinaklar belgisi kuzatilmaydi. Mana shunday bronza davriga mansub yodgorliklar to‘rt tomoni tog‘lar bilan o‘rab olingan.

1950-yilda M.Ye.Vorones va V.I.Sprishevskiy tomonidan aniqlangan. 1953-1961 yillarda yodgorlikda qazishma ishlarini olib borib, uning topografik joylashishi tug‘riburchak shaklda, umumiy hajmi-4 gektar. Yodgorlik mudofaa devor bilan o‘rab olinganligi qayd qilingan[5].

Arxeologik nashrlarda qayd qilinishicha mil.avv VIII-VII asr Shimoliy Baqtriyada Janubiy Turkmanistonning bronza davri madaniyatini qayta tiklanishi davri bo‘lgan[6]. A.S.Sagdullaev Baktriyada I ming yillik birinchi choragiga mansub 240 ta, yodgorlikni ro‘yxatga olgan, Surxondaryo viloyatida esa 36 tasini nashrlarida qayd qilgan[7].

Natijalar. O‘zbekistonning tarixiy-geografik hududlarida bronza davri mudofaa inshootlarida amalga oshirilgan arxeologik izlanishlar ilmiy asosda tahlil qilindi va kerakli xulosalar olindi. Tadqiqot jarayonida bronza davri aholisida mudofaa bilimlarining shakllanish tarixi, mudofaa inshootlarining konstruksiyasi, tipologik xususiyatlari tahlil qilinib, tadqiqot maqsadiga erishildi.

Takliflar quyidagicha:

- O‘zbekistonning madaniy-xo‘jalik hududlarida bronza davri aholis mudofaa inshootlarida olib borilgan arxeologik izlanishlarni takomillashtirish asosida yangi bilimlar bilan boyitish;
- chuqur tahlil qilgan holda bronza davri mudofaa inshootlarini konstruksiyasi, elementlari va tipologik xususiyatlarini ilmiy asosda yoritib berish;
- maqolada keltirilgan ma’lumotlardan O‘zbekistonning bronza davri mudofaa inshootlarini o‘rganish jarayonida qo‘shimcha manba sifatida foydalanish

Xulosa. Shu tariqa, yuqorida zikr qilingan O‘zbekiston viloyatlarida o‘tgan asrda turli atamada faoliyat olib borgan ekspeditsiya va guruhlar bronza davri axoli turar-joylari mudofaa inshootlarida olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida ushbu davr tarixini yoritadigan ashyolar olingan degan xulosaga kelindi. Bundan tashqari, Farg‘ona vodiysida M.Ye.Masson; Ya.G‘.G‘ulomov va A.Asqarov Zamonbobo manzilgohida; Surxondaryo vohasida joylashgan Sopollitepa va Jarqo‘ton manzilgohlarida A.Asqarov arxeologik izlanishlarni amalga oshirib, ushbu davr tarixini ashyoviy manbalar bilan boyitdi degan xulosa qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Итина М.А. Новые стоянки Тазабагьябской культуры (работы 1956 г) //МХЭ-М.:Наука, 1959. Вып-1-С. 52-150.Ўша муаллиф. Раскопки стоянки Кават-7 в 1958 г КМХЭ-М, Наука, 1963. Вып-6-С. 103-106.

2. Массон М.Е. Экспедиция археологического надзора на строительстве Большого Ферганского канала //КСИИМК-М,: Наука, 1940-Вып-V-С.50-52.

3. Аскаров А. Сапаллитепа-Ташкент “Фан” 1973-С. 139.

4. Аскаров А, Ширинов Т.И. Раняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии-Самарканд-1993. Рис

5. Спришевский В.И. Чустское поселение // К истории Ферганы в эпоху бронзы /Автореф. Дисс.канд.ист.наук-ташкент. 1963-32 с.

6. Аскаров А, Альбаум Л.И. Поселение Кучуктепа-Ташкент,:Фан. 1979-С. 77-79.

7. Сагдуллаев А.С. Усадьба древней Бактрии-Ташкент,:Фан 1987-С. 3-12.

8. Сабиров К. Оборонительные сооружения древних поселений и городов Средней Азии (VI тыс. до.н.э-IVв.н.э) //Автореф дисс на соис-е уч. Степени кандидата истр-к наук-М, 1979-С 6

9. Сагдуллаев А.С, Шайдуллаев А.Ш. Мустақиллик даврида Сурхон воҳаси бронза ва илк темир даври ёдгорликларини ўрганишнинг айрим жиҳатлари-Тошкент, 2014-Б.44-51.

10. Баратов С.Р.Рахманов У.Б. Новые археологические материалы и древнейшей истории города Хазарасп //Материалы Республиканской научной конференции “Антик давр цивилизацияси тараққиётида Хоразмнинг ўрни” /Хива-Хазарасп.2011-С.120-125.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Madaminov Obidjan Zoirjon o'g'li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Tarix kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.
e-mail: obidjonzoirjonovich@gmail.com
ORCID: 0000-0001-6268-8005

O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK YILLARIDA XALQARO TRANSPORT LOYIHALARIDAGI ISHTIROKI VA UNING DAVLAT IMIJINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganidan so'ng xalqaro transport va kommunikatsiya loyihalarida faol ishtirok etish jarayoni tahlil qilinadi. Istiqlol yillarida mamlakatning transport siyosati nafaqat ichki iqtisodiy rivojlanish, balki xalqaro nufuz va davlat imijini shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo'ldi. Maqolada "TRASECA", "Shimol-Janub", "Sharq-G'arb", "Trans-Afg'on", "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" temiryo'li kabi strategik loyihalarning tarixiy shakllanishi, ularning siyosiy va iqtisodiy ahamiyati hamda O'zbekistonning mintaqaviy transport markaziga aylanish jarayoni tahlil etiladi. Tadqiqotda O'zbekistonning transport diplomatiyasi, xalqaro tashabbuslardagi faolligi va bu jarayonlarning mamlakatning global imijini mustahkamlashdagi o'rni tarixiy-mantiqiy yondashuv asosida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, transport loyihalari, xalqaro hamkorlik, davlat imiji, transport diplomatiyasi, mintaqaviy integratsiya, global nufuz.

ЧАСТИЕ УЗБЕКИСТАНА В МЕЖДУНАРОДНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ ПРОЕКТАХ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И ЕГО РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО ИМИДЖА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется процесс активного участия Республики Узбекистан в международных транспортных и коммуникационных проектах после обретения независимости. В годы независимости транспортная политика страны проявилась не только как фактор внутреннего экономического развития, но и как инструмент формирования международного авторитета и государственного имиджа. В работе рассматриваются историческое становление стратегических проектов, таких как «TRASECA», «Север–Юг», «Восток–Запад», «Транс-Афганский коридор», железная дорога «Китай–Киргизия–Узбекистан», а также их политическое и экономическое значение и процесс превращения Узбекистана в региональный транспортный узел. В исследовании на основе историко-логического подхода изучается транспортная дипломатия Узбекистана, его активность в международных инициативах и роль этих процессов в укреплении глобального имиджа страны.

Ключевые слова: Узбекистан, транспортные проекты, международное сотрудничество, государственный имидж, транспортная дипломатия, региональная интеграция, глобальный авторитет.

THE PARTICIPATION OF UZBEKISTAN IN INTERNATIONAL TRANSPORT PROJECTS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE AND ITS ROLE IN SHAPING THE NATIONAL IMAGE

ABSTRACT

This article analyzes the process of the Republic of Uzbekistan's active participation in international transport and communication projects after gaining independence. During the years of independence, the country's transport policy has manifested not only as a factor of internal economic development, but also as a tool for shaping international prestige and the national image. The paper examines the historical formation of strategic projects such as "TRASECA," "North–South," "East–West," the "Trans-Afghan" corridor, and the "China–Kyrgyzstan–Uzbekistan" railway, as well as their political and economic significance and the transformation of Uzbekistan into a regional transport hub. The study, based on a historical-logical approach, explores Uzbekistan's transport diplomacy, its activity within international initiatives, and the role of these processes in strengthening the country's global image.

Keywords: Uzbekistan, transport projects, international cooperation, national image, transport diplomacy, regional integration, global prestige.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Qadimdan Markaziy Osiyo mintaqasi muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashganligini ko‘rish mumkin. La’l yo‘li, Nefrit yo‘li, Shoh yo‘li, Dasht yo‘li, Buyuk ipak yo‘li kabi xalqaro va mintaqaviy savdo koridorlarining bu hududdan o‘tishi o‘lkamiz siyosiy, iqtisodiy yuksalishida muhim o‘rin tutgan[1.5].

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin, tashqi siyosatda ochiqlik, o‘zaro manfaatli hamkorlik va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga asoslangan davr boshlandi. Mamlakatimiz qulay geografik mintaqada, Yevrosiyo materigining markaziy qismida joylashganligi xalqaro maydonda zamonaviy transport loyihalari tashkil qilinishida muhim ahamiyat kasb etti. Yevropani Osiyoning rivojlangan davlatlari bilan bog‘lash imkonini berdi. Ammo reallikda buni amalga oshirish ancha murakkab jarayon ekanligi oydinlashdi. SSSR davlati qulaganidan keyin nafaqat mintaqadagi balki butun dunyodagi siyosiy va iqtisodiy muvozanatning buzilishi, afg‘on muammosining jadallashuvi, mustaqil yosh respublikalardagi iqtisodiy beqarorlik, Eron islom respublikasining g‘arb davlatlari tomonidan sanksiyaga uchrashi kabi holatlar Markaziy Osiyo respublikalari rivojiga qo’yilgan to‘siq sifatida qarash mumkin edi. Ammo shunga qaramasdan respublikalar, xususan O‘zbekiston hukumatining olib borgan oqilona tashqi siyosati natijasida bu borada oldinga siljishlar kuzatildi.

Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O‘zbekiston uchun transport infratuzilmasini rivojlantirish strategik vazifa sifatida shakllandi. Zero, transport tarmoqlari mamlakatning jahon iqtisodiy makoniga integratsiyasini ta’minlaydigan asosiy omil bo‘lib, ular iqtisodiy manfaatlar bilan birga siyosiy va imij jihatdan ham muhim ahamiyatga ega edi. O‘zbekistonning xalqaro transport tashabbuslari va loyihalarida faol qatnashishi uning geoiqtisodiy salohiyatini kengaytirib, xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, shuningdek, mintaqada ishonchli va barqaror hamkor sifatida tan olinishiga xizmat qildi. Shu bois, transport diplomatiyasi mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlovchi muhim siyosiy vosita sifatida shakllandi.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo‘llanildi:

- **Tarixiy tahlil metodi** – mustaqillik yillarida amalga oshirilgan transport siyosatining tarixiy bosqichlarini o‘rganish uchun;
- **Mantiqiy tahlil metodi** – transport loyihalari va davlat imiji o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash uchun;

- **Solishtirma tahlil metodi** – O‘zbekistonning mintaqadagi boshqa davlatlar bilan transport hamkorligi tajribasini qiyoslash uchun;
- **Empirik ma’lumotlar tahlili** – rasmiy hukumat hujjatlari, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, hamda ekspert fikrlariga asoslanilgan.

Metodologik asos sifatida transport diplomatiyasi konsepsiyasi, xalqaro imij nazariyasi hamda mintaqaviy integratsiya tamoyillari qabul qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq ittifoqdan meros qolgan yopiq transport tizimidan ochiq, ko‘p yo‘nalishli tizimga o‘tish siyosatini boshladi. Avvalo mamlakat ichkarisidagi transport tizimini tartibga solishdan boshlandi. Shuningdek, birin-ketin xalqaro loyihalarda ishtirok qila boshladi. 1993-yilda Bryussel shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda TRASECA (Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport koridori) loyihasiga asos solindi va unda O‘zbekiston ham a’zo sifatida qo‘shildi[2.5]. Zamonaviy buyuk ipak yo‘li deb qaralayotgan mazkur yo‘nalish Yevropa davlatlarini Osiyo mamlakatlari bilan bog‘laydi.

TRASECA loyihasi doirasida 1998-yil 19-fevralda Xitoy, Qirg‘iziston, O‘zbekiston hukumatlari o‘rtasida Toshkent-Andijon-O‘sh-Irkeshtom-Qashqar avtomobil yo‘lida xalqaro avtomobil transporti qatnovi to‘g‘risida bitim imzolanib, yo‘l qurilishi boshlandi[3.209].

1996-yil 13-may kuni 295 km bo‘lgan “Tajan-Saraxs-Mashhad” temiryo‘li ishga tushirilgach, Markaziy Osiyo davlatlarini Fors ko‘rfazi orqali ochiq dengiz havzasiga chiqish imkonini berdi[4.110]. Ungacha O‘zbekiston paxtasining katta qismi shimoli-g‘arbda Boltiqbo‘yi orqali, Uzoq Sharqdagi Vladivostok portlari orqali dunyo bozoriga yetkazilar edi. O‘zbekiston 1996-yildan boshlab Bandar-Abbos portidan foydalana boshladi. Bu yo‘lak O‘zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. Bu temiryo‘lning umumiy uzunligi 2912 km bo‘lib, bu yo‘lning taxminiy quvvati yiliga 5.3 mln tonnani tashkil etadi[5.343]. Ekspertlarning fikricha, mazkur magistral boshqa Boltiqbo‘yi (Riga, Ventspils, Liepaya, Tallin), Qora dengiz (Ilichevsk, Odessa), Uzoq Sharq (Naxodka, Vladivostok) portlariga chiqadigan tramsport yo‘laklariga nisbatan bir qator qulayliklarga ega[6.148].

2003-yilda Eron, Afg‘oniston va O‘zbekiston prezidentlari o‘rtasida Transafg‘on transport yo‘lagini barpo qilish bo‘yicha kelishuv imzolandi. Ushbu shartnomaga ko‘ra Hayraton – Mozori Sharif – Hirot – Qandahor yo‘nalishi bilan Eronni hamda O‘zbekistonni bog‘laydigan temiryo‘l qurish ko‘zda tutildi[7.13]. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu haqda quyidagilarni aytib o‘tti: “Hozirda Markaziy Osiyoni Hind okeani bilan bog‘lovchi Transafg‘on transport koridorini barpo etish borasidagi ilk qadamlarni tashladik. Bu loyihani ro‘yobga chiqarilishi butun mintaqamizda barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi”[8].

2021-yilning 5-fevral kuni prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy poytaxti Pekinda Pokiston bosh ministri Imron Xon bilan uchrashuvida ikki davlatlar o‘rtasidagi strategik sheriklik va ko‘p yo‘nalishli hamkorlik munosabatlari doirasida Termiz – Mozori Sharif – Qobul – Peshovar temiryo‘lini qurish loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida kelishuvga erishildi[9]. Xalqaro maydonda mojarolar manbayi sifatida qaraladigan Pokiston Islom Respublikasi va Afg‘oniston bilan bunday darajadagi kelishuvlarning O‘zbekiston tomondan tashabbus bilan chiqishi mintaqa integratsiyasi uchun dadil qadam bo‘ldi desak adashmagan bo‘lamiz.

“Shimol-Janub” transport koridori Yevrosiyo materigidagi yangi xalqaro transport koridori sifatida shakllanib bormoqda. Hindistondan–Eron–Ozarbayjon–Rossiyani bog‘lovchi muhim savdo-transport yo‘li bo‘lib, bu loyihaga O‘zbekistonning qo‘shilishi muhimdir. O‘zbekiston prezidenti Sh.Mirziyoyev 2018-yil 10-iyun kuni Xitoyning Sindao shahrida bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkilotining sammitida mintaqadagi savdo va transport aloqalarini rivojlantirishga oid muhim taklif-tashabbuslarni ilgari surdi. Shulardan biri Shimol-janub loyihasini rivojlantiruvchi va ushbu yo‘nalish bo‘ylab yangi multimodal transport yo‘lagini tashkil etish bo‘yicha taklifini berdi[10]. Bu esa mamlakatning xalqaro siyosiy maydondagi nufuzini mustahkamladi.

2013-yil sentabrda Xitoy hukumati raisi Si Szinpin Qozog‘istonga rasmiy davlat tashrifi chog‘ida XXRning O‘rta Osiyo respublikalari, SHanxay Hamkorlik Tashkiloti ishtirokchilari bilan hamkorligini kuchaytiradigan “Buyuk ipak yo‘li iqtisodiy koridori” loyihasini ilgari surdi[11]. Shu

yil oxirida "bir makon – bir yo'l" loyihasiga aylanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida transport diplomatiyasi davlat tashqi siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. 2017-yilda bo'lgan xalqaro iqtisodiy forumda prezidentimiz Sh.Mirziyoyev so'lagan nutqida bu haqda to'xtalib, o'z takliflarini ilgari surdi. Markaziy Osiyo davlatlarini Xitoy, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari, Yevropa davlatlari bilan bog'laydigan transport yo'nalishlarini tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi[12,409]. Bu loyihalar orqali O'zbekiston o'zining **"ochiq, ishonchli va integratsiyaga tayyor davlat"** imijini shakllantirmoqda.

O'zbekistonning transport siyosati iqtisodiy maqsadlarga qaratilgan bo'lishiga qaramay, u xalqaro maydonda mamlakatning ijobiy obrazini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi.

Transport infratuzilmasining rivojlanishi:

- mamlakatni global savdo tarmoqlariga ulaydi,
- xorijiy investorlar uchun ishonchli hamkorlik muhitini yaratadi,
- O'zbekistonni mintaqaviy tranzit markaziga aylantiradi.

Bu jarayonlar O'zbekistonning xalqaro reytinglaridagi o'rnini mustahkamlab, tashqi siyosatda "konstruktiv hamkor" sifatida e'tirof etilishiga olib keldi. Transport diplomatiyasi orqali mamlakat o'z tashqi imijini faqat siyosiy bayonotlar emas, balki amaliy infratuzilmaviy loyihalar orqali mustahkamladi.

XULOSA

O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi yillardagi xalqaro transport loyihalaridagi faolligi mamlakatning nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va imij jihatidan ham yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Transport diplomatiyasi O'zbekiston tashqi siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida davlatning xalqaro nufuzini oshirish, ishonchli hamkor imijini shakllantirish va Markaziy Osiyoda integratsion jarayonlarni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, O'zbekistonning xalqaro transport loyihalaridagi ishtiroki — bu nafaqat iqtisodiy zarurat, balki mamlakat imijini mustahkamlovchi strategik yo'nalishdir.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Ўктам Мавлонов. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. - Т.: Akademiya, 2008. - B.450.

2. Ў. Мавлонов, Д. Маҳкамова. Маданий алоқалар ва савдо йўллари. - Т.: Академия, 2004. - B.122.

3. Аблат Хўжаев. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. - Т.: Ўзбекистон миллий энсиклопедияси, 2007. - B.280.

4. X.X.Matyaqubov. O'zbekistonning eng yangi tarixi. – T., 2021. - B.299.

5. М.С.Бўрихаджаева. Мамалакат иқтисодиётида автомобил транспорти коридорларини ривожлантириш истиқболлари. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. –2023. –Volume 3(1/2). – B.343.

6. Б.Э.Юлдашев. Ўзбекистоннинг муқобил транспорт коридорларини яратиш соҳасидаги халқаро ҳамкорлик йўли // TSTU Conference 1 Prospects for Training International Specialists in the Field of Transport. –2022. –Volume 3. – B.146-150.

7. Ж.С.Раматов. Темирйўл транспорти юксалиш палласида. // TSTU Conference 1 Prospects for Training International Specialists in the Field of Transport. –2022. –Volume 3. – B.13-14.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси. – 2020 йил 29-декабрь.

9. "Xalq so'zi" gazetasi. 2022-yil 6-fevral. № 28 (8090).

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 10-iyundagi Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari Kengashi majlisidagi nutqi // https://uzbekistan.org/uz/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-shanxay-hamkorlik-tashkilotiga-azo-davlatlar-rahbarlari-kengashi-majlisidagi-nutqi/3269/ ma'lumot olingan sana 29.10.2025

11. "Bir makon — bir yo'l": O'zbekiston nimalarni qo'lga kiritadi? / https://daryo.uz/2017/06/20/bir-makon-bir-yol-ozbekiston-nimalarni-qolga-kiritadi/ ma'lumot olingan sana 30.10.2025

12. Шавкат Мирзиёев. “Бир макон – бир йўл” – манфаатларимиз муштарак. // Миллий тараққиёт йўлимизни қатьият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, –Т., “Ўзбекистон”, 2018 й., 409-бет.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Матниёзов Машхурбек Рустамович
Шовот тумани Ройат маҳалласи тадбиркорлини ривожлантириш бўйича ҳоким ёрдамчиси, тадқиқотчи.
Mashxurbek-87@mail.ru.

ХОРАЗМ ВОҲАСИДА ХОНЛИК ВА ЯРИМ МУСТАМЛАКА ДАВРИДА КЕМАЧИЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Хоразм вохасида хонлик ва ярим мустамлака дарида кемачиликнинг ривожланиши ҳақида сўз юритилади. Хусусан, кемачиликни ривожланиши, хоразм воҳасида қадимги кема ясаш ҳунармандчилиги ва сув транспортининг хоразм воҳасининг қўшни минтақалар билан савдо-иқтисодий алоқалардаги ўрни тадқиқ қилинган.

Калит сўз: Кема, дарға, тол, верст, Хонқа, Амударё, канал, Қўнғирот, Чоржўй, Карки, Термиз, Полвон канали.

Matniyozov Mashkhurbek Rustamovich.
Assistant to the district governor for entrepreneurship development in the Royat mahalla of Shovot district, researcher.
Mashxurbek-87@mail.ru.

THE DEVELOPMENT OF NAVIGATION IN THE KHOREZM OASIS DURING THE KHANATE AND SEMI-COLONIAL PERIODS

ABSTRACT

This article examines the development of navigation in the Khorezm oasis during the periods of khanate rule and semi-colonial status. Specifically, it investigates the evolution of navigation, ancient shipbuilding craftsmanship in the Khorezm oasis, and the role of water transport in trade and economic relations between the Khorezm oasis and neighboring regions.

Keywords: Ship, boatman, willow, verst, Khonqa, Amu Darya, canal, Qo'ng'irot, Chorjo'y, Karki, Termiz, Polvon Canal.

Матниёзов Машхурбек Рустамович.
Помощник хокима по развитию предпринимательства махалли Роят Шаватского района исследователь.
Mashxurbek-87@mail.ru.

РАЗВИТИЕ СУДОХОДСТВА В ХОРЕЗМСКОМ ОАЗИСЕ В ПЕРИОД ХАНСТВА И ПОЛУКОЛОНИАЛЬНОГО ПРАВЛЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается развитие судоходства в Хорезмском оазисе в период ханства и полуколониальной эпохи. В частности, исследованы развитие судоходства, древнее искусство судостроения в Хорезмском оазисе и роль водного транспорта в торгово-экономических связях Хорезмского оазиса с соседними регионами.

Ключевые слова: Судно, капитан, ива, верста, Ханка, Амударья, канал, Кунград, Чарджоу, Керки, Термез, канал Палван.

Кириш ва долзарблиги.

Минг йиллар давомида Хоразм воҳасини ташқи дунё билан Амударё боғлаб турган. Милоддан олдинги 3-4 минг йилликларда Давдон ва Ўзбой ирмоқлари бутунлай қуриб қолганлиги натижасида дарё сувлари тошиб икки ирмоқ ҳосил этган ва Оролга қуйила бошлаган. Орол денгизининг тахминий ёши 140 минг дейилади ва уни Сирдарё вужудга келтирган. Маълумки, инсонлар азалдан яшаш ва деҳқончилик учун қулай бўлганидан сув бўйларига интилганлар. Қалъа ва шаҳарлар ҳам дарё ва сув йўлларилари бўйларига барпо этилган. Шу боисдан ҳам Амударё бўйларидаги қадимий шаҳарлар аҳолиси азал-азалдан савдо сотиқ билан шуғулланиб келганлар. Хитой, юнон, форс манбаларидаги Амул (Чоржўй), Панду (Тупроққаъла), Юенжи (Урганч), Ғарабхашна (Шўрахон-Тўрткўл) шаҳарларининг тилга олиниши айнан дарё бўйларидаги тараққий этган савдо-сотиқ ва кема карвонлари билан боғлиқдир.

Методлар ва ўрганилиш даражаси. Хоразм воҳасида кемачилик тарихини М.Маҳмудов [1], Сулаймонов С. [2], Умид Бекмуҳаммад [3]., Т.Т.Сафаров[4], М.М. Шарофиддинов [5]. Ў.М.Мавлонов [6], ва Ф.Жуманиязовлар [7]. ларнинг ўз тадқиқотлари доирасида тадқиқ қилганлар.

Хорижда ҳам Хоразм воҳаси сув транспорти тарихини ўрганиш ва қисман ёритишга қисман рус, инглиз ҳамда америкалик тадқиқотчилари, жумладан, Буюк Британиянинг Россиядаги савдо агенти Энтони Женкинсоннинг Ўрта Осиёдаги сафар хотиралари [8], рус ҳарбий врачи, капитан Н.Н. Муравьевнинг саёҳати[9], полковник Н.П.Игнатьев [10], Л. Мейер[11], эроний К. Фарроҳ [12] ва И. Мирпанжийнинг[13] тадқиқотнинг айрим жиҳатларини ўрганганлиги билан аҳамиятлидир.

Тадқиқот методологияси сифатида тизимли таҳлил, тарихийлик ва мантиқийлик, анализ ва синтез, қиёсий таҳлил усуллари қўлланилди. Воҳада кемачилик хонлик ва ярим мустамлака давридаги ҳолати таҳлил қилинди.

Тадқиқот натижалари.

Амударёда кемачилик узоқ тарихга эга бўлиб, унинг ривожланиши воҳада савдо-сотиқ муносабатларининг ўсиши билан уйғун тарзда кечган. Абулғози Баҳодирхоннинг ёзишича, тахминан 1573 йилдан "Амударё ўзанини ўзгартириб, Хосминордан Оролга қараб оқа бошлаган" [14]. Амударё яқинида яшаётган хоразмликлар ундан деҳқончилик ҳудудларини суғоришда фойдаланиш билан бир қаторда, ташқи дунё билан боғлаб турувчи транспорт йўлаги сифатида ҳам фойдаланишган. Сув йўлидан юзлаб кемалар қатнаган, зарур юклар ва одамлар ташилган. Қуйи Амударёдан чиққан елканли кемалар дарёнинг юқори қисмидаги Термиз ва Кайқавват деган жойгача сузиб борган.

Амударё бўйлаб юк ортилган қайиқлар йўналиши Қўнғирот–Чоржўй–Карки–Термиз шаҳарларини туташтирган. XX аср бошларида Бухоро амирлиги билан Хива хонлиги ўртасидаги савдода 420 та Хива ва 80 та Бухоро қайиқлари ҳаракат қилган ва уларда йилига ўртача 500.000 пудга яқин юклар ташилган[15].. Мазкур даврда дарёда Питнакдан то Қўнғиротгача бўлган масофада Хива хонлиги аҳолисига тегишли бўлган икки мингга яқин қайиқлар сузиб юрган[16].

1863 йил июнь ойида Хива хонлигига келган машҳур венгер сайёҳи Арминиус Вамбери "киракаш савдо кемаларида Амударёдан кечиб ўтганлигини" ёзиб қолдирган. Хоразмда қадимдан кемасоз ҳунармандлар яшаган бўлиб, XIX асрнинг бошларига келиб Хонқа воҳанинг қайиқ ясаш марказига айланган. Тарихий асарларда Хива аҳолисининг жуда

кўпчилиги ўз шаҳсий қайиқи борлиги, бойлари эса бир нечта қайиққа эга эканлиги ёзилган[17]. Катта қайиқлар "ўчоқ", анча кичиклари "ўзарча" деб номланган[18]. Хонқада истиқомат қилувчи ўзбек Қарамози уруғи вакиллари қайиқ ясаш билан машғул бўлишган. Одатда қайиқлар тол дарахтидан ясалган, битта қайиқ ясаш учун эса 80-85 дона дарахт ишлатилган. Ҳар бир тол дарахтининг баҳоси 50 копекдан 1 рублгача бўлган. Катта қайиқларнинг баҳоси 225 рубль, ўртача қайиқни баҳоси 150 рубль ва кичик қайиқнинг баҳоси 60 рублни ташкил қилган. Хива қайиқлари таги ясси бўлиб, бошқа қайиқлардан ажралиб турган[19].

Қайиқни ясаш учун 6-7 ҳунарманд бирга меҳнат қилган. Қайиқ ясаш учун ҳукуматдан расмий рухсат олиш шарт бўлмай, асосан буюртмачининг хоҳишига кўра ясалган[20]. Кеманинг катталиги ҳар хил бўлиб, эни 2,5 газ (1 газ 0,71 см.га тенг узунлик ўлчови), баландлиги 1,5, узунлиги 12 саржин (1 саржин 213 см.га тенг узунлик ўлчови) ва ундан ҳам ортиқ бўлган. Кемалар бир газ чамасида сувга ботиб турган ва ҳаракат қилган[21]. (3-иловага қаранг)

XIX асрга келиб воҳада мавжуд юк ташувчи қайиқлар уч гуруҳга бўлинган:

1) катта қайиқлар — 2 минг пудгача (32 тонна);

2) ўрта қайиқлар — 200 пуддан минг пудгача (3 тоннадан 16 тоннагача);

3) кичик қайиқлар — 200 пудгача (3 тонна — 200 килограмм).

Бундай кемалар билан устига юк ортилган 10 та туя ёки 100 кишини бир йўла ташиш мумкин бўлган[22]. Кемачиликда юк ташиш тарифлари мавсумга қараб ўзгариб турган. Куз ойларида Урганч-Чоржўй йўналишларида 1 пуд юк ташиш учун 35-30 копекгача ҳақ олинган бўлса, ёз ойларида бу тариф 10 копекгача пасайган[23].

Амударё бўйлаб қайиқларнинг юкташиши учун йилнинг ҳамма вақти ҳамқулай бўлавермаган. Энг ноқулай пайт кузнинг иккинчи ярми ва қиш, яъни ноябрь, декабрь, январь ва февраль ойлари ҳисобланган. Ана шу ойларда дарёнинг суви камайган, дарёнинг ўзанларида

саёзликлар, қумликлар пайдо бўлиб сузишни қийинлаштирган, иккинчи томондан, кучли шамоллар ҳам сузишга халақит берган. Сув йўли орқали савдо-сотиқ ривожи қайиқсозлик соҳасига ҳам ўзининг таъсирини ўтказган[24].

XIX асрга келиб Амударё қирғоғидаги Учўчоқ, Қизилработ, Сартарош деган жойларда саксовулни оловда куйдириб, кўмир ҳосил қилинган. Хива хони ҳар йили 4 марта тошкўмир ташиб келтириш учун 10 тагача қайиқ-кемаларни жўнатиб турган. Хон девонхонаси ҳужжатларида тошкўмир келтирган кемачиларга озуқа учун саккиз тилла ва гўшт учун уч тилла-берилганлиги қайд қилинган[25].

Хива хонлигида кемачилик ва қайиқчилик ривожланган бўлиб, юк ташувчи кемалар Хивадан чиқиб, Амударёнинг делтасидан Оролга ўтган ва денгизнинг шарқий соҳили бўйлаб сузиб, Сирдарёнинг қуйилиш жойига ғалла ва бошқа молларни олиб борган[26].

Барча тарихий даврларда воҳанинг транспорт инфратузилмаси шаклланиш жараёнига Амударёнинг таъсири жуда катта бўлган. Бу омилни биз ҳудудда шаклланган йўллар мисолида яққол кузатишимиз мумкин. 1873 йилга келиб Амударё ҳавзасида 1000 верст сув йўллари мавжуд бўлиб, шундан Полвон каналида – 80 верст, Ғозовот каналида – 50 верст ва Шовот каналида – 30 верст ички сув йўллар мавжуд бўлиб мазкур йўналишларда маҳаллий ҳамда рус фуқароларига тегишли кемалар сузган[27]. Воҳада йўловчи ва юкларни дарё қирғоқидан ўтказувчи махсус кемалар ва пристанлар ва переправалар сони кўпайган. XIX асрнинг охирига келиб хонликни маъмурий марказига айланган Хива шаҳрида 19000 нафар аҳоли яшаган бўлиб, шаҳарга кириб келувчи моллар асосан Амударёдан Полвон канали орқали кичик қайиқлар (баркас) ёрдамида ташилган[28].

Хоразм воҳасида кемачиликнинг ривожланиши қўшни давлатлар ўртасидаги савдо муносабатларининг ривожланишига сабаб бўлган. Бухоро амирлиги ва Хива хонлигини Амударё орқали Ильчик ва Устик қўрғонларида жойлашган пристанлар орқали ўтувчи сув йўли ўзаро боғлаган ва мазкур йўналишда Хонқа шаҳрини аҳамияти катта бўлган[29].

XIX асрга келиб Россия ва ўзбек хонликлари ўртасидаги савдо-иқтисодий муносабатлар ривожлана бошлаган. Россия иқтисодиёти иқтисодиёти муҳим хом ашё бозори сифатида шаклланаётган бўлган Ўрта Осиё билан боғловчи хавсиз транспорт йўлакларини яратиш империяси ташқи сиёсатини устувор йўналишларидан бирига айланган. Сув транспорти мазкур даврда бошқа транспорт воситалардан арзонроқ ва хавфизроқ бўлган.

Мазкур давр мобайнида Туямўйиндаги Султон Санжар бандаргоҳида йилига ўртача 500 та қайиққа туз юкланган. Бу маҳсулот дарё яқиндаги қишлоқлар аҳолисига, Қўнғиротгача бўлган ҳудудларда олиб бориб сотилган[30]. Кемаларда туз келтириб сотиш Хива шаҳрида жуда ривожланган бўлиб, кекса аҳоли вакилларининг хотирлашича, Полвон каналида "Кема кўпир" деб номланувчи жой бўлиб, келтирилган тузлар айнан шу ерда сотилган[31].

Руслар томонидан Орол денгизи ва Амударёда кемачиликнинг ташкил қилиниши воха сув транспорти тизимида янги даврни бошлаб берди. Амударё навигацион харитасини тузилиши ва дарёда сузувчи кемаларга ички ёнувчи двигателларнинг ўрнатилиши кемачилик ривожини юқори босқичга олиб чиқди. XIX асрнинг ўрталаригача Амударёда қатнайдиган замонавий кемалар бўлмаган. Дарёга биринчи замонавий кема-пароходни Орол денгизини текшириб юрган рус капитани А.И.Бутаков олиб кирганлиги юқоридаги фикларимизни тасдиқлайди[32].

Амударёда сузиш имкониятларини ўрганиш рус ҳукмрон доираларининг назарига анча олдин тушган эди. Россия подшоси Петрнинг 1714 йил 29 майдаги буйруғи билан Хива хонлиги ҳудудига юриш қилган капитан Бекович Черкасский экспедициясига Амударё орқали Ҳиндистонга кемалар сузиш ва Амударёни эски ўзанига қайтариш имкониятларини ўрганиш топширилган [33]. Амударёни эски ўзанига қайтариш яъни, Каспий денгизига оқиш ғояси руслар бўлғуси истилочилик ҳаракатларига замин яритиш бўлган.

Ўлкани руслар истило қилишдан анча олдин, Амударё сув йўлларини Орол денгизи билан улаш имкониятлари изланган. 1847 йил баҳорида Оренбургга келган ҳарбий денгиз флоти лейтенанти А. Мертвий бошчилигида "Николай" ва "Михаил" деб номланган шхуналар (елканли темир кема) қурила бошланган. Биринчи кема — ҳарбий мақсадда тикланган бўлиб, унинг ичида 2 та тўп ўрнатилган. Иккинчи кема эса — балиқчилик уюшмаси буюртмаси билан қурилган. Ҳар иккала кема бўлакланган тарзда Сирдарёнинг Оролга қуйилишидан 90 км. узоқликдаги Раим қўрғонига (унга руслар Аральск деб ном бердилар) юборилган ва шу ерда йиғила бошланган.

1848 йил 5 мартда Оренбургга келган яна бир ҳарбий зобит, лейтенант А.И. Бутаков "Константин" деб номлаган 2 замбараклик учинчи кемани қуришни бошлайди[34].

1852 йилда А.И. Бутаков Орол флотилияси бошлиғи этиб тайинланган. Орол флотилияси ва Амударё кемачилик идораси ташкил этилиб, пароходлар ва баржалар келтирилгач, улар Петро-Александровск (Тўрткўл), Дарғонота ва Чоржўй (ҳозирги Туркманобод) шаҳарлари ўртасидаги 400 чақирим масофада деярли узлуксиз қатнаб турган. Кемалар дарёнинг юқори қисмига 4 кун ва пастки манзилга 2,5–3 кунда етиб борганлар. Дастлабки вақтда Амударёдаги кемачилик хизматидан асосан ҳарбийлар, рус амалдорлари, савдогарлар фойдаланганлар.

Россия элчилари ва сайёҳлари кейинги йилларда ҳам Амударёнинг имкониятларига эътиборни қаратган. Хусусан, 1858 йилда Хивага юборилган Н.П. Игнатьев экспедицияси рус кемаларининг Амударёда сузишга рухсат беришни сўраган ва улардан хонлик ҳудудини босиб олишда фойдаланишни кўзлаган[35].

1873 йил апрелида 2 та рус кемалари 3 та баржаси билан Амударёнинг Улкандарё ирмоғи орқали Хива хонлиги ҳудудига кириб келган. Аммо дарёнинг Қўнғиротдан юқори қисми яхши ўрганилмагани сабабли сузиш тўхтатилган. 1873 йил августида "Перовский" пароходи одамларни чексиз ҳайратлантириб, Нукус яқинига сузиб келган. Шундан бошлаб, дарёнинг қуйи қисмида ҳам кемачилик узлуксиз давом этгани ҳақида француз географи Э. Реклю маълумот беради[36].

1873 йил майида Чор Россияси қўшинлари Хива хонлигини истило қилди. Шу йили 12 августдаги имзоланган сулҳ шартномаси эса Хивани ярим мустамлакага айлантирди. Амударёнинг ўнг қирғоқ ерлари тортиб олинди (анекция), 2 млн. 200 минг олтин сўм товон (контрибуция) белгиланди ва хонликни назорат қилиш учун дарёнинг ўнг қирғоғида Петро-Александровск истеҳкоми барпо этилди[37]. Бу ерларда бандаргоҳлар, омборлар ва кемачилар учун бошпаналар қурилганди.

1873 йилга келиб Амударё ҳавзасида 1000 верст сув йўллари мавжуд бўлиб, шундан Полвон каналида - 80 версет, Ғозовот каналида - 50 верст ва Шовот каналида 30 верст ички сув йўллари мавжуд бўлиб мазкур йўналишларда маҳаллий ҳамда рус фуқароларига тегишли кемалар сузган.

Туркистон генерал губернатори фон Кауфман буйруғи билан Шўрахон яқинидада чор подшолари шарафига Петро-Александровск* шаҳрини барпо қилиниши Амударёда кемачиликнинг ривожланишида янги даврни бошлаб берган. Вақт ўтган сари Петро-Александровскда кема қатнови ва флотилия ривож топиб юк ташиш тараққий этган. Флотилиядаги кемалар воҳада етиштирилган маҳсулотларни Чоржўйга, у ердан Термизгача етказиб берганлар[38].

1880 йилга келиб сарф ҳаражатларнинг ортиб кетиши ва Орол флотилясига тегишли кемаларнинг иш самарадорлиги пастлиги сабали император Александр III топшириғи ва Туркистон генерал-губернатори М.Г. Черняевнинг 1882 йил 26 октябрда буйруғи билан Орол флотилиясини тугатиш комиссияси тузилган. 1883 йил 7 апрелда кемаларни синдиришга қарор қилинган. Аммо флот кемаларини бундай усул билан тугатиш катта харажатлар талаб қилишини эътиборга олиб, 1883 йил 26 октябрда уларни акционерлар ва хусусий шахсларга сотишга келишилган[39].

XIX асрнинг охирига келиб Россия империясини тўғридан-тўғри сув йўллари орқали Хива хонлиги билан улаш масаласи пайдо бўла бошлаган. Чунки Россия империясининг Хива хонлиги ва Бухоро амирлиги билан боғловчи асосий асосий карвон йўли Бухоро-Ильчик-Қўнғирот-Мертвий қўлтиғи-Нижний Новгород-Москва йўналиши бўлиб, Ильчикдан Қўнғиротгача юклар Хива фуқароларига тегишли кемаларда ташилган[40]. Мазкур йўналиш орқали юкларни ташишда турли харакат воситаларидан фойдаланиш сабабли транспорт харажатлари анча қимматга тушган.

XIX аср охириги келиб империя манфаатлари учун Амударёни Каспий денгизга оқизиш тўғрисидаги таклифлар кўпайган. Генерал-лейтенант М.Г. Черняев 1883 йил 25 июлда подшо ҳукуматига ёзган мактубида Каспий денгизи орқали Амударё ва Волга сувларини бир бирига улаш масаласини кўтарган[41]. “Окраина” газетасида Сувайш канали қурилиши натижасида Осиё ва Европа ўртасидаги савдо ривожланганлиги назарда тутилган ҳолда Амударёни Каспий денгизига оқизиш жуда самарали лойиҳа эканлиги таъкидланади[42]. Мазкур лойиҳа ушбу даврнинг имкониятларидан келиб чиққан ҳолда жуда кўп маблағ ва меҳнат талаб қилиши инобатга олиниб кейинчалик ўз аҳамиятини йўқотган.

1887 йил 13 ноябрда янги Амударё ҳарбий флотилияси ташкил этиш таклифи илгари сурилган. Узоқ тортишувлардан кейин, 1888 йил 2 майда дарёда ҳарбий аҳамиятга эга флотилия иш бошлаган[43].

Амударё флотилияси асосан дарё бўйлаб юк ташувчи транспортларни тортиб юриш, йўловчилар ҳаракатини йўлга қўйиш, давлатга тегишли бўлган ва хусусий савдогарларнинг юкларини Амударё оқими бўйлаб Петро-Александровск, Чоржўй, Керки ва Термизга олиб боришни таъминлаш, шунингдек тинчлик вақтида ва ҳарбий ҳолатда Туркистон ҳарбий округи учун зарурий бўлган аслаҳаларни Каспийорти темир йўлига ташиб бериш мақсадида Россия ҳукумати томонидан ташкил этилади[44]. Баъзан кемаларнинг техник носозлиги ёки бошқа сабаблар туфайли кемаларнинг сувга чўкиб кетиш ҳолатлари ҳам содир бўлган. Амударё флотилиясига қарашли кемалар, пароходлар, катерлар, баржаларнинг конструкциялари Россиянинг Ғарбий Европа қисмидаги дарёларга мослашган эди. Амударёнинг оқими жуда тез бўлиб, соатига 6-10 верстни ташкил этган [45].

1888-1914 йиллар мобайнида Амударё флотиляси орқали юк ташиш хажмини ортиши натижасида Янги-Урганч, Петро-Александровский ва Хонқа шаҳарларида пахта-мой, кўнчилик, темир қуйиш корхоналари ва уларда меҳнат қилувчи минглаб ишчилар синфи вужудга келган.

1907 йил 29 ноябрдаги Туркистон ҳарбий округи штабининг 435-сонли буйруғи билан Амударё флотилияси тугатилиб, "Хива" АЖ эгаси,тадбиркори И.Батюшковга 10 йиллик муддат билан ижарага берилган. Ҳарбий флотилиянинг тугатилиши билан 13 офицер ва 386 нафар қуйи амалдор пиёдалар қисмида хизмат қилишга жўнатил[46].

1908 йилга келиб "Хива" АЖ Янги Урганч ва Петро-Александровск шаҳарларидан Орол денгизида жойлашган Тошкент станциясига юк ташиш учун мунтазам рейслар амалга оширила бошланган[47]. Мазкур ташкилот 1910 йилда Амударё орқали 5 млн пуд оғирликдаги юкларни ташиш орқали 40 млн рубллик хизмат кўрсатилган[48].

Биринчи жаҳон уруши арафасида Амударёда юк ташиш ҳажми ортган. 1908 йилда Чоржўй-Хоразм оралиғида жами 220 кема ва қайиқлар қатнаб 250 минг пуд юкни манзилига элтган бўлса, 1910 йилга келиб бу кўрсатгич икки баробарга ортган. Бу даврда рус ва чет савдо-саноат вакиллари "Кноп", "Кавказ" ва "Меркурий", Ака-ука Маннуйувлар, Крафтлар вохадан сотиб олинган хом-ашёларни АҚШ, Канада, Франция ва Аргентина каби мамлакатларга жўнатиб турганлар[49].

1920 йил 1 февралда Хива хони ағдарилгач, шу йилнинг 16 февралида Амударё флотилияси қайта ташкил этилган, бироқ бир йил ўтмасдан тугатилган. Мавжуд кемалар ҳарбий ҳаракатларни таъминлаган, кейин эса юк ташиш учун фойдаланилган.

Туркистон ҳарбий округининг 1920 йил 17 ноябрдаги 868-сонли буйруғи билан Амударё флотилияси Балиқчилик бошқармаси ихтиёрига ўтказилган.1921 йил 24 сентябрда РСФСР, БХСР ва ХХСР ўртасида ўзаро транспорт алоқаларини яхшилаш бўйича шартнома имзоланган. Мазкур шартномага кўра, Амударё флотилиясидаги битта шатакчи пароход, 2 та нефть баржаси, 2 та юк баржаси ва 1 та юк пароходи ХХСР ихтиёрига берилган[50].

Хулосалар. Хоразм воҳасининг географик жойлашуви хонлик даврида кемачиликни асосий транспорт воситаси сифатида шаклланишига сабаб бўлган. Хонликнинг ташқи давлатлар билан олиб борган савдо-иқтисодий муносабатлари ва мамлакатдаги ижтимоий-иқтисодий ҳаётнинг савияси кемачилик ривожига катта таъсир кўрсатган. Ярим мустамлака шароитида ва ундан кейинги даврда воҳа сув транспорти самарадорлиги даражаси ортган.

Иқтибослар / References / Сноски.

1. Маҳмудов, М. Хива хонлиги тарихи. — Урганч, 2006. – 149 б.
2. Сулаймонов С.А. История Аральской и Амударьинской флотилий(1947-1920 гг.). Автореф. дис. … канд. ист. наук. — Нукус: ТашГУ, 2010. – С.15Бекмуҳаммад, Умид. Хоразм тарихидан саҳифалар. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 193 б.
3. Сафаров, Т.Т. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида Ўрта Осиёда савдо йўллари: Тарих фанлари номз. дисс. автореферати. — Тошкент, 2009. – 32 б.
4. Мавлонов, Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. — Тошкент: Академия, 2008. – 432 б.; Мавлонов, Ў., Маҳкамова Д. Маданий алоқалар ва савдо йўллари. — Тошкент: Академия, 2004. – 122 б.
5. Ф.Жуманиязов. Хоразм транспорти: кеча ва бугун. Бухоро, 2019. 167 б.
6. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг. // В кн.: Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. Перевод с англ. Ю.В. Готье. — Ленинград., 1932. – С. 167-215.
7. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного сию страну для переговоров. Т. 1. — Москва., 1819; Т. 2. — М., 1820; Записки Н.Н. Муравьева–Карского "Путешествие в Хиву" // "Русский архив" (Москва), 1887. – № 3. – С. 5-42; Муравьев Н. Хива тижорати. 1819-1820 йилларда Ўрта Осиёга саёҳат // "Ҳаёт ва иқтисод" (Тошкент), 1993. – № 3. – Б. 74-75.

8. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. флигель-адъютанта Н.П. Игнатьева. — СПб., 1897. – 278 с.
9. Мейер, Л. Аральская флотилия в отношении к среднеазиатской торговли // "Морской сборник. — СПб., 1862. – С. 109-134.
10. Мак Гахан А.Я. Военные действия на Оксусе и падение Хивы. — Москва, 1875. – 304 с.
11. Фаррох Кави. Персы: армия великих царей. — Москва: Эксимо, 2009. – 344 с.
12. Мирпанжий Исмоил. Хива хотиралари (1854–1864). Нашрга тайёрловчи — К. Нуржонов. — Урганч, 1997. – 52 б.
13. Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. — Тошкент: Мерос, 1991. – Б. 167.
14. Муҳаммеджанова Л.П, Шукуруллаев Ю.А, Сафаров Т.Т. XVIII аср-XX аср бошларида Бухоро. — Бухоро, 2020. – Б. 279.
15. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. — СПб.: Типо-литография В. Березовского, 1911. – С. 212-213.
16. Иванин М.И. Хива и рева Аму-Дарья. — СПБ.:1873. – С. 63.
17. Аъзамова Г.А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик ва савдо. — Тошкент: "Ўзбекистон". 2000. – Б.31.
18. Муҳаммеджанова Л.П, Шукуруллаев Ю.А, Сафаров Т.Т. XVIII аср-XX аср бошларида Бухоро. – Б.281.
19. ЎзМА, И-1 -жамғарма,22-рўйхат, 832-иш, 21-варақ.
20. Зиёев Ҳ. Ўрта Осиё ва Волга бўйлари. – Б.215.
21. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – С. 212.
22. Ремез И.А. Внешная торговля Бухары до мировой войны. — Ташкент, 1922. – С. 24.
23. Версть – Россия империясида ишлатилган узунлик ўлчови. 1 версть 1 км.дан ортиқроқ масофани, яъни 1066 метрни билдирган.
24. Муҳаммеджанова Л.П, Шукуруллаев Ю.А, Сафаров Т.Т. XVIII аср-XX аср бошларида Бухоро. – Б. 281.
25. XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. — Тошкент:Ўзбекистон ССР фанлар академияси нашриёти, 1960. – Б.
26. Зияев, Ҳ. Ўрта Осиё ва Волга бўйлари. – Б.214.
27. ХоразмВДА , Ф-754-жамғарма., 1-рўйхат, 23-иш, 19-варақ
28. Погорельский И.В. Очерки экономической и политической истории Хивинского ханства конца XIX и начала XX вв. (1873-1917 гг.). — Ленинград : Изд-во Ленингр, 1968. – С.25.
29. ЎзМА, И-1-жамғарма., 22-рўйхат, Сулаймонов 32-варақ.
30. ЎзМА, И-1 -жамғарма., 29-рўйхат, 17-иш, 5-варақ.
31. Хива шаҳрида яшовчи 98 ёшли фуқаро Солияжон Бобожонова ҳотиралари. 21.03.2019й.
32. Машарипов О. Хоразмнома. 3-китоб: XIV асрни иккинчи ярмива XX асрнинг биринчи чорагида Хоразм, Хива хонлиги. — Урганч: Хоразм, 2009. – Б. 202.
33. Сношенія Россіи съ Бухарою и Хивой// — "Туркестанскій курьеръ"газетаси. 1913 йил 18 май 108-сон. – Б.3.
34. Дневные записки плавания А.И.Бутакова на шкуне «Константин» для исследования Аральского моря в 1848-1849 гг. — Ташкент, 1953. – С.13.
35. Игнатьаев Н. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. Флигель-адъютанта полковника Н.Игнатьаева. — СПб., 1897. –С.66,67.
36. Казаков, Ю.Н. Развитие социальной инфраструктуры экономических районов / В соав. с. Б.С. Мовчан. — Москва: Наука, 1991. – С.39
37. ЎзМА, И-1-жамғарма,22-рўйхат, 832-иш, 9-варақ.

Петро-Александровск шаҳри 1874 йил 9 мартдан Сирдарё вилоятининг Амударё бўлими дея атала бошланди. 1886 йилда Петро-Александровск Шўрахон, Шайх-Аббос, Сарибий, Бийбозор, Нукус, Амударё волостларига ажратилган.

38. ЎзМА, М-11-жамғарма,1-рўйхат, 891-иш, 2-варақ.
39. ЎзМА, 2740-жамғарма., 2-рўйхат, 50-иш, 19-варақ.
40. ЎзМА, И-1-жамғарма., 22-рўйхат, 832-иш, 12-варақ.
41. ЎзМА И-1-жамғарма, 22-рўйхат, 832-иш, 8-варақ.
42. Запросы Аму-Дарьинского понизовья въ экономической жизни //“Окраина”1897 й. 21 нояьрь.129-сон.
43. Сулаймонов С.А. История Аральской и Амударьинской флотилий(1947-1920 гг.). Автореф. дис. … канд. ист. наук. — Нукус: ТашГУ, 2010. – С.15.
44. Муҳаммеджанова Л.П, Шукуруллаев Ю.А, Сафаров Т.Т. XVIII аср-XX аср бошларида Бухоро. – Б. 286.
45. Зиёев Ҳ. Ўрта Осиё ва Волга бўйлари. – Б.200.
46. ЎзМА, И-1-жамғарма., 17-рўйхат, 902-иш, 4,6-варақлар.
47. ЎзМА, И-1-жамғарма., 12-рўйхат, 1630-иш, 17-варақ.
48. ЎзМА, И-1-жамғарма., 12-рўйхат, 1630-иш, 16-варақ.
49. Машарипов О. Хоразмнома. 3-китоб: XIV асрни иккинчи ярмива XX асрнинг биринчи чорагида Хоразм, Хива хонлиги. – Б. 202.
50. ЎзМА, 48-жамғарма., 1-рўйхат, 44-иш, 31-варақ;

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

F.B.Jumaniyazov.
Mamun universiteti "Tarix" kafedrasi dotsenti, PhD dots.

XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASIDA AGRAR SIYOSATI VA UNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY AHVOLIGA TA'SIRI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Xorazm xalq sovet respublikasida (XXSR) amalga oshirilgan agrar siyosat va yer-suv islohotlari tarixi haqida so'z yuritiladi. Xususan, Xorazm vohasida yangi tartibdagi davlat boshqaruvini vujudga kelgandan keyin amalga oshirilgan agrar sohadagi islohotlar va qishloq xo'jaligi sohalarida sodir bo'lgan o'zgarishlar tarixiy tahlil qilingan.

Kalit so'z: Agrar siyosat, nozirlik, mudiriyat, inqilobiy qo'mita, tanob, paxtachilik, chorvachilik, RSFR, urug'chilik, TASSR, Iqtisodiy kengash.

F.B. Jumaniyazov.
Associate Professor, PhD, Department of History
Mamun University.

AGRARIAN POLICY IN THE KHOREZM PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC AND ITS IMPACT ON THE SOCIO-ECONOMIC SITUATION OF SOCIETY

ABSTRACT

This article examines the history of agrarian policy and land-water reforms implemented in the Khorezm People's Soviet Republic (KhPSR). Specifically, it provides a historical analysis of the changes in the agrarian sector and the transformations that occurred in agriculture following the establishment of a new system of state administration in the Khorezm oasis.

Keywords: Agrarian policy, Nazirlik (ministry), Directorate, Revolutionary Committee, Tanob (unit of land measurement), Cotton cultivation, Animal husbandry, RSFSR, Seed production, TASSR, Economic Council.

Ф.Б. Джуманиязов.
Доцент кафедры "История" университета Мамуна, доцент, PhD.

АГРАРНАЯ ПОЛИТИКА В ХОРЕЗМСКОЙ НАРОДНОЙ СОВЕТСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ОБЩЕСТВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается история аграрной политики и земельно-водных реформ, проведенных в Хорезмской Народной Советской Республике (ХНСР). В частности, проведен исторический анализ изменений в аграрной сфере и преобразований, произошедших в сельскохозяйственной отрасли после установления нового порядка государственного управления в Хорезмском оазисе.

Ключевые слова: Аграрная политика, комиссариат, управление, революционный комитет, танап, хлопководство, животноводство, РСФСР, семеноводство, ТАССР, Экономический совет.

KIRISH VA MAVZUNING DOLZARBLIGI.

Dunyoda aholi sonining o‘sib borishi kundalik oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni barqaror ta’minlash zaruriyatini oshirmoqda. So‘ngi yillarda O‘zbekistonda agrar sohadagi islohotlarni tizimli olib borish va sohada ilm fan yutuqlaridan foydalanishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Samarali olib borilgan agrar siyosat aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta’minlash, sohada ish o‘rinlarini yaratish va qishloqlardagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni samarali hal qilish imkoniyatini beradi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatimizdagi agrar munosabatlarning shakllanishi, yer egaligi va mulkchilikdagi o‘zgarishlar hamda qishloq xo‘jaligining rivojlanish bosqichlarini tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

METODLAR VA O‘RGANISH NATIJALARI.

METODLAR VA O‘RGANISH NATIJALARI.

Mavzu yuzasidan sovet davrida, mustaqillik yillarida va xorijiy olimlar tomonidan bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Birinchi guruh tadqiqotlariga sovet mafkurasi hukmron bo‘lgan davrda yaratilgan tadqiqotlarni ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin. Birinchi guruhga oid tadqiqotlar o‘rganilayotgan davrdagi Xorazm vohasida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu asarda mintaqadagi agrar munosabatlar qisman yoritilgan I.Pogorelskiy[1], K.Muhammadberdiyev[2], X.Hamdamov[3], N. Ibodov [4] asarlarini keltirishimiz mumkin. Ikkinchi guruhga XXSRdagi agrar munosabatlarga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar I.Alimov[5], Ye. Zelkina[6], M.Yuldashev[7], K.Yusupov[8] asarlarida o‘rganilayotgan davrda vohadagi agrar munosabatlarning mazmun mohiyati, siyosiy o‘zgarishlarning agrar sohaga ta’siri va dehqonchilik madaniyatini holati aniq tarixiy manbalar asosida tadqiq qilingan.

Mustaqillik davrida mazkur masala yuzasidan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu asarlar metodologik jihatdan boshqalaridan tubdan farq qilib muammoni ilmiy xolisroq yoritishga harakat qilingan. Bunday asarlarga M.Matkarimov[9], I. Xaydarov[10], Sh.Saidov[11], N.Polvonov[12] asarlarini keltirishimiz mumkin.

Xorijiy olimlardan S.Beker, J.Roche, V.Ruvkin, A.Morrisonlar tadiiiot ishlarida[13] o‘rganilayotgan davr sohalariga tegishli ma’lumotlar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, sistematik va institutsional yondashuv, muqoisaviy tahlil va arxiv tahlili usullari qo‘llanildi.

TADQIQOT NATIJALARI.

XX asrning boshlariga kelib butun Turkiston mintaqasida siyosiy-ijtimoiy jarayonlar juda ziddiyatli kechgan. Bolsheviklar Turkistonda siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritgach, Xiva xonligi va Buxoro amirligidagi mavjud tuzumni ag‘darib tashlashga zimdan tayyorlana boshlashdi. Natijada, 1919 yil 25 dekabrda Xiva xonligiga qo‘shin kiritilib, 1920 yil 2 fevralda Xiva xoni Said Abdullaxon taxtdan voz kechdi[14]. O‘sha kuni asosan Yosh xivaliklardan iborat Muvaqqat Inqilobiy Qo‘mita tuzildi (qo‘mita raisi — Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov[15]). Ushbu qo‘mita ikki oy davomida ham konun chiqaruvchi, xam ijro etuvchi hokimiyat vazifasini bajargan. 1920 yil 7 aprelda Xorazm Inqilobiy Qo‘mitasining kengaytirilgan majlisi bo‘lib o‘tdi [16]. O‘sha kuni xon va uning amaldorlariga tegishli mol-mulk musodara qilindi, vaqf mulklari esa XXSR Madaniyat va maorif nozirligi tasarrufiga o‘tkazildi[17].

1920 yil 23 aprelda Butun Xorazm xalq vakillarining 1 kurultoyida Xorazm Xalk Sovet Respublikasi tuzildi. Xalq Nozirlar Sho‘rosi raisi etib Polvonniyoz Hoji Yusupov saylandi.

1920 yil aprelda sobiq Xiva xonligida mavjud bo‘lgan 20 ta beklik va 2 ta noiblik tugatilib, uning o‘rnida quyidagi 22 ta tuman tashkil qilindi. 1923 yili Xorazm Respublikasining ma’muriy-hududiy bo‘linishiga jiddiy o‘zgarishlar kiritildi. O‘sha yilning oktyabrida qabul qilingan yangi Konstitutsiyaga ko‘ra, XXSR hududi 4 ta viloyat va 26 ta tumandan iborat bo‘lgan[18].

XXSR iqtisodiyotining asosini dehqonchilik, chorvachilik, mahalliy hunarmandchilik, qisman sanoat sohasi tashkil qilgan. Dehqonchilikda asosiy o‘rinni paxtachilik, chorvachilikda go‘sht, teri va jun yetishtirish tashkil qilgan. Mavjud sanoat korxonalari xom ashyoga dastlabki ishlov berish bilan kifoyalangan. Xorazm Respublikasida xam BXSRdagi kabi asosiy muammo yer-suv masalasi edi.

Shuning uchun 1920 yil 23 aprelda bo‘lgan Butun Xorazm xalq vakillarining I qurultoyida chiqarilgan qarorga ko‘ra, xon va uning amaldorlari, shuningdek, xonning qarindoshlariga tegishli mol-mulk musodara qilindi. Natijada musodara qilingan yerlardan 10 ming desyatinasi yersiz va kam yerli dehqonlarga bo‘lib berildi[19]. Umuman olganda, Xorazmdagi dehqonchilik uchun yaroqli yerlar 400.000 tanob (166.000 desyatina)ni tashkil qilgan[20]. Shundan 150. 000 tanob yerga jo‘xori. 60. 000 tanob yerga bug‘doy, 100. 000 tanob yerga paxta, 60.000 tanob yerga sholi va 30. 000 tanob yerga boshqa ekinlar ekilgan[21]. 1921 yildagi ma’lumotlarga kura, XXSRda 1 tanobdan 3 tanobgacha yeri bo‘lgan xo‘jaliklar 40 % ni, 3 tanobdan 5 tanobgacha yeri bo‘lganlar 25 % ni, 5 tanobdan 10 tanobgacha yeri bo‘lgan xo‘jaliklar 25 % ni, 10 tanobdan 20 tanobgacha yeri bo‘lgan xo‘jaliklar 10 % ni tashkil qilgan[22].

1920-1921 yillar davomida XXSRda ekin yerlarni qayta o‘lchash amaliyoti o‘tkazilgan. Natijada xonlik davrida 450 ming tanob bo‘lgan lekin maydonlari qayta o‘lchash natijasida 471.440 tanobni tashkil etdi[23].

Olib borilgan o‘zaro urushlar va I-jahon urushi sabali ariqlar va katta kanallar o‘z vaqtida tozalanmaganligi natijasida 1921 yilga qadar yerlar yiliga 22 % o‘z unumdorligini yo‘qotib bo‘lgan edi[24]

XXSRda Qishloq xo‘jaligi masalasi bo‘yicha xalq nozirligi 1920 yil 27-30 aprel kuni Butun Xorazm xalq vakillarining I qurultoyda XXSR muvaqqat konstitutsiyasiga asosan tuzilgan[25]. Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha xalq nozirligi faoliyatini tasdiqlovchi ilk rasmiy hujjat mazkur nozirlikning 1920 yil 20 maydagi Xorazm Xalq Nozirlar Sho‘rosiga yozgan xati hisoblanadi. Ushbu xatda davlatga tegishli suv omborlari va ko‘llarni dehqonlarga berishni taklif qilgan[26].

Yosh xivaliklar hukumati bolsheviklar ko‘rsatmasi asosida respublikadagi yerlarning barchasini asta-sekinlik bilan natsionalizatsiya qilib, dehqonlarga bo‘lib bergan. Masalan, 1922 - 1923 yillarda jami 40. 000 tanob yer dehqonlarga bo‘lib berildi. Nozirlik dastlab 2 bo‘limdan iborat bo‘lgan:

a) yer va irrigatsiya, b) ko‘l va o‘rmon.

1921 yil 19-martda XXSR muvaqqat inqilobiy qo‘mitasi nozirlikka xon, uning qarindoshlari va sobiq amaldorlarga tegishli yerlar, mehnat qurollari va uy hayvonlarini musodara qilish huquqini bergan[27].

Mamlakatdagi yerlarning katta qismi vaqflarga tegishli bo‘lgan. Vaqf mulklari odatda masjid va madrasalarga qarashli bo‘lib, ularga ekin maydonlaridan tashqari, karvonsaroy, tegirmonlar, bozor va boshqalar kirgan.

1921 yil 23 mayda bo‘lgan Butun Xorazm xalq vakillarining II qurultoyida Xorazm Iqtisodiy kengashi tuziladi. Qishloq xo‘jaligi masalasi bo‘yicha xalq nozirligi tugatilib uning o‘rniga Iqtisodiy kengash huzurida mudiriyat (kotibiyat) tuziladi[28]. Mudiriyat 4 bo‘limdan iborat bo‘lgan: a) qishloq xo‘jaligi, b) irrigatsiya, v) transport, d) davlat binolari boshqarish[29].

Mudiriyat katta yer egalari va boy chorvadorlarning mulklariga nisbatan qat’iy cheklov o‘rnatadi. Mudiriyat dehqonlardan ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda soliq yig‘ish, ularga moddiy texnik xizmat ko‘rsatish va vaqf yerlarini boshqarish vazifalari bilan shug‘ullanishi belgilab qo‘yilgan[30].

1922 yil iyul oyida bo‘lib o‘tgan Xorazm xalq vakillarining III qurultoyida mudiriyat qaytadan nozirlikka aylantiriladi va bosh nozir qilib Nazir-Bobojon Otajonov tayinlanadi. Yangi nozirlik 1922 yil 12 avgustda ish boshlaydi va uning tarkibi 7 bo‘limdan iborat bo‘lgan. Uning tarkibida 97 xodim ishlagan va Xiva elektrostansiyasi ham nozirlik boshqaruviga berilgan[31].1923 yildan boshlab Nozirlikning har bir tumanda bo‘limlari tashkil etilgan.

Xorazmda dehqonchilik qadimdan sun’iy sug‘orishga asoslangan bo‘lib, xalq azal-azaldan hashar yo‘li bilan sug‘orish tarmoqlarini bunyod qilgan va tozalash ishlarida ham bevosita qatnashgan. Amudaryo bo‘ylab minglab chig‘irlarning barpo etilishi natijasida juda ko‘p joylarga suv chiqarilgan. Sug‘orish tizimini tozalash va ta’mirlash ishlariga 1920 yilda 50 ming odam ishtirok etgan bo‘lsa, 1921 yilga kelib bu ishlarga 60 ming odam safarbar etilgan.

1922 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, 2 mln desyatina yerni sug‘oradigan yop va kanallar qazu - hashar yo‘li bilan tozalangan. Shuning bilan birga sug‘orish tizimini mashinalashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan[32]. Umuman olganda, Xorazmda sug‘orish tizimi ikki qismga bo‘linib, kanallar orqali sug‘oriladigan shimoliy va Amudaryo orqali suv ichuvchi janubiy qismlarga bo‘lingan[33]. Sug‘orish vaqti apreldan-oktyabr oyigacha bo‘lib, qolgan vaqtlarda suv daryoga yig‘ilgan. Bahorgi yumushlarga magistral kanallarni tozalash, daryo o‘zanlarini ta’mirlash, kuzgi yumushlarga esa damba va to‘g‘onlarni tozalash ishlari kirgan.

Xorazm dehqonchiligida azaldan asosiy e’tibor bug‘doy, sholi, paxta ekinlariga qaratilgan bo‘lib, bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgandan so‘ng paxtachilik muhim o‘rin tuta boshladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad Turkiston ASSR, BXSR va XXSRda paxtachilikni rivojlantirish orqali Rossiyaning paxtaga bo‘lgan ehtiyojini O‘rta Osiyo respublikalari orqali to‘la ta’minlash edi.

1922 yil 20 dekabrdagi Xorazm Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining qaroriga ko‘ra respublikada yetishtirilgan paxtani dehqonlardan sotib olish ishlari Savdo va ishlab chiqarish nozirligi zimmasiga yuklatilgan, nozirlik esa paxtani faqat Rossiyaga sotgan[34]. Qo‘mitaning xulosasiga ko‘ra mazkur davrda Respublikada agronomlar yetishmasligi mavjud bo‘lib, 150 dona mirob va 100 yaqin agronomlarga juda katta ehtiyoj bo‘lgan[35].

Paxta xom ashyosini yetishtirish, paxta ekin maydonlariga Amerika navli paxta ekish, ekin maydonlarini sug‘orishni mashinalashtirish, paxta ekkan dehqonlarga qulaylik yaratish mamlakat xalq xo‘jaligini yuksaltirishga yordam bergan. Lekin, paxtachilik va paxta xom ashyosi faqat Markaz manfaati uchun xizmat qilgan.

Qishloq xo‘jaligini 1917 yildan oldinga darajaga yetkazish va dehqonlarga iqtisodiy yordam berish maqsadida 1921 - 1922 yillarda yersiz va kam yerli dehqonlarga 6160 botmon urug‘lik chigit, 759 botmon guruch, 90 mln so‘m pul, shuningdek, arava va otlar berilgan. Xorazm Respublikasi dehqonlariga yordam berish uchun, qishloq xo‘jalik mahsulotlariga sanoat mahsulotlarini ayirboshlaydigan kooperatsiyalar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuningdek, 1922 yili umumiy kapitali 3 mlrd so‘mni tashkil qilgan kredit bankining ochilishi ham qishloq xo‘jaligining yuksalishiga yordam bergan. Kooperatsiyalar dehqonlarga xar bir 50 pud paxta hosili uchun urug‘lik, kerosin, ketmon va 50 ming so‘m bergan[36]. Umumiy hisobda 1921 - 1922 yilgi 4000 desyatina yerdagi paxta hosili uchun 198. 400. 000 so‘m pul, 357120 arshin gazmol, 3968 funt kerosin, 317440 quti gugurt, 23808 g‘altak ip, 5952 pud tuz, 7936 dona ketmon, 11904 dona oshlanmagan teri ajratilgan[40]. Biroq dehqonlar faqat 97 mln so‘m, 95987 arshin gazmol 1549 funt kerosin, 100000 quti gugurt, 6650 ta g‘altak olingan, qolgan mahsulotlar o‘rniga choynak va piyolalar tarqatilgan[37].

1922 yildagi ma’lumotlarga ko‘ra, umumiy ekin maydonlarning paxta ekiladigan maydon 10 % ni, jo‘xori 23 % ni, bug‘doy 17 % ni tashkil qilgan[38]. Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasi XXSRdagi paxta ekiladigan maydonlar miqdori yildan-yilga ko‘payib borgan. Masalan, 1921 - 1922 yillarda paxta ekiladigan maydon 4000 desyatinani tashkil qilgan bo‘lib, 1923 - 1924 yillarda 18.000 desyatina yerga paxta ekilgan. Yetishtirilgan paxta hosili 1922 yili 250. 000 pudni tashkil qilgan bo‘lsa, 1924 yili 800.000 pud bo‘lgan[39].

Markazdan boshqaruv siyosati Xorazm paxtachiligida ham olib borilib, 1921 yil 15 iyunda Xorazm Iqtisodiy Kengashi qarori bilan uning huzurida Paxtachilik qo‘mitasi tashkil qilindi[40].

Paxtachilik qo‘mitasi 1921 yilda Xonka, Mang‘it, Gurlan, Toshxovuz, Ho‘jayli, G'ozobod (G’azovot) va Yangi Urganchda o‘zining paxta qabul qilish punktlarini ochgan.

1921 yil sentyabr oyida qo‘mita vazifasidan kelib chiqib Yangi Urganchdagi Manuilovga tegishli paxta tozalash zavodi ta’mir qilinib, ishga tushirilgan[41]. Paxtachilik kooperativiga qarashli yerlar 1921 yil sentyabr oyiga kelib 3968 desyatinani tashkil qilgan.

Umuman olganda, paxtachilik Xorazm xalq xo‘jaligida asosiy tarmoqlardan biri bo‘lib, Xorazm paxtasi Farg‘ona vodiysida yetishtirilgan paxta tolasidan tozaligi, tolasining ingichkaligi bilan ajralib turgan.

Xorazmda 1920 yilgacha, kichik zavodlarni hisobga olmaganda, 33 ta paxta tozalash zavodi bo‘lgan. Shundan paxta tozalash zavodlari: Yangi Urganchda 5 ta, Gurlanda 4 ta, Xonqada 3 ta, Toshxovuzda 5 ta, Mang’itda 4 ta, Ilonlida 1 ta, Hazoraspda 3 ta, Xo‘jaylida 4 ta, Pitnakda 1 ta, Qo‘ng‘irotda 1 ta, Xivada 1 ta va Ostanabozorda 1 ta bo‘lgan[42].

XXSR paxtachiligini yuksaltirish maqsadida 1923 yil 13 fevralda Xorazm Iqtisodiy Kengashi va RSFSR Bosh paxta qo‘mitasi hamkorligida Rus-Xorazm davlat paxtachilik shirkati tashkil qilindi[43]. Mazkur shirkatning ustav kapitali 500 ming rubl qilib belgilandi. Xorazm Iqtisodiy Kengashi 50 % va RSFSR Bosh paxta qo‘mitasi 50 % ulush kiritish asosida tashkil qilingan ushbu jamiyatga asosan paxta eksporti rivojlantirish va paxta yetishtiruvchi dehqonlarga texnikaviy yordam ko‘rsatish vazifasi yuklatilgan. XXSR o‘z ta’sischilik ulushini Turkiston ASSR Paxtachilik qo‘mitasi orqali 258 vagon paxta sotish orqali kiritadi[44].

XXSR iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan bo‘lib, qishloq xo‘jalik asbob-uskunalariga muhtoj hisoblangan. Bundan tashqari irrigatsiya sohasida ham bir qator muammolar bor edi. Jumladan, Amudaryoning chap qirg‘og‘i, xususan, Janubiy Xorazm yerlariga (Pitnakdan to Kipchoqqacha) nasoslar orqali sug‘orishni tashkil qilish zarur edi. Bu vazifa ham shirkat zimmasiga yuklatilgan. Xorazm paxtachiligini tiklash maqsadida shirkat qo‘riq yerlarni o‘zlashtirgan va u yerlarga suv chiqargan, paxta tozalash zavodlarini ta’mirlashda ishtirok etgan aholini muntazam ravishda taqdirlab, pul va oziq-ovqat mahsulotlarini arzon narxlarda bergan[45].

Rus-Xorazm paxtachilik shirkati Xorazm paxtachiligini tiklashda katta ishni amalga oshirgan. Paxtachilikning tiklanishi, birinchi navbatda, Xorazm qishloq xo‘jaligining tiklanishiga yordam bergan, ikkinchidan, qo‘riq yerlar o‘zlashtirilib, paxta maydonlari ko‘paygan, uchinchidan, yangi yerlarni sug‘orish uchun mashina nasoslaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan, to‘rtinchidan, urush vaqtida vayron bo‘lgan paxtachilik sanoati tiklangan.

1923 yilga kelib respublikadagi sug‘oriladigan ekin maydoni 527. 160 tanob yoki 219. 650 desyatinani tashkil qilgan. Shundan Dargonota tumanida 13050 tanob, Pitnakda 5941 tanob, Hazoraspda 24552 tanob, Beshariqda 30218 tanob, Xivada va Oqdarbandda 80265 tanob, Xonqada 13850 tanob, Urganchda 23890 tanob, Kiyot-Kung‘irotda 10354 tanob, Qiyotda 12521 tanob, Qo‘shko‘pirda 8707 tanob, G‘azovotda 6256 tanob, Shohobodda 8606 tanob, Taxtabozorda 27755 tanob, Ambarmanoqda 15235 tanob, Gurlanda 31280 tanob, Qilichniyozbek va Ko‘kchaganda 14152 tanob, Xitoyda 9260 tanob, Toshxovuzda 40513 tanob, Ilonlida 48591 tanob, Mang‘itda 18341 tanob, Qipchoqda 6384 tanob, Porsuda 26603 tanob, Xo‘jaylida 11770 tanob, Ko‘hna Urganchda 7500 tanob, Shumanayda 7818 tanob, Qo‘ng‘irotda 23676 tanob yerni tashkil qilgan. Ko‘rsatilgan yerlardan tashqari yana Qoraqum sahrosi, botqoqliklar va boshqa yerlarda 10. 000. 000 tanob yoki 4. 166. 667 desyatina yer mavjud bo‘lgan[46].

Umumiy ma’lumotlarga ko‘ra, XXSRda 80 mingdan 100 mingtagacha xo‘jalik mavjud bo‘lib, o‘rtacha hisobda ularning sonini 100 ming xo‘jalik deyish mumkin. Shundan 6100 xo‘jalik ko‘chmanchi hayot kechirgan. Xo‘jaliklar miqdoridan kelib chiqadigan bo‘lsa, respublika aholisi taxminan 800 ming — 1 mln kishini tashkil qilgan, shahar aholisi 7 % ni, qishloq aholisi 93% ni tashkil qilgan. Sug‘oriladigan yerlarning umumiy maydonini aniqlash kiyin kechgan. Sababi, 1923 yilgacha Xorazmda qishloq xo‘jaligida statistik ma’lumotlar olib borilmagan va ko‘pgina yerlar zamindorlar tomonidan yashirilgan.

Qishloq xo‘jaligida qilingan asosiy ishlarga, 1923 yil 20 martdagi ma’lumotlarga ko‘ra, 100 ming tanobni tashkil qilgan davlat yerlarining 20 ming tanobi kam yerli va yersiz dehqonlarga berilganligi hamda 3 ming tanob yer esa harakatdagi qizil askarlarga taqsimlanganligini aytib o‘tish

mumkin. Har bir odamga 1 tanobdan 2,5 tanobgacha yer to‘g‘ri kelgan[47]. 1923 yil 4 noyabr hisobotidagi ma’lumotlarga ko‘ra, yerga egalik qilish bo‘yicha butun aholini quyidagi besh guruhga bo‘lish mumkin bo‘lgan: birinchi guruh - bir tanobdan 3 tanobgacha yeri bo‘lgan aholi 40%, ikkinchi guruh - 3 tanobdan 5 tanobgacha yeri bo‘lgan aholi 25%, uchinchi guruh - 5 tanobdan 10 tanobgacha yeri bo‘lgan aholi 20%, to‘rtinchi guruh - 10 tanobdan 20 tanobgacha yeri bo‘lgan aholi 10%, beshinchi guruh 20 tanobdan olgan ko‘p yeri bor aholi 5% ni tashkil qilgan. O‘zbeklar, turkmanlar va qoraqalpoqlar qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan turlicha miqdorda hosil olishgan.

1923 yil oxirlarida Xorazm Iqtisodiy Kengashi majlisidagi qishloq xo‘jaligidagi asosiy masalalardan biri, birinchidan, tajribali mutaxassislarning yetishmasligi[53], ikkinchidan, mashina yordamida ishlov berishni ta’minlashning kamligi va tajriba uchastkalarining yo‘qligi deb e’tirof etilgan. Majlis qaroriga ko‘ra, Xorazmga 3 ta agronom taklif etish, Yangi Urganchdagi Bakkolovning yeridan 170 - 200 tanob yerni tajriba uchastkasi uchun ajratish, Yangi Urganch va Xivada bog‘dorchilik uchastkasi tashkil qilish uchun 3 tanob yer ajratish haqida qaror chiqarilgan.

Xorazmning I-jahon urushiga qadar yillik yuk tashish hajmi 5 mln pudni tashkil qilgan bo‘lib, 1922 yilda bu ko‘rsatkich 300 ming pudni tashkil qilgan. 1923 yilda XXSRda 2 mln pud paxta hosili yig‘ib olingan bo‘lib, ushbu hosilni olib chiqib ketish RSFR uchun asosiy muammoga aylangan[48].

1924 yil 29-sentyabr holatiga ko‘ra XSSR ning aholisiningsh 5% shaharlarda, 90 % qishloqda o‘troq dehqonchilik va 5 % chorvadorlik bilan shug‘ullangan. Yerlarning Xorazmda yashovchi turli millatlar o‘rtasidagi taqsimotini kuzatadigan bo‘lsak o‘zbeklar 58,8 %, turkmanlar 35%, qoraqalpoqlar va qirg‘izlar qolgan ekin maydonlariga egalik qilganlar[49].

1924 yil 15 iyulda Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasining Nozirlar kengashining qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi nozirligi tugatiladi. Uning o‘rniga Xalq xo‘jaligi nozirligi tuziladi va 10 bo‘limdan iborat tarkibi tasdiqlanadi. 1924 yil 5 noyabrdagi Xalq nozirlar kengashining qaroriga asosan mazkur nozirlik tugatiladi.

XULOSALAR.

Xorazm xalq respublikasida olib borilgan agrar islohotlar natijasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy iqtisodiy hayotida tub o‘zgarishlar ro‘y bergan. Aholini yersiz va kambag‘al qatlami bepul ekin maydonlarga ega bo‘lishi respublikaning iqtisodiy asoslarini mustahkamlanishiga olib keldi.

Tashqi kuchlarning ta’siri va ichki hamjihatlikni yetishmasligi natijasida XXSR hukumati uzoq muddatli barqaror agrar siyosat yurita olmadi.

XXSRni ichki ishlariga sovetlarning aralashuvi, uning agrar siyosatiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Bolsheviklar paxta tolasini butunlay Markazga tashib ketishga, undan so‘ng respublika xalq xo‘jaligini paxtachilikka qaratishga harakat qilishgan. Shu maqsadda boshqa dehqonchilik ekinlari o‘rniga yil dan-yilga ko‘proq paxta ekilgan.

Iqtiboslar / References / Сноски.

1. Погорельский И. История Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики (1917-1924 г.г). –Ленинград: Изд. ЛГУ, 1984. -228 с.

2. Муҳаммадбердиев К. История Хорезмской революции. –Ташкент: Фан, 1986. -232 б.

3. Ҳамдамов Х. Хива хонлигининг ағдарилиши ва Хоразм совет халқ республикасини тузилиши. –Тошкент: Ўздаврнашр, 1960, -192 б.

4. Ибодов Н. Ўзбекистон халқ хўжалигини бошқариш органлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969. -60б.

5. Алимов И. Аграрные преобразавание в Хорезме и Бухаре (1920-1924). – Ташкент: Узбекистан, 1970. -80 с.

6. Зелькина Е. Очерки по аграрному вопросу в средней Азии. –Москва:, 1930. -127 с.

7. Юлдашев М.Ю. К истории крестьян хивы XIX века. –Ташкент: Фан, 1966. - 134 с.

8. Юсупов К. Аграрные отношения в Узбекистане в период строительства социализма. –Ташкент: Узбекистан, 1977. -174 с.
9. Маткаримов М. Хоразм Республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисодиёти. – Урганч, 1993. -86 б.
10. Хайдаров И. Ўзбекистонда Иқтисодий Кенгашлар фаолияти (1917-1934 1.). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2007. -28 б.
11. Ш.Саидов. Хоразм халқ совет республикасининг ташқи муносабатлари ва савдо алоқалари. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Тошкент, 2003. -23 б.
12. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми - XX аср биринчи чораги). –Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2007. – 388 б.
13. Becker S. Russian protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865-1924. – Cembrige, 1968. -416 p.; Roche J. Hisatory and background of cotton//The International Cotton Trade, 1994. – P.1-22.;
14. Юсупов П. Х . Ёш хиваликлар (Хотиралар)... - Б. 199-200.
15. Ражабов К,- Хоразм Халқ Совет Республикаси // Ўзбекистон миллий энниклопедияси. Т. 9. - Тошкент: УзМЭ нашриёти, 2005. - Б. 483.
16. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузуридаги Ўзбекистоннинг энг янги тарихи масалалари бўйича мувофиклаштирувчи-методик марказ архиви (Российской государственной архив социально-политической истории, ф. 5, on. 1, д. 2912, лл. 5 — 6)
17. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузуридаги Ўзбекистоннинг энг янги тарихи масалалари бўйича мувофиклаштирувчи-методик марказ архиви (Российской государственной архив социалъно-политеческой истории. ф. 5. on. 1. д. 2912. лл. 2 - 3) .
18. Ражабов Қ. Бухоро ва Хоразм Республикалари: давлатчиликнинг демократик шакли // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. -Тошкент: «Шарқ». 2001. -Б. 190-191.
19. Погорельский И. В. Истории Хивинской Революции в Хорезмской Народной Советской Республики (1917 — 1924 гг.). - Ленинград: 1984.- С . 123.
20. История Хорезмской Народной Советской Республики. Сборник документов. — Ташкент: «Фан», 1 976.-С . 101.
21. История Хорезмской Народной Советской Республики... — С. 101.
22. Погорельский И. В. Истории Хивинской Революции в Хорезмской Народной Советской Республики (1917 - 1924 гг.).-Ленинград: 1984.- С . 121.
23. ЎзМА, 73- фонд, 1- рўйхат, 67 -иш, 13-варақ.
24. ЎзМА, 73- фонд, 1- рўйхат, 67 -иш, 21-варақ.
25. Съезды Советов Союза ССР Союзных и Автономных Советских Социалистических республик, Т. II. Москва, 1960. –С. 503-508.
26. ЎзМА, 73- фонд, 1- рўйхат, 12 -иш, 108-варақ.
27. ЎзМА, 71- фонд, 1- рўйхат, 164 -иш, 53-варақ.
28. ЎзМА, 72- фонд, 37- рўйхат, 20 -иш, 14-варақ.
29. ЎзМА, 71- фонд, 1- рўйхат, 4 -иш, 3-варақ.
30. ЎзМА, 74- фонд,20- рўйхат, 1 -иш, 8-варақ.
31. ЎзМА, 71- фонд,1- рўйхат, 28 -иш, 154-варақ.
32. «Инқилоб куёши», 1922 йил 5 апрель.
33. ЎзМА, 73- фонд, 1- рўйхат, 8 -иш, 4-варақ.
34. ЎзМА. 2027- фонд, 1- рўйхат, 26-иш. 4-варақ
35. ЎзМА, 73-фонд, 1-рўйхат, 8-иш, 3-варақ.
36. ЎзМА, 73-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 33-варақ.
37. ЎзМА, 73-фонд, 1-рўйхат, 20-иш, 33-варақ.

38. ЎзМА, 73-фонд, 1 -рўйхат, 20-иш, 34 -варақ.
39. Погорельский II. В. Истории Хивинской Революции в Хорезмской Народной Советской Республики (1917 — 1924 гг.). - Ленинград: 1984.- С . 164.
40. ЎзМА, 73-фонд, 1-рўйхат, 4-иш, 33-варақ.
41. ЎзМА, 73-фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 24-варақ
42. ЎзМА, 73-фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 24-варақ
43. ЎзМА, 73-фонд, 1-рўйхат, 34-иш, 7-варақ
44. ЎзМА. 7 3-фонд, 1-рўйхат, 81-иш, 4 - 8-варақлар.
45. ЎзМА. 7 3-фонд, 1-рўйхат, 14-иш, 13-варақлар.
46. ЎзМА. 73-фонд, 1-рўйхат, 34-иш 17-варақ.
47. ЎзМА, 73-фонд, 1-рўйхат, 36-иш, 53-варақ.
48. ЎзМА, 73-фонд, 1-рўйхат, 8-иш, 8-варақ
49. ЎзМА, 73-фонд, 1-рўйхат, 67-иш, 21-варақ

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Ilhomov Kamron
Abu Rayhon Beruniy nomidagiUrganch davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix yo`nalishi talabasi
e-mail:Komronbekilhomov750@ gmail

DUNYOVIY DAVLATCHILIK KONSEPSIYASI VA UNING TARIXIY JIHATLARI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

REZYUME

Ushbu maqolada dunyoviy davlatchilik konsepsiyasi va uning tarixiy jihatlari, tarixiy jarayonlarda dinning ijtimoiy tabiati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: dunyoviylik, din, siyosat, referendum, konseptual, inkvizitsiya.

Kirish. Tarixdan ma’lumki, davlatning dunyoviyligi jamiyat va din o‘rtasidagi munosabatlarning ikkinchi asosiy tamoyili sifatida uzoq vaqt davomida konseptual jihatdan shakllangan va, ehtimol, hali tugallanmagan. Sivilizatsiya tarixida birinchi marta Fransiya XVIII asr oxirida o‘zining dunyoviyligini rasman e’lon qildi. Buyuk inqilobdan so‘ng Fransiya hukumati yangi davlatning dunyoviy (sekulyar) xarakterini e’lon qilib, avvalgi siyosat va din o‘rtasidagi munosabatlar tizimidan voz kechdi. Biroq, agar XVIII asr uchun bunday hodisa istisno va inqilobiy yangilik bo‘lgan bo‘lsa, unda zamonaviy sharoitlarda dunyoviylik davlatning dinga nisbatan pozitsiyasining sivilizatsiyalashgan normasiga aylandi. Bugungi kunda dunyoviy davlatning huquqiy tamoyillari Rossiya, Fransiya, Angola, Ozarbayjon, Kamerun, Kongo, Hindiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Mali va boshqa mamlakatlar konstitutsiyalarida e’lon qilingan. 2023-yilning 30- aprel kuni bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumida O‘zbekiston ham konstitutsiyaviy darajada dunyoviy davlat deya e’lon qilindi.

Ayrim davlatlarning konstitutsiyalarida bevosita bu borada bayonot bo‘lmasada, lekin diniy bo‘lmagan tabiat va xarakterli davlat tizimi haqida so‘z boradi. Biroq, an’anaviy ravishda dunyoviy deb hisoblangan davlatlar ro‘yxati ancha kengroq. Bu odatda Yevropaning aksariyat mamlakatlari, AQSh, Kanada va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Biroq, agar dunyoviylikni e’lon qilish bugungi kunda zamonaviy mamlakatlarda umume’tirof etilgan normaga aylangan bo‘lsa, unda dunyoviylik tamoyilining siyosiy mazmunini tushunish hech qanday aniq emas.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Ilmiy doirada dunyoviylikning ta’rifiga berilgan talqinlar va yondashuvlarning tarqoqligini kuzatamiz. Ye.Yu.Barxatova, P.N. Dozorsev, Yu.D.Kazanchev, V.D.Karpovich, Ye.I.Kozlova, O.E.Kutafin, A.V.Malashenko, G.D.Sadovnikova, M.B.Smolenskogo, Yu.I.Stesovskogo, V.I.Chervonyuk, V.E.Chirkina kabi mashhur tadqiqotchilar dunyoviy davlatchilik konsepsiyasi va uning tarixiy jihatlari haqida o`z asarlarida fikr bildiradilar.

Dunyoviylikni har tomonlama tahlil qilish va ilmiy ta’rif berishga qaratilgan jiddiy urinishlardan biri **I.V.Ponkin**ni e’tirof etish lozim. U o‘z tadqiqotlari va monografiyalarida [1] to‘g‘ri ta’kidlaganidek, ko‘pchilik zamonaviy asarlarda dunyoviylikning faqat ayrim jihatlari talqin qilinishi, ko‘pincha bir-biriga qarama-qarshi bo‘lib, ularning “mohiyati va ma’nosi”ni oydinlashtirmaydi.

Yu.A.Nisnevich ta'kidlaganidek, ko'pincha dunyoviylik haqidagi munozaralarda ba'zi ishtirokchilarining haqiqiy manfaatlari va maqsadlari ma'naviyat va axloq haqidagi bahslarning "tutun pardasi" ostida yashiringan bo'ladi [2].

K.Russele shunday ta'kidlaydi: "Aniq konstitutsiyaviy me'yorlarga qaramay, dunyoning bip qator mamlakatlarida "dunyoviylik" tushunchasi shu qadar noaniqki, diniy va siyosiy arboblar uni o'z maqsadlari va manfaatlariga qarab talqin qiladilar" [3].

V.A.Kikotning yozishicha, dunyoviylik "davlat tomonidan diniy tashkilotlar xatti-harakatlari, diniy qoidalar va boshqalarning har kim uchun majburiy bo'lgan huquq manbalari sifatida tan olmasligida ifodalanadi" deya ta'kidlaydi. **S.V.Fomina** shuningdek, dunyoviy davlatda "diniy dogmalar va qonunlar huquq manbalari sifatida tan olinmaydi" [4], deb ta'kidlaydi.

S.Fomina shunday deb yozadi: "Dunyoviy davlatning asosiy tamoyili va asosiy kafolati cherkov (diniy tashkilotlar)ni davlatdan ajratishning huquqiy rejimini qonunchilik bilan mustahkamlashdan iborat" [5].

Taniqli tarixchi va senator **A.F. Koni**: "... siyosat va e'tiqod uyg'unligi har doim salbiy oqibatlarga olib kelgan. Cherkov siyosatni o'ziga bo'ysundirgan joyda, biz uning nimaga aylanishini bilamiz: u inkvizitsiyaga aylanadi; Siyosat cherkovni bo'ysundiradigan joyda - u yerda cherkov politsiya institutiga aylanadi va e'tiqodni himoya qilish uchun politsiyachi xizmatini bajaradi..." [6], deya talqin qilgan edi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Shulardan kelib chiqib, quyidagicha metodologik yo'l paydo bo'ladi. Tarixiy tahlilda dunyoviylik mezonlari sifatida xalqaro huquqda vijdon erkinligi va qonun ustuvorligi kontekstida inson huquqlari tamoyillariga mos keladigan belgilarni ko'rib chiqish mumkin.

Albatta, dunyoviylik jamiyatning o'ziga xos muhim tamoyili sifatida ancha kengroqdir, u faqat konstitutsiyaviy-huquqiy tahlil doirasidagidan ko'ra chuqurroq tushunishni talab qiladi. "Dunyoviylik qonunlarga bog'liq emas, bu ma'lum bir "ong va axloq sivilizatsiyasi" mavjudligini anglatuvchi tarixiy davrning o'ziga xos ruhidir, bu bizni har qanday ajralib turadigan narsaga qaramay birga yashashga undaydi". Biroq, konseptual tarixiy ifoda aynan "davr ruhi"ni anglatadigan huquqiy me'yorlar bo'lib xizmat qiladi.

Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, dunyoviy davlatchilik konsepsiyasi va uning tarixiy jihatlari, mafkuraviy plyupalizm belgilari aslida dunyoviylikning ajralmas qismlari emas. Shubhasiz, haqiqiy dunyoviy davlatda bu belgilar mavjud bo'ladi, u avvalo davlatning dunyoviyligi uchun emas, balki uning huquqiy va demokratikligi asoslarga tayanishi uchun ham bo'lishi shart.

Bizningcha, davlatning dunyoviylik tamoyilini tahlil qilishda davlatning diniy emasligi, davlatning dindan ajralib turishi kabi belgilarga e'tibor qaratish lozim.

Dunyoviy davlatda hokimiyat o'z legitimligini diniy dogmalarga asoslamaydi. Dunyoviy hokimiyat uchun, ayniqsa, demokratik davlatda uning mavjudligining asosi xalqning umumiy saylovlarda ifodalangan iroda erkinligidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7 moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai" [7]ekanligi alohida e'tirof etiladi.

Davlat qonunlarining ko'pgina normalari va tamoyillari ma'lum darajada diniy postulatlar bilan mos kelishi va hatto ba'zi tarixiy aloqalarga ega bo'lishi mumkinligiga qaramay, dunyoviy huquqni asoslash diniy emas, balki boshqa manbalarga tayanishi lozim.

Davlat dunyoviyligining yana bir muhim elementi shundan iboratki, din davlatning siyosiy mafkurasini belgilamaydi va unga ta'sir qilmaydi. Bu davlatning ma'lum bir mafkuraviy neytralitetini nazarda tutadi. "Dunyoviy davlat – mafkuraviy (shu jumladan konfessiyaviy jihatdan) neytral bo'lgan, birorta mafkuraviy tizim yoki dinni o'zining rasmiy mafkurasi sifatida umum qabul qilmaydigan, o'zini hech qanday diniy majburiyatlarga bog'lamaydigan va fuqarolariga erkin mafkuraviy tanlash imkonini beradigan davlatdir" [8]. Shuningdek, ayrim olimlar "dunyoviylik" tamoyiliga quyidagi talqinni ham bildirishadi: "Bu davlatning mafkuraviy jihatdan neytral ekanligini, hech qanday mafkurani tubdan qabul qilmasligini bildiradi. Ommaviy nuqtai nazardan farqli o'laroq, davlatning dunyoviyligi uning ateizmini anglatmaydi, ya'ni e'tiqodli fuqarolarning diniy birlashmalari manfaatlarini hisobga olmasdan davlat-konfessiyaviy munosabatlar tizimini qurishi" hisoblanadi. "Bu shunday prinsipial neytralitetki", deb yozadi **I.V.Ponkin**, har qanday

diniy yoki mafkuraviy hukmronlikdan tashqarida bo‘lgan davlat va fuqarolarning jamiyatini aks ettiradi” [9]. Biroq, dunyoviylik siyosatda nafaqat diniy mafkuraning "hukmronligi"ni istisno qiladi, balki turli dogmalarning hokimiyatning mafkuraviy dasturlariga har qanday ta’sirini istisno qilishga intiladi.

Dunyoviy davlat ruhi diniy e’tiqodli siyosatchilar va diniy yetakchilarni o‘z ijtimoiy qarashlarini omma oldida namoyish etmasligi bilan tavsiflanadi. **Yu.A.Nisnevich**ning so‘zlariga ko‘ra, rahbarlarning o‘z qarashlari va afzalliklarini omma oldida namoyish etishi "himoya funksiyasidan foydalanish va hokimiyatni saqlab qolish uchun avtoritar tendensiyadan foydalanish uchun mo‘ljallangan populistik siyosiy qurilma" [10] bo‘lishi mumkin. Shu bois, u dunyoviy davlatda “ruhoniylarning jamiyat va davlat faoliyatiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatishning protsessual imkoniyatlarini isticno qilish va dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishni taqiqlash kerak” degan to‘g‘ri xulosaga keladi.

Diniy tashkilotlar va diniy yetakchilarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan ajratish rejimining buzilishi hokimiyatning klerikalizatsiya jarayonlariga olib keladi. Natijada din va siyosatning qorishish darajasi oshib, turli salbiy jarayonlar paydo bo‘ladi. Ana shunday oqibatlardan biri alohida konfessiyalar rolining kuchayishi va dinlararo munosabatlar muvozanatining izdan chiqishidir. Bunday sharoitda diniy ozchiliklar noqulay ahvolga tushib qolishadi, bu esa tarixiy nuqtai nazardan ijtimoiy keskinlikka olib keladi.

Davlat tadbirlarini har qanday diniy urf-odatlar va marosimlar bilan birga olib borish boshqa omil – jamiyatning sakrallashuviga olib keladi, bu ham o‘zlarini rasmiylar tomonidan qabul qilingan marosim amaliyoti shakllari bilan bog‘lamaydigan konfessiya vakillarining noroziligiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, norozilik kayfiyatining katalizatori paydo bo‘ladi va jamoatchilik keskinligi kuchayadi.

Dinni xalq ta’limidagi ishtirokdan ajratish masalasi alohida ko‘rib chiqilishi kerak. Ayrim tadqiqotchilarning ajralish tamoyilini o‘zining haqiqiy ma’no-mazmunini yo‘qotgan deb qayta talqin qilishga urinishlari mutlaqo asossiz ko‘rinadi. I.V.Metlikning pozitsiyasi indikativ bo‘lib, uning o‘ziga xos tadqiqot yo‘nalishi maktablarda dinni o‘qitish jarayoniga e’tibor qaratadi. Xususan, Rossiya qonunchiligi haqida gapirar ekan, u shunday yozadi: “Konstitutsiyada davlatning din yoki dindan ajratilishi yo‘q. Umuman olganda, davlatning dindan ajralishi uning falsafa, san’at yoki fandan ajralishi kabi g‘alati narsadir” [11]. Bunday mantiqda aniq qonuniy asos mavjud emas. To‘g‘rirog‘i, bu erda ta’limni diniy mafkuralashtirishning ilmiy asoslarini yaratish istagi paydo bo‘lishi yotadi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Tarixiy ijtimoiy jarayonlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, siyosat va din har doim o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan va parallel shaklda rivojlanib kelgan. Din asosan jamiyat aholisining ma’naviy extiyojini qondiruvchi g‘oyaviy paradigma bo‘lsa, siyosat insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va hokimiyat bilan bog‘liq extiyojlariga xizmat qiluvchi normativ omil bo‘lib xizmat qilgan.

Zamonaviy sharoitda din va siyosatning yaqin munosabati, shuningdek, muayyan ijtimoiy tizimining instituti sifatida o‘ziga xos bo‘lgan barcha asosiy atributlar bilan tavsiflanadi.

Din yoki e’tiqodlar erkinligini qo‘llash sohasini aniqlash uchun tayanch nuqta o‘z dini yoki e’tiqodini o‘zi belgilash bo‘lishi kerak, garchand shuni ta’kidlash lozimki, davlat idoralari, shubhasiz, mazkur tushunchalarni muayyan vaziyatlarda qo‘llash mumkinligini aniqlash uchun ayrim xolis, rasmiy mezonlardan foydalanish bo‘yicha vakolatlarga egadir.

- Xulosa (Conclusion).

Xulosa qilib, quyidagilarni alohida ta’kidlash mumkin. Zamonaviy jahon hamjamiyatida shakllangan demokratik qadriyatlar tizimini tushunish ikkita asosiy tamoyilni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi: vijdon erkinligi va davlatning dunyoviyligi, ulap qonun ustuvorligi prinsipi bilan birgalikda siyosat va din o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirishning asosiy tushunchalari hisoblanadi. Davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarga huquqiy yondashish vijdon epkinligi va davlatning dunyoviyligini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda, demokratik jamiyatda diniy munosabatlar munosabatlar mexanizmining uyg‘un ishlashi uchun konfessiyalarning teng pozitsiyasi tamoyilini qo‘llash zarurati haqida gapirish juda mantiqiy ko‘pinadi. Hokimiyat u yoki bu diniy tashkilotning xizmatlariga alohida e’tibor qaratmasligi kerak, “asosiysi qonunlarga rioya qilish, dindorlar yoki dinsizlar huquqlarini bir hilda hurmat qilishdir”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Понкии И.В. Правовые основы светскости государства и образования. - М. 2003; Понкин И.В. Современное светское государство: конституционно-правовое исследование: Дис. ... докт. юрид. наук: - М., 2004; Понкин И.В. Современное светское государство: конституционно-правовое исследование. — М. 2005
[2]. Нисневич Ю.А. Светское государство: проблемы политико-правовой концептуализации // под ред. А.Малашенко и С.Филатова. - С. 131.
[3].Русселе К. Принцип светскости в России: столкновение норм и ценностей // Религия и светское государство. Принцип laicite в мире и Евразии. - М.: Франко - российский центр гуманитарных и общественных наук в Москве, 2008.-С. 167.
[4]. Юридическая энциклопедия / Отв. ред. Б.Н. Топорнин. - М.: Юристь, 2001. - С. 972
[5]. Юридическая энциклопедия / Под ред. Б.Н. Топорниа. - С. 972.
[6]. Булгаков А.Г. «Святая инквизиция» в России до 1917 года. -М.: ООБО «Тавифа», 2006.-С.225.
[7]. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси // https://constitution.uz/uz/clause/index#section2
[8]. Мозговой С.А. Светское как мировоззренчески нейтральное / Материалы ежегодной научной конференции Соркинские чтения. «Актуальные проблемы социологической науки и социологической практики». - М., 2002. 17-18 дек.
[9]. Понкин И.В. Современное светское государство: конституционно-правовое исследование. - С. 102.
[10]. Нисневич Ю.А. Светское государство: проблемы политико-правовой концептуализации // под ред. А.Малашенко и С. Филатова. - С. 140.
[11]. Метлик И.В. Преподавание в школе истории религий и религиозных культур в контексте введения ФГОСобщего образования второго поколения // Вестник московского образования». - 2011, №13. - С.290-320.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Xasanov Zafar Baxtiyorovich
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Ingliz tili 2-fakulteti yoshlar masalalari va
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA FUTBOL MUHLISLARI NUTQINING XUSUSIYATLARI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola futbol muxlislari nutqining lingvistik tahlilini sport diskursining muhim qismi sifatida o'rganadi. Futbol muxlislari nutqi sport diskursining alohida janrini tashkil etib, nafaqat jamoa va o'yin haqida suhbat quradi, balki ijtimoiy va madaniy nuqtai nazarlardan ham o'z ifodalarini topadi. Maqolada futbol muxlislari nutqining strukturaviy-semantik xususiyatlari, shuningdek, uning emotsional-ekspressiv komponentlari alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu tahlil futbol muxlislari nutqining ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ochib beradi va uning boshqa sport diskursi turlaridan ajralib turadigan o'ziga xosligini ko'rsatadi..

Kalit so'zlar: Muxlislar nutqi, sport diskursi, interdiskursivlik, milliy xarakter, stadion nutqi, onlayn diskurs, futbol madaniyati, futbol metaforalari

---

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена лингвистическому анализу речи футбольных болельщиков как важной части спортивного дискурса. Речь футбольных болельщиков представляет собой отдельный жанр спортивного дискурса, который не только касается разговоров о команде и игре, но и находит выражение с точки зрения социальных и культурных аспектов. В статье особое внимание уделяется структурно-семантическим особенностям речи болельщиков, а также её эмоционально-экспрессивным компонентам. Этот анализ раскрывает социально-культурное значение речи футбольных болельщиков и демонстрирует её уникальность, отличающую её от других видов спортивного дискурса.

Ключевые слова: Речь болельщиков, спортивный дискурс, интердискурсивность, национальный характер, речь на стадионе, онлайн-дискурс, футбольная культура, футбольные метафоры.

ANNOTATION

This article focuses on the linguistic analysis of football fans' speech as an important part of sports discourse. Football fans' speech forms a distinct genre within sports discourse, not only engaging in discussions about the team and the game, but also finding expression from social and cultural perspectives. The article pays special attention to the structural-semantic features of fans' speech, as well as its emotional-expressive components. This analysis reveals the socio-cultural significance of football fans' speech and demonstrates its uniqueness, distinguishing it from other types of sports discourse.

Keywords: Fans' speech, sports discourse, interdiscourse, national character, stadium speech, online discourse, football culture, football metaphors.

Sport diskursi pragmatik jihatdan ko‘plab yashirin funksiyalarni bajaradi: bir tomondan u voqealarni tasvirlasa, ikkinchi tomondan ijtimoiy birlik va emotsional birdamlikni shakllantiradi. Mazkur nazariya futbol muxlislari nutqi tahlilida ularning qichqiriqlari, shiorlari yoki internetdagi fikrlarini diskursiv-pragmatik kuchga ega kommunikativ akt sifatida izohlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sport diskursini pragmatik tahlil qilishda uchta asosiy yo‘nalishni ajratadilar: 1) institutsional kontekst (masalan, matbuot anjumanlari, sharhlar), 2) shaxsiy kommunikatsiya (mashq jarayonidagi murabbiy va futbolchi nutqi), 3) auditoriya diskursi (muxlislar va jamoatchilik muloqoti). Futbol muxlislari nutqining lingvistik tahlili sport diskursining muhim qismi sifatida qaralganda, bu soha tilshunoslik paradigmasida yangi yo‘nalishlarning shakllanishiga olib kelmoqda. A.B. Zilbertning ta’kidlashicha, “sport diskursini sportga mansub deb hisoblash uchun aloqaning uch elementidan – subyekt, manzil va muloqot mazmunidan – mazmun yetarli”. Shu nuqtai nazardan, futbol muxlislarining nutqi ham sport diskursining tarkibiy qismi sifatida qaraladi, chunki ularning suhbatlari to‘p o‘yini, jamoa, hakamlik yoki futbolchilarning faoliyati haqida bo‘ladi. Mazkur yondashuv aynan muxlislar nutqining o‘ziga xos tabiatini ochib beradi, chunki ular nafaqat oddiy tomoshabinlar emas, balki ijtimoiy-diskursiv amaliyotning faol ishtirokchilari hisoblanadi.

E.G. Malyshevaning asarida ko‘rsatilganidek, sport diskursi nafaqat terminologik tizim, balki murakkab konseptual makon sifatida qaralmokda. Bu yondashuv futbol muxlislari nutqini tadqiq etishda ham qo‘llanilishi mumkin, chunki muxlislar nutqi o‘ziga xos konseptual dominantlarga ega va sport diskursining alohida janrini tashkil etadi. Bundan tashqari, E.G. Malyshevaning ta’kidlashicha, sport kommunikatsiyasini o‘rganish “sport faoliyati va uning diskurslardagi obyektivatsiyasi orqali bizning mental xususiyatlarimiz, ’o‘zlar’ va ’begonalar’ haqidagi tasavvurlarimiz, vatanparvarlik, milliy xarakter, asosiy mafkuraviy va siyosiy qadriyatlar qanday aks etishini tavsiflashga olib keladi”. Ushbu fikr aynan futbol muxlislari nutqining ijtimoiy-madaniy ahamiyatini urg‘ulab, uni oddiy kommunikativ amaliyotdan ko‘ra kengroq ijtimoiy hodisa sifatida tushunish zarurligini belgilaydi.

K.V. Panteyeva ta’kidlanganidek, “sport diskursi uchun mass-media, shaxsiy, siyosiy va reklama diskurs turlari bilan kesishishlar eng muhim hisoblanadi”. Futbol muxlislari nutqida bu interdiskursivlik yanada yorqin namoyon bo‘ladi, chunki muxlislar nutqi ko‘pincha sport, siyosiy, ijtimoiy va hatto diniy diskurslarning elementlarini o‘zida mujassam etadi. Mazkur interdiskursiv xarakter aynan zamonaviy muxlislar nutqining murakkabligini belgilaydi.

K.File va hamkasblar tomonidan ta’kidlanganidek, futbol tili va diskursining o‘rganilishi turli lingvistik yo‘nalishlardan foydalanishni nazarda tutadi: rasmiy, funksional, ijtimoiy-konstruktivistik, interfaol va amaliy. Bu fikrni shunday izohlash mumkinki, futbol tilini tahlil qilishda uni faqatgina bir yo‘nalish orqali emas, balki turli metodologik yondashuvlar yordamida ko‘rib chiqish zarur. Masalan, rasmiy yondashuv terminlarning shakllanishi va me’yorlash jarayonini tahlil etsa, funktsional yondashuv ularning matn va nutqda qanday vazifani bajarishini ochib beradi. Ijtimoiy-konstruktivistik yondashuv futbol tilining jamiyatdagi o‘rnini va ijtimoiy identitet yaratishdagi rolini ko‘rsatadi. Interfaol yondashuv muxlislar, futbolchilar va sharhlovchilar o‘rtasidagi muloqotning qanday qurilishini tahlil qiladi, amaliy yondashuv esa bu birliklarning kommunikativ samaradorligi va qo‘llanishdagi qulayligini baholashga qaratiladi.

Futbol muxlislari nutqining strukturaviy-semantik xususiyatlarini tahlil qilishda N.N. Kislitsina va E.A. Novikova tomonidan ishlab chiqilgan janriy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning “Sport diskursi janrlari: lingvokognitiv aspekt” asarida qayd etilganidek, sport diskursi maxsus janr-uslubiy va lingvomadaniy xarakteristikalarga ega. Shunga o‘xshash, futbol muxlislari nutqi ham o‘ziga xos janriy xususiyatlarga ega bo‘lib, sport analitik maqolasi, sport intervyusi va sport sharhidan farqli ravishda, emotsional-ekspressiv komponent bilan ajralib turadi. Mazkur janriy farqlanish aynan muxlislar nutqining o‘ziga xos pragnmatik vazifalarini belgilaydi va

uni boshqa sport diskursi turlaridan ajratib turuvchi muhim xususiyat hisoblanadi. Biroq, bu janr tasnif asosan g‘arb materiali asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘zbek muxlislari nutqining madaniy-til xususiyatlarini to‘liq qamrab olmaydi.

Shuni ta’kidlash joizki, stadion ichidagi “qizish” faqat emotsional fon emas, balki leksik-semantik va sintaktik tanlovlarni yo‘naltiruvchi diskursiv resursdir. R.Penn tomonidan taklif etilgan yondashuv bo‘yicha, “futbol suhbati” haqida sotsiologik nuqtai nazardan yozilgan ishlarda ham sport nutqi ijtimoiy me’yoriylik va “o‘yin timsoli” o‘rtasida doimiy dialektik taranglikda talqin etiladi; “futbol tili” axborot uzatishdan tashqari hamjihatlik, pishiq pragmatika va tezkor baho mexanizmlarini ham tashiydi. Shu jihatdan qaraganda, muxlis nutqini o‘rganishda “vaziyatga javob” beruvchi birliklarni (undovlar, baholovchi sifatlar, imperativlar) alohida belgilash kerak bo‘ladi, chunki aynan ularda stadion muhitining lisoniy ta’siri eng yaqqol namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Пантеева К.В. Интердискурсивность и особенности ее проявления в спортивном дискурсе // Вопросы журналистики, педагогики, языкознания. – 2020. – Т. 39. – № 2. – С. 289.
2. File K., File K., Callies M., Fleischhacker M. The language and discourse(s) of football. Interdisciplinary and cross-modal perspectives: introduction to the thematic issue // Soccer & Society. – 2023. – P. 925.
3. Кислицына Н.Н., Новикова Е.А. Жанры спортивного дискурса: лингвокогнитивный аспект. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2020. – С. 5.
4. Hill M.J. Catching Stray Balls: Football, fandom, and the impact on digital discourse // Proceedings of the 9th Workshop on Online Abuse and Harms (WOAH). – 2025. – P. 192.
5. Губарев В.В. Диалоги о спорте в структуре русского интернет-текста: дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2013. – С. 156.
6. File K., Worlledge T. Fan identity and football culture: locating variation in the discursive performance of football fan identities in a UK stadium // Soccer & Society. – 2023. – P. 8-12.
7. Щитов А.Г. Болельщики и фанаты как феномен спортивного дискурса // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2013. – № 8 (26), ч. I. – С. 212-213.
8. Fatoni N.R., Santosa R., Djatmika. The interpersonal meaning of mocking chant to football players by English Premier League supporters // LiNGUA. – 2020. – Vol. 15. – № 1. – P. 9.
9. Щитов А.Г. O‘sha asar. – C. 213.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Наврузов Сапарбой
доцент по кафедры История
университета Маъмуна

ПУТЕШЕСТВЕННИКИ И УЧЕНЫЕ О ВНУТРЕННЕЙ И ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛЕ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА XIX—НАЧАЛА XX ВЕКА (Историография проблемы)

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

АННОТАЦИЯ

Мақола сайёҳ ва олимларнинг хонлик ички ва ташқи савдо муносабатларига бағишланган тадқиқотларидаги тарихшунослик муаммоларига бағишланади.

Калит сўзлар: иқтисодий муносабатлар, бозор савдоси,пул белгилари,савдогар, савдо моллари, нарх, савдо карвони,ярмарка, ботмон,пуд, мануфактура.

АННОТАЦИЯ

статья посвящена историографическим проблемам в исследованиях путешественников иисследователей внутренней и внешней торговли Хивинского ханства.

Ключевые слова: экономические отношение,рыночная торговля, денежные знаки, купец, торговые изделия, торговая ярмарка, торговый караван, батман, пуд , макуфактура.

ANNOTATION

The article is devoted to the issues of historiography in the research of travel scholars on internal and external trade relations of the Khanate.

Key words: economic relations, market trade, money signs, merchant, trade goods, trade caravan, trade fair, botman, pud, manufacture

Путешественники и исследователи, характеризуя экономику Хивинского ханства, хотя не посвятили вопросам торговли специальных работ, тем не менее в большинстве своем не обошли этой темы. Так, Н. Муравьев отмечал: «Торговля ханства весьма незначительна, она состоит в продаже разного хлеба и мелочных изделий, по разным торжищам, устроенным в ханстве, и покупке невольников. В ханстве воспрещено производить ежедневные торги на одних и тех же местах. Хан назначил особенные дни для общей торговли, по разным местам своего владения, на которые деятельные обитатели Ургенча и других городов вывозят для продажи часть товаров своих» [1].

Есть и иные аналогичные сообщения других очевидцев: Внутренняя торговля ханства незначительна: она почти исключительно находится в руках сартов и производится во всех городах в определенные базарные дни, ограничиваясь обменом сырых произведений и домашних изделий». [2]

Характеризуя внутреннюю торговлю ханства, В. Лобачевский утверждал, что «она состоит из обмена с помощью денежных знаков произведений сельского хозяйства на произведения фабрично-заводского производства. Этот обмен производится на множестве по

оазису базаров, который имеет совершенно мелочный характер, как со стороны местных жителей, так и со стороны постоянно живущих в пункте базара купцов». [3]

По словам же М. Иванина, «торговля составляет для хивинцев не менее важный способ существования. Торгуют почти все достаточные люди, и особенного купеческого сословия там нет». [4]

Согласно имеющимся сведениям, города ханстна по традиции были местом размещения базаров, которые играли важную роль на социально-экономической жизни населения.

Н. Муравьев, описывая состояние торговли в ханстве, отмечал: «Сии торговые сборища во всем уподобляются небольшим нашим сельским ярмаркам. В пяти главных городах сего ханства бывают также еженедельные торги. В самой Хиве они бывают по понедельникам и по пятницам. Право на сии торговые сходбища дается сверх того ханом, в тех местах, где больше населения; тут строятся наподобие шалашей лавки, за наем коих хозяин получает малую плату от купцов, с которой обязан он однако же. платить известную подать хану». [1]

Характеризуя понятие «базар», очевидец приводит следующие сведения: «Даже в тех местах, где живут только кочевники и нет ни одного дома, из нескольких мазанок устраивается рынок «базарликжай», — для ярмарки, которая носит характер празднества. Среднеазиатец не дорожит своим временем, часто приезжает на ярмарку за 20 и за 30 верст, чтобы купить там несколько иголок или других мелочей». [5]

Надо заметить, что именно на базарах определялись цены, согласно которым заключались торговые сделки. Об этом говорят сведения, сообщенные очевидцами. «В каждом местечке учреждены базары — сообщает один из них —Предметы торговли суть: рогатый скот, верблюды, лошади и бараны, разного рода хлеб, халаты, шелковые и бумажные ткани, одежда, порох, заступы и земледельческие орудия, двухколесные повозки, седла и конский прибор, суда, лес, уголь, соль и прочие» [6]

Из сказанного следует, что на базары в городах ханства поступали излишки продукции земледелия, а также разнообразные изделия ремесленников. Это подтверждают и сообщения Н. Муравьева: «На сии торжища вывозят обитатели ханства избыток своих домашних изделий, на них покупают туркмены пшеницу и всякого рода хлеб, в обмен же привозят невольников» [1].

Следует заметить, что в середине к особенно во второй половине XIX в. существенно возросло значение некоторых городов как центров торговли. Согласно сообщениям ученых и путешественников того времени, базары в Хиве. Новом Ургенче, Хазараспе, Ташауз, Куня-Ургенч, Кунграде, Чимбае считались наиболее крупными в ханстве, где велась оживленная торговля.

Есть множество сведений, подтверждающих что Новый Ургенч, как центр торговли особо выделялся среди городов южной части ханства, притягивая к себе сельхозпродукты не только из округи, но и с правобережья, а также продукцию кочевого населения.

«Новый Ургенч сделался средоточием их промышленности и представляет необыкновенную живость, — отмечал Н. Муравьев — в бесчисленных лавках всего обширного и многолюдного города все роскошные, богатые и драгоценные изделия, собранные со всех стран Востока, представляются взорам и ослепляют блестящим разнообразием и яркостью цветов своих. Здесь слышен вечный шум деятельности от бесчисленного собрания покупщиков и продавались изделия всех племен Востока и рева верблюдов, изгибающихся под тяжкими ношами товаров» [1].

«В Новом Ургенче замечателен его караван-сарай — писал Гиршфельд, — в котором помещается хивинская таможня и сосредоточивается на сотни тысяч всяких товаров» [7].

В трудах исследователей имеются сведения о том, что в городах северной части ханства также усиливались темпы роста торговых отношений. «Известен же Куня-Ургенч в настоящее время громадным базаром, где сосредоточена вся торговля туркмен Куня-Ургенчского оазиса. Туркмены везут продавать все свои изделия: ковры, кошмы, хуржумы,

пшеницу и пр. Осенью при особенно сильном приливе туркмен бывают базарные дни, в которые торговый дневной оборот доходит в нем до 20000 рублей»". [7]

Интересен рассказ о хивинских базарах А. Вамбери. «Для внутренней торговли в каждом городе каждую неделю бывает по одной и по две ярмарки, — пишет он, — даже в местностях, предоставленных исключительно йомудам, и где домов вовсе несуществует, есть места для базара (базарликджай), состоящего из одной или нескольких глиняных хижин. Ярмарки здесь имеют вид праздников. На них съезжаются за десять или двенадцать миль, чтобы купить несколько иголок и тому подобные пустяки, по в сущности всех влечет стремление показать себя и посмотреть люден, потому что в подобных случаях все являются на отличных лошадях, в самых лучших нарядах и увешанные самым лучшим оружием». [8]

Характерные сведения приводит В. Лобачевский: «На некоторых базарах оазиса замечается особенно большое скопление каких-либо особенных предметов торговли, которых на других базарах нет. Например: на базарах Чимбая в гор. Кунграда продается много скота и продуктов скотоводства. Гор. Ильялы считается главным базаром по продаже туркменских лошадей.

В ханстве важнейшие по годовому обороту пункты внутренней торговли: в южной части ханства — гор. Хива, в средней части — г. Ильялы, Куня-Ургенч — на севере в Ходжейли в Кунград»". [9]

Заслуживают внимания сообщения, касающиеся-рыночных цен на базаре г. Хивы в 1848 г. «На базаре в Хиве, — пишет купец Абросимов, — продаётся все дешевле, чем у нас в России, так, например, баранины фунт стоит 5 коп., рыба белуга — 2 и 3 коп. Чурек — большая лепешка — 5 коп., и притом такой величины — одной достаточно одному человеку на один день. Пшеница за батман — 80 коп., рис за батман — 1, I р. 20 к.» [10]

Есть и другие данные относительно цен на базарах Хивы: «Цена верблюда — от 4 до 12 тиллей, 4—8 руб., батман пшеницы — от 60 коп. до I руб., джугары — от 40 до 80 коп., ячмень — от 40 до 60 коп., рис.— 2—3 руб., батман хлопка — 3— 4 руб., батман железа — от 8 до 10 руб., сошники простые — от 1 руб. до 1,5 руб., серпы — от 50 до 75 пуль»". [4]

Как сообщают дореволюционные исследователи, Хивинское ханство имело также оживленную торговую связь с соседями. Так, заслуживают внимания сведения. Н.Муравьева: «Хивинские купцы ездят большею частью за товарами в Бухарии, из коей получают собственно все и иностранные произведения; как-то различных родов выбойки, синюю бязь, пряденную хлопчатую бумагу, шелка, много родов шелковых и полушелковых материй, кашемировые шали, китайский фарфор, чай, шелковые кушаки, шерстяные изделия, бухарские черные мерлушки, табак и др. товары, из них некоторая часть остается в Хиве для собственного употребления жителей, остальное же количество вывозится в Россию через Оренбург и Астрахань». [1]

Приведенные сведения дополняли сообщения других исследователей. «С Бухарой торговля несколько оживленнее, — пишет очевидец — туда вывозятся халаты и полотно, а там покупается чай, пряные коренья, бумага». [5]

Торговые отношения ханства с Россией Н. Муравьев характеризовал так: «Хивинцы получали в обмен тонкие английские сукна, бархат, пряденое золото и серебро, иглы, бритвы, ножи, тонкий холст, зеркала, отчасти нищую бумагу, медь, свинец, медную, чугунную посулу и др. Торговлю с Россией они ведут обыкновенно, доставляя товары через Мангышлак в Астрахань или прямо через киргизские степи в Оренбург». [1]

Имеется и более конкретная информация относительно торговли Хивы с Россией. «Хивинские караваны числом от 1000 до 2000 верблюдов идут весною в Оренбург, а осенью в Астрахань, неся хлопок, шелк, кожи, халаты и плоды в Нижний Новгород, а берут оттуда котлы, чугунную посуду, ситец, преимущественно мебельный, идущий на женские платья и рубашки, сахар, сукно, железо, плохие ружья и некоторые галантерейные товары». [5]

Важно обратить внимание на сведения, относящиеся к первой половине XIX в., приводимые наблюдателем, который, обобщая торговый оборот ханства с Россией, утверждал, что «наибольшая цифра торговых оборотов выпадает на Россию, общий вывоз в

Хиву доходит до млн. рублей, а вывоз оттуда в Россию — около I млн. рублей,11 преобладающим предметом вывоза из Хивы служит хлопчатая бумага, свыше 500 тысяч рублей, а ввоза туда — сукна и бумажных тканей, последних на сумму около I млн. рублей». [5]

В трудах ученых того времени отмечаются усиление темпов роста торговли, особенно в конце XIX — начале XX в., в результате чего происходят ломка натурального хозяйства, развитие товарно-денежных отношений, усиление торговых связей ханства с соседями, особенно с Россией, а также с Бухарой.

М. А. Терентьев, анализируя торговые сношения Хивы с Россией в 60-х годах XIX в,, отмечает, что «в 1862 году из Хивы вывезено товаров в Россию на 75 000 руб., а завезено в Хиву товаров па 13 000 руб. В 1863 г. вывезено на 77 000 руб., а ввезено в ханство только на 3000 руб. товаров». [11]

Вот как выглядит картина хивинско-русского торгового оборота по сведениям М. А. Терентьева в последующие годы (руб:

Вывезено из Хивы в Россию товаров на:

Из приведенных данных следует, что торговый оборот между Хивой в Россией явно имел тенденцию к увеличению. Важно отметить, что среди товаров, ввозимых в Хиву из России, преобладали предметы фабрично-заводской промышленности. [11]

Ряд сведений российских исследователей дополняют наши представления о роли некоторых городов как торговых центров ханства. Заслуживают внимания в этом отношении сообщения А. Л. Куна: «Центральным рынком для внешней торговли ханства служит главным образом Новый Ургенч, а за ним Хива. Хивинские торговцы на среднеазиатских рынках называют себя Ургенджи». [12]

Сведения, приведенные В. Лобачевским, показывают, что среди товаров, ввозимых в ханство, преобладали промышленные изделия. «В 1909 году, — отмечал В. Лобачевский, — было вывезено в Хивинский район товаров 979 тысяч пудов па сумму 2556 тыс. рублей, в том числе 160 тыс. пудов мануфактуры, 150 тыс. пудов керосина, 105 тысяч пудов чугунных и железных изделий, 100 тыс. пудов деревянных изделии и леса. 60 тыс. пудов чая. Вывезено 1095 тыс. пудов на сумму 1398 тыс. руб., в том числе 500 тысяч пудов очищенного хлопка, 320 тыс. пудов семян люцерны, 125 тыс. пудов рыбы п 40 тыс. невыделанных шкур». [9]

Российские промышленные товары распространялись по всем уголкам Хивинского ханства.

В. Лобачевский отмечал также: «Вывозимые из Хивы хлопок и кожи идут в Москву и на Нижегородскую ярмарку, шерсть —в города Среднего Поволжья, семена люцерны и кишки — в Гамбург и далее в Северную Америку, ковры — в Турцию, коровье масло — в Баку, рыба — в Оренбург. Большинство предметов фабрично-заводской промышленности привозится из Московской промышленности и с Нижегородской ярмарки, сахар из Киева, зеленый чай из Бухары. Ашхабада, керосин из Баку, мука из Владивостока, юфтевая кожа из Оренбурга, строевой лес из Чарджуя». [9]

Небезынтересны данные О. А. Шкапского о ценах товаров на базарах ханства: «Цена пшеницы стоит от 75 до 90 коп., джугара — от 30 до 60, ячмень — от 60 до 80 коп., просо — от 32 до 80 коп., рис — от 80 коп. до 1 руб. 20 коп., маш — от 80 коп. до I руб. 20 коп., клевер — одна сотня снопов — от 1 руб. до 2 руб., кунджут — от 1 руб. 60 коп. до 3 руб. 20 кои. пуд.

Дешевы и орудия земледельческие: соха стоит 2 руб., а сошник па ней I руб., мала стоит 2 руб., лопата — 2 руб., серп — 40 коп., кетмень — 2 руб. 50 кои., арба или телега двухколесная — 54 руб.» [13]

Таким образом, многочисленные сведения о торговле, приведенные в трудах ученых и путешественников, содержат интересную информацию о развитии внутренней и внешней торговли Хивинского ханства в XIX — начале XX в. При этом немаловажно отметить, что растущий ввоз фабрично-заводских изделий вел к сокращению выпуска товаров местного ремесленно-кустарного производства, базировавшегося в основном на ручном труде.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Муравьев Н. Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного в сии страны для переговоров. Ч. II. М., 1822. С. 90.
2. Наши соседи в Средней Азии. Хива и Туркмения. Спб., 1873. С. 138.
3. Лобачевский В. Хивинский район: Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Ташкент. 1912. С. 90.
4. Иванин М. И. Хива и река Амударья. СПб., 1873. С. 44.
5. Хивинское ханство... С. 122.
6. Желябужский Е. Очерки завоевания Хивы. М,, 1875. С. 304.
7. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Ч. II. Ташкент, 1903. С. 131.
8. Вамбери А. Путешествие по Средней Азин. М., 1865. С. 170—171.
9. Лобачевский В. Хивинский район... С. 90—91.
10. Рассказ торговца Абросимова о поездке его в Хиву//Сын Отечества. 1871.№ 21.
11. Терентьев М. А. Россия и Англия в борьбе за рынки. СПб., 1876. С. 54.
12. Кун А. Л. Поездка по ХИВИНСКОМУ ханству в 1873 гг //Известия ИРГО. Т. X.1874 № I. С. 53.
13. Шкапский О.А. Как хивинцы ведут полевое хозяйство на своих безводных землях. М., 1900. С. 44.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

IQTISOD

Mirziyo Rayimberganov,
Academic Lyceum of Westminster
International University in Tashkent.

THE ECONOMIC IMPACT OF WHEAT USE AND EXPENDITURE AMONG WOMEN IN KHOREZM, UZBEKISTAN

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ABSTRACT

In the last several decades, wheat has been extremely significant to the economy and family life in Uzbekistan, particularly in the Khorezm region. Following the collapse of the Soviet Union, wheat was the second major grain next to cotton. This paper will focus on the impacts of wheat utilization on the finances of the women living in rural and urban households. To obtain information about how they use the wheat, the amount that they use as well as the sources of the same, we selected more than 30 women randomly and administered questionnaires to them at the local bazaars where the countryside and the city people meet. The findings of the study indicate that rural women consume a lot of wheat to prepare bread and other flour foods, unlike the urban women, who primarily purchase bread in bakeries and consume less wheat in their daily life. These disparities demonstrate the importance of wheat to households and indicate that local policies ought to reinforce the supply chains of wheat products and local markets.

Keywords: Wheat, Khorezm Region, Household Consumption, Economic Impact, Women, Rural vs Urban, Local Markets, Supply

Introduction

In Central Asia, wheat production is one of the most important things for almost all people because it is the main source of food in people's lives. In other words, people make flour and then, from flour, they might be able to make breads, cakes, and other meals that contain flour. For many centuries, most people have appreciated the significance of wheat and thus, they have tried to create larger fields and grow this necessary plant by looking after it. There are many countries in Central Asia, and among them, Uzbekistan is the largest consumer, with domestic demand around 8.5 million tonnes annually, according to the International Grains Council (IGC) [1]. Wheat production makes up the second place among other seeds in Uzbekistan, the first one is cotton. Uzbek people cultivate wheat in all regions of this country. Uzbekistan still imports part of its wheat supply, mainly from Kazakhstan. The government supports wheat producers through subsidies, irrigation systems, and guaranteed purchase prices, which makes wheat farming one of the main sources of income for over two million rural households. Socially, wheat holds great importance in everyday life as it is used to make bread, pasta, and other flour-based foods that form the core of the Uzbek diet. Maintaining affordable wheat and bread prices is also crucial for ensuring social stability. Moreover, the wheat industry provides employment opportunities for both men and women, particularly in rural areas. There are many wheat varieties in the region. The Khorezm region,

located in the lower part of Uzbekistan, faces several natural and climatic challenges. It is not surrounded by a lot of mountains, hence it is extremely hot during summer and very cold during winter than other places in the nation. Besides, Khorezm lacks water frequently, and this disrupts not only wheat cultivation but also other crops. Despite these issues, Khorezm remains among the best regions of wheat production. Hard-working farmers and skilled laborers are known to be employed in the area of Khorezm, which has aided them to achieve good yields even during unfavorable conditions. Their enthusiasm and experience make Khorezm a good model of how farmers can be strong and effective in Uzbekistan. Although wheat is a big business in Uzbekistan, little has been done in the way women use wheat in Khorezm. There are some studies on the national level of wheat production, but there are not many studies about how women grow, process and utilize wheat in their homes. The paper aims to help bridge that gap by examining the contribution of women to the wheat-related practices in Khorezm, which will provide an insight into the social and economic dimensions of wheat use by households.

Literature Review

Wheat plays an essential role in Uzbekistan's food system and household economy. Several studies demonstrate that wheat provides the largest share of calories and remains one of the two key strategic crops in the country after cotton. Its importance is connected to food security, national independence, and the state's long-term policy of achieving self-sufficiency after the collapse of the former Soviet Union. Mirkasimov and Pariyev believe that wheat has always played a significant role in the fundamental nutrition, and the government believes it to be an essential crop since it can feed families and keep the nation in general fed. The fact that wheat and flour continue to be the primary foodstuffs in the typical Uzbek diet is also mentioned by Reidy (2023), as it demonstrates the extent to which people rely on bread and wheat-containing products [1]. They began to cultivate more wheat to reduce imports after Uzbekistan gained its independence in the year 1991. The CGIAR Institutional Repository (CGSpace) reports a growth of over three times in the wheat area, between 0.63-1.3M hectares in 1991-2019, respectively, covering over a third of total arable land. This period was characterized by an increase in wheat production to a high of more than 6 million tons due to new types of seeds, improved irrigation systems, and increased farming activities [2]. Mirkasimov and Pariyev admit that these reforms actually increased national production, and by 2017-2018, there was more than 70 per cent domestic wheat production to supply food and feed in the country [3]. This is the reason why wheat continues to play such a leading role in the rural and urban homes even today. Moreover, wheat prices and government intervention play a vital role in this theme. The state procurement system operated by the government determines the amount of wheat that farmers must deliver, the price that they receive and even subsidizes flour and bread. The concept of the subsidies is to assist the neediest of individuals so that they can be able to afford the bare essentials. Essentially, therefore, when the government sets the price, it can destroy farmers and the supply chain. To illustrate this, the state tends to purchase the majority of the crop at a lower price than the market price; therefore, there is less wheat to be sold privately. This results in inequalities in price among areas and unequal access to wheat-based commodities [3]. Despite attempts to become self-reliant, they continue to import high quantities of wheat, particularly, Uzbekistan. Reidy (2023) argues that the nation is among the largest importers of wheat in Central Asia, primarily due to the fact that domestic wheat is not of high quality to be used in baking bread [1]. In the same way, a political-economy analysis established that a poor quality of locally grown wheat causes the mills to resort to importing wheat varieties to make bread delicious [3]. It implies that individuals will have to spend more on imported flour, and the government will have to balance the low price of bread and imports. Much of the research is in an area that examines the Khorezm region due to its high agricultural foundation. Kadirov (2019) researched winter wheat there and discovered that the climate is great for producing and large farms. But the majority of research is on farming techniques, not on the way the family is using wheat or the differences by gender. Very little has been done on how women in both rural and urban residences utilize wheat, the amount of money they consume, and how wheat availability influences daily food. The latter is quite a stretch as women are the primary decision makers on the food to prepare, particularly in the rural areas

where people still make homemade bread. The majority of the sources only briefly state the general consumption patterns and do not go further to investigate the disparities between rural and urban women, hence there is a gap in the research. Generally, previous literature demonstrates that wheat is very crucial to the country, the government operates the prices, the production issues, and the role of imports. None of them, however, investigates the pattern of consumption of wheat among women in Khorezm, and the difference in the patterns of rural and urban households. This paper attempts to fill this gap by examining the consumption of wheat by women, the amount of money they spend on it, and their access to wheat foods in the two contexts as a supplement to the existing knowledge on the same.

Methods/Data

This research took place in the major local market in Urgench, Khorezm, which was among the largest in the region. 30 random women were selected to participate in the survey. Approximately 31% of the respondents were rural and 69% urban. The questionnaire was focused on the extent of consumption of wheat and breadmaking, the amount spent on wheat and flour, as well as the significance of homemade bread to the families. The number of family members was from 3 to 5. This is important to know the family size since larger families tend to consume more wheat, and they also pay more for bread and flour. Face-to-face interviews were used to gather data in June 2025. The interviews were conducted in the market during the day. some individuals were shy at the beginning or busy, but once the interviewers got them relaxed, they gave complete answers. The survey consisted of several questions related to the consumption of bread, expenditure, and the reaction of people to price change, since it assists in understanding how people behave economically and demand wheat. The figures below provide an excellent overview of the consumption of wheat, the bread-making, spending of households, and the importance of bread. These results precondition the further discussion of the disparities between the rural and urban regions and the economic consequences.

Results

There are some significant trends that the survey showed. The majority (69%) of the respondents were urban, and 31% of the respondents were rural. The majority of the respondents resided in families with 4 or 5 people, which implies the medium to large demand for wheat in families.

Figure 1. Demographic Information of Respondents



The consumption of wheat per month was highly varied: 33%, 38%, 25% and only 4% ate less than 10 kg, 10-30 kg, 30-50 kg and more than 50 kg, respectively. This indicates that most households keep moderate intakes of wheat, with only a low percentage having very high amounts of wheat intake. The bread-making process was different in urban and rural families. A greater part of the respondents in rural regions bake bread at home based on the cultural tradition and the space available, whereas urban respondents tend to buy bread at a store because of time and space limitations in apartments. The economic and cultural value is high because homemade bread is very important to most households (67%).

Figure 2. Bread and Flour Consumption Patterns



Only 19% of them said that the baking of bread was unimportant, primarily urban inhabitants who buy bread in stores. Economic discrepancies were also demonstrated by monthly expenditure on wheat and flour. The majority of households exceed 200,000 UZS monthly, which shows that wheat is one of the important household expenses. In response to the question of how they would react if wheat prices were to rise, 52% indicated that they would purchase bread instead of flour, 24% would buy less flour but not other products, and the remaining 24% would make other adjustments, including cutting down on other household spending.

Figure 3. Economic and Behavioral Factors



All in all, the survey shows that there is a distinct gap between urban and rural families in terms of wheat consumption, bread-making behavior, expenditure, and reaction to price changes. Home baking is cost-effective, which means that rural households bake more at home with a possible smaller spending per kilogram. Locations like urban households with time, and space restrictions have to depend more on stores and hence increase spending on bread.

Discussion

The results of the research point to the aspect of wheat as a food item and an economic consideration in the domestic economy. Family size is a significant factor that determines the consumption of wheat because a big family needs more flour and bread. This is mostly apparent in the rural families, where home preparation of bread is a culture. The homemade bread can save a family money that it would have spent in the store, hence with big families it is essential. Urban households have hands-on issues: apartment dwelling does not have space to keep tandirs (traditional ovens), and working women do not have time to make bread. Consequently, they depend on bread purchased in stores a lot, making it more expensive every month. The survey reveals that 42 percent of people buy bread rather than bake at home, which depicts how the way of life and city infrastructure influence consumption behaviors. There are major economic implications. The average household spends over 200,000 UZS on wheat or flour every single month, and any change in prices can make a household change its consumption behavior. The respondents were found to either purchase less flour when the prices of wheat increased, buy ready-prepared bread or cut down on other household costs. These decisions indicate how vital wheat is as a household commodity and how households are price sensitive. The cultural significance of bread can also be traced. 67% of the respondents found homemade bread very important, which emphasizes the fact that bread is not only a need in nutrition, but also an important element of domestic culture. These cultural and economic considerations ought to be taken into account by policy-makers during the planning of interventions, including price subsidies or low-income and social support programs. Connected to the literature in question, the research conducted on the

consumption of wheat in Uzbekistan (CGSpace, 2022) indicates that wheat is an essential ingredient of household food security. Any government policy that creates changes in the prices of wheat may have huge effects on the budgets of households, particularly in urban setups where bread purchased in stores is common. These results can be successfully linked to international studies, which show that the affordability of staple foods has a direct impact on the well-being of households and the economic stability of individuals.

Conclusion

This research gives knowledge on the consumption of wheat, bread-making and household expenditures in Urganch, Khorezm. The survey of 30 females showed that family size, living, and lifestyle have a great impact on the consumption of wheat and the use of bread. The rural homes bake more at home, which helps them to save money, whereas urban homes use the bread purchased in the shops because they do not have time or space. In the context of the study, homemade bread is still culturally and economically significant to most of the households; 67% of the respondents said that it is very important. The amount of money spent on wheat and flour monthly is huge, and the amount consumed by households varies with the change in prices, which emphasizes the sensitivity of staple food to the economy. This implies that the government and policy intervention must take into account the cultural value of bread as well as the economic cost of wheat. The subsidy of wheat prices or effective home baking programs can support households in maintaining food security, particularly urban families constrained by time and space. To sum up, wheat has continued to be a focus of household food in Khorezm. The analysis of household behavior, consumption patterns and reaction to price increases or decreases can assist policy-makers and other parties to be able to devise effective measures to assist in food security and also in dealing with economic effects on families.

Acknowledgements

I would like to express my sincere gratitude to my supervisor, Malika Narzullaeva, for her guidance and support throughout this research. I am also grateful to all the participants who took part in the survey and provided valuable information.

Reference

[1] Reidy, S. (2023, January 2). Country Focus: Uzbekistan. World Grain. https://www.world-grain.com/articles/18051-country-focus-uzbekistan

[2] Kadirov, Sh. (2019). The experiment of growing winter wheat in the Khorezm region. International Journal of Bio-Science and Bio-Technology (IJBSBT), 11(10), 125–135.

[3] Mirkasimov, Bakhrom & Parpiev, Ziyodullo. (2017). The Political Economy of Wheat Pricing in Uzbekistan Executive Summary. https://www.researchgate.net/publication/344427985_The_Political_Economy_of_Wheat_Pricing_in_Uzbekistan_Executive_Summary/citation/download

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

Vaisov Dilshod Ibodullayevich.,
Ma`mun NTM o'qituvchisi.,
ddvais5@gmail.com

O'ZBEKISTONDA TIBBIY XIZMATLARNING IDORALARARO TASNIFLANISHI VA UNING RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mamlakatimizda tibbiy xizmatlar tasniflanishining xususiyatlari, uning tibbiy xizmatlar va tibbiy xizmat ko'rsatuvchi subyektlar raqobatbardoshligiga ta'siri, tibbiy xizmat ko'rsatuvchi subyektlar raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'nalishlari va uning hozirgi raqamlashgan muhitdagi zamonaviy xususiyatlari tadqiq etilgan hamda tibbiy xizmat klinikalari uchun tavsiyaviy raqobat ustunligiga erishishning innovatsion mexanizmi taklif qilingan.

Kalit so'zlar: tibbiy xizmatlar, tibbiy xizmatlar tasniflanishi, litsenziyaviy asosda tasnif, statistik kuzatuv kodlari asosida tasniflash, raqamli soliq nazorati kodlari asosida tasniflash, tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligi.

Ваисов Дилшод Ибодуллаевич.,
преподаватель НОУ Мамун,
ddvais5@gmail.com

МЕЖВЕДОМСТВЕННАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследованы особенности классификации медицинских услуг в нашей стране, ее влияние на конкурентоспособность медицинских услуг и субъектов, оказывающих медицинские услуги, направления обеспечения конкурентоспособности субъектов, оказывающих медицинские услуги, и ее современные особенности в современной цифровой среде, а также предложен инновационный механизм достижения рекомендательного конкурентного преимущества для клиник медицинского обслуживания.

Ключевые слова: медицинские услуги, классификация медицинских услуг, классификация на лицензионной основе, классификация на основе кодов статистического наблюдения, классификация на основе кодов цифрового налогового контроля, конкурентоспособность медицинских услуг.

Vaisov Dilshod Ibadullayevich.,
is teacher an Ma'mun NTM,
ddvais5@gmail.com

INTERDEPARTMENTAL CLASSIFICATION OF MEDICAL SERVICES IN UZBEKISTAN AND ITS IMPORTANCE IN ENSURING COMPETITIVENESS

ABSTRACT

This article examines the features of the classification of medical services in our country, its impact on the competitiveness of medical services and medical service providers, directions for ensuring the competitiveness of medical service providers and its modern features in the modern digital environment, and proposes an innovative mechanism for achieving a competitive advantage for medical service clinics.

Keywords: medical services, classification of medical services, classification on a licensed basis, classification based on statistical observation codes, classification based on digital tax control codes, competitiveness of medical services.

KIRISH VA DOLZARBLIGI. Tibbiy xizmat biznesi subyektlari uchun raqobatbardoshlik hayot-mamot masalasi bo'lib, ular ko'pincha resurslarning cheklanganligi va tashqi muhitga yuqori darajada moslashish zarurati bilan faoliyat ko'rsatadilar. raqobatbardoshlik deganda, odatda, bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, mahsulot yoki xizmatlarni boshqa ishtirokchilarga nisbatan samarali taklif qilish qobiliyati, imkoniyati mavjudligini tushunish mumkin. Ilmiy nuqtai nazardan, raqobatbardoshlikni ta'minlash kichik biznes subyektlari uchun iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va o'sishning asosiy omilidir. Raqobatbardoshlik ularga nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham o'z o'rnini topishga yordam beradi. Tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi kichik biznes subyektlari uchun raqobatbardoshlikni ta'minlashning ahamiyati nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki aholiga sifatli xizmat yetkazib berish nuqtai nazaridan ham muhimdir. Bu sohada faoliyat yurituvchi kichik biznes korxonalari (masalan, xususiy klinikalar, stomatologiya kabinetlari, diagnostika markazlari yoki fizioterapiya xizmatlari) o'ziga xos muammolar va imkoniyatlarga ega bo'lib, raqobatbardoshlik ularga bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlashga yordam beradi. Shu sababli, mazkur korxonalarda raqobatbardoshlikni aniqlash va raqobatchilar bilan o'z faoliyatlarini solishtirish alohida dolzarblikga ega.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI. Tibbiy xizmatlarning idoralararo tasniflanishi (interagency classification of medical services) – bu sog'liqni saqlash tizimida turli idoralar va tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash uchun standartlashtirilgan kodlash va tasnif tizimlarini anglatadi. Bunday tasniflar, masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) International Classification of Health Interventions (ICHI) yoki International Classification of Diseases (ICD-11) kabi xalqaro standartlarga asoslanadi. Ular tibbiy xizmatlarni diagnostika, davolash, profilaktika va reabilitatsiya bo'yicha bir xil tilda tasniflash orqali idoralararo ma'lumot almashinuvini osonlashtiradi. Ushbu tasnifning raqobatbardoshlikni ta'minlashdagi ahamiyati esa, birinchi navbatda, resurslarni samarali taqsimlash, xizmat sifatini oshirish va bozor raqobatida ustunlik qozonishda namoyon bo'ladi. Mazkur yo'nalishda amaliy tadqiqotlar olib borgan xorijiy tadqiqotchi olimlardan Porter M va Lee, Tlar "Tibbiy xizmatlar tasnifi - raqobatni qiymat asosida (value-based) o'zgartiradi: sifat va narxni birlashtirib, bozor ustunligini ta'minlaydi deb hisoblashgan bo'lsa [1], Valentiyn, P. va Schepman, Slar bevosita "Integratsiyalashgan tibbiy tizimlarda idoralararo tasnif (ICF va ICHI) hamkorlikni kuchaytirib, xizmatlar samaradorligini 30% ga oshiradi hamda tibbiy xizmatlar bozorida integratsiya orqali bemorlar oqimini boshqarish, xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini yaratish mumkinligini asoslashgan" [2]. Kuznetsova, N. V., Rahimova, L. M., Gafurova, Vlar o'z tadqiqotlarida "mintaqaviy tibbiy bozorlarda tashqi omillar sifatida idoralararo tasnif tizimlari raqobatbardoshlikni darajasini belgilashini ko'rsatganlar. Standartlashtirilgan tasniflar xizmatlarni taqqoslashni osonlashtirib, bozorda raqobatni kuchaytiradi" deb hisoblashgan [3]. Klapkiv, M., Hnatyshyn, M., va Klymchuk, Vlar bibliometrik tahlillar asosida "Pandemiya davrida idoralararo tasnif tizimlari (ICD-11) raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhimligini aniqlashgan. Ularni samarali integrativ qo'llash bemorlar xavfsizligini 25% ga oshiradi" deb xulosa qilishgan [4]. International Classification of Health Interventions (ICHI)ni tahlilini amalga oshirgan Fung, K. W., Xu, J., Ameye, F va boshqalar "ICHI tasnifi

jarrohlik xizmatlarini idoralararo kodlashda 90% aniqlikni ta'minlashini isbotlashgan. Bu xizmat sifatini baholash va resurs taqsimotini yaxshilabgina qolmasdan balki raqobatbardoshlikni oshirishda kodlash xatolarini kamaytirib, to'lov tizimlarida shaffoflikni ta'minlaydi" deb keltirishgan [5] . RB ASIA xalqaro konsalting kompaniyasining O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasini o'rganish bo'yicha amalga oshirgan tadqiqotida tibbiy xizmatlarning tasniflanishini joriy etilishi xususiy sektor klinikalarida xalqaro standartlarga moslashishni ta'minlashi xulosalangan. Xususan, oftalmologiya va stomatologiya kabi segmentlar xususiy tibbiy klinikalarning bozor ulushini kengaytirib, raqobatni oshiradi deya keltirilgan [6]. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining mamlakatimiz tibbiyoti bo'yicha 2022 yilda nashr qilingan hisobotida ham tasniflashning tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligi va sifatiga ta'siri o'rganilgan bo'lib [7], "tibbiy xizmatlarning tasniflanishini joriy etilishi klinik protokollarni standartlashtirib, resurs taqsimotini optimallashtirishi hamda tasnif bilan integral ishlaydigan raqamli tizimlar (elektron kartalar) xizmat sifatini baholab, xususiy klinikalarni yanada raqobatbardosh qiladi" deya xulosalangan. Yuqoridagi tadqiqot ishlari hamda mamlakatimizdagi tibbiy faoliyat va ixtisosliklar tasnifi bilan bo'gliq tashkilot va idoralar manbalari asosida o'ziga xos tadqiqot amalga oshirildi.

TADQIQOT NATIJALARI. Tibbiy xizmat ko'rsatuvchi kichik biznes sub'yektlari o'zlarining raqobatbardosh ekanliklarini aniqlash uchun bir qator usullar va mezonlardan foydalanishlari mumkin. Bu jarayon bozor sharoitlarini tahlil qilish, o'z faoliyatini raqobatchilar bilan solishtirish va mijozlarning fikr-mulohazalarini hisobga olishni o'z ichiga oladi.

1. Bozor tahlili va raqobatchilarni solishtirish, kichik biznes subyektlari o'zining raqobatbardoshligini aniqlash uchun avval bozor holatini o'rganishi kerak bo'lib, bunda raqobatchilarning xizmatlarini tahlil qilishi, ya'ni yaqin atrofdagi klinikalarning qanday xizmatlar taklif qilishi, narxlari va qancha mijozlarga xizmat ko'rsatishini o'rganishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Agar, kichik biznes subyektida narxlar pastroq yoki xizmat sifati yuqoriroq bo'lsa, bu raqobatbardoshlik belgisi mavjudligini bildiradi. Bozor ulushini baholashi, agar klinika o'z hududida ko'proq mijozlarni jalb qilayotgan bo'lsa yoki mijozlar oqimi barqaror oshayotgan bo'lsa, bu uning raqobatdagi muvaffaqiyatini ko'rsatadi. SWOT tahlilimi o'tkazish, klinika o'zining kuchli (Strengths) va zaif (Weaknesses) tomonlari hamda imkoniyatlar (Opportunities) va xavf-xatarlarni (Threats) aniqlash orqali bozor segmentidagi o'z pozitsiyasini aniqlay oladi. Bunda, zamonaviy tibbiy uskunalar mavjudligi kuchli jihat bo'lsa, tibbiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar tajribasining kamligi zaif holat bo'lishi mumkin.

2. Mijozlarning qoniqish darajasini aniqlash va baholash, raqobatbardoshlikning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri mijozlarning sadoqati va tibbiy xizmatlardan qoniqishi bo'lib, bunda bemorlardan so'rovnomalar yoki og'zaki savollar orqali xizmat sifati, narxlar va qulaylik haqida fikr so'rash mumkin. Agar mijozlar xizmatdan mamnun bo'lib, qayta kelishsa yoki do'stlariga tavsiya qilishsa, bu ijobiy raqobatbardoshlik momenti, belgisi bo'lib hisoblanadi. Patsientlarning sodiqlik darajasi, takroriy tashriflar soni yoki mijozlarning klinikada uzoq muddatli qolishi o'ziga xos raqobatbardoshlik ustunligi mavjudligini ko'rsatadi. Shikoyatlar sonini tahlil qilib borish, agar klinika mijozlaridan shikoyatlar kam bo'lsa yoki ularning sabab va omillari tez hal qilinsa, bu ham raqobatda muvaffaqiyat mavjudligini tasdiqlaydi.

3. Moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish. Raqobatbardoshlikni aniqlashda iqtisodiy natijalar ham muhim rol o'ynaydi, bunda daromadlarning o'sishini kuzatish va tahlil qilib borish lozim, ya'ni, agar klinikaning daromadi yildan-yilga oshib borayotgan bo'lsa, bu uning bozorda yuqoti darajada talabga ega ekanligini ko'rsatadi. Xarajatlarga nisbatan foydaning oshishi,bunda tibbiy xizmatlar narxini raqobatchilar bilan solishtirgan holda foyda marjasini saqlab qolish holati raqobatbardoshlikni ta'minlashning belgisi bo'lib hisoblanadi. Faoliyatni kengaytirish uchun investitsiya qilish imkoniyatining mavjudligi ham raqobatbardoshlik darajasi yuqoriligini bildiradi, ya'ni agar klinika yangi uskunalar sotib olish yoki xizmatlarni kengaytirish uchun o'zida mablag'lar ajrata olsa, bu uning faoliyatini moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini tasdiqlaydi.

4. Operatsion samaradorlikni baholash, ya'ni ichki xizmat ko'rsatish jarayonlarning sifati ham raqobatbardoshlikni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Bunda asosiy raqobatbardoshlik yo'nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin: - Xizmat ko'rsatish tezligi, Agar klinika mijozlarni

tez qabul qilib, natijalarni operativ tarzda taqdim etsa (masalan, tahlillar bir kun ichida tayyor bo‘lsa), bu raqobatchilar bilan taqqoslaganda nisbiy ustunlik beradi. - Xodimlar malakasi yuqoriligi, klinikada tajribali va doimiy malakasi oshiriladigan xodimlar mavjudligi xizmat sifatini oshiradi, bu esa raqobatbardoshlik darajasini ko‘taradi. -Texnologik imkoniyatlarning mavjudligi, ya’ni zamonaviy tibbiy uskunalar, vositalar yoki raqamli yechimlar (masalan, onlayn navbat tizimi) mavjudligi mijozlarga ko’proq qulaylik yaratadi va raqobatchilar orasidagi farqni shakllanishini ta'minlaydi.

5. Tashqi ko‘rsatkichlar va obro‘. Obro‘ va imidj, agar klinika ijobiy sharhlar oladigan bo‘lsa yoki mahalliy jamoatchilik orasida yaxshi nom qozongan bo‘lsa, bu muhim raqobatbardoshlik belgisining mavjudligini anglatadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi mijozlarning tavsiyalari yoki muvaffaqiyatli davolash hikoyalari bunga misol bo‘ladi. Mustahkam hamkorlik aloqalarining mavjudligi ham tashqi raqobatbardoshlik ko’rsatkichlariga kiradi, agar tibbiy xizmat ko’rsatuvchi kichik biznes subyekti yirik sog‘liqni saqlash tashkilotlari yoki sug‘urta kompaniyalari bilan hamkorlik qila olsa, bu uning bozordagi mavqeini mustahkamlab raqobatchilar orasida nisbiy ustunlikka ega bo’lish imkonini beradi. Tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi kichik biznes sub'yektlari raqobatbardoshliklarini aniqlash uchun bozor, mijozlar, moliyaviy natijalar va ichki jarayonlarni tahlil qilishlari kerak. Bu jarayon ularga nafaqat o‘z pozitsiyasini tushunishga, balki zaif tomonlarini yaxshilashga ham yordam beradi. Agar ular mijozlarni jalb qilishda, sifatli xizmat ko‘rsatishda va daromad oshirishda muvaffaqiyatga erishayotgan bo‘lsa, demak ularning faoliyatini raqobatbardosh deb hisoblash mumkin bo’ladi.

Raqobatchilar to’g’risida ma’lumotlar to’plash yoki o’zining tibbiy xizmat ko’rsatish faoliyati bo’yicha ma’lumotlarni shakllantirish muayyan darajada qiyinchilik tug’diradi. Yirik kompaniyalar maxsus tadqiqotchi ekspertlar guruhi xizmati yoki marketing agentliklari yordamida bu yo’nalishda ma’lumotlarni yig’ishga va foydalanishga imkoniyat topadilar, biroq kichik biznes subyektlari bunday jarayonni moliyalashtirish imkoniga deyarli ega bo’lmaydilar. Tibbiy xizmat ko’rsatuvchi xo’jalik subyektlari O’zbekiston Respublikasining aloqador davlat tashkilotlari axborot tizimlari va hisobot shakllari orqali ichki va tashqi raqobatbardoshlik ma’lumotlarini o’rganishi yoki shakllantirishlari mumkin bo’ladi.

Mamlakatdagi asosiy statistik ma’lumotlar bazasini shakllantiruvchi va e’lon qilib boruvchi tashkilot, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi yillik va choraklik hisobotlar asosida mamlakat hamda viloyatlar bo’ylab asosiy kasalliklar turlari bo’yicha kasallanishlar holati, shifokorlarning hamda o’rta tibbiyot xodimlarining ixtisosliklar bo’yicha soni, yosh tarkibi, tibbiyotdagi bandlar soni, sohadagi korxonalarning ko’rsatgan xizmatlari hajmi, eksport va import faoliyati ko’rsatkichlari, IFUT kodi asosida esa asosiy tibbiy xizmat ko’rsatish yo’nalishlari bo’yicha faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar soni bo’yicha ma’lumotlarni e’lon qilib boradi. Barcha tibbiy xizmat ko’rsatuvchi nodavlat sektori korxonalari “E-Stat” axborot platformasida [8] yilda bir marotaba “1 Kb (tib) shakliga ilova” hisobotini topshirishlari, mazkur hisobot asnosida esa o’zlarining bir yil davomidagi tibbiy xizmat ko’rsatish faoliyatining natijalarini shakllantirishlari zarur bo’ladi. Hisobot ma’lumotlari to’g’ri va ishonchli bo’lishi uchun yil davomida klinikaga tashrif buyurgan patsientlarning tibbiy tahlil, tashxis va davolash ma’lumotlari, korxonadagi xizmat ko’rsatuvchi xodimlar hamda ularning faoliyati natijalari bilan bog’liq hisob ma’lumotlari tizimli va ishonchli tarzda qayd qilib borilishi zarur. Hududlar kesimida yoki mamlakat bo’yicha jamlangan va shakllantirilgan ma’lumotlar asosida tibbiy xizmatlar bozorini tahlil qilish va tavsiflash mumkin bo’ladi. Bozorni o’rganish va undagi o’z o’rni hamda pozitsiyasini aniqlash asosida klinikalar tibbiy xizmatlar ko’rsatish bozori, uning segmentidagi o’z ulushini belgilash orqali raqobatbardoshlikni ta’minlash va raqobat strategiyasiga oid boshqaruv qarorlarini shakllantirish mumkin.

Tibbiy xizmat ko’rsatish faoliyatining qonuniy jihatdan asoslanishi O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi qoshidagi tibbiy tashkilotlarni litsenziyalash va akkredetatsiyalash markazi [9] tomonidan taqdim qilinadigan va akkredetatsiyalanadigan maxsus litsenziyalar orqali ta’minlanadi. Bunda litsenziyalash jarayonining alohida talab va majburiyatlari asosida alohida tibbiy xizmat va ixtisosliklar turlari shakllantirilgan bo’lib, 2025 yilning 1-yanvar holatiga jami 213

ta yo'nalish bo'yicha tibbiy faoliyatni litsenziyalash tashkil qilingan [10]. Litsenziya talablari asosida klinikalardan tibbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tibbiy uskuna va vositalar, tibbiy faoliyatni amalga oshirish sharoitlariga ega bo'lgan bino va inshootlar mavjudligi hamda yetarli ixtisoslik va malaka talablariga javob beruvchi shifokorlar, o'rta tibbiyot xodimlari mavjudligini tasdiqlashlari so'raladi. Mazkur talablarni bajarish asosida klinikalar tomonidan litsenziya uchun investitsiyalar, ya'ni asosiy kapital va tashkiliy xarajatlar amalga oshiriladi. Klinikalar uchun mazkur litsenziya xarajatlarini umumlashtirgan holda hisobga olinishi, keyinchalik tibbiy xizmat ko'rsatish jarayoni moliyaviy natijalari, ya'ni ixtisoslik asosida topilgan daromad va foyda ko'rsatkichlari asosida tibbiy xizmat ko'rsatishning rentabelligini aniqlash asnosida raqobatbardoshlikni iqtisodiy baholashlari mumkinligi bilan ham ahamiyatlidir. Shuningdek, muayyan ixtisoslik bo'yicha litsenziyaga hamda zaruriy kapitalga ega bo'lish klinika faoliyatining strategiyasini ham shakllantirib beradi. Bundan tashqari, klinika bir vaqtning o'zida bir qancha litsenziyalarga ega bo'lsa, yuqoridagi tartibda xarajatlar va daromadlar hisobini alohida yuritishi natijasida tibbiy ixtisosliklar va samaradorligini taqqoslash orqali korxona raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha muhim tahliliy ma'lumotlarni shakllantirishi mumkin. Shuningdek, tegishli hisob davrlari davomida o'zgarishlar dinamikasini o'rganib, tahlil qilib borish ham korxona faoliyati raqobatbardoshligi va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonining iqtisodiy natijalarini nazorat qiluvchi davlat tashkiloti bo'lgan Davlat Soliq Qo'mitasi faoliyati bugungi kunda to'liq raqamlashtirilgan shaklda tashkil qilingan. Qo'mitaning yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish hamda mamlakat iqtisodiyoti holatini o'rganish, baholash hamda boshqarish uchun mo'ljallangan mexanizmlaridan biri bo'lgan "tasnif.soliq.uz" platformasi asosida shakllantirilgan "Mahsulot va xizmatlarning identifikatsiya kodlari" [11] tibbiy xizmat ko'rsatish faoliyati raqobatbardoshligini baholash va ta'minlash uchun ham xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron katalogidagi identifikatsiya kodlari soni 476 mingdan oshiq bo'lib, ularning 156 tasi bevosita tibbiy xizmatlarni tasniflash uchun ishlatilmoqda. Amaldagi Soliq tizimi talablari asosida aholiga pullik tibbiy xizmatlar ko'rsatish natijalari bevosita onlayn nazorat kassalari orqali rasmiylashtirilishi, yuridik shaxslar o'rtasidagi oldi-sotdi munosabatlari raqamli platformalarda elektron shartnoma, hisobvaraq faktura hamda dalolatnomalar rasmiylashtirilishi lozim. Bunda, ko'rsatilgan tibbiy xizmat turi maxsus 17 raqamdan iborat kod, MXIK (Mahsulot va xizmatlarning identifikatsiya kodlari) asosida belgilanishi hamda mazkur kod litsenziyadagi ixtisoslikga ham mos bo'lishi lozim. Rasmiylashtirilgan fiskal chek va hisobvaraq fakturalar asosida klinikaning tibbiy xizmat ko'rsatish hajmi (aylanmasi) oyma-oy avtomatik tarzda shakllanadi hamda soliq bazasi sifatida qabul qilinadi. Soliq qo'mitasi raqamli platformalari "my.soliq.uz" hamda "my3.soliq.uz" imkoniyatlari asosida klinikalar kunlik, haftalik va oylik rejimda o'zlarining tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonining o'ziga xos raqamli tarixini kuzatish va tahlil qilish imkoniyatga ega. Ushbu imkoniyat qaysi turdagi tibbiy xizmat bo'yicha tushum hajmining oshganligi yoki qaysi tibbiy xizmat turiga talab yaxshilanganligi yoki, tibbiy xizmat narxlari o'zgarishi dinamikasi xususiyatlarini avtomatik inson omilisiz aniqlashi asosida raqobatbardoshlikni ta'minlashda beqiyos darajada xizmat qilishi mumkin. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazasida yig'ilgan ma'lumotlar esa hududlar kesimida tibbiy xizmatlardan foydalanish chastotasi hamda hajmlarini aniqlash, tibbiy xizmatlar bozori ko'rsatkichlari dinamikasini iqtisodiy jihatdan aniqlash va o'rganish uchun sharoitlar yaratadi. Yuqorida keltirilgan uchta o'ziga xos tibbiy xizmatlar tasniflanishini umumlashtirgan holda tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarda tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini shakllantiruvchi ko'rsatkichlar tizimi sifatida qabul qilish mumkin deb hisoblaymiz.

Mazkur tizim klinikalar o'zlarining operatsion faoliyati raqobatbardoshligini hisob davlari yakunida baholab borishi, litsenziyalarni alohida turlari orqali raqobatbardoshligini tahlil qilib borishi hamda barcha natijalarni xodimlar faoliyatiga bog'lab o'rganishi asosida xodimlarning samaradorligi hamda raqobatbardoshlik darajalarini aniqlab borishi natijasida korxona raqobatbardoshligini ta'minlashi hamda klinikada mavjud raqobatbardoshlikni ta'minlashning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirib borishi mumkin bo'ladi. Mazkur jarayon esa

o'ziga xos yaxlit mexanizm sifatida quyidagi yakuniy raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini shakllantirib beradi:

- Litsenziya turlari bo'yicha kapital xarajatlarni hisoblash mumkin bo'ladi.
- Litsenziya turlari bo'yicha xarajatlar va tannarxni hisoblash imkoniyati ortadi.
- Litsenziya turlari bo'yicha daromadlarni hisoblash yo'lga qo'yiladi.
- Litsenziya turlari bo'yicha patsientlar soni hisobini yuritish mumkin bo'ladi.
- Litsenziya turlari bo'yicha muolaja va tekshiruvlar sonini hisoblash imkoniyat yaratiladi.
- Patsientlar kasallanishlari sonining umumbelgilangan toifalar asosidagi hisobi takomillashadi.
- Xodimlarning ixtisosliklar va toifalari bo'yicha hisobi yaxshilanadi.
- Tibbiy xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari hisobi (kishi, tekshiruv, muolaja) takomillashadi.
- MXIKlar asosida xizmat ko'rsatish faoliyati tushumining tarkibiy tahlili amalga oshiriladi.
- MXIKlar asosida tibbiy xizmatlar turlari bo'yicha differensial va o'zgaruvchan narxlar tahlili tashkillashtiriladi.
- MXIKlar asosida yagona hisob va soliq bazasi ma'lumotlari asosida xizmat ko'rsatish hajmi tahlilining aniqligi va hisob siyosatining shaffofligiga erishiladi.

1-rasm. Tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarida raqobat ustunligiga erishishning innovatsion mexanizmi [13]



XULOSA. O'xshash yoki raqobatchi klinikalar orasida mazkur ko'rsatkichlarning o'zaro taqqoslanishi bevosita raqobat ustunligini shakllanganligi va mavjudligini bildiradi. Misol uchun muayyan bir litsenziya bo'yicha kapital xarajatlari miqdorining ko'pligi klinikada ushbu yo'nalishda keng va zamonaviy sharoit hamda qulayliklar yaratilganligini bildirsa, uning samaradorlik yoki rentabellik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi raqobatchilardan ko'ra imkoniyatlardan yaxshiroq unumliroq foydalanganlikni bildiradi. Tibbiy xizmatlar tannarxining pastligi shubhasiz raqobat ustunligi mavjudligini anglatsa, daromadlar miqdorining nisbatan ko'pligi ham doimiy va badavlat mijozlar barqaror oqimining mavjudligini bildiradi. Litsenziya turlari bo'yicha patsientlar soni va ularda o'tkazilgan tekshiruv hamda muolajalar sonining ko'pligi bir tomondan klinika xizmatlariga yuqori talab mavjudligini izohlasa, ikkinchi tomondan klinika xodimlarining malakasi va tajribasining yanada oshishiga xizmat qilib o'ziga xos yana bir raqobat ustunligini shakllantiradi.

Shuningdek, tibbiy xizmat ko'rsatish raqobatbardoshligiga tibbiy xizmat ko'rsatish jarayoni bilan bog'liq risk va xavflar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda bunday xavflarning ko'p qismi farmasevtik mahsulotlar sifati hamda yaroqliligi bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi. Mazkur turdagi xavflarning oldini olish hamda sog'liqni saqlashda farmakologik nazoratni ta'minlash maqsadida mamlakatimizda ham tibbiy preparatlarning majburiy raqamli markirovkasi yo'lga

qo'yilgan. Bevosita "my3.soliq.uz" platformasi imkoniyatlari orqali klinikalar o'zlaridagi mavjud raqamli markirovkalangan farmasevtika mahsulotlari aylanmasi va qoldig'i to'grisidagi ma'lumotlarni avtomatik shakllantirishlari va tahlil qilib borishlari mumkin. Sog'liqni saqlash sohasidagi keng islohotlar doirasida erkin raqobat muhitini ta'minlash, mahalliy tibbiy xizmatlar tannarxini arzonlashtirish maqsadida 2025 yil 1-apreldan boshlab, barcha tibbiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar hamda dorixonalar QQS to'lovchisiga aylanadi. Ushbu holat tibbiy xizmat ko'rsatish zanjiri ishtirokchilaridan soliq intizomi va ishonchli faoliyat ko'rsatishni talab qiladi. Zanjir doirasida o'zaro integratsion tarzda qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish imkoniyati tibbiy xizmat tannarxi tarkibida soliqlar ulushini hamda boshqa xarajatlar miqdorini kamaytirishga xizmat qiladi. Ya'ni, tibbiy xizmat ko'rsatishda sarflangan dori-darmon, elektr energiya va tabiiy gaz hamda boshqa tibbiy xizmat tashkilotlari xizmati qiymati tarkibidagi qo'shilgan qiymat solig'i ayirib tashlanishi hisobiga yakuniy iste'molchi QQSni bir marotaba to'laydi, ya'ni soliqlar xizmatni narxini oshishiga katta ta'sir etmaydi. Zanjir doirasidagi raqamli soliq nazorati [11 va 12] nafaqat sohadagi yashirin iqtisodiyot cheklanishi balki, insofsiz xizmat ko'rsatuvchilarni aniqlab, ularni tartibga solish imkoniyatlarini ham shakllantiradi. Platforma faoliyati asosida doimiy yangilanib boriluvchi Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytinggi imkoniyatlaridan foydalanishga intilish asosida klinikalar nafaqat o'zlarining ishonchlilik va barqarorlik ko'rsatkichlarini yaxshilashlariga balki, hamkor korxonalar barqarorligini ta'minlashga ham muhim hissa qo'shadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Porter, M. E., & Lee, T. H. (2013). Redefining competition in health care. Harvard Business Review, 91(6), 92–102.
2. Valentijn, P. P., Schepman, S. M., Opheij, W., & Bruijnzeels, M. A. (2013). Understanding integrated care: A comprehensive conceptual framework based on the integrative functions of primary care. International Journal of Integrated Care, 13, e010. https://doi.org/10.5334/ijic.1366
3. Kuznetsova, N. V., Rahimova, L. M., Gafurova, V. M., Simakov, D. B., Zinovyeva, E. G., & Ivanova, L. A. (2017). External environment as a factor of ensuring the competitiveness of organizations in the regional market of medical services. European Research Studies Journal, (3A), 308–322.
4. Klapkiv, M., Hnatyshyn, M., & Klymchuk, V. (2020). Exploring the research on health care competitiveness: The COVID-19 pandemic perspective. European Research Studies Journal, XXIII(4), 1–15.
5. Fung, K. W., Xu, J., Ameye, F., Burelle, L., & MacNeil, J. (2022). Evaluation of the International Classification of Health Interventions (ICHI) in the coding of common surgical procedures. Journal of the American Medical Informatics Association, 29(1), 43–51. https://doi.org/10.1093/jamia/ocab220
6. RB ASIA. (2019). Uzbekistan healthcare report: Investment and management consulting. https://www.rbasia.uz/en/zdravohranenie-sektor-uzbekistan
7. World Health Organization. (2022). Health systems in action: Uzbekistan. European Observatory on Health Systems and Policies. https://eurohealthobservatory.who.int/publications/i/health-systems-in-action-uzbekistan-2022
8. Hisobot.stat.uz
9. Ssv.uz
10. Lycense.gov.uz
11. Tasnif.soliq.uz
12. my3.soliq.uz
13. Muallif ishlanmasi

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

TIBBIYOT

Бабаджанова Фания Рашидовна
PhD., старший преподаватель кафедры педиатрии и неонатологии Ургенчского государственного медицинского института
Рахимова Чаросхон Ғолиб қизи
Магистр кафедры педиатрии и неонатологии Ургенчского государственного медицинского института

ВЗАИМОСВЯЗЬ ФАКТОРОВ И ЭФФЕКТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ ГРУДНОГО ВСКАРМЛИВАНИЯ ПОСЛЕ ЕСТЕСТВЕННЫХ РОДОВ

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

АННОТАЦИЯ

Введение. Грудное вскармливание после самопроизвольных родов признано оптимальным способом питания новорождённых, однако его полноценная реализация остаётся недостаточной во многих странах.Цель исследования. Определить наиболее эффективные способы организации грудного вскармливания и выявить ключевые факторы, влияющие на успешное начало и поддержание исключительно грудного вскармливания.Материалы и методы. Проведён систематический обзор научной литературы, опубликованной в базах PubMed, Scopus, Web of Science, Cochrane Library и EBSCOhost за 2017–2025 гг. В анализ включены рецензируемые наблюдательные, экспериментальные и качественные исследования, посвящённые грудному вскармливанию после естественных родов. Оценка методологического качества выполнена с использованием чек-листов NICE и Joanna Briggs Institute.Результаты. Выявлены пять доказательно подтверждённых мероприятий, повышающих успешность грудного вскармливания: ранний контакт «кожа к коже», своевременное прикладывание к груди, регулярное сцеживание, профессиональное консультирование и расширенный доступ семейной поддержки. Основные барьеры включают организационные ограничения, недостаточную подготовку персонала и практику докорма. Заключение. Эффективная организация грудного вскармливания требует комплексного междисциплинарного подхода, стандартизации клинических протоколов и укрепления образовательных программ для медицинских специалистов. Результаты обзора могут служить основанием для совершенствования здравоохранительной политики и практики перинатальной помощи.

Ключевые слова: грудное вскармливание, естественные роды, контакт «кожа к коже», лактация, исключительное грудное вскармливание, поддержка матери, консультирование, неонатальный период, организация ухода.

Babadjanova Faniya Rashidovna
Urganch davlat tibbiyot institutining pediatriya va neonatologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhDю
Rahimova Charosxon G‘olib qizi
Urganch davlat tibbiyot institutining pediatriya va neonatologiya kafedrasi magistri

TABIIY TUG‘RUQLARDAN SO‘NG KO‘KRAK SUTI BILAN BOQISHNING OMILLARI VA SAMARALI STRATEGIYALARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK

ANNOTATSIYA

Tabiiy tug‘ruqlardan so‘ng ko‘krak suti bilan boqish chaqaloqlar uchun eng maqbul oziqlantirish usuli hisoblanadi, biroq uning samarali tashkil etilishi ko‘plab sog‘liqni saqlash muassasalarida yetarli darajada ta’minlanmagan. Ushbu tadqiqotning maqsadi — ko‘krak suti bilan boqishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha samarali yondashuvlarni aniqlash va uning muvaffaqiyatli boshlanishi hamda davom etishiga ta’sir etuvchi omillarni belgilashdir. 2017–2025 yillarda chop etilgan ilmiy manbalarga asoslangan tizimli adabiyot sharhi o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, erta “teri–teri bilan kontakt”, ko‘krakka o‘z vaqtida qo‘yish, laktatsiya bo‘yicha maslahatlar, muntazam sog‘ib olish va oilaviy qo‘llab-quvvatlash eksklyuziv emizish ko‘rsatkichlarini sezilarli oshiradi. Aniqlangan tashkiliy to‘siqlar tibbiy protokollarni takomillashtirish va mutaxassislarni tayyorlash zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari klinik amaliyot va sog‘liqni saqlash siyosati uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: ko‘krak suti bilan boqish, tabiiy tug‘ruq, “teri–teri bilan kontakt”, laktatsiya, eksklyuziv emizish, ona qo‘llab-quvvatlashi, maslahat berish, neonatal davr, tibbiy yordamni tashkil etish.

Babadjanova Faniya Rashidovna
PhD, Senior teacher, Department of Pediatrics and Neonatology, Urgench State Medical Institute
Rahimova Charoskhon Gholib qizi
Master’s Degree Student, Department of Pediatrics and Neonatology, Urgench State Medical Institute

INTERRELATION OF FACTORS AND EFFECTIVE BREASTFEEDING STRATEGIES AFTER SPONTANEOUS VAGINAL DELIVERY

ABSTRACT

Breastfeeding after spontaneous vaginal delivery is recognized as the optimal method of newborn nutrition; however, its effective implementation remains suboptimal in many healthcare settings. The aim of this study was to identify evidence-based strategies for organizing breastfeeding and to determine key factors influencing its initiation and exclusive continuation. A systematic review of studies published between 2017 and 2025 was conducted across major international databases, including observational, experimental, and qualitative research. Findings demonstrated that early skin-to-skin contact, timely initiation of breastfeeding, lactation counseling, regular milk expression, and family support significantly increase exclusive breastfeeding rates. Organizational challenges highlight the need for standardized protocols and improved professional training. The results have important implications for clinical practice, maternal–child health services, and public health policy.

Keywords: breastfeeding, spontaneous vaginal delivery, skin-to-skin contact, lactation, exclusive breastfeeding, maternal support, counseling, neonatal period, healthcare organization.

Актуальность. Грудное вскармливание после самопроизвольных родов по-прежнему рассматривается как важнейший компонент защиты здоровья матери и ребёнка, поскольку обеспечивает младенцу ценные биологические, иммунные, метаболические и психоэмоциональные преимущества и снижает вероятность инфекционных, аллергических и метаболических нарушений[1]. Однако, несмотря на рекомендации ВОЗ начинать кормление в течение первого часа жизни и сохранять его в исключительно грудной форме до шестимесячного возраста, во многих странах, особенно с развивающимися и реформирующимися системами здравоохранения, показатели полноценного грудного вскармливания остаются недостаточными. Это связано с организационными трудностями в учреждениях родовспоможения, ограниченной подготовкой медицинских работников, задержкой первого прикладывания к груди, нехваткой консультативной и эмоциональной поддержки, а также распространённой практикой докорма и разлучения матери с ребёнком[2,3]. С учётом решающей роли раннего послеродового периода для установления лактации и дальнейшего её поддержания, требуется внедрение доказательных, стандартизированных и устойчивых подходов к организации грудного вскармливания[4,5,6]. Систематическое изучение современных научных данных позволяет определить наиболее эффективные вмешательства, выявить изменяемые факторы и разработать практические рекомендации для клинической практики, профессиональной подготовки и политики здравоохранения, что подчёркивает высокую социальную и медицинскую значимость данного исследования[1,8].

Цель исследование. Выявить эффективные методы организации грудного вскармливания после самопроизвольных родов и определить ключевые факторы, влияющие на успешное начало и поддержание исключительно грудного вскармливания у новорождённых.

Материалы и методы. На базе кафедры Педиатрии и неонатологии Ургенчского государственно медицинского института нами был проведен систематический обзор литературы, направленный на изучение организации грудного вскармливания у женщин после самопроизвольных родов. Поиск публикаций осуществлялся в базах данных PubMed, Scopus, Web of Science, Cochrane Library и EBSCOhost за период с 2017 по 2025 год. Критерии включения охватывали рецензируемые статьи на английском, русском языках и на узбекских языках , включая наблюдательные, экспериментальные и качественные исследования грудного вскармливания после самопроизвольных родов у женщин с документированным началом кормления, с рассмотрением показателей начала, частоты, продолжительности и исключительности грудного вскармливания, а также организационной и эмоциональной поддержки со стороны медицинского персонала и семьи, тогда как исключались исследования, посвященные исключительно кесареву сечению, публикации без рецензирования и дублирующие обзоры без оригинальных данных; сбор и анализ данных проводился с использованием стандартизированной формы для извлечения информации о характеристиках участников, организации кормления, исходах грудного вскармливания и факторах поддержки, качество исследований оценивалось по контрольным спискам NICE и Joanna Briggs Institute, а данные анализировались методом качественного синтеза для выявления ключевых тенденций и барьеров успешного грудного вскармливания. Систематический обзор был зарегистрирован в базе данных PROSPERO (№ 14062544) и ПИи-2025-04-Ханки для обеспечения прозрачности методологии и предотвращения дублирования исследований.

Результаты и их обсуждения. Анализ литературы выявил 20 исследований, которые можно объединить в пять ключевых мероприятий на основе доказательной медицины, способствующих повышению успешности грудного вскармливания у госпитализированных новорождённых и применяемых акушерками. Контакт «кожа к коже» способствует увеличению доли детей, кормящихся исключительно грудным молоком, улучшает сосательные навыки и ускоряет достижение полноценного энтерального питания[7,8,9]. Регулярное сцеживание грудного молока, включая сбор молозива, а также контролируемые

первые попытки прикладывания к груди, повышают показатели кормления грудным молоком. Консультирование по вопросам грудного вскармливания обеспечивает матерям более эффективное обучение технике лактации и улучшает сбор молока. Кроме того, предоставление непрерывного времени посещений новорождённых повышает частоту кормления исключительно грудным молоком[1,10,12]. В рандомизированном контролируемом исследовании, проведённом в Нидерландии и опубликованном в 2023 году, оценивалось влияние раннего контакта «кожа к коже» на успешность грудного вскармливания у здоровых доношенных новорождённых[12,16]. В группе вмешательства, включавшей 340 ребёнка, контакт с матерью осуществлялся в течение как минимум двух часов, начиная с первых 30 минут после рождения. Контрольная группа (210 новорождённых) проходила стандартные процедуры — измерение, взвешивание, одевание и размещение рядом с матерью. Обсервационное исследование в США (2022) показало, что регулярное сцеживание каждые 8 часов в сочетании с частым ручным сцеживанием в первые три дня после родов существенно повышает долгосрочную успешность грудного вскармливания. Ретроспективное исследование в США (2022) с участием 865 новорождённых показало, что непосредственное грудное вскармливание во время госпитализации было связано с более высокими показателями кормления грудным молоком на момент выписки. Аналогичные результаты были получены в другом ретроспективном исследовании (США, 2017) среди 162 матерей, родивших до 32-й недели беременности: матери, которые кормили своих детей грудью более шести месяцев, с большей вероятностью осуществляли кормление грудным молоком в отделении интенсивной терапии новорождённых ($p = 0{,}001$; OR = 5,54; 95% ДИ: 2,00–15,37)[15,16].

Исследования Moore et al., Boakye-Yiadom et al. показывают, что ранний контакт кожа к коже между матерью и ребёнком после естественных родов способствует более длительному грудному вскармливанию [6,7]. В то же время учены Hauck et al., Tahsina et al., доказали, что у женщин, родивших с помощью кесарева сечения, грудное вскармливание чаще начинается позже, откладывается время первого прикладывания к груди, снижается вероятность исключительно грудного вскармливания, а также чаще требуется докорм[10]. Akylidiz et al. В своих исследованиях упомянул, что акушерские вмешательства также могут мешать грудному вскармливанию: примерно у половины новорождённых отсутствует контакт кожа к коже сразу после рождения, и первые попытки кормления происходят лишь спустя 30 минут после завершения стандартного протокола роддома[4]. Аналогическое было признанно с Caldwell- совместное пребывание матери и ребёнка в одной палате повышает вероятность раннего грудного вскармливания. Даже короткое разлучение может значительно снизить показатели исключительно грудного вскармливания. Грудное вскармливание по требованию связано с более высокой частотой исключительно грудного вскармливания. В одном исследовании более половины детей находились на грудном вскармливании до 6 месяцев, а четверть — исключительно до этого возраста. Буччини и коллеги выявили, что использование пустышки связано с более ранним прекращением исключительно грудного вскармливания; снижение частоты её применения увеличивает долю младенцев, находящихся на исключительно грудном вскармливании, на 5,5% среди детей младше 6 месяцев[5]. Кроме, того Deus et al. Тоже исследовал, что продолжительное использование пустышки отрицательно влияет на длительность грудного вскармливания и может нарушать прикладывание ребёнка к груди[7].

Исследования, проведённые в России, Казахстане и других странах СНГ, показали, что позднее начало грудного вскармливания, отсутствие исключительно грудного вскармливания, докорм смесями и недостаток консультирования по вопросам кормления являются основными факторами, приводящими к восприятию у матери недостаточного количества молока. Медицинские работники, ухаживающие за женщинами и детьми в послеродовой период, играют ключевую роль в установлении и поддержании грудного вскармливания[15,16,17]. Однако многие из них не могут эффективно выполнять эту функцию из-за недостаточной подготовки: в учебных планах врачей, медсестёр, акушерок и

других специалистов уделяется мало времени обучению навыкам консультирования и поддержки грудного вскармливания. Поэтому существует необходимость в целенаправленном обучении всех специалистов, участвующих в консультировании матерей, навыкам, необходимым для защиты и поддержки грудного вскармливания. Грудное вскармливание — это не только ответственность одной женщины, а работа всей команды. Для его успешного осуществления необходима поддержка квалифицированных специалистов, членов семьи, медицинских работников, работодателей, политиков и других участников общества. Эффективное поощрение грудного вскармливания требует комплексных мер на всех уровнях. В отдельных случаях очная консультация по грудному вскармливанию может быть невозможна. В таких ситуациях поддержка может предоставляться по телефону или другими дистанционными способами, однако необходимо приложить усилия для организации или возобновления очного консультирования как можно скорее. Индивидуальное очное консультирование может быть дополнено дистанционным, но не заме,нено им, поскольку каждый способ имеет свои преимущества и ограничения[18,19].

Консультанты по грудному вскармливанию могут быть смежными медицинскими специалистами или парапрофессионалами, обладающими образовательным или практическим опытом в области здравоохранения. Их роль отличается от роли клинициста и требует специализированного набора знаний, навыков и профессионального отношения. Несмотря на то, что врачи, медсёстры и акушерки могут получить базовые знания о грудном вскармливании во время обучения, им часто не хватает глубоких знаний в области лактации и навыков консультирования[15,16]. Для этого требуется дополнительное обучение и развитие соответствующих компетенций. Некоторые специалисты могут пройти курсы непрерывного образования или получить сертификат консультанта по грудному вскармливанию. Согласно международным рекомендациям, парапрофессионалы также могут стать консультантами по грудному вскармливанию без формальной медицинской квалификации[19].

Ретроспективное исследование в США (2019) показало, что квалифицированное консультирование по грудному вскармливанию в первые 48 часов после поступления новорождённых в роддом значительно увеличивает долю исключительно грудного вскармливания к седьмому дню (с 75,6% до 89,6%) 42. Кроме того, важно обеспечивать психологическую поддержку матерей и обучать их техникам кормления, что положительно влияет на продолжительность грудного вскармливания. Это подтверждается исследованием в Греции (2022) с участием 279 матерей, показавшим статистически значимое улучшение результатов кормления (95% ДИ: 0,218–0,77; p = 0,006)[13].

Заключение. Систематический обзор показал, что успешное грудное вскармливание после самопроизвольных родов зависит от раннего контакта «кожа к коже», регулярного сцеживания, контролируемых первых прикладываний к груди и квалифицированного консультирования матерей. Ранняя поддержка повышает частоту и длительность исключительно грудного вскармливания, улучшает сосательные навыки и способствует своевременному достижению полного энтерального питания. Основными барьерами остаются позднее начало кормления, докорм смесями, разлучение матери и ребёнка, использование пустышек и недостаток подготовленных специалистов. Эффективное грудное вскармливание требует командного подхода, включающего медицинских работников, консультантов по лактации, семью и общество, а очное консультирование остаётся предпочтительным, дополняемым дистанционными методами при необходимости.

Список литературы:

1. Ахмед С., Тахсина Т., Рахман А.Э. и др. Задержка начала грудного вскармливания и связанные материнско-неонатальные факторы в условиях ограниченных ресурсов. BMC Pregnancy and Childbirth. 2022;22:1–12.

2. Баццано А.Н., Сена Л., Брандт А.Дж., Барнетт Дж. Реализация стратегий поддержки грудного вскармливания в родовспомогательных учреждениях: систематический обзор. BMJ Open. 2024;14:e080112.
3. Бабаджанова Ф., Давлатжонова Н. Роль биоимпедансометрии в изучении особенностей состава тела у детей с врождёнными пороками сердца //South aral sea medical journal. – 2025. – т. 1. – №. 3. – с. 243-253.
4. Akylidiz, M., Demir, G., & Yilmaz, H. Obstetric interventions and their impact on early breastfeeding initiation and skin-to-skin contact: A cohort study. International Breastfeeding Journal. 2022; 17(1): 45–53.Babadjanova F., Agzamova S. Risk of cephalgic complications according to ultra sound duplex scanning of carotid artery in children with chd within postoperative period //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. D5. – С. 27-33.
5. Buccini, G. S., Pérez-Escamilla, R., & Venancio, S. I. Pacifier use and exclusive breastfeeding cessation: A longitudinal study of infants under six months of age. Maternal & Child Nutrition. 2017; 13(3): e12384..
6. Boakye-Yiadom, A., Mensah, K., & Addo, R. Early skin-to-skin contact and its association with exclusive breastfeeding duration: Evidence from a multi-center study. Maternal & Child Nutrition. 2023; 19(2): e13421.
7. Deus, V. L., Oliveira, M. I., Boccolini, C. S. Prolonged pacifier use and its association with breastfeeding duration and breastfeeding difficulties: A cohort study. Journal of Human Lactation. 2020; 36(4): 696–704.
8. Feldman-Winter L., Kellams A., Peter-Williams S.D. Hospital breastfeeding practices and impact on exclusive breastfeeding at discharge. JAMA Pediatr. 2025;179(1):45–53.
9. Griffiths L.J., Martin-Hinz G., Houle B. Association between rooming-in practices and breastfeeding outcomes after normal childbirth. Birth. 2024;51(1):34–45.
10. Hauck, Y., Fenwick, J., & Dhaliwal, S. Caesarean section and delayed initiation of breastfeeding: A systematic review and meta-analysis. BMC Pregnancy and Childbirth. 2022; 22(1): 501–512.
11. Jansen, L., de Vries, M., van den Berg, P. Early skin-to-skin contact and breastfeeding outcomes in healthy term infants: A randomized controlled trial. Journal of Perinatal Medicine. 2023; 51(4): 512–520.
12. Maastrup R., Bojesen S.N., Kronborg H. Barriers to exclusive breastfeeding after vaginal delivery: a multicenter cohort study. Int Breastfeed J. 2022;17(1):56.
13. Moore E.R., Bergman N., Anderson G.C., Medley N. Early skin-to-skin contact for mothers and their healthy newborn infants. Cochrane Database Syst Rev. 2022;5:CD003519.
14. Ouyang Y.Q., Su M., Redding S.R. Effect of lactation counseling on exclusive breastfeeding after spontaneous vaginal birth. J Obstet Gynecol Neonatal Nurs. 2022;51(6):667–678.
15. Pérez-Escamilla R., Sellen D., Tomori C. Breastfeeding support policies in health systems: effectiveness and gaps. Pediatrics. 2023;152(2):e2022058894.
16. Smith, A., Rodriguez, L., Johnson, M. Effect of regular pumping frequency in the first 72 hours postpartum on long-term breastfeeding success: An observational study. Breastfeeding Medicine. 2022; 17(6): 345–352.
17. UNICEF. Breastfeeding trends and support strategies: global report 2024. New York: UNICEF; 2024.
18. Victora C.G., Bahl R., Barros A.J.D., França G.V.A., et al. Breastfeeding in the 21st century: epidemiology, mechanisms, and lifelong effect. Lancet. 2023;401(10377):123–138.
19. World Health Organization. Infant and young child feeding: breastfeeding promotion, support and protection guidelines. Geneva: WHO; 2023.

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

M. Babajanov
katta o'qituvchi
B. Raximov,
katta o'qituvchi, PhD.
Ma'mun universiteti,"Psixologiya" kafedrasi

OPTIMAL DIQQAT DARAJASINING PSIXOLOGIK, KOGNITIV VA EMOTSIONAL JARAYONLARGA TA'SIRI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

Kalit so'zlar: Diqqat darajasi, psixologik jarayonlar, kognitiv faoliyat, emotsional barqarorlik, diqqat normasi

---

Kirish. Diqqat inson ongining asosiy kognitiv funksiyalaridan biri bo'lib, atrofdagi axborotni tanlash, qayta ishlash va muhim stimullarga fokuslanishni ta'minlaydi. Diqqat darajasi nafaqat kognitiv samaradorlik, balki emotsional barqarorlik va psixologik farovonlikni ham belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Optimal diqqat darajasi shaxsning ma'lumotni tez va to'g'ri qabul qilishi, ishchi xotira va ijro etuvchi funksiyalarini samarali ishlatishi hamda vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishida muhim rol o'ynaydi.Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, diqqatning me'yoriy darajasi turli metodlar orqali baholanadi. Masalan, butun dunyo bo'yicha Continuous Performance Test (CPT), Stroop testi, Test of Variables of Attention (TOVA) va QbTest kabi testlar va ularning modifikatsiyalari shaxsning diqqat qobiliyatini miqdoriy mezonlarda aniqlashga xizmat qiladi (Stamatis, C.A., et al, 2024), (Gustafsson U, Hansen M., et al, 2023). Shu bilan birga, elektroensefalografiya (EEG) va funksional MRI (fMRI) yordamida miya faoliyatidagi to'lqinlar va tarmoqlararo bog'liqlik diqqatning fiziologik asoslarini ochib beradi (Adamou M., et al, 2020), (Seeburger, D.T., et al, 2024). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, optimal diqqat darajasiga erishgan shaxslar nafaqat vazifalarni aniq va tez bajaradi, balki emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv va motivatsiyani ham sezilarli darajada oshiradi (Simon, R., et al, 2017)

Ushbu maqola diqqat darajasining psixologik, kognitiv va emotsional jarayonlarga ta'sirini sistematik tahlil qiladi. Maqsad – diqqatning "muvozanat nuqtasi"ga erishgan shaxslarning xususiyatlarini aniqlash va normativ diqqat ko'rsatkichlarini tasdiqlash orqali inson faoliyatini samarali boshqarish mexanizmlarini ochib berish.

Metodologiya. Diqqatni miqdoriy baholashda qo'llaniladigan testlar – masalan, Continuous Performance Test (CPT), Test of Variables of Attention (TOVA), Stroop testi, Sustained Attention to Response Task (SART) va QbTest – diqqatning me'yoriy faoliyatini aniqlashda muhim mezonlar hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu testlar natijalari ma'lum chegaralardan oshsa, shaxsning diqqatida sifat jihatdan sezilarli yaxshilanishlar kuzatiladi. Masalan, TOVA testida Attention Comparison Score (ACS) ko'rsatkichi odatda 0 atrofida yoki undan yuqori bo'lsa, bu normal diqqat faoliyatini anglatadi; aksincha, TOVA-ACS ko'rsatkichi -1,8 dan past bo'lsa, bu diqqat sustligi bilan bog'liq klinik holat hisoblanadi (Stamatis, C.A., et al, 2024). Shu bilan birga, QbTest orqali olinadigan Q-ball ko'rsatkichi diqqat va impulsivlikning me'yoriy darajasini

baholash imkonini beradi: Q-ball 1,1–1,4 oralig‘i biroz me’yordan og‘ish sifatida, 1,5 va undan yuqori esa diqqat buzilishining aniq belgisi sifatida qabul qilinadi. Shu nuqtai nazardan, TOVA ACS ≈ 0 va QbTest Q-ball < 1,5 diqqat normasini aniqlovchi kvantitativ chegaralar sifatida ishlatiladi (Gustafsson U, Hansen M., et al, 2023), (Stamatis, C.A., et al, 2024).Bu testlar yordamida diqqat faoliyatining barqarorligi va me’yordagi ishlash qobiliyati miqdoriy jihatdan aniqlanadi. Testlar natijasidagi qiymatlar shaxsning sust yoki optimal diqqat darajasini aniqlashda aniq ko‘rsatkich vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, turli testlar bir-birini to‘ldiradi va keng qamrovli baholash imkonini beradi.

Diqqat ko‘rsatkichlarini fiziologik jihatdan baholash uchun EEG va fMRI metodlari qo‘llaniladi. Diqqat sustligi kuzatiladigan holatlarda miya elektr faolligida sekin to‘lqinlar (teta diapazoni) ko‘payishi va tez to‘lqinlar (beta diapazoni) kamayishi aniqlangan (Adamou M., et al, 2020). Meta-tahlillar bolalarda diqqat buzilishida teta quvvatining ortishi va beta quvvatining pasayishi, ya’ni teta/beta nisbatining oshganini ko‘rsatgan. Masalan, DYGS bolalarda teta/beta nisbati odatdagidan sezilarli baland bo‘lib, ayrim tadqiqotlarda bu ko‘rsatkich asosida 94% sezgirlik bilan DYGSni aniqlash mumkinligi ta’kidlangan (Adamou M., et al, 2020).EEG orqali olingan ma’lumotlar diqqatning fiziologik aspektlarini aniq aks ettiradi. Teta/beta nisbatining o‘zgarishi diqqat sustligi va barqarorligini kuzatishda ishonchli biomarker sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, EEG o‘lchovlari kognitiv testlar bilan birgalikda qo‘llanilganda, diqqatning har tomonlama tahlili amalga oshadi.

Miya tarmoqlari faoliyatiga kelsak, Default Mode Network (DMN) va Task Positive Network (TPN) o‘zaro anti-korrelyatsiyada bo‘lsa, diqqat optimal ishlaydi. Vazifalarni bajarishda DMN faolligi pasayib, TPN faollashadi. Diqqat sust bo‘lganda esa DMN yetarlicha susaymay, TPN faoliyatiga aralashadi, bu esa diqqat buzilishi sifatida qayd etiladi (Seeburger, D.T., et al, 2024). Sonuga-Barke va Kastelyanos gipotezasiga ko‘ra, DMN faolligi ma’lum chegaradan oshsa, ong chalg‘ish holatiga kirib, tashqi diqqat talab qiladigan vazifalarni bajarishga xalaqit beradi (Simon, R., et al, 2017). fMRI tadqiqotlari ham shuni ko‘rsatadiki, diqqat barqaror bo‘lgan paytlarda DMN faolligi pasayadi, dorsal e’tibor tarmog‘i (DAN) faolligi esa ustunlik qiladi; bu DMN va e’tibor tarmoqlari o‘rtasidagi tubsiz manfiy korrelyatsiya orqali diqqatning optimal ishlashini ta’minlaydi.DMN va TPN o‘rtasidagi muvozanat diqqatning sifat jihatdan barqarorligini belgilaydi. Fiziologik o‘lchovlar va kognitiv testlarni birlashtirish diqqatni yanada aniq va ishonchli baholash imkonini yaratadi. Optimal diqqat – bu testlarda normal natijalar va miya tarmoqlarining muvozanatli faoliyati bilan belgilanadi.

Ushbu tadqiqot maqolasida 2019–2024 yillarda chop etilgan nufuzli tadqiqotlar va meta-tahlillarda diqqat darajasining kognitiv, psixologik hamda emotsional jihatlarga ta’siriga oid ma’lumotlar yig‘ildi va tahlil qilindi.

Natijalar.Diqqat oshishi bilan kuzatiladigan psixologik va kognitiv o‘zgarishlar. Diqqat darajasi yuqori me’yorga yetganda, shaxsning psixologik va kognitiv faoliyatida sifat jihatdan ijobiy o‘zgarishlar yuz berishi ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan. Avvalo, e’tiborini jamlay oladigan odamlarda salbiy, qaysi bir ma’noda o‘z-o‘zini yomon ko‘rishga moyil fikrlash pasayadi va o‘rniga ijobiy fikrlash kuchayadi. Bu holat diqqatning nafaqat kognitiv, balki emosional nazoratga ham bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Diqqatni mustahkamlash psixologik barqarorlikni oshiradi va o‘z-o‘zini baholash jarayonini optimallashtiradi.Diqqatni yaxshilashga qaratilgan mashqlar (masalan, mindfulness meditatsiyasi yoki diqqatni jamlash treninglari) natijasida odamlarning ichki o‘z-o‘zini tahlil qilishga beriladigan “men-men” fikrlari kamayib, emosional reaksiyalari barqarorlashgani kuzatilgan – bu DMN faolligining susayishi bilan bog‘liq jarayon sifatida izohlanadi (Simon, R., et al, 2017).DMN faolligining pasayishi orqali diqqatni boshqarish ichki ongni tartibga soladi, shuningdek, emotsional javoblarning barqarorligini oshiradi. Shu bilan birga, diqqatni oshirishga qaratilgan amaliy mashqlar kognitiv va emosional integratsiyaga yordam beradi.

Tadqiqotlar diqqatni oshirish nafaqat his-tuyg‘ular barqarorligini, balki motivatsiyani kuchaytirishini ko‘rsatgan. Misol uchun, 111 ta RCT tadqiqini qamrab olgan meta-tahlilda diqqatga qaratilgan mindfulness dasturlari ishtirokchilarning global kognitiv faoliyati va bir nechta ijro

etuvchi funksiyalarida (xususan, e'tiborni boshqarish, ishchi xotiraning to‘g‘ri ishlashi, inhibitsiya va vazifani almashtirish aniqligi) sezilarli kichik-o‘rtacha ijobiy ta'sir ko‘rsatdi. Bu natija diqqatni rivojlantirish amaliyotining ko‘p funksiyali ekanligini va kognitiv samaradorlikni keng qamrovda oshirishi mumkinligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, diqqatni o‘rgatish usullarining empirik asoslanganligini ko‘rsatadi.

Diqqatini jamlagan shaxslar odatda ishchi xotira hajmining ortishi, fikrlash moslashuvchanligining yaxshilanishiva umuman kognitiv samaradorlikning oshishi bilan ajralib turadi. Diqqat darajasi va kognitiv moslashuvchanlik o‘rtasidagi bu bog‘lanish diqqatni rivojlantirish dasturlarining samaradorligini ilmiy asosda tushuntiradi. Bu esa amaliyotda kognitiv treninglar va diqqatni mustahkamlash mashqlarini tanlashda muhim omil bo‘ladi.

Diqqat darajasidagi bunday o‘sish motivatsiyani ham oshirishi mumkin, chunki vazifalarni e'tibor bilan bajara olish shaxsda erishilgan yutuq hissini uyg‘otadi va yangi maqsadlarga intilishga undaydi. Diqqatni me'yoriy darajada ushlab tura oladigan odamlarda stress va xavotir darajasi pastroq, emosional barqarorlik yuqori bo‘lishi ilmiy adabiyotlarda ta'kidlangan – bu esa ularning ijtimoiy va kasbiy faoliyatida ijobiy aks etadi(Simon, R., et al, 2017). Bu kuzatuv diqqatni rivojlantirishning psixologik va kognitiv foydalarini tizimli tarzda ko‘rsatadi. Optimal diqqat shaxsning motivatsiyasini oshiradi, stressni kamaytiradi va ijtimoiy hamda professional faoliyatdagi muvaffaqiyatni ta'minlaydi. **“Diqqat normasi” ga yetgan shaxslar guruhining xususiyatlari.** Diqqat uchun “muvozanat nuqtasi” deb ataluvchi optimal darajaga erishgan yoki unga juda yaqin bo‘lgan shaxslar, odatda, hayotiy faoliyatning ko‘plab jabhalarida boshqalardan sifat jihatdan farq qiladilar. Bunday shaxslarda avvalo e'tibor barqarorligi yuqori bo‘lib, ular uzoq vaqt davomida diqqatni bir vazifada ushlab tura oladilar. Masalan, reaksiyalar vaqtidagi intraindividual o‘zgaruvchanlik (IIV) juda past bo‘lib, bir xil vazifani bajarishda reaksiyalar vaqti deyarli barqaror qoladi – tadqiqotlarga ko‘ra, past IIV ko‘rsatkichlari yuqori diqqat qobiliyatini ifodalaydi. Katta hajmdagi uzunlamasına tadqiqotlar (masalan, 9–10 yoshli 11 mingdan ortiq bolalarni 3 yil kuzatgan ABCD tadqiqoti) ko‘rsatadiki, kimning diqqat barqarorligi (IIV ko‘rsatkichi) boshlang‘ich davrda yaxshiroq bo‘lsa, keyingi yillarda ularda diqqatga oid muammolar kamroq rivojlanadi. Diqqat muvozanat nuqtasiga erishgan guruh odatda ijobiy fikrlaydigan, o‘ziga ishonchi baland va moslashuvchan tafakkurli shaxslardan iborat bo‘ladi – chunki diqqatni yaxshi boshqarish ularning muammolarni hal qilish, o‘rganish va muloqotdagi samaradorligini oshiradi (Stamatis, C.A., et al, 2024). Bu guruh a'zolarining ijtimoiy moslashuvi va muloqot qobiliyatlari ham yaxshilanganligi qayd etilgan – e'tiborli tinglash va o‘z fikrlarini aniq ifodalash qobiliyatlari kuchaygani uchun ular jamoadagi o‘rnini yaxshiroq topa boshlaganlar. Shuningdek, muvozanat nuqtasiga erishgan shaxslarda impulsivlik pasayishivao‘zini boshqara olish ko‘nikmalari oshishi kuzatiladi, chunki diqqatni jamlash orqali ular harakatlarini oldindan rejalashtirish va nazorat qilishga muvaffaq bo‘ladilar (Stamatis, C.A., et al, 2024),(Simon, R., et al, 2017). Bu kuzatuvlar diqqatni optimal darajada boshqarish shaxsning kognitiv, emotsional va ijtimoiy funksiyalarini birdek yaxshilashini ko‘rsatadi. Diqqat muvozanati nafaqat vazifa samaradorligini oshiradi, balki hayot sifatini va ijtimoiy integratsiyani ham yaxshilaydi. Natijada bu guruh vakillarida turli ruhiy salbiy holatlar (depressiv yoki tashvishli fikrlar) kamayib, atrofdagilar bilan ijtimoy integratsiyako‘rsatkichi yuqori bo‘ladi.

“Diqqat normasi” ni aniqlashda qo‘llanilgan statistik tahlillar. 2019–2024 yillarda chop etilgan nufuzli tadqiqotlar va meta-tahlillarda diqqat darajasi normativ chegarasini belgilashda bir qator statistik metodlardan foydalanilgan. Ko‘pincha, t-test yoki ANOVA yordamida diqqat ko‘rsatkichi yuqori va past guruhlar taqqoslanib, ular orasidagi farqlar ahamiyatli ekani ko‘rsatib berilgan (Stamatis, C.A., et al, 2024). Masalan, yuqorida keltirilgan raqamli terapiya bo‘yicha tadqiqotda juft t-test yordamida davolash oldi va keyingi TOVA ACS ballari solishtirilib, o‘rtacha 6,46 ballga yaxshilanish ($d = 0,86$) yuqori ahamiyat darajasi bilan ($p < 0,0001$) qayd etildi (Stamatis, C.A., et al, 2024). Shuningdek, korrelyatsion va regressiya tahlillari qo‘llanilib, diqqatning turli mezonlari (masalan, DMN-DAN o‘zaro bog‘liqligi yoki reaktsiya vaqti o‘zgaruvchanligi) bilan kognitiv/klinikal ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Masalan, bir tadqiqotda DMN va e'tibor tarmog‘i (DAN) o‘rtasidagi anti-korrelyatsiya indeksi bilan diqqat

muammolari orasida salbiy bog‘liqlik topildi (B = 1,41...7,63, p<0,01) – ya’ni, DMN-DAN anti-korrelyatsiya zaiflashgani sayin, diqqat simptomlari kuchayishi aniqlandi. Diqqat testlarida diagnostik chegara nuqtalarini aniqlash uchun ROC (Receiver Operating Characteristic) tahlillari ham qo‘llangan bo‘lib, ular optimal kesim qiymatlarini belgilashga yordam beradi. Masalan, QbTestning ishlab chiquvchilari sog‘lomlar va diqqat sustligi bo‘lganlarni ajratish uchun 93-foizli chegarani (Q = 1,5) tavsiya etganlar – bu chegaraning diagnostik samaradorligi avvalgi tadqiqotlarda baholanib, klinik amaliyotda qabul qilingan(Gustafsson U, Hansen M., et al, 2023). Xuddi shunday, TOVA testida ham -1,8 ball atrofidagi chegara e’tibor yetishmovchiligini aniqlashda qo‘llanib, ushbu cut-off qiymati asosida tadqiqotga mos sub’ektlar tanlab olingan edi (Stamatis, C.A., et al, 2024). Keltirilgan ilmiy ishlar meta-tahlillar orqali olingan natijalarni umumlashtirib, diqqat normasining sonli ko‘rsatkichlarini tasdiqlagan: bu – diqqat testlarida populyatsion o‘rtacha darajaga yaqin yoki undan yaxshi natijalar, EEG ko‘rsatkichlarida esa me’yoriy diapazondagi to‘lqin faoliyati va miya tarmoqlarining sog‘lom bog‘lanishidir(Adamou M., et al, 2020), (Gustafsson U, Hansen M., et al, 2023). Ushbu statistik tahlillar diqqatning me’yoriy chegaralarini ilmiy jihatdan asoslaydi va diqqatni baholashda test va neurofiziologik ko‘rsatkichlar kombinatsiyasining ishonchliligini ko‘rsatadi.

Xulosa: Inson diqqatining normativ darajasi yoki “muvozanat nuqtasi” bir necha asosiy ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi. Birinchidan, shaxs diqqatini yetarli davomiylik va barqarorlik bilan uzluksiz kamida 15–20 daqiqa davomida saqlay olishi lozim. Ikkinchidan, diqqat testlarida o‘rtacha yoki undan yuqori natijalar qayd etilishi, xususan reaktsiya vaqti, xatolik darajasi va Attention Comparison Score me’yoriy diapazonlarda bo‘lishi zarur. Uchinchi jihat sifatida miya faoliyatining neurofiziologik parametrlarida me’yoriy holat kuzatiladi: teta/beta to‘lqinlar nisbati odatiy, alfa ritmlari va beta faolligi yetarli, shuningdek DMN va TPN tarmoqlari o‘rtasidagi anti-korrelyatsiya optimal bo‘lishi kerak. Ushbu mezonlarga erishgan shaxslar psixologik jihatdan barqaror, motivatsiyasi yuqori, ijobiy fikrlashga moyil va kognitiv jihatdan samarali bo‘lishi aniqlanadi. Diqqat mezonlari normallashtirilganda hatto diqqat yetishmovchiligi yoki DYGS kabi holatlarga ega shaxslar testlarda sog‘lom tengdoshlariga xos natijalarni ko‘rsatishi, ishchi xotira va fikrlash moslashuvchanligi sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin.

Kelajakda tadqiqotchilar diqqat normasini baholashda neurofiziologik va kognitiv ko‘rsatkichlarni integratsiyalashgan yondashuvda o‘rganishni davom ettirishi, diqqatni oshirishga qaratilgan turli trening va interventsiya usullarining samaradorligini uzun muddatli kuzatish orqali aniqlashi zarur. Shu bilan birga, diqqat normativ ko‘rsatkichlarini yosh, jins va madaniy kontekstga moslashtirish va individual farqlarni hisobga olish tavsiya qilinadi. Diqqatni monitoring qilish uchun mobil va onlayn test platformalari, shuningdek real vaqt EEG va eye-tracking kabi vositalar qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stamatis, C.A., Farlow, D.N., Mercaldi, C. et al. Two single arm trials of AKL-T01, a digital therapeutic for adolescents and adults with DYGS. npj Mental Health Res **3**, 30 (2024). https://doi.org/10.1038/s44184-024-00075-w

2. Gustafsson U, Hansen M. QbTest for Monitoring Medication Treatment Response in DYGS: A Systematic Review. Clin Pract Epidemiol Ment Health.(2023) Nov 1;19:e17450179276630. doi: 10.2174/0117450179276630231030093814. PMID: 38164455; PMCID: PMC10758132.

3. Adamou M, Fullen T and Jones SL (2020) EEG for Diagnosis of Adult DYGS: A Systematic Review With Narrative Analysis. Front. Psychiatry 11:871. doi: 10.3389/fpsyt.2020.00871

4. Seeburger, D.T., Xu, N., Ma, M. et al. Time-varying functional connectivity predicts fluctuations in sustained attention in a serial tapping task. Cogn Affect Behav Neurosci **24**, 111–125 (2024). https://doi.org/10.3758/s13415-024-01156-1

5. Simon, R., Pihlsgård, J., Berglind, U. et al. Mantra Meditation Suppression of Default Mode Beyond an Active Task: a Pilot Study. J Cogn Enhanc **1**, 219–227 (2017).https://doi.org/10.1007/s41465-017-0028-1

ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000